

Hafiz Pashayev

# **Bir elchining manifesti**

AQShda Ozarbayjon diplomatik missiyasining  
boshlanishi haqida

Hafiz Pashayev – 1992–2006-yillarda Ozarbayjon  
Respublikasining AQShdagi Favqulodda va Muxtor  
Elchisi

O'OK: 96:32(575.2+480.2)

66.6(O')

P 25

Hafiz, PASHAYEV.

Bir elchining manifesti/ H.Pashayev.-Toshkent:  
"Istiqlol nuri", 2018. - 248 b.

ISBN 978-9943-5049-2-9

© Hafiz Pashayev. 2018

© "Istiqlol nuri" nashriyoti

## Mundarija

1. Kirish .....	5
2. Boku xazrini kutmoqda .....	7
3. "Uch G" mamlakati .....	10
4. Siyosiy avral va kadrlar masalasi .....	14
5. Zarekeyvan sindromi .....	19
6. Byurokratiya bilan birinchi tanishuv .....	24
7. Diplomatiya fizikasi .....	29
8. "Aeroflot"dagi oxirgi reysim .....	34
9. Buyuk hokimiyat egasi bilan uchrashuv .....	39
10. Kongress bilan birinchi uchrashuv .....	42
11. 1615 L Street va yangi hayot tarzi .....	44
12. Ozarbayjon qayerda joylashgan? .....	45
13. Diplomatiya: partiyaviy daxldorlik yoki milliy manfaatlar .....	49
14. O'zni tuta bilish siyosiy vosita sifatida .....	55
15. "Burkina-Fasoni yig'ishtiring..." .....	59
16. Siyosatni shaxslar shakllantiradi .....	64
17. "Asr shartnomasi" imzolandi .....	67
18. Ozarbayjon "papkasi" Klintonning stoli ustida .....	70
19. "Men muallim emasman, men – Prezident" .....	73
20. "Azerbayjan Interneyshnl" omili .....	81
21. Onadir har kishiga o'z Vatani .....	88
22. AQSh Kongressi va 907-tuzatish .....	98
23. Hisob – demokratiya illatlari foydasiga 2:1 .....	113
24. 11-sentabr – yangi qarash, yangi dunyo .....	118
25. Lobbidagi sarguzashtlar .....	120
26. Lobbi strategiyasi va mexanizmi .....	124
27. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi .....	128
28. Million dollarlik reklama? .....	142
29. Uzoqni ko'ra bilishmi, raqib maydonida tennis o'ynash xohishimi? .....	145
30. AQShga rasmiy tashrif .....	149
31. Realiyalar va ustuvor vazifalar .....	158
32. So'ngi so'z va xayrlashuv nutqi .....	166
33. Ilova. Maqolalar va chiqishlar .....	167

## *Mirjalol, Pista xonim va Oqilga bag'ishlanadi*

### KIRISH

Mashhur yozuvchilardan biri o'tkir ehtiyojsiz yozishning imkoni yo'q degan edi. Men ham o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lganing mavzu muhim ekanligiga ishonch bo'lmagan yerda qo'lga qalam olish kerak emas deb hisoblayman.

Ozarbayjon Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida munosabatlar yuzaga kelishi tarixi, o'n besh yil ichida bu munosabatlarning rivojlanish bosqichlari keng kitobxon ommasining qiziqishini uyg'otishiga shubham yo'q. Men mamlakatimizning Amerikadagi birinchi elchisi sifatida bu mavzuni yoritishdagi mas'uliyatimni har doim his etganman. Davriy matbuotda vaqti-vaqti bilan maqola va intervyularim chiqib turar edi. Ammo AQShdagi faoliyatim tugaganidan keyingina xotiramda o'rnashib qolgan uchrashuvlar va muhim voqealar haqidagi fikr va mulohazalarimni to'laqonli taqdim etish to'g'riroq bo'ladi deb o'ylardim. Mana, nihoyat, ish tugadi, o'quvchilar diqqatiga buning tafsilotlari bayon etilgan kitobni taqdim etmoqdaman.

Tabiiyki, barcha xotiralarni bitta kitobga sig'dirib bo'lmaydi, oldinga bunday maqsad qo'yganim ham yo'q. Vazifam turli yillarda ro'y bergan ayrim voqealarni



yoritish va bu voqealar daxldor bo'lgan zamon haqida tasavvur hosil qilish edi. Kitobga turli yillarda yozilgan ayrim maqolalarni kiritish ham o'rinli deb hisobladim. Umid qilamanki, kitob AQSH va Ozarbayjon munosabatlari borasidagi bo'lajak tadqiqotlarga ma'lum darajada yordam beradi. Bu jihatdan 2006-yili Nyu-Yorkda chop etilgan boshqa kitobimga e'tibor qaratmoqchi edim.

Qo'lingizda turgan kitobning nomi mashhur "Yosh yigitning manifesti" romani bilan bog'liq. Gap shundaki, hayotga bo'lgan qarashlarim shakllanishida otam ulkan rol o'ynagan<sup>1</sup>. Garchi bu o'zini oqlamaydigan taqlidga o'xshab ko'rinsa-da, men otamning hayotimdagi o'rnini e'tirof etishni o'zimga ep bildim. Qolaversa, har birimiz yashagan hayotning o'ziyoq bir manifest emasmi?

Ushbu kitobni tayyorlashda men bilan elchixonada uzoq yillar ishlagan G'olib Mamed va Toir Tagizodalar alohida o'rin tutganini qayd qilib o'tmoqchiman. Ularning qo'llab-quvvatlashi menga dalda bo'ldi va juda muhim ahamiyat kasb etdi. Kitob qo'lyozmasini o'qib chiqqan jiyanim Nargiz Pashayevaning fikr va izohlari matnni takomillashtirish va maromiga yetkazishda muhim bo'ldi.

---

1. Kitob muallifi – Hafiz Mirjalol o'g'li Pashayev – mashhur ozarbayjon yozuvchisi, taniqli olim va pedagog, "Yosh yigitning manifesti" kitobi muallifi Mirjalol Pashayev.

## O'ZBEK KITOBXONIGA MUROJAAT

O'z mehnati mahsulini chet ellik o'quvchilarga taqdim etish, ayniqsa u o'quvchilar birodar mamlakat fuqarolari bo'lsa, har qanday muallifga ulkan qoniqish hissini bag'ishlaydi.

Ozarbayjon va o'zbek xalqlarining tarixi ko'p umumiylikka ega. Xalqlarimizning umumiy ajdodlari insoniyatga jahon sivilizatsiyasi xazinasini boyitgan buyuk olimlarni, shoirlarni, sarkardalarni bergan. O'zbek shoirlari qadimdan Fuzuliyga naziralar bog'lagan, ayni damda ozarbayjonlar Alisher Navoiy adabiy merosini ulug' hayajon ila ardoqlab kelgan. Ozarbayjonlar Amir Temur va Mirzo Ulug'bek haqida faxr-iftixor bilan so'z yuritadi, shu bilan birga, o'zbeklar Shoh Ismoil Xatoyini hamda ozarbayjon tarixining boshqa yetuk namoyandalarini hurmat bilan esga oladi. O'zbek yozuvchisi va zabardast davlat arbobi Sharof Rashidovning "Ikki qalb dostoni" asari asosida ozarbayjon bastakori Orif Malikov tomonidan yozilgan balet mumtoz musiqamizning mashhur namunasi hisoblanadi. Iliq munosabatlar, o'zaro hurmat va qayg'udoshlik xalqlarimizga xosdir.

Buning tasdig'ini yaqin tariximizda ko'rish mumkin — o'shanda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatlarimiz siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ham o'zaro, ham dunyoning boshqa davlatlari bilan yaqin birdamlik va fikrdoshlikda faoliyat olib

borishgan edi. O'zbekistonning AQShdagi elchilari Sodiq Safoyev va Abdulaziz Komilov bilan diplomatik hamkorligim tajribasini har doim o'zgacha iliqlik bilan esga olaman.

Shularni inobatga olgan holda, taqdim etilayotgan kitob o'zbek o'quvchisida albatta qiziqish uyg'otadi deb o'ylayman. Zero u mustaqillik mustahkamlanishining eng qiyin yillarida ozarbayjon diplomatiyasining AQSh poytaxtidagi ilk qadamlari haqida hikoya qiladi. Bu yo'lni bosib o'tish o'zbek diplomatiyasi uchun ham oson kechmagan desam, xato qilmagan bo'laman.

Men AQShdagi ish tajribam haqida oddiy tilda gapirib berishga harakat qildim, bayonga qiziqarli voqealar, diqqatga sazovor faktlar va suhbatlarni qo'shdim va, albatta, kitobxonda qadimiy Ozarbayjon zamini, mehmondo'st odamlarimiz, urf-odatlarimiz va madaniyatimiz haqida tasavvur shakllanishi uchun o'z mamlakatimga tavsif berishga urindim.

Nihoyat, qadrli o'zbek kitobxonlari janob H.Qosimzoda va Z. Hojiyevga kitobni tarjima qilish tashabbusi uchun hamda ushbu kitobni, ishonchim komil, professional va munosib darajada o'zbek tiliga tarjima qilgan janob E. Asanovga chuqur minnatdorligimga qo'shiladi deb umid qilaman.

*Hafiz Pashayev*

## BOKU XAZRINI<sup>2</sup> KUTMOQDA

1992-yil yozi. Shimoli-sharqdan salqin olib keladigan shamol – xazri esishidan umidvor bo‘lib yashaydigan Bokuning notinch kunlaridan biri. Uzoq yillar orzu qilingan mustaqillik og‘ir qurbonlar evaziga qo‘lga kiritildi. Tog‘li Qorabog‘ urushi, aytish mumkinki, eng dahshatli pallasiga kirdi. Ozarbayjon Shushani yo‘qotib bo‘lgan edi<sup>3</sup>. Har kuni minglab beayb insonlar uylarini tashlab chiqib ketishga, o‘z yurtlarida qochoqqa aylanishga majbur bo‘layotgan edi. Asrlar muqaddam ozarbayjon lug‘atidan chiqib ketib, unutilgan “qochqin” so‘zi yana mudhish mazmun kasb eta boshladi. Urush avj olib borayotgandi. Tashqi tajovuz yetmaganday, Ozarbayjon ichida hokimiyat uchun kurash borar, u mamlakatga bo‘linib ketish va fuqarolik urushi tahdidini solayotgan edi.

Kavkazda yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan chiqish yo‘llarini qidirayotgan AQSH davlat kotibi Lorens Iglberger oradan sakkiz yil o‘tib, uning vositachilik missiyasi qay darajada o‘zgarib ketishini hali bilmas edi. Jahonning ushbu strategik ahamiyatga molik mintaqasi tarixning yangi sahifalari yozilayotgan, millionlab odamlarning hayoti tubdan va ortga qaytish imkonisiz o‘zgarayotgan edi. Hech kim bilmaydigan Ozarbayjon qon berib olingan mustaqillikni reallikka aylantira olishi, bu kichkina davlat mintaqaning strategik nuqtai nazardan maftunkor hududiga aylanishi kimning xayoliga kelibdi deysiz? Ayni

---

2. Xazri. Kaspiy dengizdan esadigan shamol nomi

3. Shusha – Tog‘li Qorabog‘ning ozarbayjonlar istiqomat qiladigan eng yirik aholi yashash punkti arman qurolli guruhlar tomonidan 1992-yil mayida zabt etilgan edi. Shusha Ozarbayjon tarixiy-madaniy merosida muhim o‘rin tutadi. Sovet davrida Xonkendi nomli ozarbayjon qishlog‘i o‘rnida qurilgan, asosan armanilar yashaydigan viloyat markazi – Stepanakertdan farqli o‘laroq, Qorabog‘ xonligi poytaxti bo‘lmish Shusha XVIII asrdan tog‘li va tekislikdagi Qorabog‘ning siyosiy, iqtisodiy, asosiy – madaniy markazi, butun Ozarbayjonning musiqiy poytaxti bo‘lib kelgan.

damda esa kelajak juda qorong‘u ko‘rinar, siyosiy ob-havoda tanglik his etilardi.

...Mana shunday issiq kunlardan birida xazri esa boshladi va ko‘krakni to‘ldirib nafas olish imkoni tug‘ildi. Kimdir eshik va derazalarni lang ochib qo‘yar, kimdir xiyobonga oshiqar edi. Quyosh botdi, shabboda esa boshladi. Ko‘chalarda uchrashib qolgan tanishlar, do‘stlar va qarindoshlar bir-biridan hol-ahvol so‘rar, kunlik tashvish va muammolari bilan o‘rtoqlashar edi.

Ishni tugatib, Fanlar akademiyasi binosidan chiqayotgan edim. Hovlida Tofiq Qosimovni uchratdim – Xalq jabhasi hokimiyatga kelganidan so‘ng u Ozarbayjon tashqi ishlar vaziri etib tayinlangan edi. Odatiy salom-alikdan so‘ng u menga bir taklif aytdi. Mamlakatimiz rahbariyati Birlashgan Millatlar Tashkilotida Doimiy vakolatxona ochish niyatida edi. Tofiq missiyaga men boshchilik qilishimni istashini aytdi. Bu taklif meni hayron qoldirdi deb ayta olmayman. Akademiya prezidenti Hasan Abdullayevning yaqinda aytgan so‘zlariga yodimga tushdi: “Hafiz, Tofiqqa aytish kerak, seni Amerikaga elchi qilib yuborishsin. Sen Amerikada ko‘p yashagansan, bu mamlakatning o‘ziga xosliklarini bilasan. Yangi diplomatiya sen kabi odamlarga muhtoj”. U bu haqda Tofiq bilan gaplashganmidi, yo‘qmi, bilmadim. Hatto Hasan muallimning aralashuvi teskari natijaga olib kelishi mumkin deb o‘ylardim, negaki har qanday prinsipial masala bo‘yicha bu ikkovlonning fikri ters kelardi. Biz uzoq vaqt Akademiyada birga ishlagan edik va bir-birimizni yaxshi bilardik.

Tofiq Qosimov biroz g‘alati inson edi – u bo‘sh kelmaydigan va o‘jar bo‘lib, aytganidan qaytmasdi. U kommunistlarni xush ko‘rmasdi, akasi kommunist bo‘lsa, unga ham ishonmasdi. Uning asosiy baxtsizligi ham shunda edi. Tofiq Qosimov ma‘lum muddat tashqi siyosiy idoraga rahbarlik qilgan edi. Mansabdan ke-

tayotganida vazirlikning yuzdan ortiq xodimi unga ishonchsizlik bildirgan edi. Bu holat, albatta, achinarli. Bir tomondan, Tofiq Qosimov Ozarbayjon milliy harakatining yetakchilaridan biri, mamlakat mustaqilligining otashin kurashchisi edi. Shu bilan bir paytda u boshqalar bilan birga ishlolmas, boshqa nuqtai nazarda bo'lgan barchaga ishonchsizlik bilan qarar, ularni kommunist hisoblar va shu tufayli ishlarni shaxsan o'zi hal qilishni ma'qul ko'rardi. Sovet hukumati strukturalarida ishlamagan, kommunistik mafkura ta'siriga tushmagan kadrlarni qidirar edi. Lekin bundaylarni topish oson emasdi. Hukumat iyerarxiyasida Kommunistik partiyaga a'zolik va millatchilik bir-biriga teskari tushunchalar o'laroq qabul qilinardi. Bu jihatdan Tofiq Qosimov yangi hokimiyatning radikal kayfiyatdagi vakillaridan biri edi.

Shuning uchundir, Tofiqning kutilmagan taklifi meni hayratlantirmadi. Tabiiyki, men g'urur tuyardim, bundan mamnun edim. Ozarbayjon yaqindagina BMT a'zosiga aylandi. Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa mamlakatlarda diplomatik vakolatxonalar ochi boshladi. Ozarbayjon diplomatiyasining oyoqqa turish pallasi edi. O'z-o'zidan, yangi mustaqil davlatning birinchi diplomatlaridan biri bo'lish katta sharaf. Tofiq bilan qisqa suhbatimizni yakunlab, unga minnatdorlik bildirdim va uyga ravona bo'ldim. Ammo voqealar o'zgacha tus oldi. O'shanda voqealarning bu rivoji hayratlanarli ko'ringan edi, hozir esa o'girilib ortga qarasam, bari tabiiydek tuyuladi. Axir millionlab odamlarning hayoti kunda emas, soatda o'zgarib borayotgandi. Men o'shalardan biri edim.

## “UCH G” MAMLAKATI

Rus tilida bo'lganidek, ingliz tilida ham geografiya, geologiya va geosiyosat so'zlari (geographic, geology, geopolitics) bitta harfdan boshlanadi. Ingliz tilida bu “G” harfidir. Ozarbayjon ham bejizga “uch G” mamlakati deb atalmaydi, axir bu tushunchalar – mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy imkoniyatlarini belgilab beruvchi hamda siyosiy yo'nalishni tanlashda muhim o'rin tutuvchi omillar.

Geografik nuqtai nazardan Ozarbayjon Respublikasi juda yaxshi strategik vaziyatda. Eron va Rossiya o'rtasida sendvich qiymasi misol joylashgan Ozarbayjon Kaspiy mintaqasida muhim o'rin tutadi, Kavkazni Markaziy Osiyo bilan, Yevropani Osiyo bilan, Rossiyani Yaqin Sharq bilan bog'laydigan halqa vazifasini o'taydi.

Geosiyosiy omil Ozarbayjonning xalqaro miqyosdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi. Bundan tashqari, Ozarbayjon tabiiy resurslarga boy, aniqroq aytganda, u neft va gaz mamlakatidir. Bugun Kaspiy dengizi havzasi Yaqin Sharqqa muqobil bo'la oladigan energoresurslar manbai sifatida ko'rilmogda.

Mintaqaning geosiyosiy surati girdoblarga to'la dengizni eslatadi, uni hosil qiluvchi omillar esa geografiya va geologiyadir. Tarixan Kavkaz bir-biriga zid keluvchi strategik manfaatlar kesishadigan nuqta bo'lib kelgan.

Eron va Rossiya o'rtasida joylashgani bois Ozarbayjon birining islom mafkurasi va ikkinchisining imperial da'volari o'rtasida “xavfsizlik yostiqchasi” vazifasini bajaradi. Turkiyaga etnik qardoshlik va madaniy meros iplari bilan bog'langan Ozarbayjon NATO a'zosi bo'lmish bu birodar qo'shni mamlakatni o'zining muhim strategik ittifoqchisi sanaydi. Ipak yo'li ustida joylashgan Ozarbayjonni tom ma'noda Yevrosiyo darvozasi deb atash mumkin. U Yevropa davlatlariga Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyo yo'lini ochib beribgina qolmaydi. Respublikamiz Pokiston va Afg'oniston

singari notinch o'lkalardagi siyosiy bo'hronlarni kuzatish va nazorat qilish imkonini beradigan o'ziga xos maydoncha hamdir. Kaspiy neft va gaz konlari ekspluatatsiyasi, bu tabiiy boyliklarning jahon bozoriga xavfsiz yetkazilishi AQSH va Yevroittifoq iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

“Uch G” Ozarbayjonni jahon siyosiy xaritasidagi eng muhim mintaqalardan biriga aylantiradi, uning geosiyosiy manfaatlarni amalga oshirish jarayonidagi salmog'ini oshiradi. Afsuski, bu holatga ko'plab muammolar ta'sir qiladiki, ularning eng o'tkiri arman-ozarbayjon ixtilofidir. Uning yuzaga kelishiga bois bo'lgan ko'p sonli sabab va omillarni bu o'rinda batafsil tahlildan o'tkazmayman, lekin ulardan biriga urg'u berib ketaman. Fikrimcha, ularning orasida eng asosiylaridan biri Kavkazda sovet imperiyasi tanazzulidan so'ng yuzaga kelgan ta'sir vakuumi hamda bu bo'shliqni to'ldirish huquqi uchun kurashdir.

Xalqaro atamalar lug'atida “Tog'li Qorabog' mojarosi” sifatida tilga olinadigan bu muhoraba bugun “na urush, na tinchlik” bosqichida turibdi. Vaziyatni bir nuqtadan siljitish, muammoni tinch yo'l bilan hal qilish harakatlari ko'p bo'lgan. Bu ixtilofni ham “manfaatlar uchburchagi”, ham “uch qavatli manfaatlar” sifatida ko'rish mumkin, u bir paytning o'zida ham mahalliy, ham mintaqaviy, ham xalqarodir.

Mahalliy darajada Armaniston va Ozarbayjon bir-biriga qarshi turibdi, mintaqaviy nuqtai nazardan manfaatdor tomonlar sifatida Rossiya, Eron va Turkiya, xalqaro miqyosda esa AQSH va Yevroittifoq ko'rilishi kerak. Bu muammoni hal qilish harakatlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun har “uch qavat”dagi manfaatlar bir tom ostida birlashib, yagona uy shakliga kelishi lozim. Bu ishni bittagina “uy quruvchisi” eplay olishi ehtimoli juda kam.

Ozarbayjonning mustaqillik tiklanganidan keyingi taraqqiyotini strategik yo'nalish vektorini izchil qidirish



sifatida talqin etish mumkin. Anqara – London – Vashingtondan oʻtadigan chiziq mamlakatning uzoq istiqbolli manfaatlariga toʻliq javob beradi. Anqara bu chiziqning birinchi halqasi sifatida tanlanishi mahalliy darajada Armanistonni, mintaqaviy miqyosda esa Rossiya va Eronni xavotirga qoʻyishi tayin. Boku – Tbilisi – Jayhun neft quvuri ushbu tanlovni yanada yaxshiroq namoyish etadi. Tajriba shuni koʻrsatadiki, Anqara – Tehron – Moskva uchburchagida muvozanat bir tomonga ogʻib ketishi xavfli siyosatdir. Rasmiy Boku olib borayotgan eng mukammal diplomatiya shu uchburchak ichida doimiy muvozanat saqlashni nazarda tutadi.

Albatta, tashqi siyosatda muvozanat ushlar juda murakkab ish. Masalan, Boku toʻqnash kelgan eng katta muammolardan biri – fransuz siyosati va diplomatiyasi oʻziga xosliklaridir. Fransiyaning Yevropa Ittifoqidagi oʻrni, uning Yevrosiyo maydoniga boʻlgan qarashi, transatlantik sherikchilik siyosatiga munosabati, qator manfaatlari Rossiya bilan mos kelishi va boshqa geosiyosiy nozikliklar katta siyosatning Ozarbayjonga taʼsirini belgilab beruvchi omillar hisoblanadi. Fransiya YXHT Minsk guruhi hamraisligiga qanchalik intilganini esga olsak, bu taʼsirning kuchi qay darajada muhimligini tushunish qiyin emas.

Strategik oriyentatsiya qaysi poytaxtdan oʻtishi kerakligi masalasi bahslarga sabab boʻlishi tayin. Maqsadimiz muayyan bir qarashni singdirish emas. Shubhasiz, jahondagi turfa manfaatlar bir-biriga zid, ular orasida muvozanat ushlarhga toʻgʻri keladi. Chiziq qaysi yoʻnalishga qarab ketishidan qatʼiy nazar, u oxir-oqibat Vashingtonga tutashishi zarur. AQSH Moskva, Tehron va Anqaraning Kaspiy mintaqasidagi manfaatlarini tartibga solishda tutishi mumkin boʻlgan oʻrin koʻp jihatdan Ozarbayjonning strategik manfaatlariga javob beradi. Yevrosiyo maydonida yangi taʼsirlar va kuchlar shakllanishi sharoitida, shuningdek, Yevropa Ittifoqida Parij ustunligiga muqobil qidirishda Vashington manfaatlari

Ozərbayjonga qo'1 keladi.

Bu fikrlar 2006-yil yozida aytilgan edi. Strategik oriyentatsiya chizig'ini Vashingtonga ulash zaruriyatiga ishonch menda mustaqil Ozarbayjon diplomatiyasi harakat yo'nalishlari belgilanganidan so'ng guvohi bo'lganim qator voqealar tahlilidan so'ng hosil bo'ldi. Men kuzatgan yana bir muhim omil zarurat va reallik o'rtasidagi uyg'unlikka erishish yo'lidagi qiyinchiliklardir. O'z mamlakating strategik manfaatlarini Vashington siyosatining ma'lum qirralariga moslashtirishni uddalash, yana bu manfaatlar Vashington tomonidan qabul qilinishiga erishish oson emas. 1993-yildan e'tiboran AQShdagi diplomatik missiyaga rahbarlik qilgan inson sifatida to'la ishonch bilan ayta olaman: Ozarbayjonning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan konstruktiv ikki tomonlama munosabatlari har doim ulkan sa'y-harakatlar evaziga quriladi. Buning sabablari haqida hali gaplashamiz. Agar rasmiy Bokuning Vashingtonga qaratilgan strategik oriyentatsiyasi geosiyosiy zarurat bilan tushuntirilsa, subyektiv hissiyotga berilish yoxud bu siyosatni hayotga joriy etishda imillash katta va to'g'irlab bo'lmaydigan xato bo'ladi.

Vashington professionallikni qadrlaydi. Ozarbayjonning bu maydondagi o'yini hech qachon bir tekis kechmaydi. Bundan buyon Ozarbayjon diplomatik missiyasiga kim boshchilik qilishi haqidagi qaror professionallikdan ko'ra ko'proq siyosiy tayinlov prinsiplariga asoslanmog'i joiz. Ozarbayjon Respublikasining Vashingtondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi rostanam favqulodda va muxtor bo'lishi uchun Prezident unga quloq tutishi zarur. Professionalizmni jamoa dunyoga keltiradi. Agar jamoa elchi qarori bilan to'plansa, unda elchining tayinlanishi Prezidentning siyosiy irodasidir. O'z-o'zidan, optimal tanlov uchun professionallik siyosiy nufuz bilan birlashishi lozim. Yangi, professional diplomatlarning maydonga kelishi bu vazifalarni hal etishni osonlashtirdi.

## SIYOSIY AVRAL VA KADRLAR MASALASI

Xalq jabhasi hukumatida tashqi siyosat tizimsiz va muvofiqlashtirishsiz shakllantirilar edi. Prezident devoni va Tashqi ishlar vazirligi o'rtasida chuqur ziddiyatlar mavjud edi. Bu ikki struktura bir-biriga ishonch bildirmas edi. Tofiq Qosimov Prezident Elchibeyga ta'sir o'tkaza olardi, ammo, taassufki, bu ta'sirni o'zi rahbarlik qilayotgan idora bilan bo'lishishni yo istamas, yo eplay olmas edi. Oldin aytganimdek, atrofdagilarga bo'lgan ishonchsizlik Qosimov ish uslubining zaif tomonlaridan edi. Boshqa tarafdin, u o'z tashqi siyosiy qarashlarining benuqsonligiga ishonar va shu bois raqiblari bilan murosa qilishdan bosh tortar edi. O'jarlik bilan bir qatorda, u hissiyotga tez berilardi, u bilan bahslashgan odamga "dars berib qo'yishi" mumkin edi – Tofiqning bu fe'li Akademiya davridayoq kuzatilardi. U har doim vaziyatga qaramay barchaga saboq berib qo'yishni xohlardi, bu xoh ilmiy bahs, xoh stol tennisi yoki blits-shaxmat partiyasi bo'lsin.

Bir hamkasbim 1992-yil oxirida Islom Konferensiyasi Tashkiloti tomonidan Saudiya Arabistonining Jidda shahrida o'tkazilgan, Bosniya va Gersegovina masalasiga bag'ishlangan konferensiyada ro'y bergan hodisani ko'p eslaydi. Tofiq Qosimov so'nggi lahzada konferensiya ishida qatnashishga qaror qildi, Eronga avtomobilda bordi va Eron Tashqi ishlar vaziri janob Viloyatyi bilan Jiddaga uchib ketdi.

Forumning ikkinchi kunida jiddiy vaziyat yuzaga keldi. G'azab otiga mingan islom davlatlari vakillari yakuniy rezolyutsiya bilan chiqib, unda G'arbning Bosniyaga nisbatan befarqligini keskin qoralamoqchi edi. Konferensiya faqat Tashqi ishlar vazirlari qatnashadigan yopiq majlisga ko'chdi.

U vaqti BMTning Bosniya va Gersogovina bo'yicha

vositachi vakillardan biri hali AQSH davlat kotibi ekanligida Armaniston va Ozarbayjonda tashrif bilan bo'lgan Sayrus Vens edi. Tashrifning oxirida Ozarbayjon matbuotida S. Vens masalaga Armaniston manfaatlari nuqtai nazaridan qarayotgani haqida fikrlar aytildi. Xonkendid kinokameralar qayd etgan holatni ko'plar eslaydi hali ham: unda keksa armani Vens oldida tiz cho'kib, uning oyoq kiyimidagi iplarni bog'laydi.

Tofiq Qosimov Jiddada Sayrus Vensga "saboq berish" imkoniyatidan foydalanishga qaror qiladi. Yaqindagina ingliz tilini o'rgana boshlagan vazir shosha-pisha bir necha gapni qog'ozga ko'chiradi, uni orqada o'tirgan tarjimonga uzatib, jummalarni ingliz tiliga o'girib berishni talab qiladi. Uning vaziri Sayrus Vensni ushbu yuqori martabali yig'ilishda haqorat qilmoqchiligini, Qosimovning chiqishi diplomatik me'yorlarga to'g'ri kelmasligini tushungan yosh tarjimon matnni o'girmay, vaqtni cho'zadi. Navbat Ozarbayjon vaziriga yetib keladi, lekin u tarjima tayyor bo'lmagani bois chiqish qila olmaydi, minbarga boshqa odam yo'l oladi. Ushbu xalqaro diplomatik forumda janob Vensga "dars berib qo'yish" imkoniyatini qo'ldan chiqargan Tofiq Qosimov tarjimon malakali emas degan qarorga keladi. G'azablangan vazir shu yerning o'zida yosh yigitga dakki beradi, Saudiya Arabistoni qiroli Fahd va prezidiumda o'tirgan boshqa konferensiya ishtirokchilarining diqqati navbatdagi notiqqa emas, unga qaratilganini payqamaydi ham.

Bir so'z bilan aytganda, Tashqi ishlar vazirining da'volari hukumat doirasidagi ko'p odamlarning e'tiroziga sabab bo'lar edi. U payti Qosimov ko'p vaqtini xalqaro konferensiyalar va chet el safarlarida o'tkazar edi. Bu fakt uning raqiblari e'tiboridan chetda qolmadi. Yuqorida Tofiq Qosimov Ozarbayjondagidan ko'ra chetda bo'layotgan voqealardan yaxshiroq va ko'proq xabardor ekani ro'kach

qilinari edi. Qosimovning opponentlari bu haqda turli-tuman mishmishlar tarqatish imkoniyatini qo'ldan boy bermasdi.

Prezident devoniga keladigan bo'lsak, bu yerda ikki guruh o'rtasida kurash ketayotgan edi: Vafo Quluzoda va islohotchilar.

Tashqi siyosat masalalari bo'yicha davlat maslahatchisi Vafo Quluzoda professional diplomat edi, tashqi siyosatning butun nozikliklarini yaxshi o'rgangan edi. Arab tilini mukammal bilgan diplomat mustaqil ravishda ingliz tilini ham o'rganganini faxr bilan ta'kidlardi. Uning vatanparvarligiga hech qanday shubha yo'q edi.

Abulfaz Elchibey qiziqqon va hissiyotga beriluvchan odam edi. Uning bu fe'li rasmiy uchrashuvlarda ham bo'y ko'rsatardi. Prezident OAV vakillari oldida yoki yopiq eshiklar ortida Eron yoxud Rossiya nomiga keskin so'zlar aytishi mumkin edi. Ozarbayjon Prezidentining u egallab turgan maqomga mos kelmaydigan, diplomatik me'yorlarni chetlab o'tuvchi bu so'zlari qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarda keskinlikni oshirib yuborardi. Vafo Quluzoda davlat tuzilmalarida ingliz tilini bilgan yagona odam edi. Davlat maslahatchisi rasmiy darajadagi muzokaralarga ko'p aralashar va Prezident nutqiga tuzatish kiritishdan cho'chimas edi. Ko'plar e'tibor qaratmaydigan bu holat ijobiy samara berardi. Quluzoda, shuningdek, davlat strukturalaridagi siyosiy manyovrlar ustasi edi. Bu xislatlariga qaramay, hukumat davrasida Quluzodani eski buyruqbozlik maktabi vakili hisoblashar edi.

O'zlarini islohotchi deb atovchi guruhga Prezidentning boshqa maslahatchisi – Najaf Najafov boshchilik qilardi. Najafovning milliy ozodlik harakatidagi xizmatlari beqiyos. Keng dunyoqarashga ega bu inson hamisha boshqaruvning yangi, progressiv uslublarini joriy etishga urinib kelgan. Uning jamoasiga Prezident matbuot xizmati rahbari Orif

Aliyev hamda Osim Mullazoda boshchiligidagi Strategik tadqiqotlar markazi xodimlari kirar edi.

Milliy Majlisda ham, boshqa davlat tashkilotlarida ham tashqi siyosatda o'z so'zini aytishni istagan kuchlar ko'p edi. Bu kitobda kim haq, kim nohaqligini aniqlash maqsad qilib qo'yilmagan. Asosiysi, kelishmovchiliklar va yagona birdam pozitsiyada turish qobiliyatining yo'qligi jiddiy ziddiyatlarni keltirib chiqargan, ular, o'z navbatida, Ozarbayjonning Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi doimiy vakili qilib kimni tayinlash masalasida ham aks etgan edi.

Hokimiyat tepasiga Xalq jabhasi kelganida Hasan Hasanov Ozarbayjon Respublikasi bosh vaziri edi. U davlat xizmatida katta tajribaga ega edi. Elchibey hukumati Hasanov mamlakat ichida katta siyosiy kapital hamda ta'sirga egaligini inobatga olib, uni BMTda doimiy vakil etib tayinlashni maqsadga muvofiq deb topdi. Ammo bu qaror Tofiq Qosimov fikrini so'ramay qabul qilingan edi. Tabiiyki, bu unga yoqmasdi, u hatto Hasanovni chaqirib olishni talab qildi.

Shunday qilib, Hasanov endigina Nyu-Yorkda lavozimiga kirishishi bilan Tofiq Qosimov o'sha yerga, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga safar uyushtiradi. Bu yerda Hasanov BMTda ham o'z ish va muomala uslubini o'zgartirmagani ma'lum bo'ladi: nafaqat hamkasblari, balki chet el davlatlari elchilari va BMT xodimlariga ovozini ko'taradi, ularga baqiradi. Bundan tashqari, kuch pozitsiyasidan gapirayotganiga ishongan amaldor o'z qiliqlaridan voz kechishni istamaydi ham. Qayd etib o'tishim kerakki, Hasanov suhbatda buyruq ohangida gapirar, o'z fikrini singdirishga urinardi. BMT Bosh kotibining o'rinbosari, Rossiya Federatsiyasi vakili Petrovskiy Ozarbayjon tashqi siyosiy idorasi rahbari bilan uchrashuv chog'ida Ozarbayjonning BMTdagi doimiy vakili ish uslublaridan norozilik bildiradi. Ammo vazir

bu e'tirozga boshqa mantiqdan kelib chiqib yondashadi. Qosimovning fikricha, Hasanov yo'lida uchragan hammaga qichqiradi, demak, u bu yerdagi xo'jayinlarga "dars berib qo'yish" va mamlakati manfaatlarini tap tortmay himoya qilishga qodir. Bundan kelib chiqadiki, yangi doimiy vakil maqtovg'a loyiq. Shu tariqa, Nyu-Yorkka tashrif Tofiq Qosimovning Hasan Hasanov haqidagi fikrini o'zgartiradi.

Bokuga qaytgach, vazir mening AQSH elchisi etib tayinlanishimni talab qiladi va Prezident Elchibeyning roziligini olishga erishadi. Qosimovning taklifi va Elchibeyning roziligi hukmron doiralarda yangi qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Milliy Majlis raisi Iso Qambar va islohotchilar guruhi Najaf Najafovning Qo'shma Shtatlarga elchi etib tayinlanishi borasidagi rejalaridan voz kechishga majbur bo'ladi. Men bilan uchrashuvda Najafov sovuqqonlik namoyon etib, bu qarorga ijobiy munosabat bildirdi.

Boshqa fakt qiziqish uyg'otadi. O'sha payti Ta'lim vaziri bo'lgan Firudin Jalilov menga Boku davlat universiteti rektori lavozimini egallashni taklif qildi. Jalilov bu haqda Prezident Elchibeyning fikrini bilishni istaganida, u Tofiqqa so'z berib qo'yganini aytdi.

## ZAREKEYVAN SINDROMI

1992-yil 13-noyabrda Prezident farmoni bilan men Ozarbayjon Respublikasining Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Favqulodda va Muxtor Elchisi etib tayinlandim. Vakolatim doirasiga, shuningdek, Kanada, Meksika, Kuba va Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlari kiritildi. Yaxshi eslayman, shoir Narimon Hasanzoda qo'ng'iroq qilib, meni tabrikladi va hazilomuz tarzda "Elchibey senga dunyoning yarmini topshirdi" dedi. Lekin Kanada va Meksika uchun ishonch yorliqlarini olish uzoqqa cho'zilib ketdi.



Farmon imzolanganidan ko'p o'tmay meni Prezident Abulfaz Elchibey qabul qildi. Qizig'i, Prezident bilan birinchi uchrashuvim elchi etib tayinlanganim haqida farmon e'lon qilinganidan so'ng ro'y berdi. U Prezident devonida bo'lib o'tdi. Abulfaz Elchibeyning Mirjalol muallimga yozuvchi sifatidagi munosabati ijobiy edi. Prezident men bilan u haqda uzun suhbat qurdi, iliq so'zlar aytdi. So'ng u AQSH bilan munosabatlarimiz muhimligini qayd qilib o'tdi, Amerikada istiqomat qilayotgan ozarbayjonlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Tan olishim kerak, suhbatimizning bosh mavzusi ozarbayjon diasporasi bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Nyu-Yorkka safari chog'ida Tofiq Qosimov Amerikada yashayotgan ba'zi vatandoshlarimiz bilan uchrashgan ekan. Ular orasida Ahmad Ali degani bo'lib, u Tashqi ishlar vaziriga allaqanday va'dalar berib tashlagan va unda Amerikadagi ozarbayjonlar jamoasi haqida yolg'on tasavvur hosil qilgan ekan. Keskin millatchiligi bilan ajralib turadigan Abulfaz Elchibey bu va'dalardan ruhlangan



va diaspora bilan ishlashni birinchi o'ringa qo'ygan edi. Albatta, men Prezidentning ishtiyoqidan hayron qolmadim: u hissiyotli ekani, ozarbayjonchilik g'oyasiga o'ta sadoqatli ekani barchaga ma'lum edi. Keyinchalik, elchi sifatida ishlay boshlaganimdan va ozarbayjon diasporasi vakillari bilan tanishganimdan so'ng asl vaziyatni ko'rdim. Jamoa saxiy va'dalar berib tashlagan Ahmad Ali kabilardan iborat emasligi, aslida ular ko'p narsa qila olmasligi ma'lum bo'ldi. Jamoa boshboshdoq bo'lishiga qaramay, uning tarkibida millatidan faxrlanadigan, vatan ishqida yonadigan, uni sog'inadigan ko'plab munosib odamlar ham bor edi. Ular kamtar edi, o'z yutuqlarini ko'z-ko'z qilmas, Ozarbayjonga beg'araz yordam ko'rsatishni vijdon amri deb bilardi. Sahnada esa hozircha boshqalar olqish olayotgan edi. Diasporaning keragidan ortiq nokamtar bu a'zolarining da'volari buyuk edi. Sarguzasht qidiruvchilari bo'lmish bu odamlar o'zlarini vatanparvar qilib ko'rsatar, aslida esa shaxsiy manfaat ketidan quvardi. Yangi davlatning iqtisodiy salohiyati katta edi, bu yerda hisobsiz ishbilarmonlik imkoniyatlari turgani shubhasiz edi, ular shundan foydalanib qolishni ko'zlardi.



Mahmud Zarekeyvan ayniqsa yaxshi esimda. Kaliforniya shtatida yashaydigan bu janublik ozarbayjon Bokuga keladi va o'zini katta imkoniyatlarga ega inson sifatida ko'rsatadi. U zamon shart-sharoitlari mutlaqo boshqacha edi. "British Eyruyez" va "Lyuftganza" Bokuga har kuni o'nlab yo'lovchilarni olib kelmasdi. Mustaqillik uzoq vaqt jahon uchun yopiq turgan eshiklarni keng ochib qo'ydi, ammo hali Bokuga chet elliklar kam kelardi. Har bir chet ellik mehmon, u xoh ozarbayjon, xoh ingliz, xoh amerikalik bo'lsin, an'analarimizga xos ravishda katta hurmat va

mehmondoʻstlik bilan kutib olinardi. Ularga ishonishar, katta umidlar bogʻlashar edi. Baʼzan ishonch aql doirasidan chiqib ketar, bu esa yomon oqibatlariga olib kelardi. Vaziyat qanchalar ayanchli boʻlmasin, ishonuvchanligimiz va soddaligimiz tufayli yuzaga kelgan vaziyat aybdorlarini qidirishni ortiqcha deb oʻylayman. Yana bir marta qayd qilib oʻtmoqchiman, voqealarni bugun emas, oʻsha vaqt sharoitlaridan kelib chiqib baholash lozim.

Sharoit shunaqa ediki, biz har bir mehmonga chet eldan xushxabar olib kela oladigan yoki jahon hamjamiyatiga biz haqimizdagi haqiqatni yetkaza oladigan odam sifatida qarashga majbur edik. Ozarbayjondan tashqarida qon bilan olingan mustaqilligimiz haqida ham, bu yerda roʻy bergan fojiali voqealar haqida ham hech kim bilmasdi. Shu bois tashqi dunyoni “eshitish” va ularni mustaqilligimizdan boxabar qilish xohishi kuchli edi. Taassuf, kelayotgan har bir mehmon aslida kimligini bilish imkoniyatimiz cheklangan edi. Davlat amaldorlarining koʻpchiligi hayotida birinchi marta biznes-xaritaning koʻrayotgan edi, shu tufayli ularning har biri buni chet el fuqarosining shaxsini tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilishga majbur edi. Shu bilan bir qatorda, boshimizdagi boshqa bala noprofessionallik edi. Axir hech birimiz davlat boshqaruvi maktabini tamomlamagan edik, xatolarimizdan xulosa qilib oʻrganishimiz kerak edi. U zamonlarning shart-sharoiti shunaqa edi.

Bokuga kelgan Mahmud Zarekeyvanni Ozarbayjon aslli Amerikalik sifatida xayrixohlik bilan kutib olishadi. Mahmudbey Amerikadagi nufuzi va u yerning davlat tuzilmalaridagi katta aloqalari haqida ogʻiz koʻpirtiradi. Zarekeyvan bu nufuz va aloqalarini Ozarbayjon manfaatlari yoʻlida ishlatish niyatidaligini tan oladi. Davlat kotibi Panoh Husainov bilan uchrashuv chogʻida u AQSH Tijorat departamentidan oʻn nafar Ozarbayjon talabasining Amerikada oʻqishi uchun moddiy yordam olib bera olishini

ta'kidlaydi. Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatishga muvofiq Ozarbayjon AQSH hukumatining yordamidan mahrum etilganini hatto xayoliga keltirmagan davlat kotibi darhol Prezident devonida norasmiy imtihon komissiyasi yaratish va AQShda ta'lim olish uchun o'n nomzod tanlab olishga ko'rsatma beradi. Najaf Najafov boshchiligidagi komissiya tanlovda suhbatdan o'tadigan nomzodlarni saralab olish bo'yicha ishni yuqori darajada tashkil etadi. O'n nafar eng iste'dodli nomzod AQSH safari uchun saralab olinadi, ammo ular uzoq kutishiga to'g'ri keladi.

Mahmudbey Ozarbayjonlik talabalar tahsili uchun ajratilgan mablag'ning kelib tushishi kechikayotganini byurokratik to'siqlar bilan tushuntiradi va unga Prezident Elchibey imzosi bilan tavsiyanoma berishni so'raydi. Bunday hujjat Mahmud Zarekeyvanga Qo'shma Shtatlarda Ozarbayjon hukumati nomidan gapirish vakolatini bergan bo'lar edi. Masalaning mohiyatini anglab yetgan Najafov bunday tavsiyanoma berilishini ortga suradi. Shu vaqtda men yaqinda Vashingtonga komandirovkaga borib kelgan elchixonada xodimidan Tijorat departamentiga qo'ng'iroq qilib, mablag' ajratish masalasi qaysi bosqichda ekanligini aniqlashga ko'rsatma berdim. Shunda struktura bu haqda hech narsa eshitmagani, 907-tuzatish bunday yordam ajratilishiga imkon bermasligi ma'lum bo'ldi. Najafovning Zarekeyvan bilan oxirgi uchrashuvi natijalari menga noma'lum. Lekin Mahmud Zarekeyvan va unga o'xshash so'zda "Ozarbayjon"larning o'z manfaatlarini qondirish yo'lidagi xatti-harakatlarini bilaman.

Yuqoridagi voqea achinarli, albatta, biroq u zinhor Amerikadagi Ozarbayjon diasporasiga tavsif beruvchi o'rnak sifatida ko'rilmisligi lozim. Oldinroq aytilganidek, Zarekeyvan sindromi – o'sha davr ish uslubini keltirib chiqargan sharoit in'ikosidir.

Ozarbayjon davlatchiligi mustahkamlanishi, mam-lakatning chet eldagi nufuzi ortib borishi asnosida Zarekeyvan sindromi zaiflashib bordi. “Zarekeyvan”larni fosh bo’lish tahdidi ham to’xtata olmas edi, ular hech o’zini tuta olmas, burnilari oldida bir eshik yopilganda boshqa eshiklarni qoqishda davom etar edi. Esimda, Haydar Aliyev davlat rahbari etib saylangidan so’ng Prezident devoni chet elda yashayotgan va saylovga qiziqish bildirgan Ozarbayjonlarga minnatdorlik xati tayyorlab, uni manziliga yetkazish uchun elchixonalariga taqdim etgan edi. Vashingtonga yo’llangan maktublardan biri Mahmud Zarekeyvan otiga bitilgan edi. Men bunga qat’iy e’tiroz bildirib, xatni manziliga yetkazishdan bosh tortdim. Bokudagi rahnamolaridan unga Prezident nomidan minnatdorlik xati yo’llanganini eshitgan Zarekeyvan har zamonda bu masalada elchixonaga qo’ng’iroq qilib turar edi. Tan olishim kerak, u mazkur xatni hech qachon olmadi. Bir muddatdan so’ng bu haqda Prezident Haydar Aliyevga hisobot berdim.

## BYUROKRATIYA BILAN BIRINCHI TANISHUV

Elchibey bilan Bokudagi ikkinchi uchrashuvim 1992-yil oxirida, Vashingtonga yo'l olishimdan biroz oldin yuz berdi. Prezident AQShning Ozarbayjondagi elchisi Richard Maylsni Zagulbadagi qarorgohida qabul qilayotgan edi. Mayls Ozarbayjonning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan aloqalari kengayishida muhim rol o'ynagan professional diplomat edi. Xalq jabhasi hukumati qulagan chog'da u Bokuda edi. Keyinchalik Mayls AQShning Rossiya, Bosniya va Gruziyadagi elchisi sifatida ishladi. Ayrim mulohazalar bu odamni qandaydir yashirin missiya bajargan kishi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Qiziq tomoni, Richard Mayls ishlagan davlatlarning ko'pchiligida, aniqrog'i, Ozarbayjon, Bosniya va Gruziyada hokimiyat almashdi, va bu almashuvlarda o'xshashlik ko'p edi. Gruziyada Eduard Shevarnadze hokimiyatdan mahrum qilinishiga va Mixail Saakashvili uning o'rnini egallashiga olib kelgan voqealarda konspirativ rejissura borligi inkor qilinsa ham, 2004-yil boshida AQShning ko'p siyosatshunoslari voqealar turli mamlakatlarda bir xil ssenariy bo'yicha rivojlanganini tan olgan edi.

Richard Mayls bilan uchrashuvga meni rafiqam Ra'no xonim bilan birga taklif qilishdi. Uchrashuvda, shuningdek, davlat maslahatchilari Vafo Quluzoda va Rafiq Ismoilov, Ichki ishlar vaziri Iskandar Hamidov va Mudofaa vaziri Rahim G'oziyev qatnashgandi. "Protokoldan tashqari" holat shundan iborat ediki, tadbirda rasmiy shaxslarning rafiqalari ham ishtirok etayotgan edi.

Bu uchrashuv bir umr esimdan chiqmaydi. Bunga qadar men davlat strukturalarida ishlamagandim, o'zimda byurokratiya ta'sirini his etmagan edim. Haqiqat shundaki, byurokratiya – bu xulq-atvorning o'ziga xos shakli. Gap faqat Ozarbayjon byurokrtiyasi haqida ketmayapti. Uning negiz prinsiplari butun dunyoda bir xil.

Mirjalol oilasida hamisha bir qator prinsiplariga rioya

etib kelingan: yaltoqlanishga yo'l qo'ymaydigan nafsoniyat, so'z qadri baland edi, uni havoga uchirishmas edi, ish natijasi unga berilgan bahodan muhimroq edi, nihoyat, shaxs yaxlitligi, barqarorligi asosiy xislat sanalardi. Kamtarlikni ham aytib o'taylik. Davlat strukturalaridagi qariyb o'n yillik ish tajribam shuni ko'rsatadiki, bu prinsiplarning ko'pchiligi byurokratiya talab qiladigan o'yin qoidalariga muvofiq kelmaydi.

Jamoatchilik bilan aloqa siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Demokratik jamiyatda jamoatchilik bilan aloqalar mexanizmi siyosiy isteblishmentning umurtqasi hisoblanib, u bitta prinsip negiziga quriladi: siyosiy isteblishment jamoatchilik tomonidan saylanadi, uning siyosatda bo'lish muddatini jamoatchilik fikri aniqlab beradi. Shuning uchun hokimiyatga kelgan kundan e'tiboran isteblishment jamoatchilik orasida o'zi haqida ijobiy fikr shakllantirishga urinadi. Natijada jamoatchilik bilan aloqalar ofisi siyosiy apparatning qudratli mexanizmiga aylanadi. Hokimiyatning har bir muvaffaqiyatli qadami konkret xabarnoma tarzida ifodalanib, jamoatchilikka "sotiladi". Jamoatchilik bu xabarnomalarni qabul qilishi asnosida isteblishmentning siyosiy kapitali ham ko'payib, boyib boradi.

Oilaviy tarbiya farzandga kamtarlikni o'rgatadi. Siyosatda esa kundalik hayotda fazilat sifatida qabul qilinadigan kamtarlikka yer yo'q. Har bir ish natijasi, uning ahamiyatidan qat'iy nazar, jamoatchilik e'tiboriga ommaviy axborot vositalari orqali havola etilishi lozim, har qanday yo'llar bilan bajarilgan ish jamiyat tomonidan ijobiy baholanishiga erishish zarur.

Tan olaman, byurokratriyaning bu o'ziga xosligi tarbiyam va shaxsiy prinsiplarimga ters kelardi. Balki bu ziddiyat bugun ham faoliyatimda aks etar. Fikrimcha, ish natijasi har narsadan afzal. Bu haqda olamga jar solish zarurati yo'q. Ko'p yillik faoliyati davomida elchixona yaxshi ko'rsatkichlarga erishdi, ammo kamtarlik bu haqda darhol

markazni, rasmiylarni, matbuotni xabardor qilishga yo'l qo'ymadi. Ko'p hollarda shuhrat mevasini o'rnimizga totganlar topildi...

Bugun men elchi faqat bir kishining manfaat va prinsiplaridan kelib chiqib ishlashi lozim deb hisoblayman. Elchi birinchi navbatda Prezidentning vakili, davlat vakilidir. Bu ma'noda har bir elchixonaning natijalari siyosiy isteblishmentning ham yutug'i hisoblanadi, byurokratiya qoidalariga muvofiq esa axborotni kengroq tarqatish, ya'ni olamga jar solish mumkin. Boshqa tomondan, jamoatchilik diplomatik missiya faoliyati haqida bilish huquqiga ega.

Albatta, bu xulosaga birdan kelmaganman. Davlat xizmatida ish boshlaganim lahzadan har qanday sabab bilan olamga jar solish g'alati tuyular edi. Shu bois har daqiqada yuqoriroq organlarni boxabar qilishga tayyorlarni tushunmasdim, ularning mas'ul shaxslar oldidagi jahdu jadalligiga salbiy munosabatda bo'lardim. Ko'p hollarda bunday ishtiyoq chegaradan chiqib ketar edi.

Aytishim kerakki, davlat xizmatidagi tayinlov odamda g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Keyin esa mansab ma'lum hokimiyat vakolatini berishi ma'lum bo'ladi. Bu ba'zi birovlarda javobgarlik hissini oshiradi, boshqalarning esa boshini aylantirib yuboradi. Hushyor va mast aqllar bir oraga to'planganda g'alati vaziyat yuzaga keladi. Rasmiy tuzilmalarda o'ziga xos fe'l-atvorga to'qnash kelasan. Odamlar ko'p bora qiyofasini o'zgartiradi. Bu o'rganish tuyg'usini uyg'otadi.

Zagulbadagi uchrashuvda men birinchi marta byurokrtiyaga duch keldim, ayrim suhbatdoshlarimning intellektual darajasidan hafsalam pir bo'ldi. Ammo Vafo Quluzodaning uchrashuvni professional saviyada o'tkazish harakatlariga beixtiyor hurmat tuydim.

Iskandar Hamidovni birinchi marta Zagulbada ko'rdim. O'shanda u Amerika Qo'shma Shtatlariga safarga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Hamidov mendan oldin, 1993-yil yanvarida AQShga jo'nab ketdi. Qaytib kelganida

u okean orti sayohatidan bir dunyo taassurot olib kelgan edi, lekin u aytib o'tgan ko'p fikrlar haqiqatdan uzoq edi. Gazetalarda aksini topgan bir voqeani esga olaylik. Hamidovning Vashingtonga safari Prezident Klintonning inauguratsiyasiga to'g'ri kelib qoldi. Odatda har to'rt yilda bir marta 20-yanvar kuni Vashingtonda navbatdagi davlat rahbarining mansabga kirishishiga bag'ishlab jamoatchilik uchun ochiq ko'plab tadbirlar o'tkaziladi. Har qanday odam taklifnoma olishi va banketlarda qatnashishi mumkin. Prezident ayrim tadbirlarga keladi, uning yoniga yaqinlashgan baxtli mehmonlar bilan uchrashadi va suhbat quradi. Iskandar Hamidov elchixonamiz maslahatchisi Mullazoda hamrohligida mana shunday banketlardan birida ishtirok etgan edi. Ozarbayjon Ichki ishlar vaziri yaqinda saylangan AQSH Prezidenti bilan uchrasha olmadi. Bokuga qaytganda esa u Vashingtonga tashrifi chog'ida inauguratsiya marosimiga taklif qilinganini, u yerda yangi AQSH Prezidenti va uning rafiqasi Hillari Klinton bilan uchrashganini e'lon qildi! Ozarbayjonda "Bo'zqurd" harakatiga rahbarlik qilgan va bundan juda faxrlangan Hamidovning so'zlariga qaraganda, Prezident Klinton unga rafiqasini tanishtirgan ekan, Hillari o'girilib, hayrat bilan "Bu o'sha Iskandarmi?" degan ekan.

Vashingtonga jo'nab ketish oldidan men hukumat muassasalarida bo'ldim va davlat amaldorlari bilan tanishdim. Prezident devoniga kelib, davlat kotibi Panoh Husainovni yo'qlashga qaror qildim. Uchinchi qavatga ko'tarildim. Davlat kotibining qabulxonasi ari inini eslatardi. Bir tashrifchi chiqishga ulgurmasdan ikkinchisi kirib ketardi. "Oktabrda Lenin" filmi yodimga tushdi, unda kurashchilarni eslatuvchi odamlar papirosalarini tutatgancha Smolniyning u chetidan bu chetiga odimlardi. Fursat poylab, yordamchiga o'zimni tanishtirdim va audiyensiya so'radim. Bu tund kishi yuzida biror his-tuyg'u namoyon qilmay, iltimosimga iltifotsizlik qildi va davlat kotibi bandligini, meni qabul qila olmasligini aytdi. Bu vaqtda qabulxona



eshigi bir lahzaga ham yopilmayotgan edi: kimdir ichkariga kirib ketar, kimdir tashqariga oshiqar edi. Men qabulxonadan sekin chiqib, lift tomon yo'l oldim. O'girilib, yo'lkada past bo'yli, to'ladan kelgan odam men tomon shoshilayotganini ko'rdim. Ochig'ini aytadigan bo'lsam, biroz sarosimaga tushdim. Bu davlat kotibi edi. Menga shiddat bilan yaqinlashar ekan, u tinmay yordamchisini koyir, yigit adashib ketganini tushuntirardi; so'ng u qo'limdan tutib, kabinetiga taklif qildi. Panoh Husainov samimiy insonga o'xshar edi. Sezmaslikning iloji yo'q edi – hamsuhbatim o'zgacha yo'sinda harakatlanar, rasmiyatchilikdan uzoq edi.

Bu kinoyaday eshitilsa ham, sobiq davlat kotibi milliy ozodlik harakatidagi xizmatlaridan ko'ra o'ziga xos ibtidoiy fe'l-atvori bilan jamoatchilik xotirasida qoladi. Bu ko'zga tashlanib turar edi. Afsuski, amaldorlar xarakteriga xos bo'lmagan bunday beso'naqaylik ko'p holatlarda ham siyosiy isteblishment, ham davlat imijiga zarar keltirardi.

Bir safar davlat kotibi ko'p sonli chet el delegatsiyasi bilan uchrashuv o'tkazadi. O'z qiliqlariga sodiq Panoh Husainov yonida o'tirgan vazirlardan biri bilan chaqchaqlashadi, ayrim mehmonlarning so'zlarini kalaka qiladi. Tabiiyki, bu hazillardan birortasi ingliz tiliga tarjima qilinmaydi. Aksincha, har jumla mehmonlar diqqatiga "tahrirlangan" shaklda havola etiladi. Tadbir yakunlanganidan so'ng delegatsiya vakillari navbatma-navbat davlat kotibining qo'lini siqib, u bilan xayrlashadi. Oxirgi mehmonning so'zlari tarjimaga muhtoj emas. Sochlari oqargan bu odam, pichingni bildirmaslikka urinib, sof turk tilida "Menali görüş için sizlere teşekkürümüzü bildiriyoruz, Penah bey" deydi. Bu "Ma'noli ko'rishuv uchun sizlarga tashakkurimizni bildiramiz, Panohbey" degan ma'noni anglatadi. So'ng u Husainovning qo'lini siqib, Ozarbayjon Respublikasi davlat kotibi qabulxonasini tark etadi.

## DIPLOMATIYA FIZIKASI

Jamoatchilik bilan aloqalar mexanizmi siyosiy isteb-lishmentda muhim o'rin tutishi borasidagi fikrimdan qaytmayman, lekin bir narsani urg'ulamoqchiman. O'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun xalq yoki o'zlari bo'ysunadigan shaxslarga yanglish axborot taqdim etadigan mulozimlarning qismati havas qilarli bo'lmaydi. To'laqonli ishonch – mana shu siyosiy arbobning eng katta kapitali.

Oliy martabali amaldorlarning mayda ishlari va past intellektual saviyasi menda noxushlik va xavotir hissini uyg'otardi. Men xizmat qilayotgan xalq nafaqat boy iqtisodiy, balki katta intellektual salohiyatga ham ega edi. Dunyo bu haqda bilishi, millatimizni jahon hamjamiyatining munosib a'zosi sifatida qabul qilishi lozim edi. Bu zarurat keltirib chiqargan majburiyatlar shaxsiy manfaatlarni siqib chiqarar va katta javobgarlik yuklar edi, endi shakllanib borayotgan Ozarbayjon diplomatiyasi vakillari buni o'tkir his etardi. Biroq ular xalqaro munosabatlar sohasida tahsil olmasdi: kimdir fizik olim edi, kimdir adabiyotshunos, yana birov ingliz tili mutaxassisi edi. Achchiq haqiqat shundaki, endi yaratilayotgan davlat malakali kadrlar bo'lgan o'tkir taqchillikni sezayotgandi, bunday mutaxassislar barmoq bilan sanagulik edi. Axir sobiq sovet imperiyasida Ozarbayjonlar diplomatiya va boshqaruv sohasida ta'lim olish imtiyoziga ega emas edi. Yangi davlat esa kadrlarni ularning mustaqillik g'oyasiga sadoqati darajasiga qarab tanlar edi. Chet elga yo'l olayotgan diplomatlarimizning brifinglari uzoq davom etmas, ularga berilgan topshiriqlar oddiy va tushunarli edi: Ozarbayjon xalqini munosib taqdim etish. Qolgan nyuanslarni ish jarayonida bilib olishimiz talab etilardi. Ya'ni bizni diplomat etib tayinlashardi, ammo kasbni yo'l-yo'lakay o'rganishga to'g'ri kelardi.

Faoliyatimiz boshlanishining unutilmas lahzalari aynan shu bilan bog'liq.

Shubhasiz, diplomat bo'lish – sharaflı vazifa. Ko'plar bu ish asosan dabdabali tadbirlar – banketlar, oliy darajadagi uchrashuvlardan, serhasham hayot va hokazolardan iborat deb o'ylaydi. Lekin quruq yerda diplomatiya binosini qurish mo'jizaga o'xshaydi – bu ishda hashamdorlik kam. Diplomatiya poydevorini ishonch tashkil etadi, bino esa joriy hodisalardan quriladi.

Shunday ekan, elchilar juda uzoq davom etmaydigan uchrashuvlardan so'ng tayinlanganidan hayratlanmaslik kerak. Diplomatik missiyalar xodimlari qisqa suhbatdan so'ng tanlab olinardi. Birlamchi vazifa hech bo'lmasa bir xonali ofis topishdan iborat edi. Eng murakkab savol ham qisqa va lo'nda edi: ishni nimadan boshlash kerak?

Bu savol Amerikadagi Ozarbayjon elchisi uchun juda qiyin edi. AQSH – jahonning eng rivojlangan davlatlaridan biri, lekin Vashingtonda Ozarbayjon sayyoraning qandaydir ekzotik burchagi emas, suveren davlat ekanligini biladiganlar juda kam edi. 1993-yili “Uoll-Strit Jurnal” yangi “Kseroks” nusxa ko'chirish mashinasi reklamasiga butun bir sahifani ajratdi, unda nusxa ko'chirishga yaroqli predmet sifatida mamlakatimiz nomidan foydalandi. Biz gazeta muharririga qo'ng'iroq qilib, e'tirozimizni aytganimizda, u kechirim so'rab, bu ish faqat yaxshi niyatda qilganini ta'kidladi. U vaziyatni shunday tushuntirdi: “Ozarbayjon” nomi ularga juda chiroyli eshitilgan.

Hozirgidek esimda, “Vashington post” gazetasi o'sha yilning o'zida shov-shuvli karikaturani chop etdi. Unda Oq Uyning Ozarbayjon uchun javobgar oliy martabali mulozimi telefon orqali rafiqasi bilan suhbatlashyapti. Shu payt kabinetga halloslab yordamchisi kirib keladida, Ozarbayjondagi vaziyat yana keskinlashganini ma'lum qiladi. Mas'ul shaxs yordamchisini tinglab, u chiqib

ketishini biroz kutib turadi, so'ng rafiqasidan sekin so'raydi: "Azizam, Ozarbayjon qayerda joylashganini bilmaysanmi?"

Bu bir qarashda maroqli karikatura aslida real vaziyat in'ikosi edi. AQSH Kongressi va jamoatchiligi hatto mamlakatimiz qayerda joylashganini bilmas, Ozarbayjon haqida ozgina tasavvurga ega bo'lgan Davlat departamenti va boshqa tuzilmalar amaldorlari u mustaqil davlatmi yoki Rossiyaning bir qismimi, hali ham aniq bilmas edi. Mustaqillikni qo'yib turing! Respublikadagi beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat vaqti-vaqti bilan noxush syurprizlar taqdim etib turardi. Armaniston tajovuzi qonli urushga olib keldi, mamlakat hududining bir qismi okkupatsiya qilindi, yuz minglab tinch Ozarbayjonlar o'z yerida qochqinga va majburiy ko'chgan shaxslarga aylandi. Yaxshi tashkil etilgan ozarbayjon diasporasi bo'lmagan Amerikada qudratli arman lobbisi vayronkor ish olib borayotgan edi. Nihoyat, sotsializmdan kapitalizmga o'tishga urinayotgan mamlakatimiz iqtisodiy inqiroz girdobiga tushib qolgan edi. Lekin bu ham hali kam edi. AQSH Kongressi Ozarbayjonga nisbatan sanksiyalar joriy etib, uni yordamdan mahrum qildi. Ozarbayjon Respublikasi agressiyada va islomiy fundamentalizmga ayblandi. Faqat bitta narsa barcha ayon edi: bu kam ahamiyatli mitti davlat boy neft zahiralari ega.

Bunday shart-sharoitda "Nimadan boshlash kerak?" savoli qiyin eshitiladi. Kundalik ish tartibi suronli voqealar ketma-ketligiga qarab belgilanadi.

Yana bir narsaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Hamkasblarim, boshqa davlatlar elchilariga hasad qilardim, lekin buni bildirmas edim. Kechasi ishdan horib qaytar ekanman, urush holatida bo'lmagan davlat elchisi bo'lish ma'qul edi deb o'ylab qolardim... Ko'pincha tunlari uyqusiz to'shakda ag'anab yotardim, men va xalqim kamsitilgani

haqidagi xayollar tinchlik bermasdi. Axir okkupatsiya qilingan hududlar, o'z yeridan haydalgan odamlar mening millatimga daxldor edi. Adolatsiz ayblanib, sanksiyalarga yo'liqqan, har qanday yordamdan mahrum etilgan ham mening millatim edi. Nega? Nima uchun? Qanday huquq asosida?

Bu savollarga osonlikcha javob topish amri mahol edi. Shosha-pisha qilingan xulosalar mantiq doirasidan chiqib ketardi. Albatta, hissiyotlarga berilish oson edi. Ammo diplomatiyaga tuyg'ularni olib kirishdan ma'no bormi? Meni uyqudan ayirayotgan savollarga berilishi lozim bo'lgan javoblar tuyg'ularimdan emas, vakili bo'lganim millat manfaatlaridan sado berilishi lozim edi. AQSH Ozarbayjon mustaqilligini rasman tan oldi, lekin bu rasmiy bayonotning geosiyosiy maydonga joriy etilish yo'li hali uzun edi. Ozarbayjon diplomatiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri ushbu buyuk davlat siyosiy qo'llab-quvvatlashishiga erishish edi. Bu yerda shaxsiy o'ylov-xayollarga o'rin yo'q edi. Menimcha, muammoga bo'lgan qarashni kengaytirsak, na ozarbayjon xalqi, na mamlakat siyosiy strukturalari hech qachon 907-tuzatish borasida jazavaga tushmaganini ko'ramiz. Ya'ni Ozarbayjonlar hissiyotga berilmadi, amerikaliklarni garovga olmadi, ularga hujum qilmadi, fitna uyushtirmadi. Aksincha, milliy boyliklarimizni qazib olishda amerikaliklarga eng maqbul sharoitni yaratib berdi, ularni strategik hamkor va ittifoqchi deb tan olib, bu bilan qo'shnilarining g'ashiga tegdi, ushbu g'aroyib millat bilan yaqindan tanishishga urinib, uning vakillariga har qanday hurmat-izzatni ko'rsatdi. Aynan shu vaziyatda Ozarbayjon millatining or-nomusi sinovdan o'tdi va tasdig'ini topdi. Men ham, mening xodimlarim ham, kun davomida qanchalik charchamaylik, qanchalik alam chekmaylik, bu qoidadan mustasno bo'lmadik, negaki bu yerda biz Ozarbayjon xalqi nomidan gapirayotganimizni tushunib turardik.

Boshqa tomondan, biz bu bir qarashda oddiy tuyulgan savollarga javob berishga qiynalardik, negaki Amerika Qo'shma Shtatlari siyosiy tizimining mohiyatini, bu xalq psixologiyasini oxirigacha tushunmas edik. Bu biroz g'alati eshitilsa ham, Kongressning Ozarbayjon bilan bog'liq qarori amerikaliklarning mamlakatimizga bo'lgan munosabatini aks ettirmas edi. 907-tuzatish Amerika demokratiyasi egnidagi dog' bo'lib qolaveradi. Bu dog'ni faqat Ozarbayjonlar yuvib ketkazishga tirishgan deb o'ylash xato bo'lar edi. Bu ishni qilishga jazm etgan amerikaliklar ham ko'p edi. Amerika Qo'shma Shtatlari – juda murakkab va ayni paytda buyuk davlat.

Hayot kutilmagan voqealarga boy. Men biz uchun odatiy bo'lib qolgan “qochqin” va “ko'chgan shaxs” tushunchalari zamonaviy Amerika uchun ham reallikka aylanishini o'ylab ham ko'rmagan edim. 2005-yil yozida “Katrin” to'foni Luiziana, Missisipi va Alabama shtatlarida millionga yaqin odam uylarini tashlab ketishiga sababchi bo'ldi. O'sha kunlarning qo'rqinchli lavhalarini kuzatar ekanman, ko'z oldimdan 1992–1993-yillardagi qochqinlar oqimi ketmadi. Bunday fojia oqibatlarini yolg'iz bartaraf etish hatto AQSH kabi qudratli davlatga ham og'irlik qilar edi. Men shu zahotiy oq Ozarbayjon Prezidenti bilan bog'landim. Ozarbayjon birinchilar qatorida AQShga gumanitar yordam ko'rsatdi. Davlatimizning bu qadami Amerika jamoatchiligining e'tirofiga sazovor bo'ldi, elchixonaga ko'plab telefon qo'ng'iroqlari va minnatdorlik maktublari keldi.

## “AEROFLOT”DAGI OXIRGI REYSIM

1993-yil 6-fevralda “Aeroflot” samolyoti Vashingtonning Dallas aeroportida qo’ndi. Havoda o’n uch soatdan ortiqroq vaqt o’tkazgan odamlar samolyotni tark etish pallasini sabrsizlik bilan kutardi. Ammo yana ozgina bardosh ko’rsatishga to’g’ri keldi. Yo’lovchilar odatga ko’ra rus tiliga gurunglashib o’tirganida samolyotga rasmiy shaxslarga mo’ljallangan aerodrom avtomobili yaqinlashdi. Amerikalik amaldor samolyot bortiga ko’tarilib, chiqishga talpingan yo’lovchilarni tinchlantirdi va ingliz tilida baland ovozda xitob qildi: “Ozarbayjon Respublikasi elchisi Hafiz Pashayev va uning rafiqasi chiqishga taklif etiladi”. Avialayner salonidagi g’ala-g’ovur sokinlikka o’rnini bo’shatib berdi. Yuzlab rus yo’lovchilarning hayratlangan, taajjublangan va hatto istehzoli nigohlari ostida men, rafiqam Ra’no xonim, qizim Jamila va o’g’lim Jamol chiqishi bilan u tomon bordik. Avtomobil eshiklari yopildi, u samolyotdan uzoqlashdi.

Bu lahza, ayniqsa yo’lovchilarning qarashlari, oradan ko’p vaqt o’tganiga qaramay, xotiramdan sira o’chmaydi. Ozarbayjon Respublikasining nomi yuzlab Rossiya fuqarolari orasida yangradi, ular mustaqil Ozarbayjonning shukuh bilan yurib kelayotgan elchisiga yo’l berishga majbur bo’ldi. Ular Amerika hukumati ular o’z tavbasi deb hisoblab o’rganib qolgan mamlakat elchisini dabdabali kutib olganiga guvoh bo’ldi. Sobiq sovet metropoliyasi istiqomatchilari, aftidan, bu “geografik yangilik”ni og’ir qabul qildi shekilli, hijolatligini istehzoli tabassumlar ortida yashirishga urindi. Tarix istehzosi esa har xil bo’ladi – kim uchundir shirin, kim uchundir achchiq.

Dallas aeroportida meni Davlat departamenti Protokol boshqarmasi rahbarlari va Janubiy Kavkaz boshqarmasi xodimasi Mariya Jermani kutib oldi. Avtomobil kutish

zali oldida to'xtaganida Ozarbayjonning AQShdagi birinchi elchisini kutib olishga kelganlar orasida ikki Ozarbayjon ham borligi ma'lum bo'ldi. Ulardan biri Habib Ozarsino edi. Keyinchalik Habibbey bilan ko'p marotaba uchrashish nasib qildi. U vatanparvar va kamtarin inson edi, Ozarbayjoni sevardi.

Darrov uy tomon yo'l oldik. U payti Vashingtonda elchixona siyosiy maslahatchisi sifatida ishlab turgan Jayxun Mullazoda kelishimizdan oldin shahar markaziga yaqin yerdan qisqa muddatga kvartira ijaraga olgan edi. Yetib borishimiz bilan Zulayxo xonim Veber-Asadullayeva qo'ng'iroq qildi. Uning ovozi quvonchni eshitdim. U Ozarbayjon mustaqil davlat bo'lib Vashingtonga elchi yo'llaganiga ishongisi kelmasdi. Ertasi kuniyoq u biz bilan ko'rishgani keldi.

Zulayxo xonim Ozarbayjon neft magnatlaridan biri Shamsi Asadullayevning nabirasi edi. Bokuda iqtidorga bolsheviklar hukumati kelganida u oilasi bilan mamlakatni tark etgan edi. Ular dastlab Turkiyada yashadi, so'ng uzoq darbadarlikdan so'ng Amerikada o'rnashib olishdi. Zulayxo xonim Bokuda yosh qizchaligida tark etganiga qaramay, yorqin va tirik xotiralar saqlagan, ko'p voqealarni ipidan-ignasigacha eslab qolgan edi. Boshidan kechirgan musibatlarda u bolsheviklar va ruslarni ayblardi. "Ozarbayjon" so'zini doimo qalb tubidan chiqayotgan alohida mehr bilan tilga olardi. Bir necha tilda, shu jumladan, rus tilida erkin gapirar, Ozarbayjoncha gapirganida esa turkcha talaffuz sezilardi, negaki uzoq muddat Turkiyada istiqomat qilgan edi. Uning farzandlari yo'q, eri esa o'tib ketgan edi. Ayol keksalar pansionida yolg'izlikda umrining so'nggi kunlarini kechirayotgan edi. Uning so'zlariga qaraganda, turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng o'z davlatini oilaviy do'sti bilan bir ishga tikkan. Ammo sheriklar hisob-kitobda adashib,



bankrotlikka uchragan, shu bois u keksalar uyiga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan.

Bir safar suhbat chog'ida men oilasining taqdiriga qiziqish bildirdim. U juda qat'iy va keskin javob berdi. Ma'lum bo'lishicha, Zulayxo xonim ular ko'pchilik bo'lib o'limdan qutulish uchun Bokudan qochgan kunlarni unuta olmagan ekan. O'shanda u hali yosh qizaloq edi, shunga bo'lsa kerak, ko'rgan-kechirganlari xotirasida chuqur o'rnashib qolgan ekan. Agar farzand ko'rsa, uning boshiga ham kulfat tushishi haqida xayollardan qutula olmagan ayol bola ko'rish niyatidan qaytgan ekan. Uning so'zlari meni larzaga soldi: "Janob elchi, boshimdan o'tgan va ko'rganlarimni boshqa birovga tilamagan bo'lardim".

Haqiqatda u juda quvnoq ayol edi, hech qachon hazillashish imkoniyatini qo'ldan boy bermasdi. Uning hayotga bo'lgan muhabbati kuchli edi. Balki u to'qson yoshda bo'lgandir, ammo u tengdoshlari bilan vaqt o'tkazishdan rohatlanmas edi. Har doim yoshlar orasida bo'lishni afzal bilardi. Hafta oxirida tanish yoshlarga qo'ng'iroq qilib, go'zallik saloniga borganini aytib berar, to'planib, ko'ngilochar markazlardan biriga borishni taklif qilardi.

Uning fe'l-atvori va turmush tarzida azob ichida yashagan, lekin ruhi kuchli, ideallariga xiyonat qilmagan ayolning taqdirga qarshi isyonini ko'rish mumkin edi. Hayotining oxirgi yillarini u Bokuda o'tkazishni yaxshi ko'rardi, hech qachon shaharga quruq qo'l bilan kelmasdi. Safarga tayyorgarlik ko'rarkan, Zulayxo Asadullayeva do'stlari va tanishlari bilan ko'rishar, kiyim-kechak, boshqa narsalar to'plar, ularni Bokudagi qochqinlar va majburiy ko'chgan shaxslarga yetkazar edi. Taqdir hukmi bilan u Bokuga uyushtirilgan navbatdagi safardan qaytayotganida birodar Turkiyada vafot etdi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Haydar Aliyev farmoyishi bilan uning tanasi

yoshligida quvilgani, ammo hech qachon unutmagani Bokuga ko'chirildi. Zulayxo xonim bobosi Shamsi Asadullayev tug'ilib o'sgan yer – Amirjon qishlog'ida dafn etildi.

Bu ayolga bo'lgan ehtiromimiz uning shaxsiga hurmat ifodalash bilan cheklanib qolmadi. Axir Zulayxo xonim Asadullayevlar va Tagiyevlar zamonasining tirik timsoli edi. Nufuzli oilada tug'ilib, tarix dovullaridan omon qolgan bu mag'rur ayol qalbida inqilob taloto'pida uni quvg'indan asrab qololmagan xalqiga nisbatan nafrat emas, muhabbat saqlab qoldi. Bizning unga bo'lgan ehtiromimizda milliy tarixiy xotiraning qayta tiklanishi, Ozarbayjon xalqi ma'naviy merosiga hurmat aks etdi.

Vatandoshlarimiz orasida mana shunday hurmat-izzat ramzlaridan biri Ozarbayjon Demokratik Respublikasi bosh vaziri Fatalixon Xoyskiyning o'g'li Zoidxon Xoyskiy edi. U sog'lig'ini yo'qotgan, munkillab qolgan chol edi. Bokuni tark etishga to'g'ri kelganidan so'ng u ukrainalik ayolga uylangan va Nyu-Yorkda qo'nim topgan edi. Uning Yagona ismli qizi bor edi. Uning akasi Iskandarbey Turkiyada olamdan o'tgan, o'zidan Laylo ismli qiz va Ibrohim ismli o'g'il qoldirgan edi. Zoidxon elchixonaga tez-tez sim qoqib turardi. Uning titroq ovoqidagi quvonchni payqamaslik imkonsiz edi. Sog'lig'idagi muammolar bois u Ozarbayjonga bora olmasdi, lekin mustaqil vatanidan qattiq g'ururlanardi. Hokimiyatga Haydar Aliyev kelganida jiddiy tashvishga tushgani hamon esimda. "Iltimos qilaman, janob elchi, ruslarga yana qaytib kelish imkonini bermang", – derdi Zoidxon tahluka to'la ovoz bilan. Ko'pchilik kabi, u ham Prezident Haydar Aliyev Ozarbayjonnini Rossiya manfaatlarini doirasiga qaytaradi deb qo'rqardi. Vaqt o'tdi, Zoidxon ham, boshqalar ham bu safar Ozarbayjon o'z mustaqilligini butunlay qo'lga kiritganiga amin bo'ldi. Qalbida faxr va mamlakatiga ishonch tuyg'usi bilan u yorug' olamni tark etdi.

Birinchi mustaqil Ozarbayjon davlatini qurgan siyosiy arbobning vatandan quvilgan farzandi olis o'lkada, qashshoqlikda qazo qilgani mening eng og'ir xotiralarimdandir. Nyu-Yorkda dafn marosimi arzon turmaydi, yer sotib olishdagi qiyinchiliklarni aytmay qo'yaqolay. Bunday muammolarga duch kelgan Yagona tanani krematsiya qilish qaroriga keldi va bu haqda qarindoshi, Xoyskiy hukumatida milliy xavfsizlik vaziri bo'lgan Nag'ibek Shayxzamonlining nabirasi Tomris xonimga ma'lum qildi. Tomris xonim Xoyskiylar avlodi namoyandasi islomiy odatlarga ko'ra dafn etilishi lozim degan fikrda turib oldi, tezda Turkiyadagi qarindoshlariga qo'ng'iroq qilib, pul to'pladi, Bruklindagi masjid ko'magida qabr uchun yer sotib oldi va dafn marosimini tashkillashtirdi. Dafn marosimida Ozarbayjon Respublikasining BMTdagi doimiy vakili, Favqulodda va Muxtor Elchi Eldor Quliyev ishtirok etdi. Ozarbayjon Demokratik Respublikasi bosh vaziri Fatalixon Xoyskiyning o'g'li Zoidxon Xoyskiyning tanasi solingan katafalk Ozarbayjon bayrog'i bilan qoplangan edi. Zoidxon vatanidan uzoqda, o'zi panoh topgan o'lkada yer bag'riga berildi. Alloh rahmat qilsin!

## BUYUK HOKIMIYAT EGASI BILAN UCHRASHUV

1615 L Street – Ozarbayjonning AQShda yaqindagina ochilgan elchixonasining ilk manzili. Vashington markazidagi binoning o‘n birinchi qavatida AQSH ning mashhur lobbistik kompaniyalaridan biri – “Kapitolayn”ning ofisi joylashgan edi. Odatda Vashingtonda ilk qadamlarini tashlayotgan odam quyidagi gapni eshitadi: “Bu shaharda lobbi madadisiz faoliyat yuritib bo‘lmaydi”. Bizning bu so‘zlar qay darajada haqiqatga yaqinligini tekshirib ko‘rish imkoniyatlarimiz bir qadar cheklangan edi, shu bois tavsiyaga amal qilishga to‘g‘ri keldi. Ilk qadamlarimizdan biri lobbistik kompaniya bilan aloqa o‘rnatish bo‘ldi.

“Kapitolayn” bilan birinchi aloqani Jayxun Mullazoda o‘rnatdi. Bokuda bo‘lib turgan paytimdayoq bu yerga kompaniya prezidenti Chak Pyusi xodimi Ed Greyvz bilan birga kelib ketgan edi. Hukumat doiralaridagi muvaffaqiyatli uchrashuvlardan so‘ng “Kapitolayn” bilan olti oylik kelishuv imzolashga rozilik berilgandi. Lobbistik kompaniya Ozarbayjonning birinchi elchisi va uning maslahatchisiga ofisidagi ikki xonani ajratdi. Vashingtondagi ilk ish kunimni shu ofisda boshladim.

Odatga ko‘ra, diplomatik missiya rahbari o‘ziga topshirilgan mamlakatga o‘z hukumatining u Favqulodda va Muxtor Elchi etib tayinlangani haqidagi ishonch yorliqlari bilan keladi. Diplomatik protokolga muvofiq, ishonch yorliqlari nusxalari Tashqi ishlar vazirligiga, originallari esa tayinlov mamlakati Prezidentiga topshiriladi. Elchi tashqi siyosiy idoraga ishonch yorliqlari nusxalarini topshirganidan so‘ng lavozimiga kirishadi, biroq ishonch yorliqlari originallarining davlat rahbariga topshirilishidan keyingina u o‘z vazifalarini to‘laqonli ado eta oladi. Aynan

shu tufayli mening ilk rasmiy uchrashuvim AQSH Davlat departamentida bo'lib o'tdi. Meni Davlat departamentining Yangi mustaqil davlatlar bo'yicha boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Richard Kozlarich qabul qildi (bir necha yil o'tib, u AQShning Ozarbayjondagi elchisi etib tayinlandi). Suhbat paytida men Davlat departamenti rahbariyatiga ishonch yorliqlari originallarini topshirish uchun vaqtni imkon qadar tezroq belgilashni so'radim.

Bir haftadan so'ng meni Davlat departamenti kotibining o'rinbosari janob Uorton qabul qildi. 1992-yil noyabrda saylangan AQSH Prezidenti Bill Klintonning inauguratsiyasi 20-yanvar kuni o'tkazilgan edi. Uorton yaqindagina lavozimiga kirishgan davlat rahbari bilan uchrashuv cho'zilib ketishi mumkinligini aytdi. Kotib o'rinbosariga ishonch yorliqlari nusxalarini topshirib, elchixonaga qaytdim.

Prezident Klinton bilan uchrashuv 14-aprelga tayinlandi. Unga o'n bir davlat elchilari taklif etildi. Bu Prezident Klinton tomonidan xorijiy elchilar uchun uyushtirilgan birinchi qabul bo'ldi. AQSH davlat rahbari tadbirni qanday formatda o'tkazishi haqida, uning javob reaksiyasi haqida hatto AQSH Prezidenti Protokol xizmati ham bilmas edi. Keyinchalik Rossiya elchisi Yuliy Voronsovdan u ishonch yorliqlarini bor-yo'g'i ikki daqiqalik suhbatdan so'ng topshirganini bildim.

Yorliqlarni topshirish marosimi tantanavor bezaklarga burkangan, diplomatik protokol qoidalariga muvofiq yuqori darajada tashkil etilgan edi. Men uchrashuvga oilam a'zolari bilan birga taklif etilgan edim. Ochig'ini aytganda, barchamiz hayajonda edik, negaki odatiy bir davlat emas, buyuk hokimiyat Prezidentining audiyensiyasiga musharraf bo'layotgan edik. Ishonch yorliqlari topshirish qatorida men qisqa vaqt ichida AQSH Prezidentiga vakili bo'lganim davlat muammolarini yetkazishim lozim edi.

Qorishib ketgan hayajon va g'urur tuyg'ulari bilan zinadan tushdik. Vestibulyda bizni Davlat protokoli xizmati vakili kutib oldi. Taqdim etilgan limuzinga o'tirdik. Mototsikli eskort bilan kuzatib borilayotgan rasmiy kortej Oq Uy tomon siljidi. Limuzinlar birin-ketin AQSH Prezidenti qarorgohi oldida to'xtar, elchilar va ularning oila a'zolarini kutib olib, mehmonxonaga kuzatib qo'yishar edi. Qisqa muddatdan so'ng biz Prezident bilan uchrashuvga taklif etildik. Ko'rishuvda Prezidentning rafiqasi Hillari Klinton, Milliy xavfsizlik kengashi Yevroosiyo mamlakatlari departamenti direktori Rozmari Forsayt xonim va Richard Kozlarich ishtirok etayotgan edi.

Klinton va uning rafiqasi o'ta samimiy insonlar sifatida taassurot qoldirishdi. Ular nafaqat men, balki oilam a'zolarini ham suhbatga tortdi. Rafiqam Ra'no xonim arab mamlakatlari bo'yicha mutaxassisligini eshitib, Prezident Klinton fundamentalizm masalasini tilga oldi. U bizga bu boradagi g'iybatlarga e'tibor qaratmaslikni maslahat berdi. Uning fikricha, aslida AQShda fundamentalizm boshqa davlatlardagiga nisbatan kuchliroq ekan. AQSH Prezidenti tomonidan mahorat bilan ayni o'rnida aytilgan fikrlar e'tiborimdan chetda qolmadi, albatta. Amerikada bizning mamlakatimiz haqida mavjud bo'lgan axborot vakuumidan ustalik bilan foydalangan arman hobbisi arman-ozarbayjon urushini diniy ixtilof sifatida ko'rsatar edi. Aftidan, AQSH Prezidenti uchrashuvdan oldingi brifingda yetarli axborot olgan edi. Shundan so'ng Klinton suhbatni Jamol va Jamilaga o'tkazdi, ular nima bilan shug'ullanishini so'radi, ularning Amerika haqidagi taassurotlari bilan qiziqdi. Prezident ikkovini ham ingliz tilida erkin gapira olganlari uchun maqtadi, bunda sovet ta'lim tizimining yuqori saviyasini e'tirof etib o'tdi.

Uchrashuvga yo'l olganimdagi esankirash o'rnini xavotir egalladi. Men tomonimdan mustaqil Ozarbayjonning

birinchi elchisi sifatida AQSH Prezidentiga taqdim etilgan ishonch yorliqlari shunchaki rasmiy hujjatlar emas edi. U men vakili bo'lgan mamlakat mustaqilligiga nisbatan buyuk davlat rahbarining e'tirofi va ehtiromi, shuningdek, u Ozarbayjon muammolarini bilishining ifodasi edi. Vakolatlarim rasman kuchga kirdi. Harqalay, shunday hissiyot tanamni chulg'adi. Oq Uydan Vashingtondagi kvartiraga qaytish yo'li juda uzoq bo'lib chiqdi. Bu yo'ldagi asl qiyinchiliklar esa hali oldinda edi. Bunday imkoniyat 1918–1920-yillarda tug'ilganida, Birinchi respublika hali-hamon mavjud bo'larmidi, degan fikr xayolimdan o'tdi.

## KONGRESS BILAN BIRINCHI UCHRASHUV

8-mart kuni, Vashingtonga kelganimdan bir oy o'tib Kongressda Ozarbayjon bo'yicha eshituvlar tashkil etildi. Men ularda ishtirok etishimga to'g'ri keldi. Qizig'i, mening opponentim Armaniston elchisi emas, Arman milliy qo'mitasi raisi Murad Topalyan bo'ldi. AQShdagi arman lobbisi ikki tashkilotdan iborat: Arman milliy qo'mitasi va Arman assambleyasi. Birinchisi "Dashnoqsutyun" nuqtai nazaridan turib faoliyat yuritadi. Kongressda tashkil etilgan eshituvlarda Armanistonni elchi emas, radikal lobbistik tashkilot yetakchisi tamsil etgani AQSH Kongressi bilan aloqalarda qaysi tomon ustunligini ochiq ko'rsatar edi. Darvoqe, qayd qilib o'tishim kerakki, bu bir necha yildan so'ng terrorchilik faoliyati uchun hibsga olingan o'sha Topalyan edi.

Eshituvlar chog'ida Kongress a'zolari masalaga arman nuqtai nazaridan yondashayotganini sezmaslik mumkin emasdi. Kongressmenlar orasida faqat texaslik demokrat Greg Laflin Ozarbayjonni ochiqchasiga qo'llab-quvvatlar edi. U hamkasblarining ko'pchiligi asl vaziyat haqida hech qanday tasavvurga ega emasligini yaxshi anglar edi. Ular Ozarbayjon Armanistonni bloklayotganini uqtirar, ammo Naxchivon armanilar tomonidan butunlay to'sib qo'yilganini bilmas edi. Bu faktni isbotlash uchun Greg Laflin mendan ataylab Naxchivon to'sib qo'yilgan-qo'yilmaganini so'radi. Savolga bergan vazmin javobimdan so'ng kongressmenning yuziga tabassum yugurdi. U Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlashga qaror qildi va, shubhasiz, maqsadiga erishdi.

Greg Laflin adolat kurashchisi edi. U Kongressda birinchilardan bo'lib Ozarbayjonning haq ishini qo'llab-quvvatladi, Kongressda kechgan vaqti davomida kamsituvchi 907-tuzatishni bekor qilish talabini og'zidan



qo'ymadi. Taassuf, Nyut Gingrich harakati paytida u o'z partiyasini tark etib, respublikachilar safiga qo'shildi. Bu qadamni uning saylovchilari qo'llab-quvvatlamadi. Shu tufayli navbatdagi saylovda Laflin yetarli ovoz to'play olmadi. U Kongress bilan xayrlashishga majbur bo'ldi, lekin mamlakatimizga bo'lgan qiziqishini yo'qotmadi. Hozirda u Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi vasiylari qo'mitasi a'zosi hisoblanadi.

Vashingtonga kelganimdan bir oy o'tib Kongressdagi eshituvlarda qatnashganimdan so'ng bir narsaga amin bo'ldim: AQSH qonunchilik organi bilan ishlash oson bo'lmaydi.

## 1615 L STREET VA YANGI HAYOT TARZI

1993-yil 12-aprelida Vashingtonga elchixonaning yaqinda tayinlangan xodimlari guruhi uchib keldi. Bundan bir necha hafta muqaddam men Mullazoda bilan vaqtincha yashab turgan uyimizdan Vashingtonga yaqin joylashgan Rokvil shahridagi ko'p qavatli binolardan biridagi kvartiraga ko'chib o'tgandik. Shu yerning o'zida elchixonaning barcha xodimlari uchun kvartiralar ijaraga olingan edi.

Ozarbayjon elchixonasi endi faqat ikki kishidan iborat emas edi. Birinchi kunlarda men ishga bir necha yangi xodimlarni yetkazishga majbur bo'ldim. Bizga "Kapitolayn" da ajratilgan bitta xonada bir necha xodim ishlardi. Elchixona kengayib, yangi ofisga bo'lgan ehtiyoj ortib borardi. Uzoq qidiruvdan so'ng Janubiy Ozarbayjon<sup>4</sup> vakili bo'lgan Robert Hayyot ismli odam bilan tanishdik. U Vashington markazida, Oq Uy yonida binoga egaligi, amerikalik sherigi bilan uni tasarruf etishi aniqlandi. Biz bu binoda keng ofisni juda foydali shartlarda ijaraga oldik.

Biz juda g'ayritabiiy ish uslubini yo'lga qo'ydik, negaki faqat siyosiy va iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanar edik. Bir safar Davlat departamentiga qo'ng'iroq qilsak, keyingi safar Kongressga sim qoqardik, uchinchi qo'ng'iroq yordamida ofis bilan bog'liq masalalarni, mebel, avtomobil xarid qilishni va hatto maishiy masalalarni hal etishga urinardik. Ishning rasmiy qismini tugatganimiz hamon boshqa vazifalarni hal etishga kirishib ketardik. Ish kuni go'yoki hech qachon tugamasdi. Budget bilan bog'liq

---

4. *Rus-Eron urushi, Guliston sulhi (1813) va Turkmanchoy kelishuvidan (1828) so'ng Janubiy Kavkazdagi ozarbayjonlar istiqomat qilib kelgan katta mintaqa Oroz daryosi irmog'i bo'ylab ikki qismga bo'lindi. Shimoliy Ozarbayjon Rossiya tarkibiga, Janubiy Ozarbayjon Eron tarkibiga qo'shib olindi. Hozirgi paytda Janubiy Ozarbayjonda 30 millionga yaqin Ozarbayjon istiqomat qiladi. Ozarbayjonlarning Erondan G'arb mamlakatlariga migratsiyasi bir qator omillar tufayli kuchayib bormoqda.*

qiyinchiliklarimiz ham bor edi. Bir marta kechki soatlarda yangi ofisga mebel buyurtma qilish uchun birgalikda do'kon aylandik. Mebel olib kelindi, uni o'rnatishga esa pulimiz qolmadi. Ishdan ofisga yo'lga olib, yeng shimarib, turli to'plam va garnaturalarni o'rnatish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Ishni tugatganimizda, soat ertalabki 5:00 ni ko'rsatar edi.

Boshqa tomondan, biz o'zimiz uchun yangi davlat va uning madaniyatiga moslashishimiz kerak edi. Hamma narsa vatanimizdagidan farq qilardi. Yosh bolalar misol hamma narsani boshidan o'rganishimizga to'g'ri keldi. Qiziq bir voqeani eslayman. "Kapitolayn" da ishlaganimizda yaqinda Vashingtonga kelgan bir xodim tushlikka chiqish uchun ruxsat so'radi. Juda bandligim uchun ishdan bosh ko'tara olmasdim, unga birinchi qavatda qahvaxona borligini aytishga ulgurdim, xolos. Eski Ozarbayjon maqoli beixtiyor yodimga tushdi: "O'z xatolaringdan o'rgan". Yangi xodim AQSH jamoat tanovuli o'ziga xosliklarini tushunishda qiynalishini bilardim, ammo u udallay oladimi, yo'qmi, tekshirib ko'rishga qaror qildim va hech qanday qo'shimcha tushuntirishlar bermadim.

Bir muddatdan so'ng xodim tushlikdan qaytib keldi. Aftidan, u ovqatlanishga ulgurgandi, biroq yuzi hijolatdan qizarib ketgan edi. U o'ng'aysizlik sababini yashirib o'tirmadi. Ma'lum bo'lishicha, xodimimiz qahvaxonaga tushgan, navbatga turgan, gali kelganda buterbrod buyurtma qilgan. Mana shu yerda kutilmagan muammolar paydo bo'lgan. Amerikada, butun G'arbda bo'lgani kabi, servis mijoz xohishiga binoan tashkil etiladi. Tanlov juda keng. Sotuvchi birinchi navbatda mijozning xohishini bilishga urinadi. Buterbrod buyurtma qilinganida, qanday go'sht solish so'raladi. Bu safar ham shunday bo'lgan. Xodimimiz tovuq go'shti deb javob bergan. Navbatdagi savol yangragan: "Nonning qanday xilini ma'qul ko'rasiz?"

Hayotida birinchi marta chet elga chiqqan ozarbayjon uchun bu rostanam juda g'alati savol. Bizda o'shanda nonning faqat ikki xili bor edi: zavod noni va tandir noni. Xodim yetti-sakkiz xil non orasidan amal-taqal qilib tanlov amalga oshirgan va endi tin olaman deb o'ylagan, ammo sotuvchi uni tinch qo'yishni xayol ham qilmay, navbatdagi savol bilan "o'qqa tutgan": "Buterbrodda pishloqning qanday navi bo'lishini xohlaysiz?" Ozarbayjon pishloqning faqat bitta turini biladi – motal. Bu yerda esa ulkan tanlov bor edi: jek, amerikacha, shvedcha, motsarella va o'nlab boshqa notanish nomlar. Xodim bu vaziyatdan ham amallab chiqib ketgan. Ammo sotuvchining navbatdagi savoli uni esankiratib qo'ygan: "Buterbrodda qanday qayla bo'lishini istaysiz?" Orqasida katta navbat to'planayotganini payqab, hamkasbimiz boshqa hech narsa xohlamasligini aytgan. Pulini to'lab va buterbrodni yeb bo'lib, u tepaga ko'tarilgan. Biz uning qahvaxonadagi sarguzashtini ko'p muhokama qilardik va har safar kulgidan o'zimizni tiyib turolmas edik.

Bir qarashda bu voqea muhim hodisaday ko'rinmaydi. Ammo masalaning mohiyati muhim. Biz noma'lum mamlakatga keldik, hali butun nazokatlarini endi o'rganishimiz lozim bo'lgan kasbimizda yutuqlarga erishmoqchimiz. Bizning ishimizdagi qiyinchiliklar va hamkasbimiz qahvaxonada duch kelgan murakkabliklar o'rtasida ma'lum o'xshashlik bor edi. Qadamma-qadam olg'a siljirdik. Yagona va eng katta farq shunda ediki, biz "uy vazifasi"ni mukammal bilardik. Balki biz birinchi marta pishloqning yuzlab navlari borligini ko'rgandirmiz, lekin tamsil etganimiz mamlakat muammolarini yaxshi tushunardik, bu haqda ishonch bilan gapirishni eplardik. Diplomatiyaning asosiy o'ziga xosligi mana shunda: o'z nuqtai nazarini ifodalay bilish, uni himoya qilish.

## OZARBAYJON QAYERDA JOYLASHGAN?

1993-yil may oyining ikkinchi yarmida Milliy Majlis raisi Iso Qambar Vashingtonga rasmiy tashrif bilan keldi. Uning safari Respublika Kuni mos tushib qoldi. 25-may kuni Oq Uy qarshisida joylashgan “Xey Adams” mehmonxonasida ushbu bayramga mo’ljallab banket tashkil etildi. AQShda Respublika Kuni ilk bor nishonlanayotgan edi. Amerikada istiqomat qiluvchi ozarbayjonlar faxr tuyg’usiga to’la edi. Yuzlab mehmonlar kelgan tantanali marosimda Amerika tomonidan AQSH davlat kotibi o’rinbosari Piter Tarnoff qatnashdi.

Biz Iso Qambarning ham davlat strukturalaridagi, ham Kongressdagi ko’p sonli uchrashuvlar tashkil etdik. Ularning ahamiyati juda katta edi. Oldin aytib o’tilganidek, AQShning turli tashkilotlarida Ozarbayjon haqida axborot juda tanqis edi. Rasmiy uchrashuvlar Kongress a’zolari bilan mustahkam aloqa o’rnatish, ularga Ozarbayjonda bo’layotgan voqealar haqidagi haqiqatni yetkazishning real imkoniyati edi. Uchrashuvlarning ko’p qismi o’qituvchining auditoriyaga murakkab formulani osonlikcha tushuntirishga bo’lgan urinishini eslatardi. Jo’n savollardan boshlab, sekinlik bilan murakkab masalalarga ko’chish talab etilardi. Aks holda suhbatdosh unga tushuntirishmoqchi bo’layotgan narsani hazm qila olmas edi. Ozarbayjon xaritasi asosiy ko’rgazmali qurol edi, ya’ni mamlakat haqida suhbat boshlashdan oldin kongressmenlarga u qayerda joylashganini ko’rsatib berish joiz edi.

Milliy Majlis raisi bir guruh senatorlar bilan uchrashuv o’tkazayotgan edi. Suhbatda qatnashgan Senat a’zolarining ko’pchiligi Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatishni kiritishni yoqlab ovoz bergandi. Milliy Majlis raisi suhbatni boshladi va xaritani qarshisida

o'tirgan senatorlarga uzatdi, ammo ularga Ozarbayjon qayerdaligini albatta ko'rsatish lozimligini e'tibordan qochirdi. Suhbat asnosida tushunmovchilik ham oshib borayotgandi. Delegatsiyamiz rahbari uning mamlakati neft resurslariga boyligini, Ozarbayjonning kattagina qismi okkupatsiya ostidaligini gapirar edi. Neft haqida eshitib, Ozarbayjon Yaqin Sharqda joylashgan deb o'ylagan amerikalik senatorlar mamlakatni dunyoning o'sha qismidan topishga chiranib xaritani sinchiklab ko'zdan kechirar, Yaqin Sharq haqida savollar berardi. Suhbat boshqa yoqqa og'ib ketganini ko'rgan Milliy Majlis raisi anglashilmovchilik sifatsiz tarjima tufayli kelib chiqdi degan xayolga bordi. Shu vaqti senatorlar ortida turib, parlament spikerining so'zlarini o'girib turgan elchixonaxodimi anglashilmovchilik nega yuzaga kelganini tushundi va xarita ustida bosh qotirayotgan senatorning barmog'ini ohistalik bilan Yaqin Sharqdan Ozarbayjonga o'tkazib qo'ydi. Vaziyat darhol o'zgardi. Shu tariqa, avvalroq qayerda joylashganini o'zlari ham bilmaydigan mamlakatga qarshi sanksiyalar joriy etishni yoqlab ovoz bergan senator bilan suhbat kerakli o'zanga yo'naltirildi.

Yana bir voqeani yaxshi eslayman. Milliy Majlis deputati E'tibor Mamedov Kongress Vakillar palatasi Chet el bilan aloqalar komissiyasi raisi Benjamin Gilman bilan uchrashuv o'tkazayotgan edi. Suhbat chog'ida yuzaga kelgan vaziyat chindanam afsusli edi. Kongressning eng keksa a'zosi, Chet el bilan aloqalar komissiyasi raisi Ozarbayjon parlamenti deputatini oxirigacha eshitmay uxlab qoldi.

## DIPLOMATIYA: PARTIYAVIY DAXLDORLIK YOKI MILLIY MANFAATLAR

Iso Qambar tashrifi Xalq jabhasi hukumati vakillarining AQShga amalga oshirgan oxirgi safari bo'ldi. 1993-yil yozida Ozarbayjon fuqarolik urushi tahdidi oldiga kelib qoldi. Surat Husainov Ganjadan Bokuga yurish uyushtirdi, Abulfaz Elchibey hokimiyatni tashlab, Naxchivonga ketib qoldi. Nihoyat, hokimiyatda bir yil bo'lgan Xalq jabhasi quladi. Haydar Aliyev Naxchivondan Bokuga taklif qilindi va dastlab Milliy Majlis raisi etib, 3-oktabrda esa Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Qisqa vaqtda Ozarbayjon fuqarolik urushi xavfidan qutuldi, vaziyat sekin-asta barqarorlasha boshladi.

Ozarbayjonda bo'lgani kabi, 1993-yil yozi elchixonada faoliyatida ham qizg'in palla bo'ldi. Hokimiyat o'zgarishi tashqi siyosatda mavhumlikka sabab bo'ldi, bu esa, shubhasiz, davlat manfaatlariga zarba edi. Arman lobbisi Ozarbayjonni har qanaqa demokratiyadan uzoq, beqaror ichki siyosiy vaziyatda turgan davlat sifatida ko'rsatish uchun jon-jahdi bilan harakat qilardi. Maydonga kelgan vaziyat Kongress bilan ishimizni qiyinlashtirar edi. Shu vaqtgacha bir prinsipga sodiq bo'lib kelgandik: diplomatiya u yoki bu partiyaga tegishli bo'lishni qabul qila olmaydi. Har bir diplomat birinchi galda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ishlashi lozim. Gap shundaki, siyosiy voqealar shiddat bilan birin-ketin almashishi mumkin. Ichki siyosat qanchalik mavhum bo'lmasin, davlat manfaatlari diplomatiyaning o'zgarimas ustuvor yo'nalishi, tayanch nuqtasi bo'lib qolaveradi.

Tan olishim kerak, mamlakat siyosiy inqirozni boshdan kechirayotganida o'zingni qo'lga olib, odatiy mantiqqa suyanish osonmas. Siyosiy inqiroz chuqurlashgani sayin mantiq ham almashib boradi. KPSS MK Siyosiy byurosining

sobiq a'zosi, KGB raisi Ozarbayjonni Rossiya manfaatlari doirasidan olib chiqib, uning mustaqilligini o'zgarmas omilga aylantirishiga ishonib bo'larmidi? Menimcha, yetakchilikni baholashning eng muhim mezon shundan iborat: inqiroz paytida kim yetakchi sifatida bo'y ko'rsatadi. Boshida omma unga ishonchsizlik bildiradi, shubhalanib qaraydi, ammo u boshlangan yo'lda davom etadi, shubhani ishonchga aylantiradi, xalq ishonchini qozonadi va uni o'z ortidan ergashtiradi... Birinchi kunlarda ishonganlar kam edi, ishonchsizlik ko'rsatganlar ko'proq edi. Bunday sharoitda eng kuchli mezon chidamdir. Qolaversa, tayanch nuqtasi siyosiy partiya emas, milliy manfaatlar bo'lmog'i lozim.

O'shanda taraddudga tushib qolgan elchixonona xodimlari orasida men Vashingtonga shaxsan taklif qilgan yosh diplomat bor edi. Uning milliy manfaatlarga sadoqati shubha ostida emasdi. Shunchaki u oqsoqol maslahatiga muhtojligi sezilib turardi. O'sha og'ir kunlardan birida men haydovchiga ruxsat berib yubordim, mashinani o'zim boshqarishga qaror qildim va go'yoki tasodifan shu xodimni uygacha olib borib qo'yishni taklif qildim. Men yo'lni ataylab uzaytirdim va u bilan o'z fikrlarimni o'rtoqlashdim. Odamni bilmay turib, uning mehnati samaralariga ishonch hosil qilmay turib, u haqda xulosa qilish noto'g'ri edi. Hissiyotga berilgan aql boshqalarning maslahatlarini qabul qiladi, mulohazali aql esa mantiqqa tayanadi. Ko'p savollarga javob berish oson emas albatta, men faqat maslahat bera olardim – chidamni yo'qotmaslik, o'zni qo'lda tuta bilishni. Vaqt mening tavsiyalarim bejiz ketmaganini ko'rsatdi.

Hissiyotlarga berilganlardan biri elchixonona maslahatchisi Jayxun Mullazoda bo'ldi. Biz har kuni fikr almashdik, voqealar borishini tahlil qilardik. Ta'kidlashim kerakki, vaqt o'tishi bilan uning hissiyotlari bosilib qoldi, lekin



birinchi kunlarda u qattiq hayajonda edi. Bir payt u Haydar Aliyev ma'muriyatida ishlash uchun qolishga qaror qildi. Afsuski, keyinroq u Bokudagi hammaslaklarining bosimiga uchrab, fikrini o'zgartirdi va bizdan yuz o'girdi. Mullazodaning pozitsiyasi keskinlashib ketishida Tashqi ishlar vazirligining ayrim amaldorlari rol o'ynadi.

Hokimiyatga kelgach, Haydar Aliyev Hasan Hasanovni BMTdagi Doimiy vakolatxonadan chaqirib oldi va uni Tashqi ishlar vaziri etib tayinladi. Amerikadagi faoliyatlari mobaynida Hasanov va Mullazoda o'rtasidagi ziddiyat to'xtamadi. Bu ko'plarga ma'lum edi. Yangi rahbariyatga xizmat qilishda jonbozlik ko'rsatgan vazir o'rinbosari Albert Salomov Mullazodani elchixona maslahatchisi lavozimidan bo'shatish haqidagi buyruqni imzoladi, bu arosatda qolgan Mullazodani qat'yatli qadamga undadi.

Shu tariqa, Mullazoda Vashingtonda qolib, yangi hukumat raqiblari nuqtai nazaridan chiqish qila boshladi, u tanlagan kurash vositalaridan biri elchixona faoliyatini keskin tanqidga olish bo'ldi. Ko'plar bizning oramizda ixtilof bo'lgan deb o'ylaydi. Ixtilof haqida gapirsak, u bir tomondan sun'iy ravishda alangalatilayotgan edi... Menimcha, buyuk da'volari bo'lgan va o'zini juda yaxshi ko'radigan bu yosh iste'dodli yigit karyerasi muddatidan ilgari tugaganiga ko'na olmadi. Aynan shu unda antipatiya keltirib chiqardi, bu uning endi ochila boshlagan iste'dodini boshqa o'zanga burib yubordi.

Mullazoda voqeasi Ozarbayjon mentaliteti va siyosiy landshaftni tavsiflovchi omillardan biri, ammo oxirgisi emas. Bu ma'noda Mullazoda yolg'iz emas. Ro'yxatga Rasul Quliyev, Kenan Aliyev va boshqa "demokratiya qahramonlari" kiradi. Bu odamlar turli sabablarga ko'ra Ozarbayjondan ko'chib ketib, Amerikada yashashga qaror qildi. Ularning o'zlari Qo'shma Shtatlardagi faoliyatlarini ijobiy baholaydi, Ozarbayjonda demokratiya rivojlanishi

yo'lida kurashyapmiz deb hisoblaydi. Shubhasiz, har bir odam o'z fikrlash yo'sinini tanlash va shu asosda faoliyatini olib borish huquqiga ega. Mullazoda, Quliyev va boshqalar Turkiya, Madagaskar, Meksika singari davlatlarga ko'chib o'tganida, ularning "fidokorligi" bu qadar ko'zga tashlanmasdi. Bu borada Amerika Qo'shma Shtatlari boshqa yerlarga o'xshamaydi.

Ozarbayjon Respublikasi manfaatlarining bu mamlakatda tan olinishi va mustahkamlanishi juda og'ir bosqichlardan o'tdi. Ozarbayjon milliy xavfsizligini himoya qilish, jahonga uning iqtisodiy salohiyatini, ayniqsa neft strategiyasini namoyish qilish demokratiya singari masalalarga nisbatan kattaroq ahamiyatga ega bo'lgan deb hisoblayman. Albatta, ko'plar mening nuqtai nazarimga shubha bilan qarashi mumkin. Ammo men guvohi bo'lgan voqealarda AQSH ma'muriyati va Kongressning Ozarbayjonga va, aytaylik, Tojikistonga bo'lgan munosabati boshida, bu ikki mamlakat ham totalitar tuzumdan qutulib, demokratiya qurish niyatini e'lon qilganiga qaramay, bir xil emasdi. Hech shaksiz, demokratiya Amerika Qo'shma Shtatlari mustahkam tutgan ustuvor siyosiy yo'nalishlardan biridir, ammo u geosiyosiy maydondagi manfaatlarni baholashning yagona mezonini emas. AQSH demokratiya jarchisi bo'lishiga qaramay, uning milliy xavfsizlik yo'lidagi manfaatlari ham bor. Jahonning har qanday mintaqasiga nisbatan siyosatni shakllantirishda aynan shu manfaatlar birinchi o'ringa qo'yiladi.

Ammo Kongress bundan mustasno, negaki uning a'zolarini tashqi siyosat masalalaridan ko'ra ko'proq o'z saylovchilarining nuqtai nazari qiziqtiradi. Ozarbayjonga nisbatan bunday saylovchilar Amerikada istiqomat qiluvchi armanilar, aniqrog'i, arman lobbisidir. 1992-yildan 2001-yil 11-sentabrga qadar AQSH Kongressi arman lobbisini afzal bilib, tashqi siyosatning Ozarbayjon bilan bog'liq ustuvor

yo'nalishlariga bepisand qarab keldi. 907-tuzatish bo'yicha mantiqdan uzoq nuqtai nazarini asoslashga uringan kongressmenlar ko'p hollarda asossiz sanksiyalar bekor qilinishini mamlakatimizda demokratiya rivojlanishiga borib taqar edi, lekin ularning hech biri "demokratik" Armaniston "nodemokratik" Ozarbayjonning yigirma foiz hududidini nega egallab olganini o'ylab ko'rmasdi. Ma'lum sabablarga ko'ra Kongress arman lobbisi manfaatlarini himoya qilardi.

O'ylashimcha, AQShda yashab, arman lobbisi tegirmoniga suv quyib kelayotgan "demokratiya qahramonlari" faoliyatining salbiy tomonlari shu o'rinda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi va ularning siyosiy so'qirligini ko'rsatadi. Haydar Aliyev o'n yildan ortiq vaqt davomida Ozarbayjoni boshqardi, bironing topshirig'i bilan emas, o'zi mas'uliyatni zimmasiga oldi. Butun dunyo buni hisobga olishi zarur. Hokimiyatga da'vogar Rasul Quliyev esa Vashingtonda lobbistik kompaniya yollashga millionlab dollar sarfladi. Arman lobbisi ig'volariga qarshi kurashish barobarida Ozarbayjon elchixonasi Rasul Quliyev rahnamolarining fitnalarini ham fosh etishga majbur bo'ldi. Siyosiy so'qirlik shu darajaga yetdiki, Kongress tomonidan Ozarbayjon bo'yicha tashkil etilgan eshituvlarda Rasul Quliyev armanilarga xayrixoh kongressmen Jon Porter bilan yonma-yon o'tirib Ozarbayjon hayotining salbiy jihatlarini sanab o'tishga majbur bo'ldi. R. Quliyevning ayblovlarini shu zahotiy oq arman lobbisi qurol qilib oldi. U o'z siyosiy kapitalini o'stirish uchun bundan foydalanganiga, zararni esa ozarbayjon xalqi va bizning suverenitetimiz ko'rganiga ishonchim komil. Quliyev ko'rgan foyda esa uncha katta bo'lmadi.

Bu kabi hodisalarga ko'p marotaba duch kelganimni afsus bilan tan olishga majburman. AQShda Ozarbayjon lobbisi shakllanishiga hali ko'p vaqt bor. Hozircha esa Ozarbayjon

pozitsiyasini sobiq siyosiy arboblardan va ishbiarmonlardan qo'llab-quvvatlamog'ida. Ammo ular ozchilik. Ularning ko'p qismi adolatsiz 907-tuzatishga qarshi chiqib, Kongressda va hukumat doiralarida respublikamiz manfaatlarini himoya qilish yo'lida qo'llaridan kelgan ishni amalga oshirdi. Ularning ba'zilari o'zlarining Ozarbayjondagi ishbiarmonlik manfaatlarini himoya qilishga urg'u beradi. Ularning nuqtai nazari beg'araz yoki ba'zi shaxsiy omillarga bog'langan bo'lishidan qat'iy nazar, bunday odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish har bir ozarbayjonning burchidir. "Demokratiya qahramonlari" bu ma'suliyatni his etishiga ishonmayman. Mana bir misol: "Turon" axborot agentligining Vashingtondagi muxbiri bo'lgan Kenan Aliyev muxolif gazetalardan birida chop etilgan maqolasida Haydar Aliyev ma'muriyatini poraxo'rlikda aybladi. Bu yaqqol populistik maqola ingliz tiliga tarjima qilinib, ismi tilga olinmaydigan bir shaxsga yetkazildi. Gap shundaki, Qo'shma Shtatlarda katta nufuzga ega bo'lgan bu siyosatchi sakkiz yildan ko'proq vaqt mobaynida Ozarbayjonnig qo'llab kelgan va buni o'zining axloqiy burchi deb sanagan. U menga qo'ng'iroq qildi va, hayratini yashira olmasa-da, axloq me'yorlarini saqlashga urinib, bunday maqola buyuk ehtimol bilan Ozarbayjonda emas, Armaniston matbuotida chop etilishi mumkinligini aytdi. Kenan Aliyev "ochiq jamiyat uchun kurash" yo'lidagi salmoqli hissa deb hisoblagan shu maqoladan so'ng u bizni qo'llab-quvvatlashni to'xtatdi, Ozarbayjon tomoni sakkiz yildan ko'proq milliy manfaatlarimizni himoya qilgan nufuzli siyosiy arbob ko'magidan mahrum bo'ldi. Haydar Aliyevning AQShga bir tashrifi chog'ida bu jurnalist imkoniyat topib, vestibyulda unga yaqinlashdi. Muxbirning salomiga alik olish o'rniga Prezident ikki qo'llab uning yoqasidan ushladi va siltab, shunday dedi: "Naxchivonda oilanga non berdim, endi sen shu nonni oyoqosti qilyapsan!" So'ng teskari burilib, chiqib ketdi.

## O'ZNI TUTA BILISH SIYOSIY VOSITA SIFATIDA

1993-yil yozida meni Davlat departamentiga taklif qilishdi. Klinton ma'muriyatining oliy martabali shaxslari Ozarbayjonda yuzaga kelgan vaziyatdan tashvishda edi: hokimiyatga Siyosiy byuroning sobiq a'zosi va KGB raisi keldi. Menga berilayotgan savollarning keskinligini payqamaslik mumkin emas edi: "Ozarbayjon demokratiya kursini davom ettiradimi?", "Mamlakat Rossiya orbitasiga qaytishi mumkinmi?" Shu va boshqa savollar yaqinda tepaga kelgan yangi yetakchining strategik qarashlariga nisbatan ishonchsizlikni ko'rsatib berardi. Men har tomondan bosim ostida qolgandim, lekin o'zimni yo'qotib qo'ymadim. Chidam va matonat mantiq asosi bo'la olar ekan. Bir necha oydan so'ng meni yana Davlat departamentiga taklif qilishdi. O'sha xona, o'sha chehralar, lekin uchrashuv oldingisidan jiddiy farq qilardi. AQSH ma'muriyatining iljayib turgan amaldorlari bu safar tinch edi. Ularning fikricha, Haydar Aliyev Ozarbayjonning umidi edi, u nafaqat mamlakatimizda, balki mintaqada barqarorlik kafiliga aylana oladi. Oldingi uchrashuv chog'ida hukm surgan tanglik xayrixohlikka joy bo'shatib berdi. O'sha xona, o'sha chehralar, o'sha mavzu, lekin o'zgarmay qolgan yana bir narsa bor edi: mening sabr-bardoshim.

Ikki uchrashuv orasidagi vaqtda nafaqat Oq Uy amaldorlarining munosabati ham, balki Ozarbayjonning o'zida ham ko'p narsa o'zgardi. Bularning sababi Ozarbayjon davlati rahbari Haydar Aliyev edi, vaholanki, avvaliga ko'plar unga ishonqiramay qaragan edi.

Men oldinlari Haydar Aliyev bilan muloqot qilmaganman. Bu favqulodda shaxs bilan birinchi suhbatimiz juda qiziq sharoitlarda kechdi. Bokudagi siyosiy inqiroz chog'ida hibsga olinganlar orasida Iso Qambar ham bor

ekan, bu Vashingtonda ham xavotirlar keltirib chiqardi. Amerika tomoni tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan rasmiy uchrashuvlardan birida Davlat departamenti Iso Qambar-ni ozodlikka chiqarishni talab qildi.

Yangi Prezidentning ilk tayinlovlaridan biri Lola Shavkat Hojiyevaga aloqador bo'ldi. Uning davlat kotibiday oliy mansabga ko'tarilishi progressiv qadam sifatida baholandi. Birinchi marta Ozarbayjon ayoli davlat strukturasi bu qadar yuqori lavozimni egallashi edi. Ko'plar Ali Karimov o'rnini egallagan Lola Shavkatni davlat boshqaruvi apparatidagi liberal qanot vakili deb hisoblaydi. Davlat departamentining Iso Qambar-ni ozod etish talabini Haydar Aliyevga Lola xonim orqali yetkazishga qaror qildim, buning uchun unga qo'ng'iroq qildim. Mulohazalarimni eshitib, ayol taajjublandi: "Bu nima deganingiz, u jinoyatchiku! Siz jinoyatchining yonini olyapsizmi?"

Siyosatda kinoya va shaxsiyatga tegish hollari ko'p uchraydi. O'z vaqtida Iso Qambar-ni jinoyat deb atagan va uni qamoqda tutishni ma'qul deb bilgan Lola Shavkat bir necha yildan so'ng muxolifat safiga qo'shildi, uni o'z ittifoqchisi deb e'lon qildi, uni Ozarbayjonga qaytargan Haydar Aliyevga qarshi kurashga kirishib ketdi. Mana shunday siyosiy "fint"lar ham bo'lib turadi. Shundan keyin kim siyosatda prinsiplar manfaatlardan ustun turadi deb ayta oladi?

Davlat kotibining e'tirozi va shoshqaloq xulosalari vaziyatning jiddiyligini inobatga olmayotganini tushunib, bevosita Haydar Aliyevga murojaat etishga qaror qildim. Shu tariqa, mening Haydar Aliyev bilan birinchi suhbatim "Musavat" partiyasi raisi Iso Qambar haqida bo'ldi. Haydar Aliyev va Lola Shavkatning ishga bo'lgan munosabatidagi farqni payqash qiyin emasdi. Prezident xabarimni sabr bilan tingladi. Uning diqqati hech narsaga chalg'imagani

butunlay amin edim. Nihoyat, u bosiqlik bilan dedi: “Men barini tushunib turibman, lekin amerikaliklarga hozir bu yerni boshqarish oson emasligini tushuntirib ko’ring”. Bir necha kundan so’ng Iso Qambar ozodlikka chiqdi. Haydar Aliyevning boshqaruv uslubiga ilk marotaba duch kelishim edi. O’sha payti uning qarorlari qanday mantiqqa tayanishini tushunish mushkul edi, ayrimlar bundan sarosimaga tushar, ayrimlar g’azablanar edi. Faqat vaqt hamma narsani oydinlashtirib borayotgan edi. Haydar Aliyevdan olganim eng katta saboq aynan mana shunda edi. Prezidentning xatti-harakatlarini shoshqaloqlik bilan talqin etish yaramaydi. Haydar Aliyevni tushunish uchun vaqt talab etiladi.

Siyosat ba’zan kulgiga, ba’zan jirkanishga sabab bo’ladi. Bu subyektiv qarash. Lekin bir narsani inkor etib bo’lmaydi. Siyosat – yetuk mutaxassislar maydoni. Haydar Aliyev aynan shunaqa odam edi. Fikrimcha, bu shaxsning eng katta qobiliyatlari uning otashin vatanparvarligida, professionalligida va davlat boshqaruvi amaliyotida edi. Butun jahon geosiyosiy shaxmat taxtasida tan olingan grossmeyster – Haydar Aliyev insoniyat tarixida shu nom ostida qoladi. U mamlakat ichida ham, tashqarisida ham siyosiy partiyani mahorat bilan o’ynadi, mustaqilligimiz himoyasida va mustahkamlanishida hal qiluvchi ahamiyat qozondi. Bu jihatdan ushbu siyosiy arbobning Ozarbayjon xalqi va davlati oldidagi xizmatlari beqiyosdir.

Farzand ko’rgan har bir odamni ota-ona deb bo’lmaydi. Ota-ona bo’lish yangi tug’ilgan go’dakni tahlika va balodan asrash, uni o’stirish va tarbiyalash demakdir. Haydar Aliyev endi tug’ilgan Ozarbayjon mustaqilligini haqiqatga do’ndirdi, yosh davlat jahonda o’z o’rnini topishi uchun hamma ishni qildi. Hayotining so’nggi lahzalarigacha u bajargan missiyasidan g’ururlanish hissini yo’qotmadi.

2003-yil kuzida Haydar Aliyev Klivlend shahri

gospitalida edi. U yerda u Markaziy saylov komissiyasiga ariza yozib, prezidentlikka nomzodini saylovdan oldi. U ushbu hujjatni imzolab, menga uzatgan lahza bir umr yodimda qoladi. Haydar Aliyev hatto shifoxonada ham dono davlat arbobi bo'lib qoldi. Bu insonning yuziga hayajon ila qarab, "Janob Prezident, bilingki, siz men uchun har doim Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti bo'lib qolasiz" dedim.

Buyuk davlat arbobi hayotining so'nggi daqiqalarida ham o'ttiz yildan ko'proq vaqt mobaynida xalqqa xizmat qilganining tarixdagi ahamiyatidan shubhalanmasdi. Aksincha, Haydar Aliyevni merosining saqlab qolinishi, davlatning tinch yo'l bilan, bosqichma-bosqich rivojlanib borishi qiziqtirar edi. U Bokuni Prezident sifatida tark etib, xalq tomonidan unga berilgan "Bobo" nomi bilan qaytib keldi. Xayrlashuv marosimida ishtirok etish va Haydar boboga hurmat izhor qilish uchun poytaxtga millionlab Ozarbayjonliklar oqib kelardi. Millatning buyukligi unga xizmat qilib, yuksaklarga olib chiqqanlarga minnatdor bo'la olishda namoyon bo'ladi...

2003-yil oxirida ishonch va ehtirom shiddatli to'lqin bo'lib bo'y ko'rsatdi, undan o'n yil oldin esa Ozarbayjon Prezidenti bilan muloqot odamlarda hadis uyg'otardi. Unga ulug'vorlik xos edi, uning nigohi ostida odam iymanib, go'yo erib ketardi... Boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Axir aynan Haydar Aliyev davlatni siyosiy, iqtisodiy va harbiy inqirozdan olib chiqish va uni barqarorlikka olib kelish majburiyatini zimmasiga oldi. Oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun u ulkan ishlarni amalga oshirdi.



## “BURKINA-FASONI YIG‘ISHTIRING...”

Yaqindagina Tashqi ishlar vaziri etib tayinlangan Hasan Hasanov nafaqat oliy martabada bo‘lishning yoqimli lahzalarini, balki siyosiy karyerasining qayta uyg‘onishini ham boshdan kechirayotgan edi. U Nyu-Yorkda bo‘lganida tez-tez qo‘ng‘iroqlashardik. Bir safar Bokudagi bir siyosiy hodisani tahlil qilayotganimizda u “Siyosatda har narsa bo‘lishi mumkin” degan edi.

Bir yil oldin Xalq jabhasi hukumati tomonidan Bokudan chetlatilgan Hasan Hasanov Tashqi ishlar vazirigina emas, davlat rahbari konfidenti rutbasida ham qaytib keldi. U asosiy maqsadi eng qisqa muhlatda ichki barqarorlikka erishish bo‘lgan Haydar Aliyevga sodiq edi. Hasan Hasanovning shaxsiy xislatlari yangi hokimiyat bazasini shakllantirayotgan Prezidentning talablariga javob berardi. Uzoq vaqt Ozarbayjon bosh vaziri lavozimida ishlagan Hasanovning siyosiy tajribasi va boshqaruvchilik mahorati shubhaga olinmas edi. Siyosiy strukturalar bilan murosa yo‘llarini topish qobiliyatini e‘tirof etmay iloj yo‘q, u boshqaruv tizimini, iqtisodiyotni va xo‘jalik ishlarini juda yaxshi bilardi. Hasan muallim yuqorida sanalgan sohalarda mansabga ega bo‘lganida, uning faoliyati yanada samaradorroq bo‘lardedi deb o‘ylayman. O‘ziga xos mentaliteti va fe‘l-atvori uni bizning idoramiz uchun andak begona qilib qo‘yardi. Hasanovga o‘tmishdan meros qolgan fikrlash tarzi va boshqaruv uslubi yangi realiyalar bilan ziddiyatga borar, nafaqat vazirlik, balki diplomatik munosabatlarda ham ortiqcha tanglik yuzaga keltirardi.

U boshqaruvning ma‘muriy-buyruqbozlik uslubini xush ko‘rardi. Hamkoridan har doim bir pog‘ona ustun turish – Hasanov o‘zgarishsiz rioya etib kelgan asosiy prinsiplardan biri, u qo‘li ostidagi odamlardan so‘zsiz bo‘ysunishni talab qilardi. Aynan shu tufayli ikkimizning

munosabatlarimizda tig'izlik kelib chiqdi. U orani yanada qizdirish, ishga asabiylilik olib kirish imkoniyatini qo'ldan chiqarmasdi, Vashingtonga tez-tez qo'ng'iroq qilib turardi. Uning qo'ng'iroqlari Boku vaqti bilan yarim tunda amalga oshirilardi. Uzoq vaqt Nyu-Yorkda yashagan vazir ikki poytaxt soat kamarlaridagi tafovutdan yaxshi boxabar edi, shuningdek, Vashingtonda tungi soat uchda go'shakni ko'targan kishi ish joyida emas, shirin uyquda ekanligini ham bilardi. Shunga qaramay, vazir simning narigi tomonidan turib bir buyruq ketidan ikkinchisini berar, hokimlik ohangida u yoki bu masalada tezkor choralar ko'rishni talab qilardi. Tabiiyki, tungi soat uchda Amerikada davlat muassasalari yopiq bo'lishi uni qiziqtirmasdi.

Hech shubhasiz, bu kabi kelishmovchiliklar faqat oramizda mavjud bo'lganida balki ularni tilga olmaslik ma'qul bo'lar edi. Afsuski, tashqi siyosiy idora rahbarining buyruqbozlik boshqaruv uslubi hatto rasmiy tadbirlarda ham ko'zga tashlanardi. Hasanovning YeXHT konferensiyasi tanaffusida AQSH davlat kotibi Uorren Kristofer bilan yig'ilish zalida uyushtirgan qisqa gurungi unutilmaydigan voqea bo'lgan. Mutaxassisligi advokat bo'lmish janob Kristofer juda og'ir-bosiq odam edi, uning vazminligi shundoq bilinib turardi. Amerikalik hamkasbiga ikki tomonlama munosabatlar borasidagi fikrlarini yetkazib berishni istagan Hasanov suhbatdoshi u boshchilik qilayotgan vazirlikning bo'lim mudiri emas, balki chet ellik deputat ekanligini unutilib qo'yadi. Ozarbayjonlik hamkasbining ovozida keskinlikni sezgan U. Kristofer bu masala bo'yicha muzokaralarni boshqa vaqtga o'tkazishni hamda unda o'rinbosari qatnashishini xushmuomalalik bilan taklif qiladi. G'azablangan Hasanov ushbu masalani o'rinbosar emas, Kristoferning o'zi bilan muhokama qilishini ta'kidlaydi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, Hasan Hasanov Uorren Kristoferni boshi berk

ko'chaga olib kiradi, unga "saboq beradi". Bu suhbatning mevasi o'laroq bundan buyon Vashington Ozarbayjon Tashqi ishlar vazirini ikki tomonlama uchrashuvlarga taklif qilish borasidagi so'rovlarimizga javob bermay qo'ydi.

Mamlakatimiz mustaqilligi buyuk hokimiyatlar tomonidan tan olindi, ammo hali ham qator davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatilmagan edi. Yangi vazirning topshirig'iga binoan bu masalani zudlik bilan hal etish lozim edi. Elchixonamiz orqali Vashingtondagi chet el vakolatxonalariga diplomatik notalar yuborilib, ularda ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'rnatish iltimosi aks ettirildi. Boshqa elchixonalarga ham zarurat tug'ilganda rasmiy hujjatlar imzolash topshirilgan edi. Vazirlikning topshirig'ini bajarar ekanmiz, ishga jiddiy kirishgan edik. Vashingtonda 160 dan ortiq davlatlarning diplomatik vakolatxonalari joylashganini inobatga olsak, bu sohada qizg'in ish olib borilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Diplomatik aloqalar o'rnatilishi jarayonini tezlashtirish uchun Vashingtonda akkreditatsiyadan o'tgan xorijlik elchilar bilan to'g'ridan to'g'ri uchrashuvlar o'tkazilar edi. Shuningdek, biz chet davlatlarining AQSH poytaxtiga tashrif bilan kelgan oliy martabali amaldorlari bilan uchrashish imkoniyatini qo'ldan boy bermas edik.

Biz aloqa qilib turgan diplomatik vakolatxonalardan biri Burkina-Faso elchixonasi edi. Bu mamlakat Tashqi ishlar vaziri Vashingtonga tashrif buyurdi. Imkoniyatdan foydalanib, elchi menga qo'ng'iroq qildi va hujjatlarni imzolashga Burkina-Faso elchixonasiga taklif qildi.

Hasanovning ko'p sonli topshiriqlaridan biri yaqinda saylangan Ozarbayjon Prezidentiga chet davlatlar rahbarlarining tabrik xatlari yuborilishi bo'yicha ishning tashkil etilishi edi. Diplomatik munosabatlar o'rnatilishi borasida murojaat etarkanmiz, biz chet el diplomatik missiyalariga bu masalani ham yetkazardik. Bu ishda katta

qiyinchiliklarga duch kelmasdik. Yangi saylangan davlat rahbarini tabriklash diplomatik odob me'yorlariga mos keladi.

Muammolar Hasanovning ishlash uslubi tufayli kelib chiqardi. Tashqi ishlar vaziri har kuni qo'ng'iroq qilib, xatlar bo'yicha ish qanday ketayotganiga qiziqar, tabriklar soni rejadagidan kam bo'lsa, norozilik bildirardi. O'sha kunlarda ish kunimning katta qismi elchixonada tashqarisida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazishga sarflanar edi. Qo'ng'iroq qilib, meni ish joyimdan topa olmagan vazir xodimlar bilan navbatma-navbat gaplashib, ulardan bajarilgan ish yuzasidan hisobot talab qilardi.

Mana shunday qo'ng'iroqlardan biriga bir safar elchixonaning birinchi kotibi javob berishiga to'g'ri kelib qoladi. Vazir g'azab bilan elchi qayerdaligini so'raydi. Dovdirab qolgan birinchi kotib ahvolini bildirmaslik uchun Ozarbayjon elchisi diplomatik aloqalar o'rnatish masalasida Burkina-Faso elchixonasiga ketganini aytadi. Qayd etish kerakki, Burkina-Faso Tashqi ishlar vaziri bilan uchrashuv ertangi kunga belgilangan edi. Aslida o'sha kuni men Davlat departamentida uchrashuv o'tkazayotgan edim.

Ertasiga yana vazir qo'ng'iroq qiladi, men Burkina-Faso va Ozarbayjon o'rtasidagi diplomatik aloqalar o'rnatishga bag'ishlangan tadbirda bo'lganim uchun u bilan gaplasha olmadim. Hasan Hasanov odatiga ko'ra elchixonada xodimlari bilan suhbatlashadi, har birini so'roqqa tutadi va kerakli axborotni olishga urinadi. Navbat elchixonaning diplomatik aloqalar o'rnatish va tabrik xatlari yuborilishini tashkil etish bilan bevosita shug'ullanuvchi ikkinchi kotibi G'olib Mamedga yetib keladi. Vazirning birinchi savoli tabrik xatlarining yo'llanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ikkinchi kotib tabrik xatlari haqidagi diplomatik notalar shaxsan uning tomonidan barcha elchixonalarga yuborilganini,

u javob kutayotganini ma'lum qiladi. TIV rahbari norozi ohangda deydi: "Menga qara, men sendan buni so'ramayapman, sen pochtachimisan, diplomatmi? Men sendan tabriklar qayerda deb so'rayapman". Noroziligi ortib borayotgan vazirning navbatdagi savoli yanada balandroq ohangda aytiladi: "Elchi qayerda?" Uning hamkasbi bir kun oldin Burkina-Faso elchixonasiga tashrifim haqida aytib bo'lganidan bexabar ikkinchi kotib vazirga to'g'rilikcha javob qaytaradi: "Hasan muallim, elchi diplomatik munosabatlar o'rnatish borasidagi hujjatlarni imzolash uchun Burkina-Faso elchixonasiga jo'nab ketdi". Bu javob tashqi siyosiy idora rahbari kayfiyatini butunlay izdan chiqaradi. O'ylab qarang axir, Ozarbayjonning Vashingtondagi elchisi shuncha muhim masala va ishlar turganida ikki kunini Burkina-Fasoday mitti Afrika davlatiga bag'ishladi. Telefon simining narigi tomonidan eshitilgan o'tkir xodimlarning esida qolib ketgan: "Burkina-Fasoni yig'ishtiring, Tashqi ishlar vaziri sifatida buyruq beraman!.."

## SIYOSATNI SHAXSLAR SHAKLLANTIRADI

Klinton ma'muriyatining yangi mustaqil davlatlarga nisbatan siyosatini shakllantirish uchun mas'ul – davlat kotibining o'rinbosari Strob Telbot juda ziddiyatli shaxs edi. U Rossiya bo'yicha mutaxassis sanalar, bir vaqtlar "Taym" jurnalining Moskvadagi muxbiri bo'lib ishlagan, Bill Klintonning yaqin do'stlaridan biri edi. Talabalik yillari ular bir yotoqxonada yashashgan bo'lib, ularning do'stligi o'sha paytlar yuzaga kelgan. Aynan shaxsiy munosabatlar Strob Telbot tashqi siyosat apparatida katta nufuz qozonishiga sabab bo'ldi. Afsuski, janob Telbot AQShning yangi mustaqil davlatlarga nisbatan siyosatida Rossiyaga xayrixohlik bildirar edi, Rossiya manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yardi. Boshqacha aytganda, biz bilan bog'liq siyosiy yo'nalish Rossiya o'lchovi bilan o'lchanardi.

Vashington Ozarbayjon Respublikasida hokimiyat almashishini diqqat bilan kuzatdi. Siyosiy sohada Rossiya bilan munosabatlarni ma'qul bilgan AQSH ayni paytda Ozarbayjonda iqtisodiy manfaatlarga ega edi. Ular birinchi navbatda Kaspiy nefti taqsimotida AQSH kompaniyalari ulushini ko'paytirishdan iborat edi.

1993-yil kuzida Strob Telbot Ozarbayjonga rasmiy tashrif bilan keldi. Bu tashrif alohida e'tiborga loyiq, negaki o'shanda janob Telbot Haydar Aliyev professional va so-bitqadam siyosatchi ekaniga amin bo'ldi. Ozarbayjonda davlat kemasi ruli jiddiy insonning qo'lida ekanligiga ishonch hosil qilgach, u Bokudan boshqacha taassurotlar bilan ketdi.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Kavkaz min-taqasiga ta'sir o'tkazishda bo'shliq vujudga keldi. Bu vakuumni to'ldirish uchun kurash ikki sathda ketayotgandi: birinchisida – Rossiya, Eron, Turkiya, ikkinchisida – AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa geopolitik o'yinchilar.

Kavkaz – muhim strategik nuqta, asosiysi – bu yerda neft bor.

Haydar Aliyevning bosh maqsadi ikki sathda ham mamlakat manfaatlarini himoya qilish, mamlakatlar o'rtasida muvozanat saqlash edi. Mintaqada faqat bitta davlat ta'siri o'rnatilishiga yo'l qo'yib bo'lmasdi, kurashda asosan Rossiya g'alaba qozonishga harakat qilayotgan edi. Haydar Aliyev shimoliy qo'shnimiz bilan til topishishi lozim edi. Rasmiy Moskva Sovet Ittifoqi hududidagi obro'yini tiklash yo'lida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan qurol sifatida foydalanmoqchi edi. Ikki davlat munosabatlarida taranglik keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri Ozarbayjonning MDHga qo'shilishdan bosh tortishi bo'ldi. Elchibey hukumati RF bilan munosabatlarni qaynoq nuqtasiga olib borib qo'ydi va bu Ozarbayjonga qimmatga tushdi. Mamlakatning bir qismi Armaniston tomonidan bosib olingan, ichki nizolar respublikani fuqarolik urushi og'ushiga itarar va parchalanib ketish xavfini uyg'otar edi. Uyg'onayotgan "ayiq"ni tinchlantirish uchun Haydar Aliyev unga yon berishi lozim edi.

MDHga qo'shilish qarori qabul qilinadi. Bu haqdagi xabar Vashington siyosiy doiralarida qizg'in muhokamalarga sabab bo'ladi. Siyosatshunoslar Ozarbayjon Tashqi siyosatida strategik yo'nalish o'zgarishi, mamlakat Rossiya qaramligiga qaytayotgani haqida bashoratlar beriladi. Jamoatchilik fikri yangilikka keskin qarshi bo'lib turganida hukumat yo'lkalarida holat biroz boshqacharoq edi. Haydar Aliyev Turkiya va Eronga nisbatan ham shu tarzda qadamlarni tashlaydi.

Prezident neft nafaqat "qora oltin"ligini, balki muhim siyosiy instrument ekanligini ham tushunadi va bunday ustalik bilan foydalana boshlaydi. "Ozari" – "Chiroq" – "Gunashli" atrofida birinchi xalqaro konsorsium yaratiladi, geosiyosiy ta'sirga ega kompaniyalarga ulush ajratiladi. Ular orasida "LUKoyl" ham bo'lib, boshqalardan ko'ra kattaroq

ulushga ega edi. Birinchi konsorsium – Ozarbayjon xalqaro operatsion kompaniyasi (AMOK) “asr shartnomasi”ni amalga oshirishga kirishib ketadi. Aslida “asr shartnomasi” Kavkazdagi ta’sirini kengaytirishga harakat qilayotgan davlatlar o’rtasida muvozanat yaratishga bo’lgan urinish edi. Ko’pchilik e’tibordan qochirmagan bir omil diqqatga sazovor: Amerika kompaniyalarining birgalikdagi ulushi boshqa kompaniyalarnikiga qaraganda kattaroq edi. Bu tasodifmi yo ustalik bilan yashirilgan natijami?

Haydar Aliyev, Kavkazdagi yangi o’yin qoidalarini belgilar ekan, eng qudratli davlatlar hamda mintaqa mamlakatlarini o’z siyosatini shu qoida asosiga qurishga taklif qilardi. Ozarbayjon singari uncha katta bo’lmagan davlatning buyuk hokimiyatlar bilan muzokaralarda teng ishtirokini ta’minlash uchun favqulodda zako va keng dunyoqarash kerak edi. Qabul qilingan qarorlar va tashlangan qadamlar to’g’riligiga ishonch hosil qilish uchun Haydar Aliyevga Bill Klinton bilan vositachilarsiz dialog muhim edi. U o’z mamlakatining kelajagiga bo’lgan munosabatni Amerika Qo’shma Shtatlari Prezidentining o’zidan eshitmoqchi, bu qudratli davlat Ozarbayjon mustaqilligi va mamlakat rivojining strategik yo’nalishini rostdanam qo’llab-quvvatlashini bilmoqchi edi. Shu bilan bir qatorda, Bill Klinton bilan uchrashuv Haydar Aliyev hokimiyati Qo’shma Shtatlar tomonidan tan olinganini anglatardi.



## “ASR SHARTNOMASI” IMZOLANDI

Haydar Aliyevning uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati shunda ediki, u qisqa muddat ichida yigirmaga yaqin neft shartnomalarining imzolanishiga erishdi, ular, oldin ham aytilganidek, muhim iqtisodiy ahamiyatga ega edi. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlash bilan bir qatorda Prezident siyosiy kapital orttirish imkoniyatini ham qochirmasdi: har bir imzolangan shartnoma siyosiy voqeaga aylanardi. Bu haqda qanchalik ko‘p gapirishsa va yozishsa, jahon hamjamiyati Ozarbayjon strategik ahamiyat kasb etishiga shunchalik ko‘p ishonib borardi. Albatta, imzolangan shartnomalar soni ortishi asnosida jamoatchilik fikri va muhokamalar mavzusi ham o‘zgarib borar edi. Bu tabiiy hol, lekin shuni ham unutmash kerakki, to‘la ma‘nodagi ilk neft shartnomasi bu o‘sha tilga olingan “asr shartnomasi” edi. Bu kelishuvning imzolanishi nafaqat Ozarbayjon Respublikasi Davlat neft kompaniyasining muvaffaqiyati, balki Ozarbayjon diplomatiyasining g‘alabasi bo‘ldi. “Asr shartnomasi” Ozarbayjon davlatchiligi va mustaqilligining mustahkamlanishida asosiy rol o‘ynagan omillardan biri bo‘ldi. Unutmash lozimki, uning imzolanishi oson kechmadi. Kelishuv imzolanishiga olib kelgan voqealar alohida e‘tiborga molik deb hisoblayman.

Abulfaz Elchibeyning Londonga tashrifi 1993-yil iyuliga mo‘ljallangan edi. Asosiy maqsad – Ozarbayjon Prezidenti tomonidan ilk neft shartnomasining imzolanishi. Ammo Ganjada isyon ko‘targan va Bokuga qaytgan Surat Husainov ta‘sirida Elchibey hokimiyatdan voz kechdi va ona qishlog‘i Kelekiga ketdi. Tashrif amalga oshmay qolib ketdi.

Haydar Aliyev neft shartnomalari bo‘yicha barcha muzokaralarini shaxsiy nazoratiga olishga majbur bo‘ldi. Gap shundaki, o‘ttiz yilga mo‘ljallangan ko‘p mil-

liardli strategik kelishuvlarning tayyorlanishi juda murakkab jarayon. Mamlakat uchun o'ta muhim bunday shartnomalarning tayyorlanishi va imzolanishida ishtirok etadigan odamlar yuqori professional salohiyatga ega bo'lmog'i lozim. Afsuski, u vaqtlar bunday mutaxassislar kam edi. Bundan tashqari, muzokaralarda ishtirok etadigan odamlarga bo'lgan ishonch ham muhim omil.

Prezident muzokaralar o'tkazishni unga Rasul Quliyev tomonidan tanishtirilgan Marat Manafovga topshiradi. Uning fikricha, Manafov sersalobat, tajribali ishbiarmon odam edi. Asli Ozarbayjon bo'lgan M. Manafov bir muddat Chexiyada yashagan, Sharqiy Yevropada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan edi. Muzokaralar uning rahbarligi ostida o'tadi.

Bir muddatdan so'ng meni Davlat departamentiga, Richard Kozlarich bilan uchrashuvga zudlik bilan chaqirtirishdi. AQSH hukumati vakili qattiq achchiqlangan edi. Darrov masalaga ko'char ekan, Kozlarich Londonda o'tgan muzokaralarda Manafov 300 million AQSH dollari miqdorida pora so'raganini aytdi. Uning fikriga ko'ra, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi, Ozarbayjon rahbariyati darhol chora ko'rishi shart.

Elchixonaga qaytib, shu zahotiyiq Haydar Aliyevga qo'ng'iroq qildim. Prezident o'z odatidan chiqib ketmagan holda meni oxirigacha tingladi, so'ng bu haqda bilishini va eng qisqa muhlatda chora ko'rishini aytdi. Birorzdan keyin Manafov muzokaralardan chetlatildi. Achinarli fakt. Ammo shu tufayli muzokaralar noma'lum muddatga qoldirilgani undan-da achinarli.

Prezident tashlagan navbatdagi odim muxolifat tomonidan tanqid va ig'vo bilan kutib olindi, ammo parda ortidagilar davlat rahbarining harakatlarini to'g'ri tushundi. "Asr shartnomasi"ni eng yaqin vaqt ichida imzolash shart edi; Ozarbayjonning strategik manfaatlari shuni talab

qilayotgan edi. Kechikish yoki mag'lubiyat mamlakatga qimmatga tushardi. Prezidentga nafaqat mutaxassislar, balki u to'liq ishona oladigan odam kerak edi, u Ozarbayjon neft strategiyasini ishlab chiqishda davlat rahbarining safdoshi bo'lmog'i lozim edi. Shu tariqa, Prezident Haydar Aliyev o'z o'g'li Ilhom Aliyevni Davlat neft kompaniyasi vitse-prezidenti etib tayinladi.

Ilhom Aliyev boshchiligidagi delegatsiya Xyustonga keldi. Uch oy mobaynida uzluksiz ish davom etdi, nihoyat, kelishuv loyihasi tayyor bo'ldi.

1994-yil 20-sentabrda Bokuda tantanali vaziyatda "asr shartnomasi" imzolandi. Ikki kundan keyin esa Haydar Aliyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining sessiyasida ishtirok etish uchun Nyu-Yorkka ravona bo'ldi.

## OZARBAYJON “PAPKASI” KLINTONNING ISH STOLI USTIDA

Klinton ma'muriyatining yangi mustaqil davlatlarga nisbatan siyosati me'mori Strob Telbot Boris Yelsinni xush ko'rardi. Bu odam har doim “Rossiya birinchi o'rinda” nuqtai nazarini olg'a surardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ozarbayjon va AQSH Prezidentlarining uchrashuvi hech qanday asosli sabablarsiz uzoq vaqt ortga surib kelindi. Oldin qayd qilib o'tganimdek, u Ozarbayjon Respublikasi mustaqilligining e'tirof etilishida muhim o'rin tutardi. Amerika Qo'shma Shtatlari Ozarbayjon mustaqilligini rasman tan olganiga qaramay, kundalik siyosatda ular Rossiya manfaatlarini ustun qo'yardi. Klintonning Aliyev bilan uchrashuvi Ozarbayjon “papkasi” Telbot stolidan Amerika davlati rahbarining stoliga ko'chib o'tishini, mamlakatimiz mustaqilligining to'laqonli tan olinishini hamda rasmiy Moskvaga bu fakt haqida xabar yo'llanganini anglatar edi. Davlat suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan geostrategik yo'nalishini davom ettirish uchun Haydar Aliyev buyuk hokimiyat egasi Bill Klinton ko'magiga tayanishi va bunga o'zi guvoh bo'lishi darkor edi.

Ozarbayjon diplomatiyasi shu uchrashuvni tashkil etish uchun amalga oshirgan barcha sa'y-harakatlar tafsilotini o'quvchiga yetkazish bizning maqsadimiz emas. Bu juda qiyin masalaligi ravshan. Ammo Oq Uyda ikki Prezident uchrashuvining tashkil etilishi uchun rostdanam ko'p harakat qilingan.

Hozircha esa BMT doirasida Nyu-Yorkda uchrashuv o'tkazish rejalashtirilayotgan edi. Bundan bir kun oldin Bill Klinton Boris Yelsinning BMTdagi chiqishini eshitishni niyat qilganini aytdi. Rossiya tomoni RF Prezidenti chiqishini belgilagan vaqt Klinton va Aliyev uchrashuvi tayinlangan

soatlarga to'g'ri kelib qoldi. Ozarbayjon Prezidentining yuzdan ortiq davlat va hukumat rahbarlari qatnashgan tadbihdagi grafigi bir necha soat ichida o'zgartirib chiqildi. Nihoyat, sun'iy yo'l bilan yaratilgan oxirgi to'siq yengib o'tildi. 1994-yil 24-sentabrda ikki davlat prezidentlari Klintonning Nyu-Yorkdagi qarorgohi – "Uoldarf-Astafi" mehmonxonasida uchrashdi.

Odatda sammitdagi o'ttiz daqiqalik uchrashuvning yarmi tarjimaga ketadi. Qolgan o'n besh daqiqani ikki davlat rahbari o'rtasida taqsimlasa hamda hurmat izhor qilish uchun ajratilgan vaqt olib tashlansa, ma'lum bo'ladiki, Haydar Aliyev bor-yo'g'i besh daqiqa ichida buyuk davlat yetakchisiga o'z mamlakatining muammolarini bayon etib berishi, uning qo'llab-quvvatlashiga erishishi, asosiysi – hamsuhbatini bunday uchrashuvlarni davom ettirish zarurligiga ishontirishi lozim edi.

Yonida turganim shaxsning buyukligiga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Ozarbayjon mustaqilligi men uchun bu dunyoda har narsadan afzal. Davlat rahbari qanday ehtiros bilan mamlakat mustaqilligi yo'lida jonbozlik ko'rsatayotganiga, ko'mak olishga harakat qilganiga o'z ko'zlarim bilan guvoh bo'lganman... Darhaqiqat, ehtiros yuqumli bo'ladi. Uchrashuv reglament tashqarisiga chiqib ketdi, lekin Klintonning qiziqishi so'nmayotgan edi. So'nishi ham mumkin emas edi. Axir uning qarshisida o'tirgan odam qisqa vaqt ichida o'z mamlakatining birodarkush fuqarolik urushidan qutqargan va bir necha kungina muqaddam "asr shartnomasi"ni imzolagan edi.

Klintonning qiziqishini uyg'otgan tafsilotlardan biri Aliyevning o'tmishi edi – Amerika davlati rahbari qarshisida sobiq sovet imperiyasini boshqargan odamlardan biri o'tirardi. Uchrashuv nihoyasida Klinton Amerika – Rossiya munosabatlariga to'xtalib o'tdi hamda Boris Yelsin bilan qanday muomala qilish borasida tajribali mehmonidan maslahat oldi...

Voqealarning keyingi tahlili shuni ko'rsatadiki, Nyu-Yorkdagi uchrashuvda Haydar Aliyev oldiga qo'yilgan maqsadga erishgan edi. Amerika Qo'shma Shtatlari so'zda emas, amalda ham Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlay boshladi. Ammo sun'iy to'siqlar zanjiri uzilmas edi. Nyu-Yorkka tashrifning oxirgi kunida Ozarbayjon Prezidenti sharafiga banket uyushtirildi. Tantanali marosim boshlanishidan bir soat oldin Haydar Aliyev qayg'uli xabar oldi: Bokuda Milliy Majlis raisi o'rinbosari Afiaddin Jalilov va Prezident huzuridagi maxsus boshqarma boshlig'i Shamsi Rahimov o'ldirilgan edi. Qotilliklar siyosiy xarakterga egaligiga hech qanday shubha yo'q edi. Bunday qayg'uli xabarlarga qaramay, Prezident stol atrofida joy oldi. Protokolga muvofiq, u hech narsa bo'lmaganday to'plangan mehmonlarni o'z davlati bilan tanishtira boshladi.

Yana takrorlayman, farzand ko'rgan hamma ham ota-ona bo'lib qolavermaydi. Ota-ona bo'lish farzandni baloqazodan asrash, uning ulg'aytirish va tarbiyalash demak. Prezident Aliyevning Ozarbayjon xalqi oldidagi asosiy xizmati aynan shunda. Ozarbayjon xalqi mustaqillikka erishdi, Haydar Aliyev mustaqillikni reallikka aylantirdi.

## “MEN MUALLIM EMASMAN, MEN – PREZIDENT”

Haydar Aliyev favqulodda inson edi. Uning nigohi ostida odam erib ketardi go‘yo. Bir kuni uch og‘ayni oliy martabali bir amaldornikiga mehmonga kelishdi, uning ismini aytmay qo‘yaqolay. U mehmonlarni tantana bilan kutib oldi. Suhbat avjiga chiqqanida qo‘qqisidan telefon jiringlab qoldi. Kabinet egasi telefon go‘shagini tezda ko‘tardi: “Eshitaman, janob Prezident”. “Prezident” so‘zini eshitgan mehmonlar o‘rnilaridan turib, xonani tark etmoqchi bo‘lishdi, ammo amaldor unga telefon orqali berilgan savolga quyidagicha javob berdi: “Men yolg‘izman, janob Prezident”. Mehmonlar qotib qoldi, birozdan so‘ng o‘rinlariga qayta cho‘kdi. Amaldorning suhbatdagi ishtiroki “Ha” va “Eshitaman” so‘zlarini takrorlash bilangina cheklanar edi. Nihoyat, mashaqqatli telefon suhbatni nihoyasiga yetdi. Mehmonlardan biri bir lahza davom etgan sukunatni buzib, hech narsa bo‘lmaganday suhbatni davom ettirdi. Uning so‘zini kabinet xo‘jayini bo‘ldi. U boshini og‘ir ko‘tarib, zaif ovozda: “Muhtaram, men hozirgina telefon orqali Haydar Aliyev bilan gaplashdim. O‘zimga kelib olishimga vaqt ber”, dedi.

Hajviy hikoyaga o‘xshovchi yana bir voqea. Hali sovet davrida, Haydar Aliyev respublika rahbari bo‘lganida Boku chetida joylashgan bir korxonada direktori u bilan uchrashishga urinardi. Ancha vaqtdan keyin uchrashuv nihoyat amalga oshdi. Direktor kabinetga kirdi, Haydar Aliyevning qo‘lini siqib qo‘ydi, unga taklif etilgan yerga o‘tirdi va... tili kalimaga kelmay qoldi. Aliyevni ko‘rishga bunchalar talpingan rahbarni tuyg‘ular yengdi, u to‘l-qinlanib... dodlab yig‘lay boshladi. Haydar Aliyev hayron qoldi. Boshida u taajjubini bildirmadi, vaziyatga insoniy nuqtai nazardan yondashib, tashrifchini tushunishga,

uni tinchlantirishga harakat qildi: “Yetar, o‘zingni qo‘lga ol”. Respublika rahbarining ovozidan amaldor battar hayajonga keldi, o‘pkasi to‘lib, yana ho‘ngray boshladi, bu yerga ko‘tarib kelgan masalasini hech ochiqalay olmadi. Aliyevning sabr kosasi to‘ldi. Ko‘z yoshlaridan nafas ololmayotgan direktorni tinchlantira olmagan Haydar Aliyev unga “Yaxshi, bor” deb, kabinetdan kuzatib qo‘ydi... Yillar davomida Haydar Aliyev audiyensiyasini kutgan yirik amaldor respublikaning birinchi shaxsini ko‘rishi bilan dovdirab qoldi va bir og‘iz gapira olmadi.

Qo‘rquv – uchrashuv chog‘ida Haydar Aliyev uyg‘otadigan birinchi tuyg‘u. Irodani kishanlab qo‘yadigan qo‘rquv va jur‘atsizlik simpatiya va ijobiy kayfiyat bilan o‘zgarar edi, uning psixologik sezgirligi, suhbatdosh kayfiyatini payqash qobiliyati bunga sabab edi.

1995-yili Nyu-Yorkda BMTning ellik yillik yubileyi nishonlanayotgan edi. Megapolis qaynoq qozonni eslatardi. Tadbirda yuz ellikdan ortiq davlat va hukumat rahbari ishtirok etayotgan edi. Har birining nutqiga bor-yo‘g‘i besh daqiqadan vaqt ajratilgan edi. Odatda Prezident Aliyevning chiqishlari uzoq davom etardi, balki u hayotida birinchi marta bu qadar qisqa nutq so‘zlashi kerak edi. U oldindan tayyorlandi, zalda to‘plangan Ozarbayjon delegatsiyasi vakillariga tarqatilgan, bor-yo‘g‘i ikki sahifadan iborat matnни yozib tayyorladi. Matnning bir nusxasi Prezidentda edi. Haydar Aliyev minbarga shaxd bilan ko‘tarilib, ko‘z oldiga matnни qo‘ydi va nutqni boshladi. Boshida men u qog‘ozdan o‘qiydi deb o‘ylagandim. Unday bo‘lib chiqmadi. Ozarbayjon davlati rahbari nutqni yoddan aytardi. Men goh Prezidentning yuziga, goh o‘z qo‘limdagi matn nusxasiga qarardim. Hayratlanarli. Haydar Aliyev o‘z chiqishini yodlab olgan, uni so‘zlash chog‘ida faqat bitta so‘zni tushirib qoldirgan, buning uchun ajratilgan besh daqiqa o‘rniga yetti daqiqa sarflagan edi. U yana



shaxd bilan minbardan tushib, Ozarbayjon delegatsiyasiga yaqinlashdi. Hech kim hayratini yashira olmadi. Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti yuzidan ter yomg'ir bo'lib oqardi.

To'g'rilik va sadoqat – Haydar Aliyev har narsadan ustun qo'yadigan ikki fazilat mana shular edi, ayniqsa kadrlar siyosatida bunga katta e'tibor qaratardi. Menimcha, bu muhim fakt, u haqda gapirib bersa arziydi. Boshida men nega u aynan shu xislatlarga urg'u berishini tushunmasdim. Ayniqsa ayrim amaldorlarning noprofessionalligiga duch kelganimda hayron qolardim. Ammo oxir-oqibat bir qator voqealarga guvoh bo'ldimki, bunday yondashuvning mohiyatini tushuna boshladim. Darhaqiqat, Haydar Aliyev odamlarning iste'dodini qadrlardi, ammo uning ishonchiga kirish osonmasdi, buning uchun dastlab uzoq sinovlar yo'lini bosib o'tish talab etilardi. AQShga 1997-yili amalga oshirgan rasmiy tashrifiga qadar u menga katta ishonch bildirmasdi. Prezidentga men Vashingtonga elchi etib Xalq jabhasi hukumati tomonidan tayinlanganimni eslatib turuvchi g'alamislar ham yo'q emasdi. Zarur bo'lganda ular bu holatni bo'rttirib, faktlarni ters talqin etishdan ham toymasdi. Darvoqe, Jayxun Mullazodaning diplomatik xizmatga jalb etilishi fakti shu maqsadda ko'pirtirilardi. Masalan, Prezident Chikagodagi ozarbayjon jamoati vakillari bilan uchrashganida ular orasida Mullazoda ham bor edi. Kimdir Prezidentning qulog'iga ushbu tadbirga Jayxunni shaxsan men taklif qilganimni shifshigan. Uchrashuvdan so'ng Haydar Aliyev meni o'z xonasiga taklif qildi va so'radi: “Nega Mullazodani taklif qilding?” Men Amerika erkin mamlakatligini, har bir odam xohlagan yig'ilishiga borishga huquqliligini, bu yerda haddan oshishga salbiy munosabatda bo'lishlarini aytdim. Haydar Aliyev indamadi, uning yuz ifodasidan meni tushunganini ko'rdim. Tashrifi yakunida Prezident yana meni chaqirdi va tashrifni tashkil etish bo'yicha olib borilgan ishga yuqori

baho berdi. Bir muddatdan so'ng Londonda Ilhom Aliyev bilan uchrashdim. "Odatda odam hech kimni maqtamaydi, – dedi u. – Ammo sizni maqtadi".

Kimnidir o'ziga yaqinlashtirarkan, unga ishonch bildirarkan, Prezident to'la sadoqatni talab qilardi. Ismlarni tilga olish ehtiyoji yo'q, biroq u ishonib, yuqori lavozimlarga tayinlagan ko'p odamlar pirovardida undan yuz o'g'irganini bilaman. Bu esa Prezidentni homush qilardi. Nomunosib, beoqibat odamlar ko'p edi. Beixtiyor o'ylab qolasan: "Haydar Aliyevni u hokimiyatda bo'lgan o'ttiz yil davomida necha kishi sotib ketdi?" Aynan shuning uchun u har doim o'zini faqat sinalgan, sadoqatli kadrlar bilan o'rashga uringan bo'lsa ajabmas. Buning badali esa og'ir edi, chunki bu holatda ishning katta qismini uning o'zi qilishiga to'g'ri kelardi.

Haydar Aliyev o'z qobiliyatiga, o'zining haqligiga ishonardi, bu bejizga emas. Naxchivonda ishchi oilasida tug'ilgan bu inson Sovet Ittifoqiday buyuk hokimiyatni boshqargan odamlardan biriga aylandi. Bu yo'l o'z-o'zidan katta hayotiy maktabdir. Unda mazkur yutuqlardan tuyadigani ifixorni sezish qiyinmasdi. Shunga bo'lsa kerak, u o'zini o'qituvchi, atrofdegilarni esa talabalari deb hisoblardi. Va o'qituvchi sifatida birinchi galda e'tibor talab qilardi. Ammo, ochig'ini aytganda, unga an'anaga muvofiq "muallim" deb murojaat etishlari yoqmasdi. Vashingtonga ilk safari doirasida unga bir necha marta "Haydar muallim" deya murojaat etgandim. U keskin ohangda so'zimni bo'lgan: "Nega meni bunday atayapsan? "Muallim"ing nimasi? Bu yerda kim "muallim"?" Men bu so'zni hurmat ramzi o'laroq ishlatayotganimni tushuntirdim. "Men muallim emasman, men – Prezidentman", dedi u.



Haydar Aliyev Bill Klinton bilan uchrashuvga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Odatda tashrif chog'ida uning ishchi grafigi tirband bo'lardi, ammo bu safar u barcha uchrashuvlarni bekor qildi. Tarjimon delegatsiya bilan birga kelgan Elchin Amirbekov bo'ldi. Vatanparvarligi junbushga kelgan bu iste'dodli yosh yigit (hozir u Jenevada BMT vakili bo'lib ishlayapti) rus tilini yaxshiroq bilardi. Bu safar Prezident Ozarbayjon tilida gapirishga qaror qildi, shu bois xavotirda edi, negaki yaqindagina tayinlangan yosh tilmochni yaxshi tanimasdi. Uchrashuv bitdi, Klinton Aliyevni eshikkacha kuzatib qo'ydi. Lift ochildi. Prezident savol berdi: "Qanday?" Birinchi bo'lib quvonchini yashirib o'tirmagan Vafo Quluzoda javob qaytardi: "Tarjima juda yaxshi bo'ldi, janob Prezident". Haydar Aliyevning so'zlari uni esankiratib qo'ydi: "Tarjimon haqida so'ramadim, men qanday gapirganimni so'radim".

U ustoz sifatida qanchalar buyuk bo'lsa, yangi bilimlar olishga ham shunchalar ochiq edi. Bu tushunarli: zamon o'zgarib boryapti, yangi voqealardan ortda qolmaslik kerak. Bir safar u hazillashib, oldin hamma kabinetda o'tirganini, hozir esa hech kimni ish joyidan topib bo'lmasligini, hamma mobil telefon sotib olib, cho'ntagiga solib yurganini aytdi. "Menga ham bittasini berishdi, – dedi u. – Endi u qanday ishlashini tushunib olish kerak". Vashingtondagi ziyofatlardan birida Haydar Aliyev Zbignev Bzejniskiye murojaat etib, Siyosiy byuro a'zosi bo'lganida u haqda, uning Sovet Ittifoqini parchalashga urinishlari haqida ko'p eshitganini, ammo o'sha yillarda bu kabi harakatlarga qarshi bo'lganini tan oldi. Lekin keyinchalik u kommunistik kelajagi yo'q tizim ekanligi haqida xulosaga keldi.

Shu kabi xislatlari bois 1993-yildagi va 2003-yildagi Haydar Aliyev orasida katta tafovut sezilardi. U o'zgarimas shaxs emasdi, uning hayotga bo'lgan qarashlari hayot bilan birga o'zgarardi. O'z vaqtida KGB raisi bo'lgan bu odam

mustaqillik yo'liga kirgan mamlakatda yangi demokratik tizim qurishda qatanashadi deb kim ham o'ylabdi deysiz? Ishonchim komil, vaqt o'tadi, yillar ketidan yillar kechadi, lekin bitta savol siyosatshunoslar va tarixchilar muhokimasalarida bahsga sabab bo'lib qolaveradi – Haydar Aliyevni demokratik yetakchi deb atash mumkinmi?

Kishi tafakkuri har bir tushunchani muayyan qoliplarga solishga intiladi. Bu tabiiy hol. Tushunchaning bir qismi o'rnatilgan chegaradan yoki barqaror kriteriyalar doirasidan chiqib ketsa, u yo jamoatchilik fikri tomonidan inkor etiladi, yo shiddatli qarshilikka duch keladi.

Bunday turdagi misollardan biri Haydar Aliyevning boshqaruv uslubi edi: “qattiq qo'l” demokratiyasi. Mening fikrimcha, bu tushuncha Ozarbayjon tarixida o'z o'rnini topadi. Gap faqat bir shaxsning o'ziga xosliklari haqida emas, muhim pallaga – Ozarbayjonning taqdiri hal bo'layotgan pallaga to'g'ri kelgan o'n yillik boshqaruv shaklida hamdir. Bugungi realiyalar “qattiq qo'l” demokratiyasi tarix sinovidan o'tgan boshqaruv yo'li ekanligini isbotlaydi.

Biror-bir murakkab muammoni hal etishga kirishishdan avval dastlab ustuvor yo'nalishlarni aniqlab olish joiz. Yetmish yillik sovet hokimiyatidan so'ng tarix Ozarbayjonga yana mustaqil bo'lish imkoniyatini berdi, mustaqillik e'lon qilindi, ammo haqiqat biz o'ylagandan boshqacha edi. 1993-yil yozida Ozarbayjon tashqi kuchlar tajovuziga uchradi, mamlakat ichkarisida fuqarolik urushi tahdidi yuzaga keldi. Respublikani inqirozdan chiqarib olish uchun qattiqqo'l qarorlar qabul qilish va ularning hayotga tatbiq etilishiga erishish zarur edi. Bunday qarorlar parlament majlislarida yoki umumxalq referendumlarida qabul qilinishi mumkin emasdi. Mamlakatda hokimiyat falajlangan, fikrlar tafovuti hukm surayotgan edi. Temir irodaga ega yetakchiga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgandi.

Hokimiyat tepasida turgan inson Ozarbayjonni to'ntarish holatidan chiqarib, tarix tomonidan mustaqillik uchun taqdim etilgan imkoniyatni realizatsiya qilishdagi ustuvor yo'nalishlar ro'yxatini tuzsa, bu ro'yxat tepasida, o'z-o'zidan, suverenitet, milliy yarashuv, tashqi tajovuzni qaytarish, hududiy yaxlitlikni himoya qilish va strategik xarakterdagi boshqa muhim masalalar turardi, ya'ni kechiktirib bo'lmas vazifalar demokratiya masalalaridan ustunlik qilardi. Aynan shu davrda liberal-demokratik boshqaruv Ozarbayjon mustaqilligiga tahdid uyg'otardi.

Yana bir faktni e'tibordan qochirmaylik: demokratiya – ikki tomonli yo'l. Bu yo'ldagi qoidalar faqat davlat rahbari va hukumatga daxldor emasligini unutmaylik. Omma ham xuddi o'sha demokratik qoidalarga og'ishmay rioya etishi darkor. Lekin biz demokratiya nimaligini oxirigacha o'zlashtirmadik. 1997-yili Vashingtondagi Jorjtaun universitetida qilgan chiqishida Haydar Aliyevga demokratiya haqida savol berildi. U tabassum bilan shunday dedi: "Demokratiya olma emaski, bozordan sotib olsangiz. Demokratiya o'rnatilishi uchun uzoq vaqt kerak".

Mamlakatni falajlik holatidan chiqarish uchun Haydar Aliyevga bir yil kerak bo'ldi. Yana takrorlayman, 1994-yil 24-sentabrda u Bill Klinton bilan fuqarolik urushiga yakun yasagan, Armaniston bilan urushda sulh imzolanishiga erishgan, ilk neft shartnomalarini imzolagan davlat rahbari sifatida uchrashdi. Buning barini qo'lga kiritish uchun esa u postsovet muhitida boshqaruvning o'ziga xos uslubidan – avtoritar demokratiyadan foydalandi.

Haydar Aliyev demokratiyaga ishonardi, biroq uni import qilingan shaklda qabul qilmasdi, asosiysi – G'arbning bu kashfiyoti Ozarbayjon barqarorligiga tahdid solganida uni jilovlay olardi. 1998-yili Prezident saylovi paytida men Haydar Aliyevning fikrlash tarzini yana bir bor kuzatdim. U atrofidagi ko'pchilikdan kattaroq bo'lsa ham,

progressiv o'zgarishlarni qabul qilish qobiliyati o'zidan yoshroq odamlardagiga nisbatan kuchliroq edi. Haydar Aliyev saylov kompaniyasini yangi texnologiyalar asosida o'tkazishga, saylov natijalarining jahon hamjamiyati, ayniqsa rasmiy Vashington tomonidan tan olinishiga qiziqayotgan edi. U Vashington bilan to'g'ridan to'g'ri aloqani ushlab turar, mantiqiy asoslangan va sharoitga javob beruvchi metodlarni kechiktirmay ishlatardi. Faxr bilan ayta olamanki, yangi tafakkur kuchlari ushbu saylov kompaniyasi chog'ida bir qator ijobiy o'zgarishlar hayotga tatbiq etilishiga erishdi.

Ozarbayjonda demokratik prinsiplar va plyuralizm rivoj topdi. Bunga hech qanday shubha yo'q. Mamlakatda qariyb qirqta siyosiy partiya ishlab turibdi, bir vaqti besh yuzdan ortiq gazeta chop etilardi. Hukumatning qat'iy belgilangan doirada faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri kuchli muxolifatning mavjud bo'lishidir. Ammo milliy xavfsizlik manfaatlari bilan to'qnash kelganda demokratiya ikkinchi darajaga o'tar edi.

Uinston Cherrill demokratiya boshqaruvning eng murakkab, ammo muqobili bo'lmagan uchun eng maqbul shakli ekaniga e'tibor qaratgan edi. Amerika Qo'shma Shtatlarida elchi bo'lgan odam bu boradagi mulohazalarini bayon etishi oson emas. Amerikaliklar demokratiyaga o'z tajribasidan kelib chiqib qarashni ma'qul ko'radi. Ma'lum ma'noda ular bunga haqli, negaki ikki yuz yildan ortiq davr ichida hayratlanarli iqtisodiy qudrat va yuksak ideallarga asoslangan davlat qura olishdi. Ushbu muvaffaqiyatning bosh sharti shu ediki, bu mamlakatda inson huquqlari va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor edi. Shuning uchundir, amerikaliklar Cherrill fikridan bir qadam oldinda bo'lib, demokratiyaning ustunligiga ishonar va u har qanday mamlakatda o'sib-unib ketadi deb o'ylar? Afsuski, bu gohida chegaradan chiqilishiga, haddan oshilishiga olib keladi.

Har bir xalq faqat o'zigagina xos mentalitetga, o'zgacha madaniyatga ega bo'lib, o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Bunday xilma-xillikni bir standart doirasiga solish mumkin emas. Amerika demokratiyasi – ibrat olish uchun yaxshi o'rnak, biroq u ham kamchiliklardan xoli emas. Ozarbayjon bu demokratiyadan o'z davlat qurilishida foydalanishi mumkin, ammo u yetarli darajada tazyiqqa uchrashi, ishlovdan o'tishi va milliy o'ziga xosligimizga muvofiqlashtirilishi darkor. Jamoatchilik va jahon fikri muhim, ammo o'z zimmasiga davlat qurish mas'uliyatini olgan yetakchi mamlakati taqdirini boshqalarga yoqqaniday hal qilishi kerak emas. Milliy xavfsizlik, strategik manfaatlar masalalari o'rnashib qolgan fikr va xulosalarning tor doirasida hal etilmaydi. Buning uchun esa uzoqni ko'ra bilish, keng dunyoqarash, asosiysi – o'rnatilgan chegaralar ortidan jahondagi vaziyatni ko'ra biladigan intellekt kerak. Avtoritar demokratiya uslublari shu prinsiplarga xizmat qilardi. Haydar Aliyev Ozarbayjon davlatchiligini avtoritar demokratiya asosiga qurdi, bugungi va undan keyingi hukumat esa demokratik qadriyatlarga sodiq qolgan holda bu davlatchilikni rivojlantirishi lozim.

## “AZERBAIJAN INTERNETSHNL” OMILI

Mustaqillikning dastlabki yillarida Ozarbayjon to‘qnash kelgan bosh muammolardan biri axborot vakuumi edi. Amerika jamoatchiligi Ozarbayjon Respublikasi qayerdaligini ham bilmas edi. Mamlakatimiz haqida ma’lumot olishni istaganlar hech narsa topolmasdi, chunki ingliz tilida axborot deyarli yo‘q edi. Uning tanqisligi respublika haqida noxolis fikrlar shakllanishiga olib keldi.

Matbuotda bu borada materiallar kamdan-kam chiqardi. “Washington post”, “Nyu-York tayms” yoki “Washington tayms” kabi gazetalarda Ozarbayjon haqida qisqa sharh chiqishi ham biz uchun ulkan voqeaga aylanardi. Ertalabdan, hali ishga yetib bormasdan Ozarbayjon do‘stlari qo‘ng‘iroq qilib, bu quvonchli xabarni yetkazar, elchixonaning barcha xodimlarini tabriklashni unutmadi. Shunday kunlarning birida telefon tingmay jiringlardi. Biz maqolada darhol Ozarbayjon tiliga tarjima qilib, Bokuga yo‘llardik, va u Ozarbayjon matbuotida qayta chop etilardi.

Elchixonada turgan bir papkani ko‘z qorachig‘iday asrardik. Unda Amerika matbuotidagi Ozarbayjon haqidagi barcha materiallar ro‘yxat qilib borilardi. Boshida u bizga yupqa ko‘rinardi, ammo vaqt o‘tishi bilan bu jamlanmaning hajmi o‘sa boshladi. Papka hajmi oshib borgani sayin xodimlarning unga bo‘lgan qiziqishi kamayib borardi, lekin, menimcha, u hech qachon ahamiyatini yo‘qotmagan. Bugun jahon matbuotida Ozarbayjon haqida ko‘p yoziladi. OAVda mamlakatimiz haqidagi materiallar odatiy holga aylanib qoldi. 1992–1993-yillarda esa bu butun boshli voqeaga aylanardi. Har bir maqoladan so‘ng biz tuyadigan qoniqish hissini tasvirlab berish mushkul.

Yana bir tarixiy fakt xotiradan o‘chmaydi, u kelajak avlodlarga ham ibrat bo‘lishi lozim deb o‘ylayman. Yuzlab ozarbayjon erkaklar, ayollar va bolalar arman bosqinchilari



tomonidan Xo'jaylida qatliom etilgan edi. Ammo jahon matbuoti o'shanda bu jinoyat haqida bilmasdi. Bugun elchixonona har yili Xo'jaylidagi fojia munosabati bilan tadbirlar o'tkazadi. Shunga qaramay, bugun biz tarqatayotgan va o'sha payti tarqatilishi mumkin bo'lgan axborot o'rtasida katta farq bor. Yana bir fakt diqqatga sazovor. Xo'jayli atrofidagi axborot vakuumiga shohid bo'lgan odam uchun G'arb matbuotida chiqqan har bir maqola, yillar o'tib ketganiga qaramay, muhim hodisa bo'lib qolaveradi. Materiallar ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi, ish stolidan saqlanadigan papkalarga solinadi, ularning hisobi yo'qotilgandir balki, lekin odat saqlanib qolgan. G'arb jamoatchiligiga Ozarbayjon haqidagi haqiqatlarni yetkazish – gazeta materiallarining asl mohiyati shunda.

Bu borada "Azerbaijan Interneynshnl" (Azerbaijan International) jurnalining xizmatlari katta. U nafaqat amerikaliklarni, balki butun dunyoni biz bilan tanishtirgan ilk nashr bo'ldi. G'arb standartlariga to'la javob beradigan birinchi professional nashr paydo bo'ldi, uning sahifalarida Ozarbayjonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahvoli va tarixi ingliz tilida yoritilar edi. O'ziga xosligi bois u qisqa vaqt ichida shuhratga erishdi. Bu jurnalning tug'ilish tarixi juda qiziq.

1990-yil bahorida men uch oyga Los-Anjelesdagi Orvay Kaliforniya universitetiga ilmiy komandirovkaga yuborilgan edim. U yerda Farrux Naxchivoniy ismli Ozarbayjon bilan tanishdim. Tabrizning aslzoda oilasiga mansub, Amerikaga tahsil olish uchun kelgan yosh yigit kinematografist edi. Erondagi islom inqilobidan so'ng u AQShda qolib ketgandi. Oliyjanoblik, madaniyat, Ozarbayjon sog'inchi – u bilan gurunglashganda mana shular ko'zga tashlanib turardi. Farrux bir qarashdan ishonch va xayrixohlik uyg'otardi.

Los-Anjelesning Ozarbayjon jamoatchiligi shahar

bog'laridan birida to'planib, milliy bayramimiz Navro'zni nishonlar edi. Farruxning taklifiga binoan biz ushbu tadbirga yo'l oldik. Uning ishtirokchilari ichida Janubiy Ozarbayjondan Amerikaga ko'chib o'tib, Los-Anjelesda muqim o'rnashgan Piruz Xonlu bor edi. Uning mutaxassisligi me'morchilik edi, rafiqasi – amerikalik ayol Betti Bleyer o'rta maktabda ingliz tilidan dars berardi. Ikkisi ham Ozarbayjonga nisbatan muhabbatlarini yashirmasdi. Biz Piruz bilan tezda til topishdik, u ozarbayjon tilini, adabiyotini, musiqasini yaxshi bilardi. Madaniyatga bo'lgan qarashlarimiz mos keldi. Vatanidan olisda, okean ortida yashaydigan ozarbayjon milliy madaniyatni chuqur, ikir-chikirigacha bilishi uni juda qiziqarli suhbatdoshga aylantirardi.

1990-yil noyabrida Ozarbayjon hukumati Bokuda biznes-konferensiya o'tkazayotgan edi. Unda xorijda istiqomat qilayotgan ozarbayjonlar ishtirok etishi lozim edi. Hasan Hasanov o'shanda bosh vaziri mavqeida edi, bu forum uning tashabbuslaridan biri edi. Kaliforniyaga yo'l olishdan avval men "Vatan" jamiyati<sup>5</sup> raisi Elchin Afandiyev bilan uchrashdim. U menga ushbu konferensiyaga AQShda tanishadiganim ishonchga loyiq, vataniga qiziqadigan Ozarbayjonlarni taklif qilishni topshirdi va shu maqsadda bir qancha taklifnomalarni topshirdi. Men konferensiyada ishtirok etish uchun Ozarbayjon hukumati nomidan Farrux Naxchivoniy, Piruz Xonlu va Rafiq Puyoni taklif qildim.

1990-yil bahorida Los-Anjelesda boshlangan tanishuv o'sha yilning kuzida Bokuda haqiqiy do'stlikka aylandi. F. Naxchivoniy, P. Xonlu va R. Puyo Moskva orqali Bokuga uchib kelishdi. U payti faqat SSSR poytaxti orqali chet eldan Ozarbayjonga uchib kelish mumkin edi. Ular

---

*5. Xorijda yashovchi vatandoshlar bilan aloqalar bilan shug'ullanuvchi "Vatan" jamiyati. Keyinchalik Ozarbayjon Vazirlar Mahkamasi huzuridagi shu nomli qo'mitaga aylantirildi.*

“Ozarbayjon” mehmonxonasida to‘xtashdi. Ular yetib kelgan kuni kechki soatlarda mehmonxonada to‘plandik. Moskva orqali uchib kelarkan, mehmonlar sovet hayotini kuzatishga muvaffaq bo‘ldi, bu yerda, Kaspiy sohilida esa erkinlikni his qildi. Ular radioto‘lqinlarda Shavkat xonimning<sup>6</sup> ovozini eshitdi, uning xonishidan uyg‘onga nostalgiya ilk bor qadam qo‘yganlari Shimoliy Ozarbayjon bilan uchrashuv quvonchiga aylandi, ular bu zaminga bir umrga bog‘lanib qoldilar. Yillar o‘tib ketganiga qaramay, Farrux Naxchivoniy bugun ham Kaliforniyada Ozarbayjon tilida teledasturlar tayyorlaydi, vatandoshlarga Ruboba xonimning<sup>7</sup> maftunkor ovozini yetkazadi, Ozarbayjon haqidagi haqiqatni hikoya qiladi.

1992-yil 15-may. Men yana Los-Anjelesga ilmiy komandirovkaga ketayotgandim, bu safar uch haftaga. Aeroportda edim, lekin uchib keta olishimga iymonim komil emasdi. Boku dovulli ob-havo paytidagi Kaspiy misoli besaranjom edi. Bir necha kun muqaddam Ozarbayjon Shushani qo‘ldan boy bergandi. Ayoq Mutalibov<sup>8</sup> hokimiyatni topshirgan, ammo qaytib kelish fikridan qaytmagan edi. Qisqa muddatga tark etgan shahrim bir necha hafta ichida bu qadar keskin o‘zgarib ketishini xayolinga sig‘dira olmasdim.

Los-Anjelesga kelib, dastlab fors tilida ishlovchi televizion kanalning Ozarbayjoncha dasturi tahririyatiga tashrif buyurishga qaror qildim. Intervyu berdim, Ozarbayjondagi voqealar haqida so‘zlab berdim.

---

6. *Shavkat xonim – Shavkat Alakbarova (1922–1993), taniqli Ozarbayjon mug‘omlari, xalq va estrada kuylari hamda romanslar ijrochisi.*

7. *Ruboba xonim – Ruboba Murodova (1933–1983), taniqli ozarbayjon xonandasi, asli Janubiy Ozarbayjondan, o‘z hayotini va ijodini Shimoliy Ozarbayjon bilan bog‘lagan.*

8. *Mutalibov Ayoq Niyoz o‘g‘li – Ozarbayjon KP MK birinchi kotibi, 1990-yil yanvaridan 1992-yil martiga qadar Ozarbayjon Prezidenti. Xalq jabhasi tomonidan ag‘darilib, Rossiyaga qochib ketgan, hozir ham o‘sha yerda yashaydi.*

Mamlakatda boshlangan milliy ozodlik harakati aks sadosi diasporaga ham ta'sir ko'rsatayotgandi. Hissiyotlar junbushga kelgan, Ozarbayjonni chet elda targ'ib qilish uchun barcha kuchlarni safarbar qilish zarurati haqida gapirilayotgan edi. Los-Anjelesda Ozarbayjonlar ko'p edi, biz Kaliforniyada o'z jurnaliga ega Ozarbayjon tashkilotini tuzish kerak degan qarorga keldik. Men Betti Bleyerning muharrirlik qobiliyatini bilardim, uni Piruz Xonluning tashkilotchilik iqtidori bilan birlashtirib, sifatli nashr chiqarishni boshlash mumkin edi.

1992-yil 13-noyabrda elchi etib tayinlanganim haqidagi farmon chop etildi. Ertasi kuni Los-Anjelesdan tabrik faksini oldim, uni Betti yo'llagan edi. U qisqa, ammo qat'iyatli gap bilan tugagan edi: "Biz tayyormiz". Darhaqiqat, ular tayyor edi. Biz darhol ishga kirishdik.

"Azerbaijan Interneysthn" jurnalining birinchi soni 1992-yil dekabrda chop etildi. Bu ingliz va Ozarbayjon tillaridagi kichkina oq-qora nashr edi. Chop etilgan ilk materiallar orasida Mirjalolning "İclas qurusu" ("Majlisdan charchagan qoq non") hikoyasi ham bor edi. Birinchi son yorqin emasdi, lekin "Azerbaijan Interneysthn"ning keyingi sonlari undan farq qilardi. Amerikaliklar birinchi marta ingliz tilida Ozarbayjon haqida jurnal ko'rishdi. "Azerbaijan Interneysthn"ning ikkinchi soni G'arb standartlariga to'la javob berardi.

Sifati va professional darajasi tufayli nashrni neft kompaniyalari qo'llab-quvvatlay boshladi. "Azerbaijan Interneysthn"da reklama joylashtirgan ilk shunday kompaniya "Yunokal" bo'ldi. Bu tabiiy edi, chunki "Yunokal" Kaliforniya kompaniyasi edi, uning bosh ofisi Los-Anjelesda joylashgandi. Uning uning prezidenti Jon Aymlbilantinishdim. 1992-yili, elchi etib tayinlanishimdan oldin Kaliforniyada ekanman, Piruz Xonlu bilan birga gumanitar yordam taqdim etishga ixtisoslashgan bir

necha tashkilotda Ozarbayjonga dori vositalari yuborish masalasida bo'lgandim. "Yunokal" tibbiy yukni tashishga yordam berdi, uning bu qadamini boshqa tashkilotlar ham qo'llab-quvvatladi. "Azerbaijan Interneyshnl"ning mavqei ortishi bilan jurnalga ko'rsatiladigan moliyaviy ko'mak ham oshib borardi.

Dastlabki bir necha yil davomida Betti va Piruzga qo'ldan kelgancha yordam berdik, har bir son ustida mehnat qildik. Betti Bleyerning ishtiyoqi ortib borardi, u go'yoki hayotidan yangi mazmun topgan edi. "Azerbaijan Interneyshnl" uning uchun navbatdagi mashg'ulot emasdi, bu uning farzandi edi, bu uning qalbini va ongini band etdi. Uni ulg'aytirish, ommalashtirish hayotining mazmuniga aylanib qoldi. Bu amerikalik ayol "Azerbaijan Interneyshnl" jurnalini yaratdi, aslida o'zi uchun uning sahifalari bag'ishlangan mamlakatni kashf qildi, unga mehr qo'ydi, uning madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilishni o'zining bosh maqsadiga aylantirdi.

1993-yil boshida, AQShga endi tashrif buyurganimda Betti Vashingtonga keldi va biz bilan bir necha kun bo'ldi. Uning tashvishlari faqat "Azerbaijan Interneyshnl" bilan bog'liq emasdi. Bir paytning o'zida u bizni amerikacha yashash va fikrlash tarziga o'rgatayotgan edi. Ra'no xonim haligacha o'sha kunlarni tabassum bilan yodga oladi. Vashingtondagi hayotimiz boshida Ra'no xonim uyga xaridlar qilish uchun chiqar, ammo har safar quruq qo'l bilan qaytardi. Aytaylik, bizda ko'rpani oq jildga solish urf bo'lgan, Amerikada esa bunday narsa umuman yo'q. Betti uni katta savdo markaziga eltdi, bu safar ular xarid amalga oshirib qaytishdi. Savdo markaziga tashrif chog'idagi suhbatlari oilaviy xotiraga aylanib qolgan bo'lib, bugun ham esga olinadi.

"Azerbaijan Interneyshnl" jurnalining har bir sonini birgalikda muhokama qilardik. Bunday "rejalashtirish

majlislari” soatlab davom etardi. Los-Anjeles va Washington vaqti orasidagi tafovut uch soatni tashkil etadi. Odatda Betti kechki soatlarda, biz ishni tugatganda qo’ng’iroq qilardi. Ba’zan biror kichik masala cheksiz fikr almashuvga aylanib ketardi. Vaqt hissi telefon simining ikki tarafida ham g’oyib bo’lardi. Betti bizni tungi o’n ikki yoki birgacha telefon oldida tutib turgani ham ko’p bo’lgan – bu Washingtonda tungi soat uch yoki to’rt degani. Ammo, yana takrorlayman, vaqt hissini yo’qotardik. “Xudo haqqi, Hafiz, tungi o’n ikkiligini bilmabman”, – uzr so’rardi muharrir, bunda Los-Anjelesda tungi o’n ikkiligini unutardi. Ammo bu muhim emasdi. Bir narsani bilaman: biz shu telefon suhbatlaridan va muhokamalardan ulkan qoniqish hosil qilardik.

“Azerbayjan Interneyshnl”ning muvaffaqiyatiga ko’p odamlar hissa qo’shgan. Bu shubhasiz. Ammo jurnalning oliy darajada taqdim etilishi, uning ommalashishida Haydar Aliyevning rolini e’tirof etish lozim. Betti Bleyerning Ozarbayjon Prezidenti bilan ilk intervyusini esga olaylik. Suhbatdan u bir olam taassurot olgandi, tinimsiz gapirar, bu odam haqidagi fikrni o’zgarganini takrorlashdan charchamasdi. Haydar Aliyev qiyofasida Betti Bleyer haqiqiy davlat arbobini uchratdi. Ikkisi ham bir-biriga ijobiy munosabatda edi. Prezident jurnalning ahamiyatini tushunar, Betti Bleyer va Piruz bajarayotgan ishni qadrlardi. Imkon qadar muharrir bilan uchrashar, ish jarayoniga qiziqish bildirardi.

Shu tariqa nufuzli xalqaro nashrga aylangan jurnal yaratildi. Hozirda “Azerbayjan Interneyshnl”ning o’z internet-sayti bor, u tom ma’noda Ozarbayjon haqidagi beba-ho bilimlar manbaidir. Bugun Ozarbayjonga kelishga tayyorlanayotgan har bir kishi mamlakat bilan tanishishni shu jurnaldan boshlaydi. Jahonning mashhur kutubxonalari jurnal obunachilaridir. Har bir son Ozarbayjonning chet eldagi elchixonalari, mamlakatimizda ishlayotgan kom-

paniyalar ofislari uchun chinakam qo'llanmaga aylanadi.  
"Azerbayjan Interneyshnl"ning 1992-yili dunyo yuzini  
ko'rgan ilk oq-qora soni esa ish stolimdagi papkalardan  
birida saqlanadi.

## ONADIR HAR KISHIGA O'Z VATANI

*Shoirimiz Abbos Sihat rost aytgandi:*

*Onadir har kishiga o'z vatani,  
Erkalar siynasi ustinda ani.  
Sutidir kim, aylanib qonim o'ldi,  
U mening sevgili jononim o'ldi.*

Odamlarning taqdiri har xil bo'ladi, vatanga bo'lgan muhabbat ham turlicha namoyish etiladi... Vatanda yashab, uning quvonch va tashvishlarini baham ko'radiganlar bor, ma'lum sabablarga ko'ra vatanni tark etishga majbur bo'ladiganlar bor. Ular vatanini uzoqdan sevrishiga, o'zga yurtda bo'la turib uning taqdiridan qayg'urishiga to'g'ri keladi. Bunday insonlar immigrantlarni tashkil etadi.

Immigrantlarning mentaliteti g'alati: kimdir siyosiy qarashlari bois ko'chib ketgan, kimdir moddiy qiyinchiliklar bois yo'lga otlangan, kimdir oila qurgan va hokazo. Ammo, vatanni tark etish sababidan qat'iy nazar, u har doim ona yerini sog'inadi... Ular qo'nim topgan mamlakatda yangi mentalitet shakllana boradi, uning bir qismi o'zlari kelib chiqqan muhit bilan bog'liq bo'ladi. Yangi hayot oqimi ularning har birini bir yo'nalishdan olib boradi, lekin ular o'tgan ko'prik, qanchalar uzun bo'lmasin, hech qachon buzilmaydi.

Zulayxo xonim Veber-Asadullayeva Turkiya, Angliya, Braziliyadan o'tib, AQShdan panoh topdi. U Amerika Qo'shma Shtatlarining ustunlik jihatlarini imkon bo'lganda qayd etib o'tishni unutmadi, shunga qaramay, Ozarbayjonnini o'z vatani deb hisoblardi. O'z vaqtida o'zi yalangoyoq qochib ketgan mamlakat qochqinlariga yordam berayotganida qalbidan qanday hislar o'tganini tasavvur qilish qiyin. Zoidxon Xoyskiy Bruklinda qashshoqlikda



jon berayotgandi, lekin otasi Sharqdagi birinchi mustaqil demokratik Respublika rahbari bo'lganidan faxr-iftixor tuyardi, shu tuyg'u bilan olamni tark etdi. Habib Ozarsino islom inqilobidan qochdi va hozir ham Amerikada Ozarbayjonga xos g'ururni avaylab kelmoqda. Mustaqil Shimoliy Ozarbayjonnin orzulab yashaydigan bu AQSH fuqarosi Ozarbayjon ayolga uylanib, o'zini vataniga yanada mustahkam bog'ladi. Turfa taqdirlar, turfa hayotlar... Ko'prik esa bitta...

AQShning Ozarbayjon jamoasi o'z tarkibiga ko'ra xilmaydirdir. Bu yerda ko'pchilikni islom inqilobi davrida Eron dan ko'chib ketib, Amerikada qo'nim topganlar tashkil etadi. Zulayxo xonim, Zoidxon singari Ozarbayjon Demokratik Respublikasi qulaganidan so'ng ko'chib kelganlar barmoq bilan sanagulik. XX asr oxirida, mustaqillik tiklanganidan so'ng Ozarbayjon Respublikasidan keluvchi muhojirlar soni orta boshladi. Ularning ko'pchiligi yahudiy jamoasi vakillari edi. Oxirgi vaqtlarda ularning soni moddiy yoki oilaviy sabablarga ko'ra oshdi. Shubhasiz, birdamlikning yo'qligi Ozarbayjon jamoasini turli tafakkur sohiblaridan iborat guruhga aylantiradi.

Aytganimdek, jamoaning katta qismi Janub Ozarbayjonlaridan iborat, ularning xarakteri va qarashlari har xil. Albatta, Ozarbayjon mustaqilligi tiklanganidan so'ng o'tgan zamonda ushbu guruh ichida mentalitet va etnik mansubiyat hissi evolyutsiyasini ko'rish mumkin. Bu guruh vakillarining mutlaq ko'pchiligi Eron Islom Respublikasida tug'ilganini, fors madaniyati ta'sirida o'sib-ulg'ayganini unutmazlik kerak. Ammo bu odamlarda Ozarbayjonchilik tuyg'usi juda kuchli, Ozarbayjon madaniyati ularning qalbida alohida o'rin tutadi. Janublik Ozarbayjonlarning ko'plari Shimoliy Ozarbayjon madaniy merosi, musiqasi va adabiyotini yaxshi biladi, uning klassiklarini sevadi va hurmat qiladi. Bu bejizga emas. Axir o'z etnik mansubiyatidan

magʻrur bu odamlar rasmiylari assimilyatsiya siyosatini yuritib kelgan Eronda ona tilida taʼlim olish, oʻz adabiyoti va madaniyatini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum edilar. Natijada Janub Ozarbayjonlari Shimoldan oʻrnak olardi, Shimoliy Ozarbayjon madaniyati ular uchun faqat maʼnaviy ehtiyojlarni qondirish manbai emas, ehtirom obyektiga ham aylanib qolgan edi.

Bu jamoat Ozarbayjon madaniy merosiga mukkasidan ketgan edi desam yanglishmayman. Milliy mansubiyatga kelsak, bu masalada har xil yondashuvlar mavjud edi. Etnik nuqtai nazardan jamoaning koʻpchiligi oʻzlarini Ozarbayjon deb hisoblaydi. Ammo Ozarbayjonchilik qanday geografik chegaralar ichida mavjudligi haqidagi savolga aniq javob bera olishmaydi. Bu chegaralar Ozarbayjon Respublikasi bilan qay darajada mutanosibligi borasidagi savollar esa bahslarga sabab boʻladi.

Vashingtonga kelganimdan bir muddat oʻtib elchixonada Ozarbayjon jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuv boʻlib oʻtdi. Junbushga kelgan ehtiroslarni jilovlab boʻlmay qolgan edi: tashrifchilar yangi Ozarbayjon Respublikasining ularga munosabati qanday ekanini bilmoqchi edi. “Juda yaxshi, janob elchi. Bizga qanday munosabatdasiz? Yaʼni, siz bizlarni ozarbayjon hisoblaysizlarmi, forsmi?”, – deb savol berdi ortiq darajada hayajonga berilgan bir yosh yigit. Aslida bu uning jamoasi koʻpdan beri javobini qidirayotgan savol edi. Ozarbayjonchilik nima degani? Bu tushunchani geografik sarhadlar yoki pasportdagi qayd bilan oʻlchab boʻladimi? Agar bu mansubiyatni chegaralar biqlikligiga sigʻdirib boʻlmasa, pasport bilan isbotlab boʻlmasa, uni qaysi muhit yoki qanday mafkura ichida qidirish va topish lozim?

Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi Boshqaruv kengashi yigʻilishiga oldin uch soat ajratilardi. Hozir u qariyb bir haftadan buyon davom etayotgandi. Aʼzolar

orasida neft kompaniyalari prezidentlari va Richard Armitaj singari taniqli siyosiy arboblar bor edi. Muhokamaga sabab bo'lgan savol juda oddiy edi: Ozarbayjon savdo va madaniyat markazini ochish uchun palata Vashington markazida million dollardan qimmatroqqa to'rt qavatli binoni sotib olishiga ehtiyoj bormi? Quyidagi holat masalani chigallashtirayotgan edi: Savdo palatasi bu summani qanday to'laydi? Yig'ilishning to'rtinchi kunida palata ijrochi direktori stol ustiga 700 ming dollarga yozilgan chekni qo'yib, ozarbayjon aslli amerikalik Shopur Ansoriy bino xaridini moliyalashtirilishini mamnuniyat bilan e'lon qildi. Boshqaruv kengashi a'zolari bir lahza sukutga cho'mdi. Richard Armitaj sukunatni buzdi: "Doktor Ansoriy kim? Biz u haqda hech narsa bilmaymiz. Bu ismni faqatgina men birinchi marta eshitmayapman. Palata unga bu pulni qaytara olmasa, doktor Ansoriyga nima deymiz?"

Savolga yig'ilish o'tayotgan zalga qo'ng'iroq qilgan doktor Ansoriyning o'zi javob berdi: "Janoblar, men keksa ozarbayjonman. Umrinning katta qismini chetda o'tkazdim. Kam bo'lmadim, hatto muvaffaqiyatga erishdim. Bir umr bitta orzu bilan yashadim – Ozarbayjon mustaqilligini ko'rish. Bu pulni oling. Agar qaytarsangiz, yaxshi, qaytara olmasangiz, hech qisi yo'q, ular Ozarbayjon uchun sarflanadi". Amerikada Ozarbayjon savdo va madaniyat markazini ochish haqida qaror qabul qilindi. Uning birinchi boshqaruvchisi ozarbayjon aslli amerikalik Shopur Ansoriy bo'ldi.

Shopur Ansoriy kabi insonlar "Sizning bizga munosabatingiz qanaqa?" savoliga berilajak javobni osonlashtirardi. Ular ikki o'rtoq edi: Shopur Ansoriy va AhmadFrug'. Biz ularning ikkisini ham "doktor" deb atardik, chunki ular tibbiyot sohasining tan olingan mutaxassislari edi, uzun yillar Amerikada yashashgandi. Intellekt, boy hayotiy tajriba va ayniqsa Ozarbayjonga, uning madaniy

merosiga bo'lgan muhabbat bu ikki mo'ysafid shifokorni diydori lazzat baxsh etadigan suhbatdoshlarga aylantirardi. Ular vatanlarida bo'lgan barcha ilg'or narsalar oldida bosh egardi, opa-singillar Fidon va Xuromon Qosimovalarning Detroyt simfonik orkestri jo'rligidagi konsertini tashkil etgan edi. Ularning G'arbda Ozarbayjon opera va baletini targ'ib qilishdagi xizmatlari beqiyos bo'ldi. Doktor Ansoriy Nyu-Yorkdagi mashhur "Metropolitan-opera" teatri bilan kelishib, Xuromon xonimning taklif etilishiga erishdi. Yaqindagina uning do'sti doktor Frug' vafot etdi. Alloh rahmat qilsin! Doktor Ansoriy Vashingtonga tashriflarida mening o'zgaras mehmonimdir. Lekin har safar xonaga kirganida ko'zlarim beixtiyor uning ajoyib do'sti – doktor Frug'ni qidiradi.

Ishonch va sevgi kuchli tuyg'ulardir. Ularga sadoqatli inson tinch yashay olmaydi, hamisha o'z g'oya va maqsadlarini ro'yobga chiqarish yo'lida mehnat qiladi, garchi ko'p hollarda soyada qolib ketsa ham. Uning uchun eng oliy mukofot – ruhiy qoniqish, bunga xayrli ishlari orqali erishadi. Xorijda bunday odamlar ko'p. Ulardan biri – Suxrob Subhoniyy yuqori intellektual salohiyati bilan ajralib turadi. U ancha yosh, uzoq vaqt Jorjtaun universitetida dars bergan, CNN telekanalining siyosiy sharhlovchisi bo'lgan. Uni boshqalardan ajratib turuvchi xislat siyosiy da'volaridir. Bu ancha yorqin tarzda namoyon bo'ladi. Subhoniyy Amerika siyosiy sahnida munosib o'rin egallashga urinayotgan yagona Ozarbayjondir. U respublikachi bo'lib, shu partiyadan AQSH Senatiga saylanmoqchi. Bir necha yil oldin Suxrob Merilend shtati nomidan o'z nomzodini ko'rsatib, saylov kompaniyasida ishtirok etdi. Uning raqibi demokrat Pol Sarbeyns bo'ladi. Qizig'i, armaniparastligi bilan mashhur senator Sarbeynsning siyosiy raqibi Ozarbayjon aslli amerikalik bo'ldi. Afsuski, Suxrob saylovda g'alaba qozona olmadi.

Ammo, fikrimcha, fuqarolik nuqtai nazarini himoya qila oldi, kuchli raqobat sharoitida siyosiy irodasini namoyon etdi. AQSH siyosati zaiflarni ayamaydi. Suxrob Subhoniyy bu sahnaga chiqishga urinayotgan birinchi Ozarbayjondir. U oxirgisi ham emasligiga, shuningdek, hayotining ma'lum bosqichida Amerika siyosatida munosib o'rnini topa olishiga ishonchim komil.

Rafiq Puyo bilan tanishuvni esga olsam. U 1990-yili Bokudagi biznes-konferensiyaga keldi. Janob Puyo san'atni yaxshi ko'radi, Los-Anjelesda uning kinoteatri bor. Keyinchalik u Farrux Naxchivoniyy bilan Bokuga kelib, Rustam Ibrohimbekov bilan birga Ozarbayjon haqida birinchi filmini suratga oldi. Kinokartina syujeti sevgi tarixi negiziga qurilgan bo'lib, Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon haqida hikoya qiladi. Suratga olish jarayoni boshlanganida bu mavzu juda dolzarb edi, zamon nafasiga mos edi. Film tezda katta ekranga chiqqanida, katta shov-shuvga sabab bo'lishi mumkin edi, axir unda shimoliy va janubiy parchalarga bo'lib tashlangan Ozarbayjon qayg'usi haqida so'z boradi. Nom ham bejizga tanlanmagandi – "Buzilgan ko'priklar". Unda ildizlarga, asl madaniyatga qaytish, Farruxbey va Rafiqbey timsolida minglab Ozarbayjonlarning or-nomusini himoya qilish g'oyalari aks etgandi. Afsuski, moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga keldi, bu filmning ishlab chiqarilishini cho'zib yubordi. Pul yetishmovchiligi kartinaning dolzarbligiga zarba beribgina qolmay, uning targ'ib etilishiga ham to'sqinlik qildi. Haydar Aliyevning 1999-yili AQShga tashrifi chog'ida Vashingtonda film prezentatsiyasi tashkil etildi, bir muddatdan keyin esa mualliflar o'z ishini Bokuda taqdim etdi. Kinotasma jamoatchilik tomonidan iliq qarshilandi.

Amerikaning Ozarbayjon jamoatchiligi hali yoshligini unutmaylik. Ozarbayjon Demokratik Respublikasi vakillari kam. Jamoa o'zagini janublik Ozarbayjonlar tashkil

etadi, ularning aksariyati AQShda Eronda 1979-yili ro'y bergan islom inqilobidan so'ng o'rnashgan. 1979-yildan boshlangan muhojirlar oqimi janubiy Ozarbayjonlardan boshlandi, Ozarbayjon mustaqil bo'lganidan keyin esa shimolliklar hisobidan davom etmoqda. Shu tariqa, AQShdagi Ozarbayjon diasporasiga nisbatan siyosat negizida quyidagi xulosa turishi lozim: bu diaspora hali yosh, bir necha oqimlardan iborat.

Yoshi katta bo'lmagan, tarkibi xilma-xil, mentaliteti ziddiyatli diasporaning shakllanishi – ancha qiyin jarayon, u yagona g'oya-maqсадlarga bo'ysunishi mumkin emas. Tashkiliy tuzilmalarga katta ahamiyat beriladi. Ular orasida Amerika Ozarbayjon jamiyati va Jahon Ozarbayjonlari kongressining o'rni buyuk.

Amerika Ozarbayjon jamiyati Nyu-Jersi shtatida 1969-yildan buyon faoliyat yuritadi. Ayni paytda bu tashkilotga Tomris xonim Ozariy rahbarlik qiladi. U Ganjalik bo'lib, Ozarbayjon Demokratik Respublikasi milliy xavfsizlik vaziri Nag'ibek Shayxzamonlining nabirasidir. Tomris xonim Ozarbayjon ishqiga to'la va uning kelajagiga ishonadi. O'z faoliyatining dastlabki yillarida jamiyat Turkiya hukumati tomonidan moliyalashtirilgani diqqatga sazovor. Anqara AQSH Ozarbayjonlarini birlashtirishdan manfaatdor. Ammo Turkiya moliyaviy yordami tashkilotda panturkistik kayfiyat vujudga kelishiga sabab bo'lmadi. Hech shubhasiz, bu yerda Tomris xonimning oilaviy tarbiyasi va qarashlari rol o'ynadi, axir u, butun umri xorijda o'tganiga qaramay, qalbining tubidan Ozarbayjon bo'lib qolmoqda. Uning boshchiligidagi tashkilot Amerikada Ozarbayjon manfaatlarini himoya qilish va imijini mustahkamlash yo'lida ishlab kelmoqda.

Bunday tuzilmani boshqarish oson emas, doimo qiyinchiliklar kelib chiqaveradi. Ba'zan Tomris xonim jahl qiladi, barini tashlab ketib qolishini aytadi. Lekin ishon-

chim komilki, bu kayfiyatlar qisqa muddatlidir. Tomris xonim Ozarbayjonsiz yashay olmaydi, qayerda bo'lsin, uning hayotidagi bosh mazmun vatanga xizmat bo'lib qolaveradi.

Klifton shahrida (Nyu-Jersi) jamiyatning o'z binosi bor. Amerika ozarbayjon jamiyatini bu turdagi boshqa tashkilotlardan ajratib turadigan narsa AQSH siyosiy realiyalarining chuqur anglanishidir. Bu jihatdan tashkilot matbuotda va AQSH Kongressida faol ishlaydi: kongressmenlar bilan aloqa qilib turadi, byulletenlar tarqatadi, uchrashuvlarda Ozarbayjondagi vaziyat haqida ma'lumot beradi. Kerak bo'lganida Nyu-Yorkdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi oldida aksiyalar o'tkaziladi. Jamiyat tomonidan har yili Nyu-Yorkda Navro'z munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlar esa butun Amerikada mashhur. Bunday bayram tadbirlarini o'tkazish uchun yetarli imkoniyatlar yaratildi.

Ozarbayjondan ko'chib kelgan yahudiy jamoasi vakillari asosan Nyu-York, Baltimor atrofida to'planadi. Ular doimiy yashash joyiga o'z madaniyatining bir bo'lagini olib keladi – asosan Ozarbayjon restoranlarini ochadi, o'sha yerlarda yig'ilishlar o'tkazib turadi. To'kin-sochin dasturxon atrofida to'planadigan muhojirlarni kabob va palovning yoqimli hidigina emas, Ozarbayjon musiqasi, raqslari va shirin xotiralar ham vatanga qaytaradi. Shunday restoranlardan biri Bruklindagi mashhur "Baku Palas" dir. Uning xo'jayinini Misha deb chaqirishadi. U – Bokulik. Avval Bruklindagi "Absheron" va "Boku" restoranlarini boshqargan. Yaqinda ochilgan "Baku Palas" esa tantana uyidir. U Ozarbayjon an'anaviy uslubida ta'mirdan chiqarilgan katta binodan iborat. Uning ostonasidan hatlagan odam o'zini Nyu-Yorkda emas, Bokudagi tantana uylaridan birida bo'lib qolgandek his etadi. Navro'z bayramining nishonlanishi va Tomris xonim tomonidan tashkil etiladigan boshqa madaniy tadbirlar "Baku Palas" da bo'lib o'tadi.



Yahudiy jamoasida ham Ozarbayjonga bogʻliqlik kuchli. AQShga bir tashrifi paytida Ozarbayjon bosh vaziri Artur Rasizoda yahudiy jamoasi vakillari bilan uchrashish uchun Baltimorga bordi. Hukumat rahbarining bu qadami samimiy xayrixohlik bilan qabul qilindi.

Vatandoshlarimizning yana bir tashkiloti Jahon Ozarbayjonlari kongressi boʻlib, uning saflarida asosan janubiy Ozarbayjonlar birlashgan. Ularning birinchi syezdi Vashingtonda boʻlib oʻtgandi. Forum ishida Boku delegatsiyasi ham qatnashdi. Qizgʻin bahslar keltirib chiqargan birinchi savol prezidium ortidagi devorga Ozarbayjon Respublikasi bayrogʻini osish-osmaslik masalasi boʻldi. Oxir-oqibat tashkilot kengayib, Yevropada ham syezdlar oʻtkaza boshladi. Ammo qanday bayroq ostida birlashish haqidagi savol ochiqligicha qoldi.

Bugun Ozarbayjon jamoasi armani yoki yahudiy diasporalari bilan bellasha olmaydi, lekin xatolardan oʻrganmaslik gunohdir. Bu diasporalar yuz yildan ortiq vaqt mobaynida shakllangan, ular bu qadar nufuzga ega boʻlishiga omil boʻlgan bir holat bor – yagona mafkura. Menimcha, aynan shu omil arman jamoasining birdamligiga sabab boʻlgan. Uning kuch manbai – Turkiya bilan bogʻliq hamda arman jamoasini birlashtiruvchi mafkura negizini tashkil etuvchi qarashlar. Undan keyingi oʻrinlarda arman cherkovi va arman tashkilotlari turadi. Ozarbayjon jamoasida bunday ideologiya hozircha shakllangan emas.

Shimol va Janub jamoalari oldida turgan asosiy masala shunda: birlashtiruvchi yagona mafkuraning mohiyati nimada? Shubhasiz, Ozarbayjon mustaqilligini butun xorijliklar quvonch va umidvorlik bilan qabul qildi. Bir safar mahalliy badavlat Ozarbayjonlardan biri Farhod Azim bilan suhbatlashayotgandim. U Kanzasda istiqomat qiladi. Uning asosiy mashgʻuloti aviatsion kompaniya boshqaruvi, ammo shu bilan bir qatorda u biznesning boshqa sohalariga



ham qiziqish bildiradi. “Ozarbayjon mustaqilligi biz uchun umid nuri bo’ldi, – dedi Farhodbey. – Biz go’yo irodamizni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo’ldik”. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosi oldida mustaqil Ozarbayjon bayrog’ini ko’tarish marosimida faxr bilan ishtirok etadi. Shubhasiz, Ozarbayjon Respublikasining bundan keyingi rivoji Farhodbey kabi vatandoshlarni ruhlantirishda davom etadi. Birlashtiruvchi ideologiyani Ozarbayjon Respublikasi chegaralari doirasida qidirish xato bo’lardi. “Ozarbayjonchilik” tushunchasi bugun hech qanday mezonlar bilan cheklanishi mumkin emas.

Ikki dunyoni birlashtiruvchi ko’prik qurilgan – bu Ozarbayjon madaniyatidir. Bir necha Ozarbayjon bir orada to’plansa, qator masalalar bo’yicha bir fikrga kela olmaydi, siyosat, milliy manfaatlar shular jumlasidan. Lekin hech bir Ozarbayjon, Ruboba xonimning jozibali xonishini yoki Shahriyorning o’tday kuydiruvchi misralarini nafas yutib eshitarkan, befarq qolmaydi. Tomris xonim tashkil etadigan Navro’z bayramida kelib chiqishi Ozarbayjondan bo’lgan yuzlab odamlar yig’iladi. Ular orasida shimolliklar, janubliklar, yahudiylar, ruslar va turklar bor. Kimdir fors tilida, kimdir Ozarbayjoncha, kimdir turkcha gapiradi. Ammo xonanda Navro’z mikrofonni olib, “Bakılı balasıyam” (“Boku bolasıman”) kuyini boshlab yuborganida, odamlar davra bo’lib raqs tusha boshlaydi. Madaniyat umumiy maxraj bo’la olsa, turfa tamaddunlarni birga to’plash imkoni tug’iladi.

Yagona o’zlikni shakllantiruvchi omillardan biri, meningcha, Ozarbayjon tilidagi televizion dasturdir. Propaganda nuqtai nazaridan uning ahamiyati beqiyos. Bugun amerikalik vatandoshlarimiz uchun shunday televideniye bo’lishi har qachongidan dolzarb. Haftasiga bir necha marta efirga chiqadigan bir soatlik dastur milliy mansubiyat va milliy o’zlik tuyg’usini shakllantirishga

kiritilgan uzoq istiqbolli “investitsiya” bo’lar edi, uning ta’sir kuchi esa bir necha tashkilot faoliyatiga teng kelardi. Teledastur Ozarbayjonda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealar haqida ma’lumot bergan, milliy madaniy merosimiz – musiqa, adabiyot va san’atni targ’ib qilgan, dolzarb voqealarni sharhlagan, bir so’z bilan aytganda, minglab Ozarbayjonlar orasida qiziqish uyg’otib, ularni haftasiga bir necha marta teleekranlar oldida to’plagan bo’lardi. Ozarbayjon televideniyesi bunda vositachi rolini o’ynashi mumkin edi. Madaniy tadbirlar, masalan, Navro’z bayramida yoki yiliga bir marta o’tkaziladigan diaspora konferensiyasida barcha yig’iladi, ma’ruzalarni tinglaydi va tarqaladi. Televizion dastur esa har kuni kechqurun Los-Anjeles, Mayami, Xyuston, Torontodagi har bir Ozarbayjon xonadoniga kirib borgan bo’lardi. Bu uylarda madaniy tadbirlarda qatnasha olmaydigan ko’plab odamlar topiladi.

## AQSH KONGRESSI VA 907-TUZATISH

Ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlarida 1975 yili ilmiy xodim sifatida bo'lgan edim. O'shandayoq bu mamlakat menda ulkan taassurot qoldirgandi. "Sovuq urush"ning beayov pallalari o'tib ketganiga qaramay, sovet tizimi hali gumondorlikdan qutulmagan va "axborot tashuvchilar" xizmatidan foydalanishda davom etayotgan edi. Men o'z suhbatdoshlarimga ko'rgan-bilganlarimni aytib bera olmasdim. Qaytgan kunim Mirjalol muallim meni o'z xonasiga chaqirib, yolg'izlikda taassurotlarimni o'rganmoqchi bo'ldi. Men vazmin tinglab, bir necha savol berdi va xulosa o'rnida shunday dedi: "Men ham taxminan sen aytib berganingday tasavvur qilardim". So'ng bu haqda har qayerda gapirib yurmasligimni qo'shimcha qildi. Stalin va Bagirov qatag'onlarini boshdan kechirgan avlod uchun tuzum oldidagi qo'rquvdan qutulish oson emasdi.

Shundan beri bu buyuk davlatga bo'lgan simpatiyam o'zgarishsiz qoldi. 1993 yildan Vashingtonda yashadim, shu vaqt ichida Qo'shma Shtatlarga va Amerika xalqiga bo'lgan hurmatim oshib bordi. Bu mamlakatni insoniy qadriyatlarga katta diqqat qaratishadi, odamlar o'rtasidagi tafovutlarni tushunishga urinishadi. Kommunizm sharoitida ulg'aygan odam buni ayniqsa o'tkir his etadi. Bu yerda shaxsiyat, qobiliyat va insonning iste'dodi yuksak qadrlanadi. Jamiyatning yetakchi kuchi – individuum, birinchi odam oxirgi odam bilan hisoblashganda taraqqiyot ham yanada jadal tus oladi.

Tan olishim kerak, Qo'shma Shtatlarda yashash zinhor jannatda bo'lish degani emas. Tushkunlikka tushib qoladigan lahzalaring ham bo'ladi. Totalitar rejim hukm surgan mamlakatdan kelib chiqqan har bir Ozarbayjon Amerikaga demokratiya namunasi sifatida qarar, amerikaliklardan ko'p narsa o'rgansa bo'ladi deb

hisoblardi. 2001–yil 11–sentabrga qadar Ozarbayjonlarning amerikaliklarga munosabati bir tusda edi: biz ularga ko‘p narsa berdik, evaziga nima oldik? Har narsadan pul qilishga o‘rganmagan xalqning bunday munosabati ancha g‘ayriodatiy holat. Lekin bari shunday edi, zero AQSH – Ozarbayjon munosabatlarida davosi yo‘q yara og‘riq berib turardi.

1992 yili AQSH Kongressi demokratiya va bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yangi mustaqil davlatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida erkinlikni himoya qilish aktini qabul qildi. Bu qonunchilik hujjati Ozarbayjonda “Erkinlikni inkor etish akti” sifatida “nom qozondi”. Unga 907-tuzatishni kiritib, Kongress Ozarbayjonni AQSH davlat tuzilmalarining yordamidan mahrum qildi, Ozarbayjonni Tog‘li Qoraboqqa qarshi tajovuzda va Armanistonni qamalga olishda aybladi. 907 raqami Ozarbayjonlar xotirasida uzoq saqlanadi. Ozarbayjon Respublikasi “qamalni tugatmas, tajovuzni to‘xtatmas” ekan, yordam ololmaydi.

Ozarbayjon davlatchiligi og‘ir sinovlarni boshdan kechirdi, ammo mustahkamlanib, xalqaro e‘tirofga erisha oldi. Biz buni Qo‘shma Shtatlarning moliyaviy yordamisiz uddaladik. Aslida, masalaning tub mohiyatiga qaraydigan bo‘lsak, gap moddiy ko‘mak haqida ketmayotgan edi. 907-tuzatish ozarbayjon millatining or-nomusi va sha‘niga og‘ir botdi, uning adolatga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazdi. Yaqinda mustaqil bo‘lgan, oilaviy o‘choqlaridan quvilgan million qochqinni qabul qilgan, hududining 20 foizi okkupatsiya ostida bo‘lgan xalq o‘zi har doim iliq munosabatda bo‘lgan Amerika xalqining unga nisbatan bunday adolatsizligini tushunmas va hazm qila olmas edi. Tushunmas, tushuna olmas ham edi, axir tushunish uchun Amerikada yillar mobaynida yashab ko‘rish kerak. Aslida 907-tuzatish Amerika xalqining qarori emas edi, u bugun

ham Ozarbayjonlarga bo'lgan munosabatni aks ettirmaydi. Siyosat oynasidan changni artib tashlasa, mutlaqo boshqa manzara namoyon bo'ladi. 907-tuzatish AQSH demokratiyasidagi nuqsonlarga yaqqol misol bo'la oladi. Bu qonun hujjati Amerika demokratiyasi solnomasidagi dog' bo'lib qolaveradi, negaki mavjudligining ikki yuz yili davomida bu mamlakat hech qachon muhtojlarga yordam berishdan bosh tortmagan, har doim boshi baloda qolganlarga madad qo'lini uzatgan, darbadarlarga boshpana taqdim etgan edi.

Mashhur amerikalik adib Mark Tven AQSH Kongressini "oxirgi qonuniy jinoiy toifa" deb atagan edi. Bu so'zlar yuz yil oldin aytilgan, lekin hozir ham dolzarbligini yo'qotmagan.

907-tuzatish AQSH siyosatini buzib yubordi, uni min-taqada tajovuzkor urush olib borayotgan armanilarni qo'llab-quvvatlash o'zaniga burib yubordi. Bu nega sodir bo'lganini tushunish uchun Amerika demokratiyasining bir o'zgachaligini inobatga olish kifoya. Haqiqat shundaki, Amerika demokratiyasi g'arazli maqsadga ega guruhlar o'ljasiga aylanishi mumkin.

"Lobbi" tushunchasi Amerika demokratiyasi oyoqqa turayotgan paytlar paydo bo'lgan. AQSH qonunchiligiga muvofiq, har bir fuqaro u yoki bu masala yuzasidan o'z fikrini aytishga haqli. Buning uchun ular guruh bo'lib Kongressga borib, uning a'zolari e'tiboriga o'zlarini bezovta qilayotgan muammoni yetkazishi, uni hal etish uchun yangi qonunchilik aktini qabul qilish yoki mavjudini o'zgartirishni talab qilishi mumkin. Demokratiyaning ilk yillarida bunday guruhlar Kongressga tashrif oldidan Vashington markazidagi "Uillard" mehmonxonasining rasmiy zallari ortida (inglizcha "lobbi") to'planardi. Shu bois ularni "lobbi" deb atay boshladilar.

Vaqt o'tishi bilan bunday guruhlarining ta'siri oshib

bordi. Hozir ular o'z manfaatlarini keng siyosat omiliga aylantirish mahoratini egallagan. Ozarbayjon misolida ko'rganimizdek, ba'zan bu manfaatlar AQShning strategik manfaatlariga ters bo'lishi va jahonning biror mintaqasida ularga qarshi ishlashi mumkin. Ko'p hollarda tizim bunday g'arazli manfaatlardan xalos bo'la olmaydi.

Albatta, siyosat sahnida o'zini ko'rsatishni istagan har bir odam ma'lum da'volarga ega bo'ladi, ularni amalga oshirish uchun esa saylovchilarning ovozlari hamda saylov kompaniyasi o'tkazish uchun zarur moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Elektorat manfaatlariga befarq bo'lish "kislorod kanalini yopib qo'yish" demakdir, busiz siyosiy Olimp cho'qqisiga ko'tarilib bo'lmaydi. Mana shunday pallada manfaat guruhlari vujudga keladi va siyosiy arbobga uning uchun muhim ikki narsani va'da qiladi – saylovchilarning ovozi va moliyaviy yordam.

Kongress bilan munosabatlarda o'zimni ham talaba, ham o'qituvchi deb hisoblayman. Vashingtonga kelgan ilk kunlarim Ozarbayjonga qarshi sanksiyalar Kongressda mamlakatimizga nisbatan hukm surgan axborot va kuuming bevosita natijasi deb o'ylardim. Bu bor gap. 1992 yili amerikaliklar Ozarbayjoni jahon xaritasining qaysi burchagidan qidirishni bilishmas edi. Bugun arman lobbiisi Kongressga bunaqa qonunchilik aktini osonlikcha o'tkaza olmas edi. Ammo sodir bo'lgan voqeada faqat axborot vakuumini ayblash ham to'g'ri bo'lmaydi.

Zbigneu Bzejnskiyning Bokuga tashriflaridan birida men uning Fanlar akademiyasi prezidiumi bilan uchrashuvini tashkillashtirgandim. Bahslar asosan "907" atrofida bordi, Ozarbayjon akademiklarining ehtiroslari oshib-toshib ketayotgan edi, ular nega AQSH Ozarbayjonga cheklov o'rnatganini tushunishga urinar, qat'iy javobni talab qilardi. Bzejnskiyning javobi oddiy bo'ldi: "Lobbi – ochiq tizim. Siz ham o'z so'zingizni aytishingiz mumkin. Boshqa yo'li yo'q".

Ko'p vaqtimni Kongress a'zolari va xodimlari bilan uchrashuvlarda o'tkazaman. Kinoya-qochirimlarsiz o'z fikringni aytish – amerikaliklarga xos xususiyat. Ham-suhbatlarning aksariyati meni diqqat bilan tinglab, fikrimga qo'shilardi, ammo saylov okruglarida istiqomat qiluvchilar armanilarning nuqtai nazariga befarq qaray olmasligini tan olardi. Uzoq vaqt Kongress a'zosi bo'lgan bir nufuzli senator bir safar huzurimga yordamchisini yubordi. Kirish so'zlaridan so'ng yordamchi kelishidan maqsadini tushuntirdi. Uning aytishicha, senator asl vaziyatni biladi, lekin saylovchilarining ko'pchiligi armanilar bo'lgani uchun Ozarbayjon tarafini ololmaydi. Senator afsusdaligini bildirib, uning vaziyatini tushunishni so'rab yuboribdi. Bu insonga bo'lgan hurmatim kamaymadi. Axir u hech bo'lmasa uzr so'rashni ep bildi.

Siyosiy tizim nuqsonlari adolat va haqiqatni ikkinchi darajaga tushirib qo'yishi mumkin. Kongress a'zolari faqat iste'fodan keyingina 907-tuzatishning adolatsizligini ochiq tan olishardi. Shundaylardan biri senator Dennis de Konsini bo'ldi. Arizonalik bu demokrat 1994 yili iste'foga chiqdi va shu zahotiyiq 907-tuzatish yanglish qadam bo'lganini tan olib, "aqlliroq va adolatliroq harakat" Ozarbayjonga hech bo'lmaganda gumanitar yordam ko'rsatish bo'lganini e'tirof etdi.

Minnesotalik demokrat Tim Penni Kongressga qaytib saylanmaslik qaroridan so'ng 907-tuzatishni bekor qilish to'g'risidagi qonun loyihasini taqdim etdi. Texaslik demokrat Charli Uilson Kongressdagi faoliyatining oxirgi yilidagina Ozarbayjonga gumanitar yordam ko'rsatishga ruxsat berish to'g'risidagi qonunchilik aktini ikki palatadan o'tkazishga erishdi. Uning bu qadami e'tirofqa loyiq. Hujjatda aytilishicha, agar Prezident AQSH xalqaro agentligi nohukumat tashkilotlari tomonidan Ozarbayjon qochqinlariga ko'rsatilayotgan yordam yetarli emas deb

hisoblasa, bevosita Ozarbayjon davlatiga gumanitar yordam ajratish mumkin bo'ldi. Qiziq tomoni shundaki, 1996 yilgi Uilson akti Prezident Klintonga bunday ish uchun vakolat berardi, 1996 yil esa Prezident saylovi o'tadigan yil edi.

Nufuzli qo'mitada rais bo'lgan bir senator, ismini keltirmayman, 1997 yili kutilmaganda Davlat kotibi Uorren Kristoferga rasmiy xat bilan murojaat etib, Ozarbayjonga gumanitar yordam ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligini ta'kidladi. Vaholanki, 1992 yildan boshlab u 907-tuzatish adolatsizligini aytib kelayotgandi. Siyosatchining nuqtai nazari bu qadar keskin o'zgarganidan ko'plar taajjubda edi. Oxir-oqibat ma'lum bo'ldiki, arman lobbisi senator saylov kompaniyasi jamg'armasiga yigirma ikki ming sakkiz yuz ellik dollar o'tkazib bergan ekan. U pozitsiyasini o'zgartirib, arman lobbisi manfaatlarini ilgari surishga majbur bo'ldi, negaki 1996–yili Senatga qayta saylanish niyatida edi. Qarang, yigirma ikki ming sakkiz yuz ellik dollar uchun prinsiplarga xiyonat qilish mumkin ekan.

Bu yo'l bilan muhim siyosiy qarorlarning qabul qilinishi Qo'shma Shtatlar mavqeiga putur yetkazadi. Axir bu Jorj Vashington, Franklin Ruzvelt, Jon Kennedi hamda timsollarida Amerika insonparvarlik, yetakchilik va adolat manbaiga aylangan boshqa yetuk arboblarning mamlakati. Bunday yuksak ideallar mayda siyosiy o'yinlar qurboni bo'lmasligi kerak. Etnik guruhlar Qo'shma Shtatlarga o'z adovatini eksport qilishi va o'zlari qo'nim topgan mamlakat siyosatiga uni olib kirishi, uni manfaatlar asiriga aylantirishi mumkin. Tizim bu qaramlikdan qutula olmaydi, negaki nuqsonlar uning o'zidadir. 907-tuzatish atrofidagi keyingi voqealar bu masalani yanada oydinlashtirdi.

Kongressmen Piter King – Nyu-Yorkdan saylangan respublikachi – munosib va muvaffaqiyatli siyosatchi. "Xalq siyosatchisi" nomi bilan mashhur King Olsterda o'tgan tinchlik muzokalarining faol ishtirokchisi edi.



Ketma-ket ikki yil – 1997 va 1998 yillarda kongressmen 907-tuzatishni bartaraf etish harakatlarini amalga oshirdi. Uning yordamchisining aytishicha, arman lobbisi Kingga raqib siyosatchilarining saylov kompaniyalarini moliyalashtirishni boshlagan, u o'z saylov kompaniyalarini o'tkazishda qiyinchiliklarga uchray boshlagan. Bu uzoq davom etishi mumkin emasdi. Bir kuni kongressmenning yordamchisi elchixonamiz xodimiga telefon orqali quyidagilarni xabar qildi: “Uzr so'rayman, 907-tuzatish endi boshlig'imning ustuvor maqsadlari ro'yxatida emas”...

Albatta, 907-tuzatish atrofida bo'lib o'tgan hamma voqealarni bu yerda bayon etib bo'lmaydi. Lekin kongressmen Livingstonning sa'y-harakatlari e'tiborga molik. Menimcha, bu Amerika demokratiyasining o'ziga xosliklari hamda 907-tuzatishni bekor qilish yo'lida uchraydigan murakkabliklarga yaxshi ta'rif beradi. Shu bois kongressmen Livingston voqeasiga batafsilroq to'xtalaman.

Robert Livingston – diqqatga sazovor shaxs, uning ajdodlari XIX asrda Luizianani fransuz hukumatidan sotib olish bo'yicha muzokaralar olib borgan. 1997–yil u Luiziana shtatidan Vakillar palatasiga saylanib, 102 yil ichida bu okrugdan saylangan ilk respublikachi bo'ldi. 1995–yili u Vakillar palatasi Budjet va moliya qo'mitasi raisi etib tayinlandi. Bu muhim va nufuzli parlament tuzilmasi bo'lib, uning doirasida budjet va moliyaviy yordam bo'yicha barcha qarorlar qabul qilinadi. Qo'mita hokimiyat markazi sanaladi va, shubhasiz, uning raisi Kongressda katta ta'sirga ega bo'ladi. Mana shuning uchun Ozarbayjon tomoni yangi qo'mita raisining 907-tuzatishni bekor qilish bo'yicha konkret choralar ko'rishi haqidagi bayonotini quvonch bilan qarshi oldi. Bob Livingston so'ziga sodiq odamligini hamma bilardi. Ma'muriyat falajlangan, Kongress esa befarq bo'lib turgan vaziyatda Ozarbayjon qo'ningohida optimizm uchun asos paydo bo'ldi.

1998–yil 10–sentabr. Vakillar palatasi budget va moliya qo‘mitasi yig‘ilishi ochiq deb e‘lon qilinadi. Bo‘yicha ikki metrga yetadigan Robert Livingston raislik kursidan ko‘tarilib, chiqishni boshlaydi. U Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng AQSH yangi mustaqil davlatlarga do‘stlik qo‘lini cho‘zganini aytadi. Afsuski, barcha yangi davlatlar ham bir-biriga nisbatan shunday ish qilmadi. Kongressmen o‘z oldiga kim haq, kim aybdorligini aniqlash vazifasini qo‘ymaydi, ammo, qayd etib o‘tish kerakki, Ozarbayjonning kattagina hududi okkupatsiya qilingan, million nafar Ozarbayjon o‘z vatanida qochqin ahvolda yashamoqda. Shuningdek, u yaqindagina mintaqada bo‘lganini xabar qiladi. Ilk bor Vakillar palatasi rahbariyati ochiq bayonot berdi: “907-tuzatish Amerika Qo‘shma Shtatlarining bu ixtilofdagi betarafiligini yo‘qqa chiqarib, tomonlardan birini jazolaydi”.

907-tuzatishning bekor qilinishi ixtilofning bartaraf etilishida ijobiy rol o‘ynashini ta‘kidlar ekan, kongressmen so‘zida davom etadi: “Tasavvur qiling, sizning ikki qo‘shningiz bor. Ikkisi ham do‘stingiz. Ular orasida bahs kelib chiqdi. Siz qo‘lingizga so‘yil olib, ular orasiga turib olasiz, bahsni adolatli hal etishni istashingizni aytishdan charchamaysiz, biroq, bu haqda gapirarkansiz, faqat bir kishining boshiga so‘yil bilan urasiz”. “Ixtilofda biror tomonni yoqlash to‘g‘ri bo‘lmaydi” der ekan, kongressmen bu AQSH milliy manfaatlariga zid kelishini ta‘kidlaydi.

Livingston so‘zida davom etadi: “Bu mintaqada o‘z ta‘sirini tiklashga urinayotgan, Armaniston bilan faol savdo yuritayotgan davlat bor. Bu Erondir. 907-tuzatishni yoqlab ovoz beruvchilar Eronni yoqlab ovoz bermoqdalar. 907-tuzatishga qarshi ovoz berganlar zinhor Armanistonga qarshi ovoz bermayapti”. Livingstonning taklifi qator hamkasblari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Alabamalik respublikachi Sanni Kallaxan, chet davlatlarga moliyaviy

yordam ko'rsatishni qisqartirish zarurligini pesh qilib tuzatishni bekor qilishga qarshi chiqayotganlarga javob berarkan, qayd qilib o'tdi: "Gap pul haqida emas, bu aktning axloqiy tomoni haqida. "907" ixtilofni tinch yo'l bilan hal etishni xalaqit beradi".

Ogayolik demokrat Marsi Kaptur Kongress a'zolari-ning ko'pchiligiga xos kayfiyatni ifodalovchi fikrni aytdi: "Menimcha, Livingstonning taklifni qo'llab-quvvatlash va mintaqa mamlakatlariga davlat qurilishi sohasida yordam berish kerak. Keling, "907"ni bekor qilamiz va nima bo'lishini kuzatamiz. Bundan tashqari, AQSH Minsk guruhi hamraisi sifatida betaraf bo'lib qolishi kerak deb o'ylayman".

Bu iqtiboslarni bir maqsadda keltirmoqdaman – Kongressda Ozarbayjon bo'yicha axborot vakuumi yo'qligini ko'rsatmoqchiman. Endi iqtiboslar keltirishda davom etaman. O'ylaymanki, keyingi mulohazalar Amerika oliy qonunchilik organidagi atmosferani yanada yorqin namoyish etib beradi.

Lingvistoning taklifi shafqatsiz tanqidga uchradi. Kongressning armanilarga xayrixoh a'zolari o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Ular orasida ayniqsa Kaliforniyadan Nensi Peloz, Illinoysdan Jon Porter, Michigandan Jo Nollenberg, Virginiyadan Frenk Vulf ajralib turardi. Ularning chiqishlariga batafsil to'xtalishga zarurat ko'rmayapman. Yig'ilishning ikkinchi yarmida qiziq voqea ro'y berdi. Livingston saylovchilarni qoniqtirishnigina niyat qilgan Kongress a'zolarining nuqtai nazarini nokonstruktiv deb hisoblaydi. Bunga e'tiroz bildirarkan, Indianadan saylangan demokrat Piter Visklovski armani aslli saylovchilarining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlashdan mag'rur ekanligini ta'kidlaydi. "Men har kuni non sotib oladigan odam – armani. Sut sotib oladiganim ayol – armani. Hatto sartaroshim ham armani".

Livingston o'ziga xos bo'lmagan sokin ovozda javob bera boshlaydi: "Soddaligimni qarang! Kongressga ilk bor saylanganimda o'ylardim: bu – Amerika davlati manfaatlarini qo'llab-quvvatlashning noyob imkoniyati. Endi bilsam, biz boshqalarning: o'zimizga qo'shni bo'lgan novvoylar, sutfurushlar, sartaroshlarni qo'llab-quvvatlayotgan ekanmiz. Shu yillar davomida AQSH milliy manfaatlari haqida o'ylar edim. Ayrim hamkasblarim esa o'z novvoylari, sutfurushlari va sartaroshlari haqida o'ylagan ekan". Bu istehzoli nutq yakunida uning ovoz chaqmoqdan jarangladi: "Ozarbayjonlar AQSH armanilarga nisbatan kamligi asosidagina qaror qabul qilish mumkin emas". Ovoz berishgacha bo'lgan chiqishida kongressmen armanilarga xayrixoh kuchlarni "ma'muriyat nuqtai nazarini eshitish o'rniga o'z diplomatiyasini olg'a surish" da aybladi.

Nihoyat, olti yildan so'ng Vakillar palatasining nufuzli qo'mitasi 907-tuzatishni bekor qildi. Yig'ilishni tark etarkan, kuchli hayajonlangan Livingston Ozarbayjon elchixonasi xodimlaridan biriga shunday dedi: "Bugun ro'y bergan narsa birinchi navbatda prinsiplarim ifodasidir. Ammo bu prinsiplarning shakllanishida Bokuga safarim rol o'ynagan. Kongress a'zolarining safarlari odatda muhim ahamiyatga ega, lekin Bob Livingston uyga qaytgach, aytilganni unutadiganlardan emas. Prezidentga ayting, men so'zimni tutadigan odamman".

Vashingtonda zavod-fabrikalar yo'q. Ammo bu shaharda jahonning boshqa biror markazida uchramaydigan qudratli ishlab chiqarish mavjud. Bu yerda ishlab chiqilgan mahsulot rezonansi butun dunyoda aks sado beradi, u chegaralardan o'tib, amerikaliklargina emas, boshqa xalqlarga ham ta'sir o'tkazadi. Bu mahsulot "siyosat" deb ataladi. Uning ishlab chiqarilish mexanizmi esa jahondagi eng hayratlanarli hodisalardan biri bo'lsa kerak.

Mening qarashimcha, Livingston qo'mitasida borgan muhokimalarda Kongress a'zolari o'z siyosiy tizimiga tushuntirish qidirishgan edi. Ishlab chiqariladigan mahsulot nimaga xizmat qilishi lozim: milliy manfaatlargami, sirtaroshlargami? Pirovardida bu mahsulot iste'molchisi ishlab chiqarish mexanizmi tomonidan aniqlanadi. AQSH siyosiy tizimining g'alatiliklari aynan shunda. Yakuniy mahsulotni uning tarkibiy qismlari emas, ishlab chiqarish mexanizmi belgilab beradi.

Boshqacha aytganda, asosiysi xamir sifati emas, non pishadigan tandirdir. Vashingtonda muhim rol o'ynashga harakat qiladigan har bir guruhning kuchi shu mexanizmga ta'sir ko'rsata bilish qobiliyati bilan belgilanadi. Mundarija, tarkib muhim, ammo ular masalaning faqat bir tomonidir. Asosiy masala esa o'yin qoidalaridadir. Vashington begona qoidalarni qabul qilmaydi, bu yerda o'ziga xos qoidalar ishlaydi. Ularni qabul qilib, ustalik bilan qo'llay olganlar g'olib bo'ladi.

Yuqorida aytganimdek, Kongressga nisbatan o'zimni ham talaba, ham o'qituvchi deb hisoblayman. O'qituvchi sifatidagi faoliyatim eshikma-eshik yurib, kongressmenlarga Ozarbayjon sharoitlarini tushuntirishdan, talaba sifatidagi faoliyatim esa Vashington siyosiy mexanizmini qunt bilan o'zlashtirishdan iborat edi. Bu ish hali-hanuz davom etmoqda.

Livingston qo'mitasidagi voqealar Amerika siyosati qabariqliklardan mutlaqo xoli emasligini ko'rsatdi. Ammo ularga ishonib qolib, mamlakat haqida biryoqlama xulosa qilish noto'g'ri bo'ladi. AQShda 22 850 dollar uchun prinsiplariga xiyonat qiladigan senatorlar bor, biroq Livingston singari davlat arboblari ham bor. Porter, Visklovski, Nollenberglar unutilib ketadi, Livingstonlar esa Amerikada hali yetakchilik va gumanizm an'analari tirikligini isbotlashda davom etadi. Ozarbayjon xalqining

vazifasi bu tafovutni anglay bilishda. O'n yilga yaqin vaqt mobaynida AQSH Ozarbayjonga qarshi sanksiyalar qo'lladi, lekin biz ayrim radikallarning chaqirig'iga uchmadik, Amerika elchixonalarini bombalamadik, amerikaliklarni garovga olmadik, ularning kallalarini olmadik, 2001–yil 11–sentabrda esa ko'chalarga chiqib, Ozodlik<sup>9</sup> shohko'chasigacha bordik, ushbu hurmatli xalqning begunoh halok bo'lgan vakillari xotirasiga boshimizni egdik va Amerika elchixonasini motam gulchambarlari bilan o'radik. Milliy manfaatlar va umuminsoniy qadriyatlarni o'z shaxsiy manfaati yo'lida qurbon qilgan ayrim Kongress a'zolari buni tushunishga qodir emas. Ammo ozarbayjon xalqining buyukligi Robert Livingstonning e'tiboridan chetda qolmadi, u bu haqda shunday dedi: "Bugun ro'y bergan narsa birinchi navbatda prinsiplarim ifodasidir. Ammo bu prinsiplarning shakllanishida Bokuga safarim rol o'ynagan". Amerika Qo'shma Shtatlari Ozarbayjonnin strategik hamkor hisoblaydi. Bugun ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar mutlaqo boshqa darajadadir, lekin bunga yetguncha uzun yo'l bosishga to'g'ri kelgan.

Livingston qo'mitasining 907-tuzatishni bekor qilish to'g'risidagi qarori Vashington siyosiy mexanizmi o'nqircho'nqirlariga duch keldi. Arman lobbisi g'azab otiga minib, o'z kuchlarini shoshilinch safarbar qildi.

16–sentabr kuni Vakillari palatasi reglament qo'mitasi Livingston taklifining qonunchilikka muvofiqligini ko'rib chiqqa boshladi. Masalani kun tartibiga Tashqi aloqalar qo'mitasining armanilarga xayrixoh a'zolari kiritgan edi. Ularning fikricha, 907-tuzatishni bekor qilish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi Tashqi aloqalar qo'mitasi vakolatlari doirasiga kiradi. Livingston boshchiligidagi byudjet va moliya qo'mitasi esa bu tuzatishni bekor qilish huquqiga ega emas, chunki bu Vakillar palatasi

---

<sup>9</sup> Bokudagi Ozodlik shohko'chasida AQSH elchixonasi joylashgan.

nizomiga zid. Armanparast kuchlarning chiranishlari mantiqqa to'g'ri kelmasdi. Ishga tikib qo'yilgan materiallar go'yo bor ovozicha baqirardi: Armaniston Kavkazdagi eng demokratik davlat emish, uning ideallari Amerika ideallariga mos tusharmish, arman qurbonlari manfaatlarini neft manfaatlari yo'lida unutish mumkin emas va hokazo.

Ammo Livingston chekinish niyatida emasdi. Bu safar ham sartaoshlar manfaati ustidan milliy manfaatlarning qo'li baland keldi. Reglament qo'mitasi Vakillar palatasi 907-tuzatishni bekor qilishga haqli ekani haqida qaror qabul qildi.

Nihoyat, qonunchilik akti Vakillar palatasi muhokamasiga kiritildi. O'quvchi AQSH va Ozarbayjon orasidagi munosabatlarning prinsiplariga batafsil to'xtalmayotganimni sezgan bo'lishi kerak. Masalaning bu tomonini qoldirib ketishga qaror qildim, keltirilayotgan iqtiboslar esa ko'p narsani tushuntirib beradi. Aniqroq aytganda, kongressmenlarning bu masalaga munosabatini ularning so'zlari orqali ko'rsatib bermoqchiman.

Muhokama chog'ida Kongress a'zolari Kaspiy mintaqasining, ayniqsa Ozarbayjonning AQSH uchun strategik ahamiyatiga urg'u berardi. Ular Armaniston hududida Rossiya qo'shinlarining joylashtirilganiga munosabat bildirar ekan, quyidagi savolni o'rtaga tashlardi: "Armaniston hududidagi Rossiya bazalari qanday maqsadlarga xizmat qiladi? Bu bazalarning maqsadi bitta: mintaqada Rossiya ta'sirini o'rnatish. Gap faqat siyosiy yoki harbiy ta'sirda emas, balki kelajakda neftning Rossiya hududi orqali tashilishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy ta'sirda hamdir". 907-tuzatishning bekor qilinishi AQSHning Kavkazdagi mavqei kuchayishiga olib kelishi lozim edi.

Kongressmen Rorabaker, kaliforniyalik respublikachi mintaqada bo'lganini aytib o'tdi: "Ozarbayjon qochqinlarining achinarli ahvoli haqida eshitibgina qolmay,



o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ozarbayjon murosaga tayyorligiga, Armaniston esa bir qadam ham ortga siljish niyatida emasligiga guvoh bo'lganman. Armanistonning pozitsiyasi dunyoning eng kuchli davlatlari – Rossiya va AQSH ularni qo'llab-quvvatlayotgani bilan tushuntiriladi”.

Kongress a'zosi, arkanzaslik demokrat Snayder Qo'shma Shtatlar Fors ko'rfazidan tashqari ishonchli energoresurs yetkazib beruvchisiga muhtojligini ta'kidladi. Shu bois Kaspiy dengizi havzasidagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan hal qilish lozim. Snayder Ozarbayjon Rossiyadan Eronga yuborilayotgan maxsus po'lat materiallarni ushlab qolganini eslatdi. “Axir Ozarbayjon bu imkoniyatdan foydalanib, ikki qo'shni mamlakat o'rtasida muzokaralar o'tkazishdan va shu po'lat tranzitidan dividend ishlab topishdan manfaatdor emasmi? Aksincha, Ozarbayjon bizga murojaat etdi, AQSH rahbariyatiga xabar qildi va bu bilan Amerika xalqi oldida katta xizmat ko'rsatdi. Ochiq bayonot beraman: bizga qo'lini uzatgan birodar xalq oldida eshiklarimizni yopishimiz noto'g'ri bo'ladi. Buni ovoz berish chog'ida inobatga olishni so'rayman”.

Kongressmen Snayder o'z hamkasblariga birinchi o'ringa masalaning mundarijasi va mohiyatini qo'yishni so'rab murojaat etdi. Muhokamalar shu darajaga chiqdiki, sog'lom idrok g'alabasiga umid uyg'ondi. Bunga ishonch hosil qilish uchun ovoz berish haqidagi masalani o'rta tashlash kifoya edi. O'n besh daqiqa – ovoz berish ana shuncha davom etdi.

...Telefonlar to'xtovsiz jiringlardi. Ayrim kongressmenlarning ofislarida barcha telefonlar band edi. Amerikalik armanilar qo'ng'iroq qilardi. Kongressmen chiqishini tugallab, ofisiga yetib borishga ulgurgunicha faks apparati armani saylovchilarining e'tiroz xatini to'xtovsiz chiqarib berardi. Buni biz keyinroq bildik. AQSH hududida bor-yo'g'i 15 daqiqa ichida bunaqa norozilik aksiyasini o'tkaza



olish qobiliyati lobbi yuqori saviyada tashkil etilganini ko'rsatadi.

Ovoz berish yakunlari mohiyat va mexanizm o'rtasidagi kichik farqni ko'rsatdi. 907-tuzatishga qarshi 182 kishi ovoz berdi, 231 kishi unga xayrixohlik bildirdi. Xayrixohlik bildirganlarning 25 nafari o'z fikrini o'zgartirganida, Livingstonning taklifi qabul qilingan bo'lardi.

907-tuzatish o'z kuchida qoldi, lekin bu amalga oshirilgan ish bekorga ketdi degani emas. Amerikaliklarning bir yaxshi sifati bor – ular hech qachon mag'lubiyatni tan olmaydi va unga navbatdagi qiyinchilik sifatida qaraydi, bo'lib o'tgan voqeaning ijobiy jihatlariga birinchi darajali e'tibor qaratadi. Livingston yordamchilarining fikri quyidagicha edi: "Ovoz berishning o'tkazilishi Kongress a'zolarining Ozarbayjondan boxabarligi qanchalik o'sganini, AQSH – Ozarbayjon munosabatlarini buyuk kelajak kutayotganini ko'rsatdi". Livingstonning o'zi esa mag'rurlik bilan qayd qilib o'tdi: "Siz navbatdagi jangda mag'lub bo'ldingiz. Kompaniya esa davom etadi. Faqat vaqt zarur".

Janob Livingstonning bu so'zlari ayni paytda Ozarbayjon Vashingtondagi siyosatini qanday yo'lga qo'yishi kerakligini ko'rsatdi: u hech urush shaklida emas, kompaniya shaklida olib borilishi darkor. Ozarbayjon va AQSH Kongressi munosabatlaridagi taranglik hech qachon g'oyib bo'lmaydi, uni yaratuvchi omil esa borgan sayin kuch to'playotgan arman lobbisi bo'lib qoladi. Boku Vashington siyosatida mexanizm mundarijadan muhimroqligini tushunishi hamda bu mamlakatdagi siyosatiga uzoq muddatli kompaniya yoki investitsiya sifatida qarashi lozim.

1999-yili respublikachilar Kongressda ko'pchilik o'rinlarni egalladi va Robert Livingstonni spiker etib saylashga qaror qildi. Men shu munosabat bilan kongressmenga tabrik xatini yo'lladim. Javob xatining pastida qo'lda yozilgan

edi: "Nima bo'lishidan qat'iy nazar, "907" masalasida g'alaba biz tomon bo'ladi".

Afsuski, voqealar boshqa yo'nalishda rivojlana boshladi. Amerika Qo'shma Shtatlari Klintonning Monika Levinski bilan ishqiy munosabatlari atrofidagi janjalga o'ralashib qoldi. Respublikachilar Prezidentga impichment e'lon qilinishini talab qilishdi. Aynan shu vaqtda "Xastler" jurnali egasi Larri Flint Bob Livingstonga qarshi kompromat e'lon qildi. Kongressmen o'tmishda ishqiy sarguzashtlardan chetda bo'lmagani aniqlandi. Ikki-uch kun o'tib, g'iybatlarga chek qo'yish uchun Livingston oilasi va partiyasiga ziyon keltirishni istamasligini, iste'foga chiqishini va Klintonga ham shuni maslahat berishini ma'lum qildi. AQSH Prezidentining javobi quyidagicha bo'ldi: "Vakolatim muddati tugaguniga qadar Oq Uyda bo'laman".

Qat'iy prinsiplar va irodaga ega bo'lgan Robert Livingston Kongressni tark etdi va bir yildan so'ng o'z kompaniyasiga asos soldi. U mamlakatimiz foydasiga so'z aytish imkoniyatini qo'ldan chiqarmasdi. Ozarbayjon Kongressdagi kuchli ittifoqchisidan ayrildi, lekin kompaniya davom etayotgandi.

## HISOB – DEMOKRATIYA ILLATLARI FOYDASIGA 2:1

Tez orada bu kompaniyada yangi ittifoqchi – kanzaslik Sem Braunbek paydo bo'ldi. U senator Bob Doul o'rniga saylandi. U esa o'z navbatida 1996–yili Prezidentlikka nomzodini ko'rsatib, Senatdan ayrilgan edi.

Senator Doul qiziq odam edi. Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, yaralangan, uning hayotini esa millati armani bo'lgan shifokor qutqarib qolgan edi. Bu fakt Bob Doulning armanilarga shaxsiy munosabatinigina belgilab bermasdi. O'z siyosiy faoliyatida u har doim Armaniston manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yardi. Keskin armanparastlik pozitsiyasida turgan Bob Doul o'zgarishsiz Ozarbayjonga qarshi ovoz berar, nuqul men bilan uchrashishdan bosh tortardi. Prezident Niksonning dafn marosimida Doulning yonida turib qoldim. Sobiq Davlat kotibi Jeyms Beyker vaziyatdan foydalanib, meni senatorga tanishtirdi. U salomimga sovuqqina javob berib, bu bilan suhbat qurmoqchi emasligini bildirdi. Uning rafiqasi Elizabet Doul Amerika Qizil Xoch jamiyati raisi edi. Gumanitar tashkilotga rahbarlik qilishiga qaramay, u mening uchrashuv haqidagi iltimoslarimni javobsiz qoldirardi. Bob Doul 1996–yilgi saylovda Bill Klinton dan yutqazdi. Oxirgi vaqtlarda sobiq senator teleekranlarga "Viagra"ni reklama qilish uchun chiqayotgandi.

Qizig'i, Bob Doul o'rniga Senatga saylangan Sem Braunbek 907-tuzatishning ochiq raqibiga va Ozarbayjonning kuchli ittifoqchisiga aylandi. 1996 yili mintaqaga uyushtirgan safaridan qaytgach, u Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo uning muvaffaqiyatli o'tishi shubhasiz bo'lgan karyerasida muhim o'rin tutishini ma'lum qildi. Darhaqiqat, Sem Braunbek tobora yorqinroq porlayotgan yulduz, Tashqi aloqalar qo'mitasi raisi, Vashington siyosiy

hokimiyati yo'lkalarida katta nufuzga ega Jessi Xelmsning yoqimtoyi edi va qo'mita a'zosi edi.

1998–yili Braunbek o'zining “Ipak yo'li strategiyasi akti”ga o'zgartirish kiritadi. Unda ta'kidlanadi: Agar Prezident Ozarbayjonga nisbatan joriy etilgan cheklovlar AQSH milliy xavfsizligi manfaatlariga zid keladi deb hisoblasa, ularni bekor qilish huquqiga ega. 1999–yil 30–iyunda Braunbekning taklifi senatorlar muhokamasiga qo'yiladi. Bundan bir kun oldin Braunbek Senatning 100 a'zosidan 52–53 nafari uni qo'llab-quvvatlashiga amin edi, ammo muhokama chog'ida vaziyat o'zgaradi.

O'z chiqishida Braunbek uning taklifi ixtilof tomonlarining yarashuviga, mintaqa davlatlari mustaqilligini saqlab qolishiga, ularning iqtisodiy rivojiga va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Senator Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarning yuqori geosiyosiy ahamiyatini urg'ulaydi. Bu borada Ozarbayjonning ahamiyati bo'lakcha. Xarita oldida turib u Ozarbayjon hududining 20 foizi Armaniston okkupatsiyasi ostidaligini, bu okkupatsiya BMT hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan qoralanganini aytadi. Uning fikricha, 907-tuzatishning bekor qilinishi nafaqat Amerika kompaniyalarining Ozarbayjonga investitsiyalarini ko'paytiradi, balki AQShning ixtilofni bartaraf etishdagi vositachi sifatida betaraf qolishini ta'minlaydi.

“Agar bu davlatlar jangovar fundamentalizm qarorgohiga o'tishini, bu bilan G'arbdan nafratlanadigan mamlakatlar ro'yxati kengayishini, xalqaro terrorchilik girdobida qolayotgan mintaqalar ro'yxatiga esa yana bitta nom qo'shilishini xohlasak, bu qonunchilik aktini inkor etaylik va Kentukki senatorining taklifini yoqlab ovoz beraylik”.

Kentukkidan senator Mich MakKonnell edi. Uning hamkasbi Abraxam bilan birga kiritgan Braunbek qonunchilik aktiga o'zgartirish kiritish haqidagi taklifi

907-tuzatishni kuchda qoldirishni talab qilardi. 1992 yili u qabul qilinganida Kongressda unga qarshi bor-yo'g'i to'rt kishi ovoz bergan, ulardan biri Mich Mak Konnel edi. Keyinchalik u o'z pozitsiyasini keskin o'zgartirishiga to'g'ri keldi. Bu o'zgarish tafsilotlariga to'xtalib o'tirmayman. Vaqtning o'zi buning bahosini beradi. Mak Konnel Braunbekning fikriga qo'shilishini, ammo uning o'zi ilgari surgan taklif "Ozarbayjonning tinchlik muzokaralarida bundan buyon ham ishtirok etishiga turtki bo'lishi"ni va "mintaqada yuzaga kelgan zaif muvozanatni buzib yubor-maslikka qaratilgani"ni aytadi.

Kaliforniyalik demokrat, senator Barbara Bokser "Ozarbayjon tomonidan Armaniston va tog'li Qorabog'ning qamal holatida tutib turilishi, u yerda yashovchi be-ayb insonlar duchor bo'layotgan qiyinchiliklar" haqida hikoya qiladi. Hamkasbi Bokserdan qolishmaslikka qaror qilgan senator-demokrat Rid o'zini tashqi siyosat bo'yicha mutaxassis deb ko'rsatadi. Ridning fikricha, 907-tuzatish Ozarbayjon Prezidentini Vashingtonda Armaniston Prezidenti bilan uchrashishga majbur qilgan emish. Haydar Aliyevning o'z mamlakati suverenitetini muzokaralar yo'li bilan tiklash maqsadi faqatgina AQSH Kongressi sanksiyalarini bekor qilishga bo'lgan urinish bilan bog'liqligi kimning xayoliga kelibdi?

Michiganlik respublikachi, senator Abraxamning (keyinchalik u AQSH energetika vaziri bo'ldi) "arman xalqi birinchi marta harbiy tajovuz qurboni bo'lishi emas"ligi haqidagi fikrini illinoyslik demokrat Durbin qo'llab-quvvatladi: "Armanilar Qo'shma Shtatlardan yordam so'rayapti, ularga yordam berishdan bosh tortmaslik kerak". Merilendlik demokrat Barbara Mikulski Amerika qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lib, 907-tuzatishni qo'llab-quvvatlashga chaqiradi, negaki bu Armaniston va Tog'li Qorabog'dagi "dahshatli insoniy azob-uqubatlar"ga chek qo'yishi mumkin ekan.

Vaziyatdan foydalanib, Braunbek Armaniston Ozarbayjon hududlarini qamalda tutib turganini, aynan Armaniston Ozarbayjon hududlarini okkupatsiya qilganini yana bir marta ta'kidlaydi.

Texaslik respublikachi Key Beyli Xatchison Prezident Haydar Aliyev bilan uchrashuvi haqida gapiradi: "Bu odam bizni mintaqaga taklif qiladi, u AQSH bilan ishbilarmonlik munosabatlarini yo'lga qo'ymoqchi. Biz esa milliy nizoni bahona qilib, uning davlatiga qarshi sanksiyalar joriy etdik. Bu qadam davlatimizning sovuqqon siyosatiga xos emas".

907-tuzatishni kuchda qoldirishni talab qilayotgan senatorlar saylangan okruglarni xaritada belgilab chiqsak, uzun ro'yxatga ega bo'lamiz: Kaliforniya, Illinoys, Michigan, Merilend, Nyu-Jersi, Massachusetts va hokazo. Bu ro'yxat ayni paytda demografik xarita chegaralarini ham belgilaydi. Amerikalik qonunchilarning tafakkur tarzi va jo'shqin hissiyotlarini ko'rsatuvchi barometr prinsipi oddiy edi: senatorlar saylovchilar nomidan gapirardi, obrazli qilib aytganda, o'z chiqishlarida armani saylovchilariga murojaat qilardi. Buning uchun esa ular Senat minbaridan foydalanayotgan edi.

Sahna ortida, hokimiyat yo'lkalarida boshqa kompaniya ketayotgandi. Milliy xavfsizlik kengashi, Davlat departamenti, Amerikaning boshqa tuzilmalari vakillari to'xtovsiz Senat a'zolariga, ularning xodimlariga qo'ng'iroq qilar, 907-tuzatishni bekor qilishni yoqlab ovoz berishga ko'ndirardi. Yahudiy tashkiloti namoyandalari Kongressga ko'chib o'tgandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular bir ofisdan chiqib, boshqasiga kirar, o'z siyosiy ta'siri bilan Ozarbayjon manfaatlarini qo'llab-quvvatlardi.

Ammo lekin teskari tomon tashkil etgan kompaniya kuchliroq edi. Senatorlar Mak Konnel va Sarbeyns qizg'in faoliyat boshlab yubordilar. Ularning birinchisi kichik qo'mitalar va moliyaviy yordam aktlari menejeri sifa-

tida reglamentni boshqarardi. U bir qancha tanaffuslar yordamida 10:30 da boshlangan muhokamani kechki soat sakkizgacha cho'zib yubordi. Bu to'xtalishlar arman lobbisiga senatorlar ofislari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish va ular oldiga ultimatum qo'yish imkonini berdi. Bob Doul muhim rol o'ynadi. U hamkasblariga navbatmanavbat qo'ng'iroq qilib, ularni armanilarni yoqlab ovoz berishga ko'ndirardi. Ishonchli manbadan olgan axborotimizga qaraganda, Doulning senatorlarga murojaati bir xil shaklda bo'lgan: "Mening vaziyatimga kirib ko'ring. Men har doim armanilar tomonini tutganman, va biz "907" kuchda qolishiga erishganmiz. Hozir vaziyat o'zgarishi mumkin. Menga bu safar ham yordam bering!"

Mak Konnelning sa'y-harakatlari faqat vaqt manyovrlari bilan cheklanmas edi. Moliyaviy yordam to'g'risidagi qonunchilik aktlari menejeri ekanligidan foydalanib senator hamkasblariga, agar "907" bo'yicha takliflar rad etilmasa, shu taklif ichiga kiruvchi xorijiy moliyaviy yordam to'g'risidagi akt joyidan siljimasligini ma'lum qildi. Agar Braunbek tarafdorlari ovoz berishga qadar ovozlarning uchdan ikki qismini to'play olmasa, senator Pol Sarbeyns "filibaster" jarayoniga murojaat etishi aytildi. Bu jarayon har bir senatorga muhokamani noma'lum muddatga cho'zib yuborish imkoniyatini taqdim etadi. Xorijiy moliyaviy yordam to'g'risidagi aktning tahdid ostiga qo'yish Oq Uyning ham, Kongressning ham manfaatlariga javob bermas edi. Natijada Braunbekni 45 senator qo'llab-quvvatladi. 907-tuzatishni bekor qilish harakati bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ammo biz navbatdagi jangda yengildik, kompaniya esa davom etayotgandi. Faqat vaqt zarur edi.

## 11-SENTABR – YANGI QARASH, YANGI DUNYO

2001–yil 11–sentabrda Amerika xalqi mutlaqo yangi davrga qadam qo‘ydi. Usoma ben Ladenning safdoshlari yo‘lovchi samolyotlarini o‘lim quroliga aylantirib, Nyu-York va Vashingtonni jang maydoniga aylantirdi. Fojia butun insoniyatni larzaga soldi va dunyoni butunlay o‘zgartirib yubordi. Endi hayot oldingiday bo‘lmasdi. Amerikaliklarning atrofdagi haqiqatga va ayniqsa o‘zlariga bo‘lgan munosabati o‘zgardi. Yangi dunyo yangi siyosat yuritilishini talab etardi. Birinchi marta siyosat mohiyati uni ishlab chiqish mexanizmidan ustun keldi. AQSH milliy xavfsizlik manfaatlari tahdidga uchrab, birinchi o‘ringa olib chiqildi.

Bu manfaatlar doirasiga Ozarbayjon ham kirardi. Afg‘oniston va Yaqin Sharq o‘rtasida joylashgan bu kichkina mamlakat islom dunyosidagi dunyoviy davlat namunasi edi. Bundan tashqari, geosiyosiy manfaatlar kesishuv nuqtasida va xalqaro terrorga qarshi yangi urush tugunida joylashgan Ozarbayjon Amerika Qo‘shma Shtatlarining ittifoqchisi edi.

Prezident Haydar Aliyev ittifoqchilik majburiyatlariga sodiqligini yana bir marotaba namoyish etish imkoniyatini qo‘ldan boy bermadi. Jahon mamlakatlari birin-ketin Qo‘shma Shtatlarning sheriklari ekanligini bildirayotgan edi. Boku hokimiyat strukturalarida bunga bo‘lgan muhokama qilinar, ammo rasmiy bayonot hozircha berilmagan edi. Biz elchixonada rasmiy bayonot matnini tayyorladik, men uni zudlik bilan taklif sifatida Prezident devoniga yo‘lladim. O‘sha kuni Ozarbayjon davlati rahbari Milliy xavfsizlik kengashi majlisini chaqirdi. Ozarbayjon Respublikasi Amerika Qo‘shma Shtatlarini qo‘llab-quvvatlashi haqida rasmiy bayonot berdi. Prezident



topshirig'i bilan Davlat departamentiga yo'l oldim, u yerda rasmiy Boku Vashingtonni qo'llab-quvvatlashini, Ozarbayjon hukumati mamlakat havo hududini Amerika harbiy samolyotlarining to'sqinliksiz parvozlari uchun taqdim etishini aytdim.

Bu Ozarbayjon va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida tom ma'nodagi strategik hamkorlikning boshlanishi bo'ldi. Yangi realiyalar eng muhim masala bo'yicha kechiktirmasdan qaror qabul qilish talabini qo'yardi. 907-tuzatish AQSH milliy xavfsizlik manfaatlariga zid ekaniga shubha qolmagandi. Davlat departamenti sa'y-harakatlari bilan Kongress yangi akt qabul qildi. Prezidentga har yili tuzatishning amal qilishini to'xtatib turish huquqi taqdim etildi.

Bundan kelib chiqadiki, hatto bu adolatsiz qonunchilik aktini biroz yumshatish uchun ham Amerika Qo'shma Shtatlari milliy xavfsizligi tahdid ostida qolishi kerakmidi? Bu achinarli holat, ammo u Amerika davlatchiligining shakllanishidan bugunga qadar Vashington isteblishmentining tashqi siyosat sohasidagi muhim qarorlarni qabul qilish jarayoni haqidagi bor haqiqatni ko'rsatadi.

## LOBBIDAGI SARGUZASHTLAR

O'rinli savol tug'iladi: "Bu muammolar yuzaga kelayotganida Ozarbayjon lobbisi nima bilan shug'ullanayotgan edi?" Bu savolga javob ham oddiy, ham achinarlidir: bizda lobbistik kompaniyalar bor edi, ammo lobbi siyosatini yuritish strategiyasi yo'q edi.

"Kapitolayn" kompaniyasi bor-yo'g'i olti oy davomida Ozarbayjon hukumatiga vakil bo'ldi. Yangi Ozarbayjon rahbariyati oldida turgan vazifalar boshqacharoq edi. Rasmiy Bokuni lobbistik faoliyatni moliyalashtirishga ko'ndirish imkonsiz edi. Kompaniya prezidenti janob Pyusi masala mohiyatini anglamadi va shartnomalarning davom etishiga men qiziqmayapman deb o'yladi. Shuning uchundir, Turkiyaga safari doirasida u aylanish bahonasida bir kunga Ozarbayjon poytaxtiga kirdi va qator rasmiy shaxslar bilan uchrashdi. Biroq rasmiy Boku baribir "Kapitolayn" bilan shartnomani uzaytirmadi, Pyusining bu ishi esa mening unga bo'lgan ishonchimni susaytirdi.

"Kapitolayn" xodimlaridan biri Edvin Greyvz edi. U Bokuda bo'lgandi, uning Ozarbayjondagi mustaqilligiga bo'lgan intilish ma'qul edi. "Kapitolayn" bilan shartnoma yo'qligiga qaramay, Alabamada tug'ilib o'sgan Ed gohigohida bizga yordam berardi: Kongress a'zolariga yozilgan xatlarni, biz gazetalarga yo'llaydigan maqolalarni tahrir qilib berar, fikrlari bilan o'rtoqlashar, maslahatlar berardi. Ko'rsatilgan yordam evaziga bizdan pul olmasdi. Ed Greyvz ixtiyoriy ravishda ko'rsatayotgan bu yordam uzoq vaqt davom etdi. Oxir-oqibat men u bilan elchixonaning ichki moliyaviy resurslari hisobidan, kichik summaga bo'lsa ham, shartnoma imzoladim.

Kongressmen Charli Uilson iste'foga chiqqanidan keyin men uni ham bu shartnomaning bir qismini bajarishga jalb etdim. U Ozarbayjonga gumanitar yordam ko'rsatish

to'g'risidagi akt muallifi edi. Bu odam haqida keyinchalik bir necha kitob yozildi. Kongressda bo'lgan davrida ham, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib yurgan kezlari ham uning oliyjanobligiga hech kim shubha bilan qaramagan. Charli katta ta'sir kuchiga ega, xarakteri bo'yicha esa haqiqiy texaslik edi.

Ozarbayjon lobbisining Vashingtondagi ijobiy va samarali faoliyati haqida gapirsak, Edvin Greyvz va Charli Uilson astoydil mehnat qilgan yagona odamlardir. Biroq ko'p yillar davomida uquvsiz lobbichilar bilan mashg'ul bo'lishimizga to'g'ri keldi.

Parijga rasmiy safari chog'ida tashqi ishlar vaziri Hasan Hasanov Prezident Haydar Aliyevga Bob Kiif ismli amerikalikni tanishtirdi. Tashqi siyosiy idora rahbarining so'zlariga qaraganda, janob Kiif Vashingtondagi nufuzli lobbichilardan ekan. Lobbistik firma bilan hamkorlik zaruratini tushungan Prezident Bob Kiif bilan shartnoma imzolashga rozilik berdi. Uni H. Hasanovga BMTdagi Doimiy vakolatxonamiz xodimlaridan biri topib bergan edi.

Bir kuni eshik taqilladi. Bob Kiif o'z jamoasi bilan kirib kelib, bu bizning lobbistik firmamiz ekanligini e'lon qildi. Janob Kiifning kompaniyasi yarim yil ichida Kongressda ma'lum ishlarni bajardi, ammo uning mohiyati nimadan iborat ekanini biz tushuna olmadik.

Bu shartnoma tugashi bilan yanabir mudhish xabar oldik. Bir kuni yordamchim sobiq kongressmen Jek Myorfi men bilan uchrashmoqchiligini aytdi. U kimligini bilmasdim, shunga qaramay, uchrashuv vaqtini belgiladim. Janob Myorfi bir guruh odamlar hamrohligida tashrif buyurdi. Bunday katta delegatsiyani ko'rib hayron qolganimni payqagan mehmon ular bizning yangi lobbi guruhimiz ekanligini ma'lum qildi. Ya'ni, uning kompaniyasi Ozarbayjon hukumati tomonidan ishga olib bo'lingan edi,

janob Myorfi esa shartnoma ustida ishlaydigan jamoani menga tanishtirish uchun kelgandi. Uning keyingi qadami meni butkul shokka tushirdi. Taqdim tugashi bilan u stol ustiga imzolangan shartnomani qo'yib, Ozarbayjon hukumati firma faoliyati uchun bir yil oldindan haq to'laganini ma'lum qildi.

Hollivud filmini ko'rayotgan edim go'yo. Boku Vashingtondagi lobbistik faoliyati bo'yicha shartnoma imzolagan, Ozarbayjonning AQShdagi elchisi esa bundan bexabar qolgan bo'lishi mumkin emasdi. Axir bunday kelishuv imzolanishi bo'yicha muzokaralar ko'p vaqt oladi. Nahotki na Tashqi ishlar vazirligidan, na Prezident devonidan biror kishi menga buni bildirib qo'ymagan bo'lsa? Bu Jeyms Bond haqidagi filmlarni eslatardi. Lekin agent 007 ham Jek Myorfi oldida ip esholmasligi ma'lum bo'ldi...

Janob Myorfini Prezidentga Ozarbayjonning Rossiyadagi elchisi Ramiz Rizayev tanishtirgan, Haydar Aliyevning Rossiya Federatsiyasiga tashrifi chog'ida ularning uchrashuvini tashkil etgan edi. Tanishuv ortiqcha kibr-havo bilan uyushtirilgan edi. Prezident Myorfi bilan shartnoma tuzish bo'yicha hech qanday ko'rsatmalar bermagan, lekin bu qisqa uchrashuv Rizayevga o'z kanallari orqali kelishuv imzolanishiga erishish imkoniyatini bergan edi. Bu haqda hatto Prezidentga ham xabar berishmagan. Myorfiga darhol ma'lum summa to'langan. Bir narsani tushuna olmasdim: AQShda Ozarbayjon elchisi turganida Amerikada lobbistik faoliyatni yo'lga qo'yish bilan nega Moskvadagi elchi shug'ullanyapti? Natija ayanchli bo'ldi.

Rizayev o'zi ham bexabar bo'lgani bois Prezidentga bir muhim faktni yetkazmagan edi. Jek Myorfi bir necha yil qamoqda o'tirgan ekan. Uning ismi Vashingtonda ancha taniqli edi, lekin Kongressdagi faoliyati tufayli emas, qamoqda o'tkazgan yillari sababidan. Voqealar mana

bunday bo'lgan. Myorfi Kongressga a'zo bo'lgan payti Federal qidiruv byurosi ayrim qonunchilar poraxo'rlik bilan shug'ullanayotgani haqidagi axborot asosida kongressmenlar orasida maxfiy operatsiya o'tkazayotgan edi. FQB xodimlari o'zlarini Yaqin Sharqdan kelgan biznesmenlar sifatida tanishtirib, ma'lum xizmatlar evaziga norasmiy mukofot taklif qilardi. Qarmoqqa ilingan va taklifni qabul qilganlar orasida Kongress a'zosi Myorfi ham bor edi. Uning siyosiy faoliyati shu bilan yakuniga yetdi. Erkinlikka chiqqach, Jek Myorfi o'z lobbistik firmasini yaratishga qaror qildi. Umuman, iste'foga chiqqandan so'ng sobiq kongressmenlar odatda lobbizm bilan shug'ullanadi. Ozarbayjon shartnomasi omadsiz siyosatchi uchun tekin osh degani, faqat o'jar elchini ko'ndira olsa bo'ldi edi.

Men Myorfi oldiga qo'ygan ultimatum qat'iy edi: u bilan ishlashni istamayman, u bilan tuzilgan shartnoma esa bekor qilinadi. Yangi Jeyms Bond yoki Ostap Bender elchixonani tark etgani hamono Prezidentga qo'ng'iroq qildim. Birozdan so'ng men Haydar Aliyev bilan bog'lashdi. Uning e'tiboriga bir fikrni yetkazmoqchi edim: Ozarbayjon Myorfi kabi tovlamachilar bilan aloqa qilmasligi kerak. Prezident g'azabda edi: uning ishonchini suiste'mol qilishgandi. Telefon suhbatining barcha tafsilotlarini oshkor qilish odobdan bo'lmaydi, bir narsani ayta olaman – Haydar Aliyev darhol shartnomani bekor qilib, ijro haqida shaxsan o'ziga ma'lumot yetkazishni buyurdi.

Ammo Jek Myorfi shartnomani bekor qilishdan bosh tortardi, va biz sudga murojaat etishga majbur bo'ldik. Sud jarayoni cho'zilib ketdi. Vashingtonda advokatlar xizmati juda qimmat turadi, jarayonni oxiriga yetkazish uchun moliyaviy imkoniyatlar yetmayotgandi. Shu bilan ish oxiriga yetmadi. Oxirgi marta Myorfini sud zalida ko'rgandim.

## LOBBI STRATEGIYASI VA MEXANIZMI

2004 yil kuzi. Oxirgi haftadagi voqealar xronologiyasi Ozarbayjonni Vashingtonda munosib tamsil etish uchun nafaqat lobbistik firmaga, balki uzoq istiqbolni o'ylab rejalashtirilgan lobbi strategiyasi, mexanizmiga ehtiyoj borligini ko'rsatdi.

Bir muddat ilgari Jorj Bush ma'muriyati Kongressga Kavkaz mamlakatlariga moliyaviy va harbiy yordam paketini ma'qullashni taklif qildi: Ozarbayjonga 8 million dollar, Armanistonga esa 2 million dollar ajratilishi lozim edi. Bu fakt ijobiy bahoga munosib, chunki ikki mamlakat aloqalari tarixida hali birorta ma'muriyat Ozarbayjon – Armaniston muvozanatida bizga bu qadar yon bosmagan edi. Gap moliyaviy yordam hajmini aks ettiradigan raqamlardagina emas. Raqamlar mutanosibliigi harbiy nuqtai nazardan Ozarbayjon Vashington uchun muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shu tariqa, bu yordam bizning mamlakatimizga qudratli tashviqot kompaniyasi o'tkazish imkoniyatini berardi.

Afsuski, arman lobbisi yana bor kuchi bilan Kongressdan Ozarbayjonni bu yordamdan mahrum qilish qilishga erishishga urina boshladi. Vakillar palatasi Bush ma'muriyati taklifini tahrirdan o'tkazadi: tenglikni saqlash bahonasida har bir mamlakatga 5 million dollardan moliyaviy va harbiy yordam ko'rsatish qarori qabul qilindi. Senatga kiritilgan qonunchilik akti esa tubdan o'zgardi, Senat Armanistonga 8 million dollar ajratishga qaror qildi. Ozarbayjonga ko'rsatiladigan harbiy yordam miqdorini belgilash ma'muriyat zimmasiga yuklandi.

Shunday qilib, boshida hisob Ozarbayjon foydasiga 8:2 bo'lgan o'yinda muvozanat qasddan o'zgartirildi. Armanistonga ko'rsatiladigan yordam hajmi 2 milliondan 8 milliongacha ko'tarildi. Buni yutqizgan tomonning zaifligi

bilan tushuntirish adolatdan bo'lmaydi: Ozarbayjonning Vashingtondagi elchixonasi faoliyati olqishga sazovor edi.

Bu o'yindagi zaif halqa – murabbiy, ya'ni mavjud bo'lmagan lobbi edi. Uddaburon murabbiy aynan nufuzli va odami ko'p lobbistik kompaniya emas, uning professionaligi unga ajratilgan mablag' bilan o'lchanmaydi. Bu holatda usta murabbiy uzoq muddatli lobbi strategiyasini ishlab chiqish hamda uni hayotga tatbiq etish uchun jamoa tuzish edi.

AQSH Kongressida ishlanayotgan har bir taklif bitta prinsipga asoslanishi lozim: u yoqlab ovoz beradigan kongressmenga nima beradi. Va'da konkret jaranglashi lozim: saylovchilarning ovozlari va saylovoldi kampaniyasi uchun mablag'. Xato qilish yutqizish demakdir. Vashington siyosatida shaxsiy manfaatlar ko'pincha adolat va axloqdan ustun turishini har doim yodda tutish lozim. 1992 yildan biz bunga ko'p marotaba guvoh bo'lgandik.

Ozarbayjon hukumati Vashingtonning lobbistik madaniyatidan faqat qisqa muddatga manfaat ololdi. Ko'psonli va yaxshi tashkil etilgan diasporaga ega bo'lmagan Ozarbayjon Kongress a'zolariga saylovchilarning ovozlari yoki saylovoldi kompaniyasi uchun mablag' taklif eta olmaydi, lekin bir qudratli qurolga ega. Bu – ulkan iqtisodiy salohiyat. Gap shundaki, iqtisodiy manfaatlar o'z ortidan siyosiy manfaatlarni tortib keta oladigan lokomotiv rolini o'ynashi mumkin. Buni yaxshi tushungan Haydar Aliyev AQShdagi neft lobbisi kuchi va imkoniyatlaridan to'la foydalana oldi, uning bir necha yillik faoliyati Ozarbayjon lobbi strategiyasi qanday prinsipga asoslanishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Puxta tashkillashtirilgan etnik diaspora mavjud bo'lmagan bir sharoitda Ozarbayjonda ishlovchi Amerika kompaniyalari biznes-diaspora rolini o'ynashga qodir.

Yaqin 10–15 yillik lobbi strategiyasi aynan shu prinsipga

asoslanishi lozim. Quyida sanab o'tiladigan omillar 1992 yildan boshlab sinovdan o'tgan va lobbi faoliyati samaradorligini ta'minlashi mumkin:

1. Nufuz, ta'sir va maqom. Shartnoma tuziladigan kompaniya kimning otidaligi, qanday nufuz va aloqalarga egaligi muhim. Vashington – o'ziga bino qo'yib, ko'ksini mushtlab turgan hisobsiz lobbistlar uyasi. Ularning kichik qismigina samarali ishlashga qodir. Nufuz muhim, faqat siyosiy ovozga ega lobbist favqulodda vaziyatda bevosita spiker, komissiyalar rahbarlari va kabinet a'zolari bilan bog'lana oladi. Ozarbayjon misolida bunday aloqalarga yoki mas'ul shaxslar bilan bevosita bog'lanishga ko'p bor ehtiyoj tug'ilgandi. Bunday ehtiyoj har doim tug'iladi.

2. Ish strategiyasi va rejasi. Odatda nufuzdan yirik kompaniyalar foydalanadi, ularning mijozlari ko'p bo'ladi. Rahbariyat daromad ortidan qanchalik ko'p shartnoma imzolasa, kompaniya ham shunchalik kengayadi. Natijada har bir alohida mijozga ajratiladigan e'tibor kamayadi. Nufuzli kompaniyalarning ustunligi shundaki, ular to'g'ri strategiyani ishlab chiqa oladi, lekin uni amalga oshirish vaqti kelganida ular vaqt taqchilligiga uchraydi, yoki o'zlari vakili bo'lib berayotgan mamlakat haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaydi. Bu esa ish samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazadi, shu bois elchixonona bir vaqtning o'zida ham kongressmenlarga, ham o'z lobbichilariga ma'lumot yetkazishiga to'g'ri keladi.

3. Jamoa. Shartnoma ustida qanday jamoa ishlashi, u kimlardan tashkil topishi juda muhim. Tarkib shartnoma tuzilishidan oldin aniqlanishi, uning tarkibiga mamlakat sharoitlarini yaxshi biluvchi odamlar kirishi darkor. Ko'p hollarda bunday shaxslar chetdan taklif qilinadi. Ular orasida ayniqsa Ozarbayjon vakillari ajralib turadi. Hech bir amerikalik, ma'lumoti, tajribasi va unvonlaridan qat'iy nazar, ko'ksida vatanparvarlik tuyg'usi limmo-lim



qalbi jo'sh urib turgan ozarbayjon yigitining o'rnini bosa olmaydi.

4. **Biznes-diaspora.** Bir qarashda ta'sir, strategiya, ish rejası va jamoaga ega lobbichi hamma narsaga qodirday, uning oldida turgan yagona vazifa – Kongress a'zolariga Ozarbayjon haqidagi haqiqatni yetkazishday. Go'yoki kongressmenlar yetarli miqdorda ma'lumotga ega bo'lsa, ular haqsizlikka chek qo'yib, adolat uchun ovoz beradiganday. Bunday o'ylash soddalik bo'lardi. Albatta, haqiqat va axborot zarur, lekin ular muammoni to'liq hal eta olmaydi. Shunday bo'lganida, Amerika Qo'shma Shtatlari uchun Ozarbayjonning strategik ahamiyatini juda yaxshi tushunadigan Bush jamoasi (Dik Cheyni, Kondoliza Rays, Kolin Pauell, Richard Armitaj, Don Ramsfeld, Pol Vulfovıs va boshqalar) allaqachon Ozarbayjonning yangi saylangan Prezidentini Oq Uyga taklif qilgan bo'lardi. Mumkin emas, 2004–yil – AQShda Prezident saylovi yili! Har bir lobbichi haqqoniy axborotni manzilga yetkazishi mumkin, lekin bu yo'llanma uni olgan odamning shaxsiy manfaatlariga mos kelmasa, vazifa yechimini topmaydi. Qisqasini aytganda, Ozarbayjon lobbichisi stol ustiga yo saylovchilarning ovozlari, yo saylov kampaniyasi uchun pul qo'yishi kerak. Buni etnik diaspora ta'minlab bera olmasa, unga biznes-diaspora muqobil bo'la oladi. Yangi biznes-lobbini shakllantirishga o'tkir zarurat mavjud.

5. **Lobbichini boshqarish.** Yuqoridagi barcha omillar bir yerga to'planganda ham lobbichi faoliyati samaradorligi u qanday boshqarilayotganiga bog'liq bo'lib qolaveradi. "Pulini to'ladik, demak, ishni bajarishadi" qabilidagi mulohaza faqat zarar keltiradi. Oxir-oqibat, tashkilotchi va mas'ul shaxs rolini yana elchixonaga o'ynashiga to'g'ri keladi.

Faqat nufuzga, strategiyaga, ish rejasiga, jamoaga ega, biznes-diasporaga tayanadigan struktura lobbi madaniyati talablariga javob beradi va samarador lobbi mexanizmi shakllanishiga olib keladi.

## AMERIKA – OZARBAYJON SAVDO PALATASI

Ozarbayjon Amerika Qo'shma Shtatlarida erishgan muvaffaqiyatlarda Amerika – Ozarbayjon savdo palatasining xizmatlari alohida. Bu tashkilotning AQShda Ozarbayjon haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rnini juda muhim. U ikki mamlakatlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash va rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. So'zlarimning tasdig'i o'laroq bir faktni keltiraman: tashkil etilganiga besh yil to'lar-to'lmas Savdo palatasi Vashington markazida million dollarga to'rt qavatli bino xarid qilib, Ozarbayjon madaniyat va savdo markazini ta'asis etdi.

1996–yil boshida Vashingtonda Ozarbayjonga bo'lgan qiziqish ancha ortdi. Neft strategiyasi ijobiy rezonans keltirib chiqardi, “Asr shartnomasi” ortidan yangi yirik shartnomalar imzolanishi kutilayotgan edi. Sekin-asta Ozarbayjon iqtisodiy salohiyatiga bo'lgan ishonch ortib borayotgandi. Jahonning turli mamlakatlaridan neft kompaniyalari Ozarbayjon “neft torti”dan ulush olib qolishga intilardi. Iqtisodiy qiziqish jamoatchilik qiziqishiga sabab bo'layotgandi, Vashington siyosati esa bu ikkisini ham inobatga olar va ularga ergashardi.

Shu pallada Ozarbayjonda manfaatga ega barcha kuchlarni bitta tashkilot atrofida birlashtirishga ehtiyoj tug'ildi. Dastlab konsepsiya juda oddiy edi: yangi tashkilot ikki tomonlama struktura bo'ladi, ya'ni unda ham Ozarbayjon, ham Amerika tomonlari baravar ishtirok etishi lozim. Iqtisodiy faoliyat ishning boshlang'ich yo'nalishi sifatida belgilangan edi. Bu nuqtai nazardan asosiy maqsad Ozarbayjonda ishlayotgan Amerika kompaniyalari manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, mamlakatga yangi investitsiyalar jalb etish edi. Shu prinsiplarga asoslangan holda yangi tashkilotni Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi deb atashga qaror qildik.

Tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini janob Rizo Vaziriy o'z zimmasiga oldi. U asli Janubiy Ozarbayjondan bo'lib, ko'p vaqt Amerikada yashagan. Bir muddat Eron shohi Rizo Pahlaviy saroyida ishlagan, islom inqilobidan keyin esa AQShga ko'chib o'tgan. Ozarbayjon taqdiri g'alati baribir... Amerikada o'rnashgach, Vaziriy yigirma yil davomida Eronda qoldirgan oilasi bilan uchrashish imkoniyatidan mosuvo bo'lgan. Uning eslashicha, Ozarbayjon mustaqilligi tiklanganidan so'ng u Bokuga kelib, Oroz daryosi bo'yicha yaqinlari bilan uchrashuv belgilagan. Yillar davomida g'urbatda va ayriliqda yashagan oila a'zolari nihoyat ko'rishgan. Afsuski, ular bir-birini bag'riga bosa olmagan. Shimoliy sohilda turgan Vaziriy Orozning janubiy qirg'og'ida yig'ilishib turgan yaqinlari bilan so'rashish ma'nosida qo'l silkib qo'yishdan boshqa chora topolmagan. Bu haqda eslaganda Vaziriy har safar "Oroz juda keng daryo" deb ho'rsinib qo'yadi.

Rizo Vaziriy Vashingtonga yaqin yerda yashardi. Mahalliy sherik bilan birga baliq ikrasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kompaniyaga egalik qilardi. Birinchi marta Ozarbayjonga ishbilarmonlik maqsadlarida bordi. Savdo palatasini ro'yxatdan o'tkazish bilan Ozarbayjon asli amerikalik biznesmen shug'ullanishi tabiiy edi.

Yana bir masala tuzilmani boshqarish bilan bog'liq edi. Ijro direktorni tayinlash zarur edi. Tanlov elchixonaning ikkinchi kotibi G'olib Mamedga tushdi. U yosh, keng dunyoqarashli odam edi, aloqalari bor edi, ishtiyoqi baland edi, Vashingtondagi diplomatik xizmatini ham yakunlagan edi. Elchixonamizning ilk xodimlari bo'lgan diplomatlar orasida u o'qishga va bilim olishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi bilan ajralib turardi. Maoshining yarmini G'olib ta'limga sarflar, ishdan keyin Vashington universitetlaridan birida darsga qatnar edi. Asosiysi, Ozarbayjon va Amerika madaniyati nozikliklarini yaxshi bilar, shu bois ishbilarmon

va hukumat doiralarida ishonch va hurmatga sazovor edi. Savdo palatasi boshqaruvini bu yosh ozarbayjon yigitiga topshirishdi.

U kezlari AQShda Ozarbayjonda manfaati bo'lmagan neft kompaniyasi yo'q edi. Kaspiy sohilidagi kichik davlatda shartnomaga ega bo'lgan neft kompaniyalari manfaat doirasi faqat daromad olish bilan cheklanmas edi. Har bir kelishuv kamida 25 yil muddatga imzolanardi, mamlakatda 25 yil ishlaydigan har bir kompaniya jamoasining bir qismi beixtiyor shu davlat fuqarolariga aylanardi. Xalqaro leksikonda bu "kompaniya fuqaroligi" deb atalib, javobgarlikning befarqlikni istisno etuvchi, ushbu mamlakatning har tomonlama va faol rivojlanishida ishtirok etishga qiziqish va xohish uyg'otuvchi yangi shaklini nazarda tutadi.

Bunday shakldagi fuqarolikka qo'yiladigan asosiy talab respublikamizni AQShda targ'ib qilish, Ozarbayjon mustaqilligining chet elda tan olinishi, iqtisodiy o'sishga ko'mak berish, neft sektoridan boshqa sohalarga ham investitsiyalar olib kirilishini ta'minlash va boshqalardan iborat edi. Amerika kompaniyalarining qiziqishini uyg'otayotgan yana bir fakt bor edi: Erkinlik-erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatish. Bu qonunchilik akti AQSH kompaniyalarini raqobatni unutilib, birlashishga majbur qilardi. Ular 907-tuzatish adolatsiz ekaniga, Amerika jamoatchiligiga Ozarbayjondagi asl vaziyat haqidagi ma'lumotni yanada faol yetkazish kerakligiga ishonardi.

Barcha tilga olib o'tilgan jihatlar inobatga olinsa, Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi boshida qay darajada keng qo'llab-quvvatlanganini tasavvur qilish oson. Yangi tashkilot konsepsiyasi turli kompaniyalar tomonidan ma'qullandi. Yana bir narsani unutilmaylik: Savdo palatasini qanday model asosida shakllantirish kerakligi haqidagi

savol boshida keskin bahslarni keltirib chiqardi. Buning sababi shundaki, Ozarbayjon Vashingtonda ko'plab siyosiy muammolarga duch keldiki, ularning tezda barataraf etilishidan barcha, shu jumladan, Amerika kompaniyalari ham manfaatdor edi. Ammo bu Savdo palatasi lobbistik kompaniya rolini o'ynashi kerak deganimi? Aslo yo'q. Strukturaning missiyasi savdo-iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish va AQShda mamlakatimiz haqida to'liqroq tasavvur hosil qilish edi. Menimcha, palataning tez sur'atlarda rivojlanishiga olib kelgan bosh omillardan biri ikki tomon ham oldindan bu fundamental prinsip bo'yicha kelishuvga kelgani va har doim unga nisbatan hurmat ko'rsatgani bo'ldi.

AQSH jamoatchiligi va ishbilarmon davralarida Kongressning Ozarbayjonga nisbatan pozitsiyasidan norozilik ancha kuchli edi. Hamma u yoki bu shaklda Ozarbayjonni ruhiy qo'llab-quvvatlashni o'z burchi deb bilardi. Savdo palatasi ishida qatnashish shunday imkoniyatni berardi. Bu istehzoli eshinishi mumkin, lekin Savdo palatasi rahbariyati o'z tashkilotining yillik mukofotini erkinlikni himoya qilish premiyasi deb atadi... Bu mukofotga ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga alohida hissa qo'shganlar loyiq ko'rilardi. Mukofotni topshirish marosimi eng yuksak saviyada o'tkazilardi.

Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi bu so'zning tom ma'nosida qo'sh fuqarolik namunasi edi. Ozarbayjondagi Amerika kompaniyalari manfaatlarini qay darajada qat'iyat bilan himoya qilsa, shunday ishtiyoq bilan AQShda Ozarbayjon haqidagi haqiqatni yetkazish bilan shug'ullanardi. Tuzilma Ozarbayjon hukumati bilan eng yuqori darajada aloqa qilib, Amerika biznesi oldida turgan muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilishiga erishardi. Vashingtonda to'xtovsiz konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlar o'tkazardi, ularda Ozarbayjon tomonidan

respublika Prezidenti ham, Vazirlar mahkamasi a'zolari ham qatnashardi. Amerika tomoni ham deyarli shunday vakillarga ega edi. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi anjumanlarida eng yirik kompaniyalar rahbarlari raislik qilardi, bu yerda hukumat va Kongress a'zolarini tinglash, matbuot vakillari bilan uchrashish mumkin edi. Muhokama qilinadigan ikki tomonlama masalalar tezda siyosiy va jamoatchilik davralarida qo'llab-quvvatlanardi.

Savdo palatasining boshlang'ich muvaffaqiyati sabablaridan biri uning strukturasi hamda eng yuqori darajadagi shaxslar vakilligi edi. Faxriy maslahatchilar kengashi AQShning eng nufuzli siyosatchilarning birlashtirardi. Ular orasida Zbignev Bzejnskiy, Dik Cheyni Jeyms Beyker, Genri Kissinjer, Lloyd Bentson, Jon Sununu, Brent Skoukroftlar ajralib turardi. Bu mashhur arboblar palata ishida faol qatnashar, bunda birinchi navbatda axloqiy burchini ko'rardi.

Bir marta Nyu-Yorkka kelib, Genri Kissinjer audiensiyasini so'radim. Bu haqda bilgan Palata ijrochi direktori u uchrashuvda ishtirok eta olish-olmasligini so'radi. Janob Kissinjer bizni iliq kutib oldi, Ozarbayjonga katta qiziqish bildirdi. Kongress, mamlakatda bir million qochqin bo'lishiga qaramay, Ozarbayjonni gumanitar yordamdan mahrum qilgani uni kuchli hayron qoldirdi. Genri Kissinjer o'z ona yerini tark etishga majbur bo'lgan odamlar gardaniga tushadigan uqubatlardan yaxshi xabardor edi. O'z vaqtida uning oilasi quvg'in qilingan va uzoq judoliklardan so'ng AQShdan qo'nim topgan edi. U Ozarbayjonga qo'lida bor imkoniyatlar bilan yordam berishni va'da qildi. Bu haqda eshitgan G'olib uni Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi Faxriy maslahatchilari kengashi tarkibiga kirishga taklif etdi. Janob Kissinjer javob berishga ulgurmay telefon jiringlab qoldi. Xyustondan AQShning sobiq Davlat kotibi Jeyms Beyker qo'ng'iroq qilayotgandi.

Kissinjer undan hayratini yashirmay so'radi: "Jeyms, Ozarbayjonda bir million qochqin borligiyu, biz ularga nisbatan sanksiyalar joriy etganimizni bilasanmi?" Beyker ijobiy javob berishiga iymonim komil edi, negaki bor-yo'g'i bir necha hafta oldin u bilan Xyustonda uchrashib, dildan suhbat qurgandim. Biz undan ham Savdo palatasi faoliyatiga faxriy maslahatchi sifatida qo'shilishni so'ragandik va uning javobini kutayotgandik. Kissinjer Beykerga quloq soldi va ikkisi ham Savdo palatasi Faxriy maslahatchilari kengashi qo'shilishi maqsadga muvofiq deb hisobladi, shuningdek, Ozarbayjon bo'yicha muzokaralarni davom ettirishni tavsiya qildi.

Faxriy maslahatchilar kengashi g'oyasi muallifi Zbignev Bzejnskiy edi. O'z vaqtida AQSH Prezidentining milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchisi bo'lgan Bzejnskiy Vashingtondagi Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazida ishlardi. Klinton ma'muriyati Rossiyaga ixlos qo'ygan vaqtlarda Bzejnskiy yangi geosiyosiy muhitda xolis siyosat yuritishga chaqirgan siyosiy arboblarning old saflarida edi. Uning qarashlari xalqaro siyosatda axloqiy kriteriyalar ustuvorligigagina emas, mustahkam geosiyosiy prinsiplarga ham asoslangan edi. Men bu odamning o'tkir zakosi va prinsiplarga sodiqligiga katta hurmat bilan qarardim. Birinchi marta Vashingtonda, Rossiya elchixonasida bosh vazir Chernomirdin sharafiga uyushtirilgan banketda uchrashgandik. Men unga yaqinlashib, o'zimni tanishtirdim. Uning oldida Ozarbayjon elchisi turganini bilib, Bzejnskiy meni uchrashuvga taklif qildi. Keyinchalik mustahkamlanib ketgan munosabatlarimiz mana shunday boshlangandi. Bir muddatdan keyin Bzejnskiy "Amoko" bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi, bu neft kompaniyasi tashabbusiga ko'ra Bokuga kelib, Prezident Haydar Aliyev bilan tanishdi. Bu tanishuv yaqin do'stlikka aylanib ketdi. Bzejnskiy Prezidentning AQShga safarlari chog'ida u bilan



uchrashishni kanda qilmas, Ozarbayjon davlati rahbari ishtirokidagi Savdo palatasi tadbirlarida mamnuniyat bilan chiqishlar qilar edi. Prezident Aliyevning AQShga bir galgi safari chog'ida siyosatchi uni o'z uyida mehmon tariqasida kutib oldi. Bu ikki mislsiz arbobning muloqoti menda har doim chuqur taassurot qoldirardi.

Ko'plar janob Bzejnskiyning Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi ishidagi ishtirokiga erishishni maslahat berardi. Uning faoliyatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan odamlar ro'yxatini olib, uning huzuriga bordik. Janob Bzejnskiy ro'yxatga ko'z yugurtirdi, so'ng tabassum qilib, vaziyat bunaqa qoladigan bo'lsa, ishtirok eta olmasligini aytdi, va uchta struktura tashkil etishni maslahat berdi, bular: Faxriy maslahatchilar kengashi, Boshqaruv, Vasiylari qo'mitasi. U ro'yxatdagi odamlarni maqomi va xizmatlariga qarab joylashtirib chiqdi. Bu birinchi va juda o'rinli, uzoqni ko'zlab aytilgan maslahat edi.

Palata boshqaruvi "Forchun-500" singari kompaniya rahbariyatidan farq qilmasdi. Uni yirik kompaniyalar – "Amoko", "Eksson" kabilarning rahbarlari va Richard Armitaj, Bill Uayt kabi siyosiy arboblardan boshqarardi. Bu odamlar mehnatini ayamas, palata ishiga bor tajriba va bilimlarini bag'ishlar edi. Buning samarasi esa qat'iy faoliyat va professional menejment shaklida foyda keltirardi. Direktorlar o'z ishida Davlat kotibi Beykerning o'g'li, "Beyker va Botts" yuridik firmasi sherigi, nufuzli va tajribali yurist Jeyms Beyker-uchinchiga tayanar edi. U palataning yuridik maslahatchisiga aylandi. O'z ishi uchun pul olmas, beg'araz xizmat ko'rsatardi. Direktorlar unga ishonardi, "Jeyms mikroskopi" dan o'tgan har qanday tashabbus to'g'ri va halolligiga shubha qilishmas edi. Bu odamning palataning professional boshqarilishidagi o'rni juda katta edi.

Amerika – Ozarbayjon savdo palatasining ilk mu-



vaffaqiyatlariga ko'plar hissa qo'shdi. Ular orasida Don Steysi va Richard Armitajlarning xizmatlarini alohida ta'kidlamoqchi edim.

Don Steysi "Amoko – Yevrosiyo" kompaniyasi raisi edi. Bu biznesmen Ozarbayjonga qattiq bog'langan edi. U savdo palatasining birinchi raisi bo'lib, o'z lavozimiga jiddiy ahamiyat berardi. Steysi Savdo palatasiga raislikni tom ma'noda o'z burchi deb bilardi. Bir kuni G'olib Mamed menga qiziq voqeani aytib berdi.

Boshida palata tadbirlari uzluksiz o'tkazilardi. Bir safar navbatdagi yirik ikki kunlik konferensiya yakuniga yetdi. Tabiiyki, horigan xodimlar ertasi kuni ular biroz dam olishga haqli deb o'ylashdi va shu xayol bilan konferenszalni tark etishdi. Ertasiga soat o'nda ofisga kelgan palata ijrochi direktorining hayrati uyatga joy bo'shatib berdi. Aniqlanishicha, Don Steysi soat to'qqizdan beri uni bir guruh odamlar bilan birga kutayotgan ekan. Xodimlar tin olib, yaqindagina tugagan katta tadbirdan so'ng o'zlariga kelayotgan bir paytda "Amoko – Yevrosiyo" kompaniyasi raisi va Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi hamraisi navbatdagi tadbir tafsilotlarini muhokama qilmoqchi edi. Buning uchun o'zi lozim topgan barchaga qo'ng'iroq qilib, ularni to'plashga ham erinmagan edi. G'olib Mamedning so'zlariga qaraganda, u birinchi va oxirgi marta ishga kech qoldi. Steysining bu ishi uning shaxsiy qat'iyatini namoyish etdi. Ayni paytda, boshliqlarining ishga munosabatiga guvoh bo'lgan "Amoko" xodimlari palata ishini yo'lga qo'yish uchun tinmay mehnat qilishardi. Boshqa tomondan, Don Steysining ishga munosabati boshqa kompaniyalarga ham o'rnak bo'ldi. Birorta kompaniya prezidenti va raisi "Amoko" rahbaridan ortda qolishni istamasdi. Oxir-oqibat, Savdo palatasi tarkibiga kiruvchi kompaniyalari ko'rsatgan yordam bebaho kapitalga aylandi.

Diplomatik faoliyatim davomida o'zgarishsiz sim-

patiya va hurmat uygʻotib kelgan kishilardan biri Richard Armitaj edi. Vashingtonga kelganimda u Davlat departamentida yangi mustaqil davlatlarga koʻrsatiladigan yordam muvofiqlashtiruvchisi edi. R. Armitaj AQSH maʼmuriyatining 907-tuzatish asossizligini ommaviy ravishda tan olib, uni bekor qilishni talabini ilgari surgan birinchi nufuzli aʼzosi edi. Bu odam oliyjanob feʼllilik namunasi edi. U bilan bogʻliq bir voqea xotiramda oʻrnashib qolgan. Prezident tomonidan qator yuqori mansablarga tayinlangan odamlarning nomzodlari anʼanaga muvofiq Senat tashqi aloqalar qoʻmitasida tasdiqlanishi lozim. Koʻp hollarda bu jarayon sunʼiy choʻzib yuborilib, ikki partiya, Kongress va maʼmuriyat oʻrtasidagi siyosiy oʻyinga aylantiriladi. Soʻnggi yillarda bu oʻyinning oʻzgarishsiz boshlovchisi Jessi Xelms edi. Bir tomonlari “jallod”ga oʻxshab ketadigan bu kekxa senatordan koʻplar hadiksiraydi. Xelms tomonidan soʻroqqa tutiladigan nomzodning taqdiri nima boʻlishi hech qachon oldindan maʼlum boʻlmayid. Prezident etib saylanganidan soʻng Jorj Bush Richard Armitajni Davlat kotibi oʻrinbosari etib tayinladi. Tayinlov olgan har qanday odam kabi, u ham “jallod” qarshisiga oʻtirishiga toʻgʻri keldi. Bu suhbat balki Xelms karyerasidagi eng qisqasi tayinlov jarayoni boʻlgandir. Armitaj bilan soʻrashgach, senator uni har doim qatʼiyatli shaxs sifatida bilganini va bu mansabga undan munosibroq nomzod koʻrmayotganini tan oldi.

Don Steysidan keyin Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi raisi etib saylangan Richard Armitajda koʻplar buyuk maqsadli shaxsni, boshqaruvning samarali uslubi timsolini koʻrardi. Shubhasiz, bu tanlovdan barcha yutdi. Savdo palatasi uning hamraisligi davrida yanada oʻsdi, rivojlandi. Steysining ishbilarmonlik xislati Armitajning siyosiy qobiliyati bilan omadli birlashdi. Bush maʼmuriyatiga kirgan janob Armitajning Savdo palatasi

raisi kursisidagi o'rnini "Eksson Mobil" kompaniyasi prezidenti Terri Kuns egalladi. U Palataga asos solinganidan beri boshqaruv a'zosi edi. Kuns juda og'ir-bosiq va vazmin odamday taassurot qoldirardi. "Eksson" an'analariga muvofiq, qaror qabul qilishda u rentabellikka e'tibor qaratardi. Kompaniyada egallab turgan lavozimi juda mas'uliyatli edi, shunga qaramay, Kuns hech qachon Savdo palatasi ishlariga bo'lgan e'tiborini pasaytirmasdi. Palataning boshqa raislari va direktorlari hozir ham ishga xuddi shunday yondashadi.

Iqtisodiy yo'naltirilgan tashkilot sifatida tuzilgan Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi faoliyati vaqt o'tishi bilan kengayib borardi. U amalga oshirgan ko'plab loyihalar orasida ikkitasi alohida ajralib turadi: Garvard universiteti qoshidagi Kaspiy tadqiqotlari markazi va Ozarbayjon savdo va madaniyat markazi. Ikkalasi ham juda muhim tashabbuslar bo'lgani bois ularga batafsilroq to'xtalaman.

1997–yil arafasida Ozarbayjonning jahon maydonida siyosiy mavqei o'sib borayotgani bilinardi. Bu voqeda ro'y berayotgan vaqtda Vashington tashqi siyosatida mamlakatlarga alohida emas, mintaqalarning bir qismi sifatida yondashish amaliyoti hukm surardi. Ammo Ozarbayjonga shunchaki yangi bir mustaqil davlat sifatida emas, butun jahon energetik muvozanatida sekinlik bilan o'z o'rnini egallab borayotgan Kaspiy mintaqasining tarkibiy qismi sifatida qarashayotgani ham katta yutuq edi. Iqtisodiy salohiyat siyosiy manfaatlarga turtki beruvchi jiddiy kuchga aylandi. Kaspiy nafaqat Buyuk Ipak yo'lida, balki butun Yevrosiyo muhitida muhim strategik halqa edi. Bu mintaqaga bo'lgan qiziqishning o'sishi bilan axborot taqchilligi borgan sayin o'tkir sezilardi. Matbuotda maqolalar soni ortib, tahliliy materiallar ko'payib borardi. Lekin bir bo'shliqni ko'zdan qochirib bo'lmasdi. Ozarbayjon – Kaspiy mintaqasi bilan bog'liq jiddiy ilmiy

va siyosiy tadqiqotlar aytarli yo'q edi. Bu bilan asosan arman millatiga mansub shaxslar shug'ullanardi. Yangi mutaxassislarning yetishib chiqishida, mintaqa bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlarning tizimga solinishiga, aniqroq aytganda, Ozarbayjon tadqiqotlariga bo'lgan o'tkir ehtiyoj sezilardi. Ammo Amerika jamoatchiligi va siyosiy fikri Ozarbayjonni alohida emas, mintaqaning bir parchasi sifatida qabul qilinishi inobatga olinsa, Kaspiy tadqiqotlari markazini yaratishga ehtiyoj paydo bo'lgandi.

Boshqa bir omil yanada jiddiy bilinardi. Vashingtonda fikr almashishlar ko'p o'tkazilgandi, bahslarga kirisha oladigan tuzilmalar bor edi, asosiysi – mintaqaga bo'lgan qiziqish o'sayotgandi. Tadqiqot va bahslarni Vashington doirasidan chetga olib chiqish, ularni AQShning boshqa aql markazlarida yoyish va rivojlantirish joiz edi. Boshqa tomondan, Vashingtonda shakllangan fikr va mulohazalar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tayyor ishlanmalarga yangi nafas bag'ishlash, o'tkazilayotgan tadqiqotlarni me'yorga solish maqsadga muvofiq edi.

Shularni inobatga olib, yangi tashkilotni "Kaspiy tadqiqotlari markazi" deb atashga va uni Vashingtondan tashqaridagi mashhur universitetlardan birida joylashtirishga qaror qilindi. Ushbu tashabbus Amerika – Ozarbayjon savdo palatasiga a'zo kompaniyalar manfaatlariga javob berardi. Ular bu muassasa faoliyatini moliyalashtirishi lozim edi, negaki ularning ko'pchiligi nafaqat Ozarbayjonda, balki Kaspiy havzasining boshqa mamlakatlarida ham faoliyat yuritardi.

Savdo palatasi boshqaruvi yangi tadqiqot markazi bo'yicha tashabbuskor qo'mitani shakllantirdi, tanlov e'lon qilindi, qiziqish bildirgan universitetlardan takliflar to'plash boshlandi. Tashabbuskor qo'mita Jorjtaun, Indianapolis, Stenford, Garvard universitetlari tomonidan taqdim etilgan takliflarni tanlab olib, oxirgi bosqichga chiqardi.

Direktorlar Bostondagi mashhur Garvard universitetida Kaspiy tadqiqotlari markazini ta'xis etishga qaror qildi.

Savdo palatasi bu tashabbusga million dollar ajratdi. Markazni moliyalashtirish bilan "Eksson Mobil", "Shevron" va "Aker Meritaym" kompaniyalari konsorsiumi shug'ullandi.

Markaz faoliyati uch yo'nalishda olib borilishi ko'zda tutilgan edi: mintaqa bo'yicha tadqiqot ishlarining olib borilishi va bu ish natijalarining chop etilishi, mintaqada bo'lib o'tayotgan voqealar bo'yicha muhokamalar va konferensiyalar tashkil etish va, nihoyat, Garvard universitetida ta'lim olayotgan Ozarbayjonlik talabalarga stipendiyalar ajratish.

Garvarddagi Kaspiy tadqiqotlari markaziga doktor Grem Elison boshchilik qilardi. U uzoq vaqt hukumatda yuqori lavozimlarni egallab kelgan, Garvarddagi muhim dasturlardan biriga rahbarlik qilgan edi. Markaz ijrochi direktori Isroillik doktor Brenda Sheyfer edi. Sheyfer xonim Ozarbayjon bo'yicha mutaxassis edi. U chop etgan birinchi kitob ozarbayjon o'zligi masalalariga bag'ishlangan. Bu ishida doktor janublik Ozarbayjonlarga alohida e'tibor qaratgan. Doktor Sheyfer Kaspiy tadqiqotlari markazining yetakchi xodimi bo'lib, o'ta xolisligi, progressiv qarashlari bilan ajralib turardi. Misol uchun, ijrochi direktor Ozarbayjonga Rossiya yoki boshqa biror mintaqaviy yetakchiga qaram davlat sifatida qarashdan bosh tortardi. U mamlakatimiz tarixi va madaniyatini yaxshi bilar, shu bois ularga simpatiya va hurmat bilan qarar edi. O'z faoliyati davrida doktor Sheyfer bir qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi va markazda faol ish yo'lga qo'yilishiga erishdi.

O'z-o'zidan, Garvard universitetida tashkil etilgan, faoliyati va tashabbuslari barchada xayrixohlik uyg'otgan Kaspiy tadqiqotlari markazi – juda ko'zga ko'rinadigan loyiha. Lekin men shu loyihalardan biriga bo'lgan shaxsiy

munosabatimni bildirmoqchi edim. Bu Markazning stipendiyalar jamg'armasidir. Faoliyatining ilk uch yilida o'n to'rt nafar Ozarbayjonlik talaba jahonning eng obro'li ilmiy markazlaridan biri – Garvard universitetida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Menimcha, bu Ozarbayjonning bugungi kunigacha bo'lgan eng ahamiyatli kapitallaridan biridir. Hozirgacha Ozarbayjon xalqining eng katta boyligi neft yoki gaz konlari bo'lmagan. Ta'lim sohasiga investitsiyalar Ozarbayjon rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi. Bu jihatdan o'n to'rt talabaning Garvardda o'qishi beqiyos ish bo'ldi.

Talabalarning qabul qilinishi ikki bosqichdan iborat edi. Ozarbayjonning har bir fuqarosi Garvard universitetiga hujjat topshirishi mumkin edi. Nomzod imtihondan muvaffaqiyat bilan o'tib, talabaga aylansa, uning hujjatlari va stipendiya ajratish bo'yicha murojaati Amerika – Ozarbayjon savdo palatasining stipendiyalar bo'yicha qo'mitasiga yuborilar edi. Qo'mita a'zolari ichida Palata ijrochi direktori, dasturni moliyalashtiruvchi kompaniyalar va Garvard universiteti qabul komissiyasi vakillari bor edi. Stipendiyalar bo'yicha qo'mitaning asosiy kriteriysi quyidagicha edi: tanlangan nomzod jamoat sektorida yoki davlat tuzilmalarida ishlash niyatida ekanligiga amin bo'lish.

Keyingi voqealar Amerika – Ozarbayjon savdo palatasining bu ishlari qanday samara keltirganini ko'rsatadi. Garvardda tahsil olgan talabalar orasida Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari Araz Azimov, Faxriddin Qurbonov (hozirgi paytda Buyuk Britaniyadagi Favqulodda va Muxtor Elchi), Elchin Amirbekov (hozirda Shveysariyada elchi va BMTning Jeneva bo'linmasida doimiy vakil), Komil Xasiyev (hozirda elchi – NATOdagi doimiy vakil), Fuad Oxundov (Interpolning Ozarbayjondagi vakili), Toir Karimov (hozirda Malayziyada elchi) va boshqa istiqbolli kadrlar bor.

Stipendiyalar bo'yicha qo'mitaning asosiy maqsadi davlat strukturalarida ishlash niyatida bo'lgan odamlar ta'lim olishiga ko'maklashish edi. Ishonch bilan aytish mumkinki, investorlar bu ma'noda adashmadi. Yana diqqatga sazovor holat shundan iboratki, Bostonga o'qishga kelgan talabalar qisqa muddatga Ozarbayjonning Garvarddagi elchilariga, vakillariga aylanardi. Ularning kun tartibiga nafaqat har kunlik bilim olish, balki ushbu nufuzli o'quv muassasasi minbaridan turib Ozarbayjon haqidagi haqiqatlarni barchaga yetkazish ham kirardi. Bu yoshlar haqiqatan fuqaroviy pozitsiyada turish namunasi edi, ularning irodasi, tashabbuskorligi va da'volari buyukligi yosh avlodning salohiyatini belgilab berardi.

Stipendiyalar bo'yicha qo'mitaning a'zolaridan biri nomzodlar bilan suhbat o'tkazish chog'ida ro'y bergan bir voqeani menga eslatdi. Navbatdagi qabul payti nomzodlar soni Ozarbayjonlik talabalar uchun ajratilgan kvotadan oshib ketdi. O'z-o'zidan bu yoqimli holat bo'lib, Ozarbayjonda Garvard darajasidagi ko'plab iste'dodlar borligini ko'rsatardi. Aynan shu tufayli stipendiyalar bo'yicha qo'mita a'zolari har bir suhbatdoshga kuchli nomzod sifatida qarardi. Abiturient Garvard talabasi bo'lsa, demak, uning salohiyatidan shubhalanmasa bo'ladi. Nomzodlar bir-biridan kuchli edi. Moliyaviy cheklov tufayli qo'mita faqat uch kishini ajratib oldi. Nomzodlardan birining da'volari e'tiborsiz qolmadi. Mehmon sifatida taklif qilingan hukumat vakili chidab tura olmay, yonida o'tirgan qo'mita a'zosining qulog'iga rus tilida shipshidi: "Buni qarang, unda Napoleonning da'vosi bor ekan!" Bu hukumat mulozimi, katta avlod vakili, da'volar — ijobiy hodisa ekanini, zamonaviy dunyoda olg'a qadam tashlash uchun hatto Napoleon da'vosi ham kamlik qilishini tushunmasdi. Kichik fakt, lekin u turli avlodlar vakillarining fikrlashidagi tafovutni yaqqol ko'rsatib beradi. Qo'mita



“Napoleon da’vosi”ga ega yigitni Garvardga qabul qildi. Uning kelajagi ajoyib bo’ldi.

Amerika – Ozarbayjon savdo palatasining yana bir tashabbusi Amerikada Ozarbayjon savdo va madaniyat markazini ochish edi. Uning yaratilishi juda ilg’or boshlanma bo’ldi. Bugun u Vashington markazidagi to’rt qavatli binoda joylashgan: ikki qavat galereyaga ajratilgan bo’lib, unda doimiy ravishda Ozarbayjon gilamlari, rasmlari, esdalik buyumlari va boshqa san’at asarlari namoyish etiladi, turli tadbirlar o’tkaziladi. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi ofisi ham shu markazda joylashgan. Bir so’z bilan aytganda, markaz Amerikada Ozarbayjonning iqtisodiy va madaniy salohiyati haqida xolis fikr shakllanishida muhim o’rin tutadi.

*Qiziq fakt:* Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi – Vashingtonda o’z binosiga ega bo’lgan yagona ikki tomonlama xalqaro uyushma. Uning xarid qilinishi arafasida Savdo palatasi direktorlar kengashida qizg’in bahslar bo’lib o’tgandi. Bir hafta davom etgan bahslardan so’ng direktorlar yangi konsepsiyaga rozi bo’ldi: Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi faqat iqtisodiy tashkilot bo’lish doirasidan chiqdi. Struktura Ozarbayjonnii Amerika Qo’shma Shtatlarida har tomonlama taqdim etishda faol ishtirok etardi. Besh yil oldin yaratilgan Savdo palatasi diaspora bilan keng miqyosli ish olib borar, ta’lim, madaniyat va boshqa sohalarga kirib borardi. Ushbu serqirra faoliyatni birlashtirib, bir yo’nalishga soladigan yangi markazga ehtiyoj tug’ilgan edi.

Ozarbayjon savdo va madaniyat markazi taqdimoti Prezident Haydar Aliyev tomonidan 2000–yil sentabrda o’tkazildi. Mustaqil Ozarbayjon davlati rahbari birinchi marta tantanali sharoitda Qo’shma Shtatlar poytaxtida o’z mamlakatining savdo va madaniyat markazini ochdi.



## MILLION DOLLARLIK REKLAMA?

Ertalabki soat yetti edi, uydan chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgandim. Telefon jiringlab qoldi, go'shakni ko'tarib, amerikalik bir do'stimning hayajon va quvonch to'la ovozi eshitdim. "Vashington post"ning bugungi sonini ko'rdingmi?, – qichqirardi u. – Haydar Aliyevning surati birinchi sahifada!" Undan kutib turishini iltimos qildim. Kirish eshigini ochib, hali ko'rib chiqishga ulgurmaganim "Vashington post"ning yangi sonini oldim – u ertalab uy gazoni ustiga tashlab ketilgan edi. Hayratda edim, ko'zlarimga ishonmasdim. Gazeta bosh sahifasida Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyevning suratini chop etgandi. Suratda u Vashington aeroportida samolyot trapidan tushayotgan lahza aks etgandi. Yana go'shakni ko'tarib, xushxabar uchun do'stinga minnatdorlik aytmoqchi edim, ammo u mendan birinchi harakat qildi: "Yasha, Hafiz, ishlashni bilasizlar! Bunaqa vaqtda bosh sahifada surat chiqarish uchun "Vashington post"ga kamida million dollar ishlatgansizlar". Men unga e'tiroz bildirmoqchi bo'ldim, lekin uni ishontira olmadim. Bu imkonsiz edi shekilli. "Vashington post" aynan shu kuni bu suratni e'lon qilarkan, Ozarbayjonga o'zini reklama qilish uchun aql bovar qilmas imkoniyatlar taqdim etardi.

1999–yil apreli. Vashingtonda NATO yaratilganining 50 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlar o'tkazilayotgan edi. Shimoliy Atlantika ittifoqiga a'zo barcha davlatlarning rahbarlari Vashingtonda jam bo'ldi. Ularga "Tinchlik yo'lidagi hamkorlik" dasturida ishtirok etayotgan davlatlar rahbarlari qo'shildi. Savol tug'ilardi: "AQSH poytaxtida buyuk hokimiyatlar yetakchilari to'plangan bir paytda kichik bir davlat Prezidentining suratini bosh sahifasida chop etishdan "Vashington post" qanday maqsad ko'zlagan edi?" Do'stim yanglishayotgan edi: Ozarbayjon tomo-

ni bu reklamaga bir tiyin ham sarflamagandi. Bunday e'tiborga sabab Ozarbayjon Prezidentining kutilmagan qadami bo'ldi.

NATO tadbiri ertasi kuni ertalab Vashington markazidagi "Endryu Mellon auditoriyasi" da boshlanishi kerak edi. Tong yorishayotgandi. Davlat rahbarlari yo dam olayotgandi, yoki tadbirga hozirlik ko'rayotgandi, ularning Ozarbayjonlik hamkasbi Haydar Aliyev esa Amerika poytaxtini tark etib, Annapolisga yo'l oldi va shu shaharda joylashgan Harbiy-dengiz akademiyasi tinglovchilari qarshisida chiqish qildi. "Vashington post" barcha davlatlar rahbarlari butun e'tiborini kutilayotgan tadbirda jamlagan bir paytda Ozarbayjon yetakchisi o'z ish kunini Harbiy-dengiz akademiyasidagi chiqishdan boshlaganini e'tibordan chetda qoldirmadi. Uning bu ishiga faqat "Vashington post" diqqat bermadi. Haydar Aliyevning ishi tadbir ishtirokchilari – ellikdan ortiq davlatlar rahbarlarining ham e'tiborini tortdi.

G'oya tashrifdan bir necha hafta oldin paydo bo'lgandi. Men Richard Armitajning Rozlindagi ofisida o'tirib, uning Haydar Aliyevning AQShga tashrifi dasturini tashkil etish bo'yicha maslahatlarini eshitardim. "Hafiz, Prezidentni Vashington tashqarisiga olib chiq. O'sha kuni shahar qozonday qaynaydi. Annapolisga boringlar, Akademiyada chiqish qilsin". Boshida Armitaj hazillashyapti deb o'yladim, keyin esa, muhokama chuqurlashib ketgach, uning maqsadini angladim. G'oyaga Haydar Aliyev ham ijobiy baho berdi. Shu tariqa, NATOga a'zo davlatlar rahbarlari nonushta qilayotganida Ozarbayjon Respublikasi Prezidentini Harbiy-dengiz floti akademiyasi hovlisida harbiy parad kutib oldi. Ozarbayjon davlati rahbari tamaddixonada bo'ldi, kursantlar bilan tushlik qildi, so'ng to'rt ming kursant oldida chiqish qildi va bo'lajak amerikalik zobitlarga o'z mamlakati haqida so'zlab berdi.

Richard Armitaj hayotining bir qismini qurolli kuchlarga bag'ishlagan, shuning uchun u davralarda hurmat-e'tiborga sazovor, shuningdek, bu borada yetarli tajribaga ega, armiya hayoti nozikliklaridan yaxshi xabardor. U Prezident Aliyevga Annapolisgacha eshlik qildi va undan o'z nutqini Amerika HDKda mashhur jumla bilan tamomlashni so'radi. Gap shundaki, AQShda, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, quruqlikdagi va harbiy-dengiz kuchlari o'rtasida raqobat mavjud. Askarlar va matroslar bir-biriga luqma tashlash imkoniyatini qo'ldan chiqarmaydi. Dengizchilar orasida "beat army" iborasi mashhur bo'lib, u taxminan "armiyani bulamoq" ma'nosini anglatadi. Ozarbayjon Prezidenti, nutqini yakunlar ekan, kutilmaganda kursantlarga sof ingliz tilida murojaat qildi: "Beat army". Chet davlat rahbaridan bunday gapni eshitgan minglab kursantlar o'rnidan sakrab turib, bosh kiyimlarini havoga otdi. Ozarbayjon Prezidenti harbiy-dengiz kuchlari akademiyasini gulduros qarsaklar ostida tark etdi.

...Haydar Aliyev savlat to'kib tik turardi. U tadbir bo'layotgan zalga mag'rur kirib bordi, NATO oliy minbaridan ham xuddi shunday chiqish qildi. Bu odam bor-yo'g'i bir kun muqaddam Jorj Vashington universitetida tibbiy ko'rikdan o'tgan deb o'ylamasdi. Bu uning Amerikada birinchi marta tibbiy ko'rikdan o'tishi edi. Ozarbayjon Prezidenti temir iroda sohibi edi.

## UZOQNI KO'RA BILISHMI, RAQIB MAYDONIDA TENNIS O'YNASH XOHISHIMI?

Haydar Aliyev NATO yubileyida bo'lib turgan vaqtga bir tadbir mo'ljallangan edi. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi 24 aprel kuni Los-Anjelesda Ozarbayjonning iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga bag'ishlangan konferensiya tashkil etgandi, unda Ozarbayjon Respublikasi rahbari ham ishtirok etishi kutilayotgandi.

Umuman, Prezidentning AQShga safarlari paytida Savdo palatasi investorlar – biznesmenlar va siyosiy arboblar ishtirokida konferensiya va banketlar uyushtirardi. Bu tadbirlar Amerikada Ozarbayjon shuhratini oshirishda muhim o'rin tutardi. Ammo 1999 yilga konferensiya oldingilaridan farq qilardi. Tadbir rejalashtirilgan sana va joy bunga sabab. Nega Los-Anjeles va 24 aprel? Ma'lumki, bu megapolis Amerikadagi arman jamoasi makoni, 24 aprel esa – “genotsid” kuni. Ko'plar Ozarbayjon Prezidentining Los-Anjelesga aynan shu kuni borishini siyosiy demarsh o'laroq qabul qildi. Tashqi ishlar vaziri Tofiq Zulfiqorov ham, Prezidentning tashqi siyosat masalalari bo'yicha maslahatchisi Vafo Quluzoda ham shunday xulosaga kelishdi. Ular arman jamoasi tomonidan ommaviy siyosiy aksiyalar o'tkazilishidan xavotirga tushib, bu qadamni begona kortda tennis o'ynash deb baholashdi. Ammo Prezident boshqa fikrda edi va u tashabbusni qo'llab-quvvatladi.

Zulfiqorov ham, Quluzoda ham o'zlaricha haq edi. Bu dalil qaror edi, negaki arman jamoasi bu safar chog'ida ommaviy aksiyalar o'tkazish niyatida edi. U tinch va sokin o'tishiga hech kim kafolat berolmasdi. Aslida Los-Anjelesga safar siyosiy uzoqni ko'ra bilish qobiliyatining namoyish etilishi edi. Bu g'oya zamirida siyosiy kapital orttirish,

tinchlikparvarlikni ko'rsatish va hayotga teran boqish niyati yotardi. Haydar Aliyevni vaziyat bezovta qilmasdi, u bilardi – armanilar u yuradigan yo'nalish bo'ylab to'planib, mashinaga tuxum va pomidor uloqtirishi mumkin. Haydar Aliyevni tashrifning mohiyati, jamoatchilik tomonidan uning qabul qilinishi va pirovardida – siyosiy rezonans va dividendlar qiziqtirardi.

Sir emaski, Amerikaning arman jamoasi har doim radikal pozitsiyada turgan, Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida ixtilofni alangalatishda alohida rol o'ynagan. Menimcha, Armaniston va diaspora armanilar o'rtasida katta farq bor. Diaspora saflarida radikallik kuchliroq. Arman jamoasi mentaliteti tarixning ma'lum bosqichida qolib ketgan, uning ongi o'tmish yukidan xalos bo'la olmaydi. Vaqt o'tib, siyosiy shart-sharoit o'zgarib bormoqda. Lekin arman jamoasi xotirasi o'tmishning bir qismiga asirligicha qoladi, undan qutulolmaydi. Uning a'zolarini chulg'ab olgan qasos hissi shunchalik kuchliki, ular kelajakni ko'rishga, mantiqiy asoslarni qabul qilishga qodir emas. Bu jamoaning g'azabli vakillari yuraklarida va aqlarida in qurgan nafrat ularning kelajagini ham muzlatib qo'ygan. Los-Anjelesning jimjimador villalarida yashaydigan, Rodeo Drayv butiklarida kezadigan, Glendeylda Raffi shashliklaridan lazzatlanadigan, moddiy qiyinchilik nimaligini arang tasavvur qiladigan diaspora vakillari Armanistondagi millatdoshlarini o'z g'ayriinsoniy mafkurasi asirlariga aylantirishda sobit turibdi. Asosiysi, ular qo'yilgan maqsadga erishmoqda. Armanistonning Amerika arman jamoasi istibdodidan qutulish ehtimoli uncha katta emas, demak, arman diasporasi yana uzoq vaqt qo'shni davlat bilan ixtilofni bartaraf etishda va AQShdagi siyosatimizni shakllantirishda salbiy omil bo'lib qolaveradi.

Haydar Aliyevning amerikaliklarga va arman jamoasiga signallari Los-Anjelesga safar ostidagi nimkosa edi, va

u juda aniq ifodalangan edi. Hududlarimizning 20 foizi okkupatsiya qilinganiga, milliondan ortiq Ozarbayjon o'z yerlaridan quvilganiga qaramay, biz qon to'kish niyatida emasmiz. Ma'lum ma'noda Los-Anjeles – ikkinchi Yerevan. Biz sizning uyingizga boryapmiz, lekin tennis partiyasini yutish uchun emas, yarashuv qo'lini uzatish uchun. Tashrifimiz vaqti 1915–yilgi voqealar yubileyiga to'g'ri kelib qoldi, lekin balki nafratni unutib, sizga uzatilgan do'stlik qo'lini siqib qo'yarsiz? Kelajakni o'tmishda muzlatib qo'yish mumkin emas, qo'limizni tuting, birgalikda kelajakni quramiz.

G'oya muallifi Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi edi. Oq Uy va Davlat departamenti ham uni munosib baholadi. Tashrif dasturini tuzishda biz Savdo palatasi ijrochi direktori bilan Los-Anjelesda edik. Shahar meri tashabbusni qo'llab-quvvatladi va tadbirni o'tkazish uchun barcha sharoitlarni yaratib berishni va'da qildi. Shartnomalar imzolandi, tashkiliy ish boshlandi. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi navbatdagi qadam sifatida o'zining gruzin hamkori – Amerika – Gruziya biznes kengashi bilan birga “Four Seasons” (“To'rt fasl”) mehmonxonasida Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya elchilari uchrashuvini tashkil etdi. Suhbatdoshlarim Armaniston elchisi Ruben Shugaryan va Gruziya elchisi Tedo Japaridze bo'ldilar. Uchrashuv juda samarali o'tdi. Shugaryan tashabbusga ijobiy baho berdi, ammo u diaspora tomonidan qo'llab-quvvatlanishi borasida shubha bildirdi.

Yaqinda tashkil etilgan Amerika – Armaniston savdo forumi tadbirga tashkilotchi sifatida qo'shilishdan hamda biz va arman diasporasi o'rtasida vositachi bo'lishdan bosh tortdi. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi Kaliforniyadan saylangan senator Barbara Bokser ofisida uchrashuv o'tkazdi, undan bu tashabbusni qo'llab-quvvatlashni va hatto forumda chiqish qilishni so'radi. Kaliforniya

iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi bo'yicha jahonda oltinchi o'rinni egallashini unutmaylik. Bu shtatda investitsiyalar bo'yicha konferensiyaning o'tkazilishi, shubhasiz, kaliforniyalik biznesmenlarga Ozarbayjonda yangi imkoniyatlar taqdim etilishi degani edi. Senatorning yordamchilari tashabbusni yoqlab chiqishdi, lekin arman lobbisi reaksiyasi qanday bo'lishini oldindan bila olishmadi.

Navbatdagi uchrashuvlar arman diasporasi vakillari bilan o'tkazildi. Amerika yurish-turish qoidalariga sadoqatli bu odamlar tashabbusimizning ilg'orligini inkor eta olmasdi, ammo uni ochiq qo'llashdan cho'chirdi. Radikal kuchlarning qahru-g'azabi haddan oshib ketgan edi. Jiddiy qarshi tayyorgarlik ketayotgandi.

Afsuski, tadbir o'tkazilmadi, arman jamoasining tahdidlari bunga sabab bo'ldi. Jorj Vashington universiteti klinikasida o'tkazilgan tekshiruvdan so'ng shifokorlar Haydar Aliyevga sayohat qilishni taqiqladi. Prezident sog'lig'i tufayli Los-Anjelesga borolmadi. Tadbir boshlanishidan bir necha kun oldin bekor qilindi, voqealar undan keyin qanday rivojlanishi esa bir umrga mavhum bo'lib qoldi. Lekin Los-Anjelesda konferensiya o'tkazish g'oyasi samarador bo'lib chiqdi. Biz yuqorida keltirgan murojaat-signal, bu shaharda bo'lish niyati Ozarbayjon Prezidentiga AQShda katta siyosiy dividendlar keltirdi, bu yana bir bor Haydar Aliyevning uzoqni ko'ra bilishini va yetakchilik qobiliyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tashabbus unutilib ketmadi. Biroz vaqtdan keyin Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi Los-Anjelesda konferensiya o'tkazdi. Muvaffaqiyatli o'tkazilgan bu tadbirda Ozarbayjon nomidan AP davlat neft kompaniyasi birinchi vitse-prezidenti Ilhom Aliyev qatnashdi. Uni olqishlaganlar orasida Davlat kotibi Kondoliza Rays ham bor edi.

## AQSHGA RASMIY TASHRIF

Ozarbayjon diplomatiyasining eng yirik muvaffaqiyatlaridan biri mamlakatimiz Prezidentining 1997-yili AQShga rasmiy tashrif uyushtirishi bo'ldi. Katta qiyinchiliklar bilan tashkil etilgan bu safar muhim pallaga to'g'ri keldi. Neft strategiyasi respublikaga yangi dividendlar keltirayotgan edi. Rasmiy Vashington Ozarbayjonga boshqacha munosabat ko'rsata boshlagandi. Tashrif haqida ko'p yozilgan, men barcha tafsilotlarga to'xtalib o'tirmayman. Shunchaki xotiramda o'rnashib qolgan bir necha voqeani esga olmoqchiman.

Tashrif 27-iyul kuni boshlandi. Vashingtonga kelgach, Prezident davlat rahbarlari uchun ajratilgan, Oq Uy qarshisida joylashgan "Bleyer Xauz" tarixiy qarorgohida to'xtadi. Rasmiy qism ikki Prezident uchrashuvidan boshlandi. Boshida Bill Klinton va Haydar Aliyev Oq Uyda yuzma-yuz uchrashdi, keyin ikki davlat rahbarlariga delegatsiyalar a'zolari qo'shildi.

Odatda bunday uchrashuvlar mundarijasi ustiga "Xizmatda foydalanish uchun" deb yozilgan yopiq papkalar ichida qolib ketadi. Shunday bo'lishi ham kerak. Xotiralarimni qog'ozga ishonarkanman, axloq va diplomatiya me'yorlariga to'la rioya etishga urindim, lekin bir faktni oshkor etmay qo'ya olmayman, chunki buni o'zimning axloqiy burchim deb hisoblayman. Klinton va Aliyev uchrashuvida muhokama qilingan masalalardan biri Eron Ozarbayjonlarining ahvoli edi. Vaqt tig'izligiga qaramay, Haydar Aliyev Bill Klintonga Eronda o'ttiz millionga yaqin Ozarbayjon borligidan boxabar etdi. Mustaqil Ozarbayjon Prezidenti Amerika Qo'shma Shtatlariday buyuk hokimiyat yetakchisi bilan uchrashayotgan edi, va u, o'z mamlakatida ham muammolar yetarliligiga qaramay, kun tartibiga o'zi boshchiligidagi davlatdan tashqarida



istiqomat qilayotgan millatdoshlar haqidagi masalani kiritish zarur deb hisobladi.

Klinton va Aliyev o'rtasidagi samimiy munosabatlar rasmiy tashrif chog'ida yanada iliqlashdi. Bill Klinton – muloqot chog'ida oddiylik va samimiylik bilan ajralib turadigan yetakchi. Haydar Aliyevning professionalligini va yetakchilik qobiliyatini ko'rmaslik imkonsiz edi. Bu ayniqsa AQShday davlat yetakchisi bilan muloqot chog'ida yorqin namoyon bo'layotgandi.

Haydar Aliyev Bokudan ikkita maxsus tikilgan gilam olib kelgandi, ulardan birida Bill Klinton va uning rafiqasi Hillari, ikkinchisida ularning qizi Chelsi tasvirlangan edi. Amerikaliklar uchun bu juda g'ayrioddiy sovg'a edi. Protokol bilan bog'liq muammo paydo bo'ldi, negaki gilamlar borligi haqida uchrashuvdan bir necha soat oldingina ma'lum bo'ldi. Mavjud qoidaga muvofiq, amerikaliklar sovg'ani ololmas edi, chunki protokol bo'yicha Ozarbayjon tomoniga javob sovg'asini topshirish lozim edi. Ammo bunga vaqt qolmagandi. Amerika protokolidagi bu murakkablikni katta qiyinchilik bilan yengib o'tdik. Gilamlar Oq Uyga oldindan yuborildi.

Bill Klinton gilamlarni Aliyev bilan uchrashuvgacha ko'rib bo'lgandi. U faqat o'zi va rafiqasi emas, qizi Chelsi ham hayratlanganini tan oldi va Haydar Aliyev odamlarni hayratlantirish xususiyatiga egaligini e'tirof etdi. Bu suhbat Oq Uyda Ozarbayjon delegatsiyasi sharafiga uyushtirilgan tushlik chog'ida bo'lib o'tayotgandi. Haydar Aliyev davlat rahbarlari bilan muloqot qilishda katta tajribaga egaligini tan olib, Klintonga bir eski voqeani aytib berdi. Hali sovet davrida, u Ozarbayjonda Markaziy Qo'mita birinchi kotibi bo'lganida, Finlyandiya Prezidenti SSSRga kelgandi. Chet ellik mehmonning tashrif dasturiga dam olish ham kiritilgan bo'lib, Moskva oliy martabali mehmonni Bokuga yuborishga qaror qildi. Prezident havaskor baliq ovchisi ekanini bilgan birinchi kotib uni Kaspiy sohiliga olib bordi.

Haydar Aliyevning topshirig'iga binoan g'avvoslar katta suv hududiga to'r tashlab, uni sekin-asta yirik baqra baliqlarga to'ldirishgan, o'zlari esa suv ostida fursat poylab turishgan. Finlyandiyalik mehmon o'tirgan kema qirg'oqdan uzoqlashib, oldindan kelishilgan joyda langar tashlagan. Prezident qarmoqni suvga tashlagan. Bir daqiqa ham o'tmasdan ilmoq tortila boshlagan. Oliy martabali mehmon katta g'ayrat bilan suvdan katta baqra baliqni tortib olgan, so'ng, quvonchini yashirmay, shu zahotiy oq qarmoqni yana dengizga tashlagan va yarim daqiqadan so'ng yana bir baliqni tortib olgan. Baqralarni ilmoqqa g'avvoslar ilayotgani uning xayoliga ham kelmagan. Finlyandiya Prezidenti Bokudagi hordiqdan juda mamnun bo'lib ketgan.

Bu voqeani eshitgan Klinton uzoq kuldi. Uchrashuv mana shunaqa samimiy va erkin ruhda kechdi.

Rasmiy uchrashuvlardan so'ng Ozarbayjon Respublikasi Davlat neft kompaniyasi va Amerikaning "Amoko", "Eksson" va "Shevron" kompaniyalari bilan neft shartnomalari imzolandi. Imzolash marosimi muhim ahamiyatga ega edi. Shu paytgacha Oq Uyda bunaqa kelishuvlar imzolanmagan edi, biz bunga katta sa'y-harakatlar evaziga erishdik. Haydar Aliyev har bir shartnomaning imzolanishini katta siyosiy voqeaga aylantirardi. Bu haqda ommaviy axborot vositalari yozar, siyosiy arboblarning o'z munosabatini bildirardi. Prezident neftdan siyosiy qurol sifatida foydalanar, jamoatchilikka, davlatlar rahbarlariga va ishbiarmon odamlarga u orqali o'z niyatini bildirardi. Ozarbayjon strategik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga egaligini namoyish etardi. Davlat rahbarining strategik harakat yo'nalishida iqtisodiy manfaatlar o'z ortidan siyosiylarini tortadigan lokomotiv rolini o'ynardi. Neft shartnomalarining aynan Oq Uyda imzolanishi kuchimizni ko'rsatardi, Amerika

Ozarbayjonga va uning neft strategiyasiga bergan yuksak bahoni namoyish qilardi.

1997–yilga tashrifni uzoq tahlil qilish mumkin. Fikr qanday yoʻnalishda rivojlanishidan qatʼiy nazar, ikki narsani eʼtiborga olish kerak. Birinchidan, bu Ozarbayjonning, aytish mumkinki, gorizontal va vertikal sathlarda Amerika Qoʻshma Shtatlaridagi oʻziga xos taqdimoti edi. Vertikal sathdagi taqdimot Prezident Klinton, vitse-prezident Gor, mahkama va Kongres aʼzolari, matbuot va ishbilarmon doiralar, diaspora va strukturalar uchun oʻtkazilgan edi. Uning muvaffaqiyatli oʻtganiga shubha boʻlishi mumkin emas edi, u jamoatchilik fikri va siyosat shakllanishida oʻrin tutishi mumkin boʻlgan barcha qatlamlarni qamrab oldi. Gorizontal oʻlchamdagi taqdimotga kelsak, Aliyevning AQShga safarini geografik nuqtai nazardan baholashga toʻgʻri keladi. Ozarbayjon Prezidenti Vashingtonda, Nyu-Yorkda, Xyustonda va Chikagoda boʻldi, oʻz mamlakatini Amerika davlatining eng muhim markazlarida munosib namoyish qilib berdi.

Ikkinchidan, bu tashrif Haydar Aliyev uchun oʻziga xos imtihon boʻldi. Bunga qadar uning tashriflari Nyu-York bilan cheklanardi, bu safar u Manxetten orolidan chetga chiqishi lozim edi. Davlat rahbarining AQShdagi asosiy vazifasi Klinton maʼmuriyati va Kongress bilan konkret muammolarni hal qilish edi albatta. Uning ikkinchi muhim vazifasi umuman oʻz mamlakati va xususan oʻzi haqidagi jamoatchilik fikrini oʻzgartirish edi. Bu maʼnoda Amerika poytaxti juda muhim edi. Vashington shafqatsiz. U zaiflarni xush koʻrmaydi. Kuchlilarni taxtga mindiradi. Shahar Aliyevni taxtga chiqaraymi, yoʻqmi deb ikkilandi. U Vashington olqishlariga sazovor boʻlishiga juda kamchilik ishonardi. Buning uchun siyosatchilar uzoq muddatli kompaniyalar oʻtkazadi. Uch kunlik tashrif yetarli boʻlishi mumkinmi?

Vashington doiralarida uni KPSS MK Siyosiy byurosi

a'zosi va KGB raisi sifatida bilishar edi. Bunday o'tmishga ega odam ilg'iroq va samimiy siyosiy arbobga aylanishiga kamdan-kam odam ishonardi. Ochig'ini aytganda, bu fikrni na diplomatik missiya, na tashqi siyosiy isteblishment yo'qqa chiqara olmasdi. Buni faqat Haydar Aliyevning o'zi qilolardi. U Vashingtonga shunday imij bilan kelgandi, endi boshqacha imij bilan ketishi kerak edi. Boshqacha aytganda, Vashington jamoatchiligi fikri milliy manfaatlarga sodiq ilg'or, kuchli yetakchini ko'rishi lozim edi.

Jamoatchilik bilan ilk uchrashuv Jorjtaun universitetida bo'lib o'tdi. G'ayrioddiy tadbir edi. 10–15 kishini bir yerda to'plolmagan paytlarimiz bo'lgan, bu safar esa akt zalidagi 350 o'rin to'lib bo'lgandi. Odamlar oqimi esa to'xtay demasdi. Baltimordan guruh keldi, ular orasida ikki Ozarbayjon bor edi. Zal to'lib-toshib ketgandi, amerikalik qo'riqchilar odamlar salonga kirishiga to'sqinlik qilardi. Lekin vazifalarimiz boshqacharoq edi, bu qo'limizda bo'lganida, akt zalini kengaytirardik. Tadbir tashkilotchilaridan biri Savdo palatasi bo'ldi. Ozarbayjon qo'riqlash xizmati zobiti palata direktoriga yaqinlashib, undan baltimorlik Ozarbayjonlarni kiritishni so'radi. U dastlab bosh tortdi, so'ng baltimorliklarni to'lib ketgan zalga olib kirdi.

To'planganlar Prezidentning har bir so'zi, har bir harakatini diqqat bilan kuzatishiga shubha yo'q edi. O'z chiqishining mazmunini davlat rahbari o'zi belgilardi. Unga biror nima maslahat berishga ehtiyoj yo'q edi. U juda tajribali notiq edi. Lekin jiddiy muammo bor edi – chiqish formati. Vashingtonda besh daqiqadan ortiq davom etgan chiqishga qiziqish yo'qoladi, shuning uchun nutqlar odatda qisqa bo'ladi, lekin savol-javobga ko'p vaqt ajratiladi. Auditoriya o'zini qiziqtiradigan savollarga beriladigan javoblarga katta e'tibor qaratadi. Berilayotgan savollarning maqsadlaridan biri intellektual qoniqish olish bo'lsa,

ikkinchi maqsadi notiqni sinovdan o'tkazishdir. Jorjtaun auditoriyasiga shunday imkoniyatni berish kerak edi. Bu Haydar Aliyev o'zi uzoq yillar davomida o'rganib qolgan chiqish formatini o'zgartirishi kerak edi degani. Ma'lumki, Prezident odatda uzoq nutq so'zlar va keng ko'lamli savollarga to'xtalib o'tardi. Bunga qadar hech kim Haydar Aliyevning nutqi besh daqiqa vaqt olganini ko'rmagan.

Bu narsani Prezidentga nazokat bilan tushuntirish kerak edi. Hamma vaziyatning ahamiyatini tushunib turar, lekin hech kim unga maslahat berishga jur'at etmasdi. Tadbir raislari Jorjtaun universiteti vitse-prezidenti Maykl Kelli va Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi direktorlar kengashi a'zosi Richard Armitaj edi. Haydar Aliyevdan oldin Palataning faxriy maslahatchisi Zbignev Bzejnskiy chiqishi lozim edi. Ozarbayjon davlati rahbari unga katta ishonch va hurmat bildirardi, shu bois yuqoridagi majburiyat aynan uning zimmasiga yuklandi. Auditoriyaga kirish oldidan Prezident Kelli, Armitaj va Bzejnskiy bilan qisqa suhbat o'tkazdi, uning davomida janob Bzejnskiy Prezidentga masalani ehtiyotkorlik bilan yetkazdi.

Birozdan so'ng tadbir boshlandi. Barcha notiqalar chiqishlarini tugatganidan so'ng minbarga Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti taklif etildi. U shoshilmay o'rnidan turdi, minbarga yaqinlashdi, olqishlar tugashini kutib turdi. Bir lahza sukunat cho'kdi. Shu vaqt ichida Haydar Aliyev hammaga ko'rinishi uchun namoyishkorona sekinlik bilan qo'lidan soatni yechib, ko'z oldiga qo'yib qo'ydi. Bu harakat zalda o'tirganlarning e'tiboridan chetda qolmadi. Auditoriya iljaya boshladi.

Siyosiy byuroning sobiq a'zosi va KGB raisi Amerika auditoriyasiga birinchi xabarini yetkazdi: G'arbning urf-odat va an'analari bilan tanishman, ularni hurmat qilishga, ularga rioya etishga tayyorman. Qolgani hayratlanarli shouga aylanib ketdi. Prezident universitetda chiqish

qilayotganini, uning soʻzlari tegishli auditoriyaga yoʻlanayotganini tushunardi. U maʼruzachi kabi koʻrsatkich tayoqchani olib, xarita oldiga turdi va oʻz mamlakatining muammolari haqida oddiy, hissiyotli tilda gapira boshladi. Qisqa nutqdan soʻng savol-javoblar boshlandi. U auditoriyada pedagog misoli mashgʻulot oʻtkazayotgandi goʻyo. Sinov biz kutgandan koʻra ancha yaxshi natija bilan tugadi. 30 iyul kuni Vashingtondagi Jorjtaun universitetida chiqish qilib, Haydar Aliyev oʻz imijini mustahkamladi. Siyosiy byuroning sobiq aʼzosi va KGBning sobiq raisi milliy manfaatlariga sadoqatli professional va sergʻayrat davlat arbobi boʻlib chiqdi.

Oʻxshash imtihon “Bleyer Xauz”da ham boʻlib oʻtdi. AQShda siyosiy miqyosda rasmiy lavozim egallamaydigan, lekin mamlakat hokimiyat tuzilmalarida ulkan nufuzga ega odamlar koʻp. Ular isteblishment tarkibiga kirmaydi, ammo gʻoya yaratuvchilari, obroʻli siyosatchilar sifatida mashhur. Men Prezidentning shunday odamlar bilan uchrashuvini tashkil etish niyatida edim. Tashrifdan ancha oldin men Zbignev Bzejnskiy huzurida boʻlgandim, u menga qator qimmatli maslahatlar bergandi, gʻoyani qoʻllab-quvvatlab, ayrim siyosatchilarni shaxsan taklif qilishga vaʼda bergandi. Xullas, biz birgalikda roʻyxat tayyorladik, soʻng taklifnomalar yuborish boshlandi.

“Bleyer Xauz”da toʻplangan omma nufuzli shaxslardan iborat edi. Bu uchrashuv amalda uzoq muddatli investitsiya degani edi. U payti biz bunday fikrga balki yetarli eʼtibor bermagandirmiz, ammo voqealar rivoji bu yondashuvning toʻgʻriligini koʻrsatdi. Oʻsha kuni “Bleyer Xauz”ga kelgan odamlar bir necha yildan keyin hokimiyat doiralarida katta nufuzga ega boʻldi. Ularning koʻpchiligi Bush maʼmuriyatida katta lavozimlarni egalladi. Masalan, vitse-prezident Dik Cheyni, Davlat kotibi Kollin Pauell, Davlat kotibi oʻrinbosari Richard Armitaj. General Brent Skoukroft oʻz vaqtida Katta

Bushning milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchisi edi, so'ng Kichik Bushning saylovoldi kompaniyasida muhim rol o'ynadi. Mehmonlar orasida, shuningdek, Bill Klintonning milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Entoni Leyk, sobiq energetika va mudofaa vaziri Jeyms Shlezinjer, Prezident Nikson ma'muriyatida devon boshlig'i, Prezident Reygan ma'muriyatida esa Davlat kotibi Aleksandr Xeyg, o'z vaqtida Oq Uyda va Kongressda ishlagan Karnegi jamg'armasi prezidenti Jessika Metyuz, "Vashington post" gazetasi muharriri Stiven Rozenfeld, taniqli siyosiy sharhlovchi J.J. Gayer bor edi. Bu yig'ilishda hech shubhasiz oqsoqol doktor Zbignev Bzejinskiy edi. Uning maslahatiga ko'ra men Prezidentdan chap tomonga o'tirdim va zarurat tug'ilganda unga har bir mehmon haqida ma'lumot berib turdim.

Uchrashuv global siyosat bo'yicha fikr almashuviga aylanib ketdi. Ishtirokchilarni Aliyevning o'tmishi, uning joriy geosiyosiy muammolarga juda qiziqtirar edi. Prezident o'ta ziyarak va obro'li insonlar qurshovida edi, asosiysi, ular orasida o'zini begona his etmasdi, shu bois uni munosib sherik sifatida qabul qilishdi.

Rasmiy tashrif doirasida Prezident Xyuston shahri meri Robert Lanyerning uyida ham bo'ldi. Qo'shma Shtatlarda janubliklar sodda va muloqotga usta. Bundan tashqari, bu shahar AQShning neft poytaxti. Shu o'rinda foydali suhbatlar va hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar ochilardi. Janob Lanyer Prezidentni iliq qarshi oldi. O'sha kech Katta Xyuston hamkorligi tashkiloti Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi Ozarbayjon davlati rahbarining sharafiga banket tashkil etdi. Tadbir boshlanishidan bir necha daqiqa oldin quvonchli xabar yetkazildi. Haydar Aliyev nabirali bo'lgandi. U zalga kirganida hamma uni tabriklay boshladi. Go'dakka ism tanlash haqida gap ketganida Robert Lanyer bolaga Sem

Xyuston degan ismni berishni taklif qilib, yig'ilganlarni kuldirdi.

Xyustonda bo'lib o'tgan uchrashuvlar iqtisodiy harakterda bo'lib, Amerika neft kompaniyalarining mamlakatimizga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Prezident AQShning barcha neft kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashdi.

Prezidentning bu shaharda bo'lish dasturini tayyorlashda bir necha g'oya ilgari surilgan edi. Xususan, butun dunyoga mashhur Xyuston tibbiyot markazi yoki Milliy astronomik markaz borish rejaga kiritilgandi. Ish jadvalining tig'izligini hisobga olsak, ikkisidan birini tanlash kerak edi. Muhokama chog'ida xodimlarimizdan biri oddiy va o'rinli fikrni berdi: Ozarbayjon fazo bilan shug'ullanadigan vaqtlar kelishiga hali bor, sog'liqni saqlash tizimida esa ish tiqilib yotibdi, shu bois kelinglar, tibbiyot markaziga boramiz. Shunday qildik ham. Bu yerda Prezident mashhur kardiolog Maykl Debeyki bilan tanishdi. Taqdir hukmi bilan bu tanishuv keyinchalik mustahkam do'stlikka aylanib ketdi.

1997–yilgi tashrif amalga oshirilgan og'ir va samarali ish tufayli muvaffaqiyatli o'tdi. Tayyorgarlik chog'ida uyqusiz tunlarimiz ko'p bo'ldi. Bu haqda yozish shart emas, lekin bir holat hali uzoq esdan chiqmasa kerak. Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining AQShga 1997–yili amalga oshirgan tashrifi muhim tarixiy voqeaga, Ozarbayjon diplomatiyasining eng yirik muvaffaqiyatlaridan biri bo'ldi. Bunday voqeani tashkil etishda qatnashish – ulkan sharaf. Men mamnunman va baxtliman.



## REALIYALAR VA USTUVOR VAZIFALAR

Amerika Qo'shma Shtatlari – buyuk hokimiyat. Bu davlat Ozarbayjon geosiyosiy manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynashda davom etadi. Shuning uchun ham Ozarbayjon Respublikasining AQSH bilan munosabatlari strategik ahamiyatga ega bo'lib qolaveradi. Pessimizmning eng ayovsiz dushmani – vaqt. Tarix sahifalari to'lib borishi asnosida satrlar orasida ijobiy omillar ko'proq ko'zga tashlanib boraveradi. Tog'li Qorabog' mojarosi hal etilishiga, arman va Ozarbayjon xalqlari yana tinchlikda yashay boshlashiga ishonaman. Yana bir narsaga mutlaqo iymonim komil: Amerika – Ozarbayjon munosabatlari ham hech qachon bir tekis ketmaydi. Balki ellik yoki yuz yildan so'ng bu satrlarni o'qiydigan odam iljayib qo'yib, Hafiz Pashayev juda sodda elchi bo'lgan ekan deb o'ylar. Shunday bo'lsa qani edi! Kim bilsin, balki ellik yoki yuz yildan keyin AQSH siyosiy tizimi tub o'zgarishlarga uchrar? Ammo hozircha u o'zgormagan ekan, Vashingtondagi Ozarbayjon elchisida bosh og'rig'i ko'p bo'ladi, tashqi siyosiy idorasi apparati esa rasmiy Boku va Vashington munosabatlarida murosa qidirishdagi, jamoatchilik fikrini keraksiz ehtiroslardan uzoqlashtirishdagi mahoratini namoyish etishda davom etadi.

Buning sababi – Amerika tashqi siyosatini shakllantirish mexanizmi. Ko'pchilik davlatlarda bu ma'muriyat vakolatiga kiradi. Asli shunday bo'lishi kerak. Tashqi siyosat nazokatni, har kunlik e'tibor va o'zgarishlarni talab qiladi. Siyosatni qonunchilik aktlari yordamida olib borish o'ta yanglish ishdir. Afsus, Amerika Qo'shma Shtatlariga aynan shunday metodika xos.

Vashingtonda tashqi siyosat nafaqat ma'muriyat, balki Kongress bilan belgilanadi. Parlament tashqi siyosatga aralashganda u nazokatni yo'qotadi, bu esa uni yuritishning

asosiy omillaridan biridir, buning natijasida imkonsiz vaziyatlar yuzaga keladi. Realizatsiya har kuni o'zgaradi, tashqi siyosat ularning ortidan yeta olmay qoladi, negaki endilikda uni stol atrofidagi muzokaralar belgilab bermaydi. Tashqi siyosat qonunchilik organi topshiriqlari asosida hayotga tatbiq etila boshlaydi.

Masalan, 1992–yili isteblishment boshqa davlatga nisbatan siyosatini qonun shaklida ifodalaydi, uni ovoz berishga qo'yib, qabul qiladi. 1993–yili bu mamlakatning 20 foiz hududi okkupatsiya ostida qoladi, bir million fuqarosi qochqin va majburan ko'chgan shaxslarga aylanadi, 1994–yili esa u AQShning iqtisodiy hamkori maqomini oladi. O'n yil o'tadi, ikki tomonlama munosabatlar strategik hamkorlik darajasiga yetadi, ammo 1992–yili qabul qilingan qonun tashqi siyosatda bo'y ko'rsatib turaveradi. Ma'muriyat shovqin ko'taradi, qo'ng'iroqlar bong uradi, lekin hech narsani o'zgartira olmaydi. Qonun qonunligicha qoladi.

Ko'p mamlakatlarda parlamentning roli faqat milliy xavfsizlik doktrinasini qabul qilishdan iborat. Kundalik siyosiy masalalarni hal etish davlat rahbari va tashqi siyosiy idora zimmasiga yuklanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa Kongress tashqi siyosatga ta'sir o'tkazish pishanglariga ega. Bu holat ayni paytda manfaat guruhlariga tashqi siyosatga ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Buning oqibati o'laroq vaziyat nazoratdan chiqadi, nazokat yo'qoladi, ba'zan hatto milliy manfaatlar ham orqa planga o'tadi.

Oldin aytganimdek, ellik yillardan so'ng vaziyat balki o'zgarar. Lekin Amerika xalqi o'z Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritmas ekan, rasmiy Boku AQShning NATO bo'yicha ittifoqchisi – Turkiya misolida xulosa chiqarib, Vashingtonga nisbatan siyosatini uzoq istiqbolli prinsiplar negiziga qurmog'i joiz. Ertaga 907-tuzatish butunlay bekor

qilinishi mumkin, lekin bu hali 907-tuzatishdan mundayroq 908, 909 yoki 928-tuzatish paydo bo'lmaydi degani emas. Ammo qonunchilik aktlari, kompaniyalar yoki bayonotlar doimo o'z kuchida qoladi. Sabab: AQShdagi arman omili va uning alohida manfaat guruhi o'laroq tashqi siyosatni shakllantiruvchi ikkinchi hokimiyat tarmog'i bo'lmish Kongressga ta'sir etish qobiliyati.

Mamlakatimiz tashqi siyosiy idorasi apparatining asosiy vazifalaridan biri AQShning lobbistik, ikkiyuzlamachi va mantiqqa bo'ysunmaydigan siyosati tufayli yuzaga keladigan Ozarbayjon jamoatchiligining salbiy hissiyotlarini bartaraf qilishdan iborat.

Shunday qilib, Kongressning tashqi siyosatda ishtirok etishi bizni asosiy prinsip sifatida lobbichilik siyosatidan foydalanishga majbur etadi, bunda u qaytadan tuzilishi lozimligini unutmaylik. Vashington bilan siyosat yuritishdagi lobbizm konsepsiyasi salmoqli bo'lishi lozim. Gap faqat lobbistik firma haqida emas. Lobbizm – keng tushuncha, uning eng muhim o'ziga xosligi shundan iboratki, unga ikki-uch yil muddatga mo'ljallangan faoliyat sifatida emas, uzoq istiqbolli investitsiya sifatida yondashish darkor. Investitsiyalar uzoq muddatga kiritilar ekan, ko'p narsa ularning valyuta qiymatiga bog'liq ekanini ham unutmazlik kerak.

Gap samarali tashqi siyosat haqida ketganda, yaqin kelajakda quyidagi sohalar doimiy ravishda diqqat markazida bo'lishi lozim:

Lobbistik kompaniya. Uning maqsadi – Kongress a'zolari. Lobbizm yuzasidan Ozarbayjon tomoni mazkur omillarni inobatga olishi kerak bo'ladi.

Birinchi, lobbistik kompaniya – bu taktik qadam. Uning asosiy vazifasi Kongress a'zolari bilan rejali ishlash, ularga Ozarbayjon haqida ma'lumot yetkazish, muhim qo'mitalardan biz uchun manfaatli qonunchilik aktlarini

o'tkazish bo'ladi. Ammo haqiqatda lobbistik kompaniya-ning ahamiyati bizga ziyon keltiruvchi qonunchilik akt-larini zararsizlantirish, ya'ni Kongress orqali 907A, 907B yoki 908-tuzatishlarning o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Ozarbayjon hukumati Vashingtonda lobbichilik faoliyatining ma'lum tajribasiga ega. Eng ijobiy tajriba Livingston boshchiligidagi guruh bilan bog'liq. Bir necha yil muqaddam AQSH Kongressida Ozarbayjon yondashuvini qo'llab-quvvatlashni ma'naviy burchi deb bilgan Robert Livingston bilan tanishgan edik.

Yana bir muhim omilni ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Kongressning 535 a'zosi bor, ularning 80 foizi har ikki yilda qaytadan saylanadi. Bunday ko'p sonli va o'zgaruvchan tarkib juda qat'iyatli taktik ishni talab etadi.

Bu qat'iyat va harakatchanlik ko'p hollarda boshni aylantirib yuboradi. Samarador ish ketayotganday tuyula boshlaydi. Aslida esa lobbistik kompaniyalar bilan qisqa muddatli shartnomalar ostida strategik maqsadlarga nisbatan tahdid yotadi.

Unutmaslik kerakki, Kongress bilan har kunlik ishlash (aslida bu ko'proq kurashni eslatadi) – aysbergning ko'rinadigan qismi, xolos. Bama'ni, puxta lobbichilikka aysbergning suv ostidagi qismini harakatga keltirish orqali erishiladi. Buning uchun esa uzoq muddatli investitsiyalar talab etiladi.

Bu haqda gapirishdan avval ikki omilni tilga olib o'tay. Birinchidan, lobbistik kompaniya bilan ishlash qisqa mud-datli shartnoma asosida olib borilmasligi kerak. Albatta, shartnoma muhlati tugaganidan so'ng uni yana bir yilga uzaytirish mumkin. Bu Ozarbayjon tomoniga o'z sherigiga baho berish, mavjud kelishuv doirasida uning faol harakat qilishiga turtki bo'lish imkonini beradi. Ammo yillik shartnomalar strategik maqsadlardan diqqatni chalg'itadi, ular esa Tashqi ishlar vazirligi bilan hamkorlikda oldindan

belgilab olinishi, shuningdek, ularni monitoring qilish mexanizmi ishlab chiqilishi lozim.

Ikkinchidan, lobbistik shartnomalarni moliyalashtirish hajmi ham muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadlarga ajratiladigan mablag' Vashington standartlariga mos kelishi kerak, Ozarbayjon uchun esa ular balandroq bo'lishi lozim. Amerikada vaqt pul bilan o'lchanadi. Bitta advokat bir soatlik ishini 50 dollarga baholasa, ikkinchisi 250 dollarga baholaydi. Ish – bu ish, lobbistlarning nima farqi bor, unisi bo'lmasa, bunisi deb o'ylaydiganlar adashadi. Amalda lobbichi va uning vaqti sotib olinadi. Ish natijalari hamma uchun bir xil bo'lmaydi, negaki mutaxassislar farq qiladi. Bu konseptga ko'nishi majburmiz. Aks holda pul bekorga sarflanadi. Bir maqolda aytilganidek, "arzon go'shtdan yovg'on pishira olmaysan".

Aysbergning suv ostidagi qismi qancha katta bo'lsa, uning ta'sir kuchi ham shuncha katta bo'ladi. U ikki qismdan iborat: elektorat va intellekt.

Bir safar qator yillar mobaynida lobbistik kompaniyaga ulkan pul xarjlagan Turkiya hukumati oddiy bir xulosaga keldi. Aniqlanishicha, Turkiyaga qarshi ovoz bergan kongressmen u haqda yaxshigina ma'lumotga ega ekan. Turkiya lobbichilari bu kongressmen ostonasida deyarli tunab qolayotgan bir paytda arman lobbichilari saylov urnalariga byulletenlar tashlar va uning saylov kompaniyasiga pul o'tkazardi. Kongress a'zosi uchun eng zarur xizmat aynan shu oxirgisi edi. Bir million armani istiqomat qiladigan AQShda million nafar turk ham yashaydi. Yakshanba kuni armanilar cherkovda to'planadi, milliy din haqida gaplashadi, bundan junbushga keladi, dushanba kuni esa kongressmenlar ofislarini telefon qo'ng'iroqlari va fakslar bilan bombardimon qiladi. Bu vaqti esa qimmatbaho toshlar bilan zeb berilgan tilla bezaklar taqib olgan turklar yakshanba kunlari Sezen Aqsuning

jozibador kuylari musiqasiga raqs tushadi, ertasiga esa bir-birining “go’shtini yeydi”. “Dunyo adolat asosiga qurilgan, biz hech kimni qirmaganmiz”, – deb ta’kidlar edi turklar, lekin ularning ko’zlari birdan ochilib, Amerikada Turkiya tarixi bo’yicha mutaxassilar barmoq bilan sanagulik ekanini tushundi. Ular orasida ham eng mashhuri kelib chiqishi armani bo’lgan Ronald Suni edi.

Savol tug’iladi: yon qo’shnimiz eti shishib-ko’karib shu yo’lni bosib o’tgan ekan, nega biz bundan ibrat olib, saboq chiqarmaylik?

Elektorat va intellekt – lobbizmning ikki muhim tomoni. Ozarbayjon tomoni ularga ulkan mablag’ investitsiya qilishi lozim.

Uzoq istiqbolli investitsiyalarning asosiy maqsadi AQShda Ozarbayjon diasporasini tashkil etish bo’lishi kerak. Bu ham etnik, ham biznes-diasporaga daxldor.

Etnik diaspora – lobbizmning eng samarador uslublaridan biri. Kongressmenlar har doim elektorat tarkibiga qiziqish bildiradi. Etnik guruhlardan keladigan ovozlar ularning siyosiy mavqeini belgilab beradi. Shu bois Amerikadagi Ozarbayjon jamoatchiligining siyosiy savodxonligini oshirishni eng yuqori saviyada tashkil etishga e’tibor berish shart.

Diaspora tashkilotlariga bo’lgan zarurat ham juda o’tkir. Bunday strukturalar orasida Jahon ozarbayjonlari kongressi va Amerika – Ozarbayjon jamiyati eng faollaridir. Ikki tuzilma bilan ishlash har doim diqqat markazida bo’lishi lozim. Tan olish kerakki, Amerika – Ozarbayjon jamiyati saflarida siyosiy bilimlarni oshirish ishlari sifatliroq amalga oshirilmoqda. Tashkilot 1960-yillardan boshlanma olgan. Bu jamiyatni qo’llab-quvvatlash Ozarbayjon tomonining jiddiy ustuvor maqsadlaridan biriga aylanishi kerak.

Etnik diasporani shakllantirishdagi ikkinchi muhim omil – televizion dasturlar. Diaspora tarkibi bir tekis emas.

Janubiy Ozarbayjon vakillari orasida madaniy o'tmish haqidagi nostalgiya kuchliroq bo'lsa, muhojirlarning yangi to'lqini orasida Vatan haqidagi xotiralar hali ham tirik. Ozarbayjonchilik har xil shaklda o'ziga tortadi. Yigirma yil oldin Tabrizdan ko'chib kelgan odam Ruboba xonimning ovozidan to'lqinlanadi, Quba shahridan uch yil oldin ko'chib kelgan Ozarbayjonnini esa Bokudagi siyosiy voqealar ko'proq qiziqtiradi. Bu tabiiy hol, bu Tabriz vakilida Qubaning sobiq istiqomatchisiga nisbatan o'zlik kuchsiz degani emas. Ammo ikkisi ham haftasiga bir marta bir soatlik dasturning efirga chiqishini ekran qarshisida sabrsizlik bilan kutgan, uni boshidan oxirigacha ko'rgan bo'lardi. Dasturning yigirma daqiqasi madaniyat sahifalariga, o'n daqiqasi oxirgi yangiliklarga, o'n daqiqasi esa siyosiy sharhga bag'ishlanishi mumkin. Etnik mansubiyatning milliy o'zlik sifatida shakllantirilishida televizion dastur hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shubha yo'qki, haftasiga bir-ikki marta efirga chiqadigan bir soatlik dastur jamoatchilik fikriga jiddiy ta'sir o'tkazgan bo'lardi. Boshida uni moliyalashtirishni Ozarbayjon tomoni o'z zimmasiga olishi lozim.

Shu tariqa, etnik diasporani shakllantirishda ikki yo'nalishda ishlash kerak bo'ladi: tashkiliy masalalar va televidenie. Birinchisi individuumlar bilan ishlash degani, ikkinchisi esa ommabop harakterga ega. Ikki yo'nalish ham parallel olib borilishi darkor.

Biznes-diaspora. Ozarbayjonda ishlayotgan yoki unga endi-endi qiziqish bildirayotgan kompaniyalar AQSH tashviqot yuritishimizda har doim muhim rol o'ynab kelgan. Bu omil vaqt sinovidan o'tgan. Mustaqilligimizning birinchi yillarida kongressmen Greg Laflin imkoniyat tug'ildi degandan bir narsani qayd qilib o'tardi: AQShda Ozarbayjon jamoasini tashkil etish uchun ko'p vaqt talab etiladi. Bu vaqt ichida Ozarbayjon tomoni mamlakatda

ishlayotgan Amerika kompaniyalarining imkoniyatlari va ta'siridan foydalanib turishi lozim. Laflin buni biznes-diaspora deb nomlar edi.

Biznes-diasporaning eng ta'sirchan mexanizmi Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi bo'ldi. O'z saflarida Amerika kompaniyalarini birlashtiradigan bu tashkilot tom ma'noda ta'sir o'tkazish strukturasi. Buning sababi shundaki, u birinchi navbatda Amerika kompaniyalari nuqtai nazaridan gapirib kelgan. Bu juda muhim, bu borada o'zimizni aldagandan foyda yo'q. Savdo palatasi – Ozarbayjon hukumatining emas, Amerika kompaniyalarining pozitsiyasini namoyish etuvchi tuzilma. Lekin bu o'rinda Ozarbayjon va Amerika tomonlarining pozitsiyalari bir-biriga muvofiq keladi. Palata ikki tomonning fikri yagona xulosaga kelish uchun muhokama qilinadigan forumdan iboratdir. Bu fundamental siyosatni davom ettirish maqsadga muvofiq. Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi lokomotivga aylanishi mumkin. Bu tashkilot yetakchiligi mustahkamlanib boraveradi.

Axborot bazasi, to'plamlar va nashrlar. Xolis axborot tarqatadigan OAV organlarini yaratish va ularning sonini oshirib borish ham ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bu sohada eng qudratli vosita "Azerbaijan Interneynshnl" bo'ladi. Uning AQSH aholisining Ozarbayjon haqida xabardorligini oshirishdagi xizmatlari beqiyos bo'ldi. Bu haqda biz yuqoriorqda batafsil yozgan edik. Uni rivojlantirish, shuningdek, nashrning mazmundorligi diqqat markazida bo'lishi lozim.

Muharrir Betti Bleyerning jurnalni yaratish va takomillashtirishdagi xizmatlari bebaho bo'ldi. Ammo undan keyin, yoki u bo'lmasa, "Azerbaijan Interneynshnl"ni qanday kelajak kutmoqda? U o'zining ishini meros qilib oladigan munosib muharrirni tarbiyalashi kerak. Bu sohada salohiyatli nomzodlar juda kamligini inobatga olsak, Bleyer



masalaga jiddiy yondashishi muhimligini tushunamiz. Nashr oldida turgan boshqa vazifa muharrirlar kollegiyasini tuzishdir: ko'psonli va professional tayyorgarligi yuqori bo'lgan bunday jamoa jurnalni takomillashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Har holda, "Azerbayjan Interneysnl" nomida ko'rsatilgan mamlakat haqidagi qomusiy bilimlar manbaidir.

Tadqiqot markazlari ham alohida va muhim o'rin tutadi. Ularni ko'pincha aql markazlari, mamlakat haqidagi axborot tarqaladigan minbar deb hisoblashadi. Shuningdek, ular vaqti-vaqti bilan maqola va kitoblar chiqaradi, Ozarbayjon bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Ikkita mana shunday aql markazi ijobiy bahoga loyiq: Garvard universitetidagi Kaspiy tadqiqotlari markazi hamda Jon Xopkins universitetidagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti. Ozarbayjon bilan bog'liq tadqiqotlar olib borayotgan tuzilmalarni qo'llab-quvvatlash birlamchi maqsadlarimizdan biridir.

Fikrimcha, yuqorida qayd etilgan sohalar juda muhim, strategik ahamiyatga molikdir. Bu sohalarga amalga oshiriladigan kiritmalardan foyda ko'rish uchun juda uzoq poylashga to'g'ri keladi, ammo baribir bunga jiddiy e'tibor qaratish shart. Ishlanmalar yetarli, endi ularga ustuvor vazifa maqomini berish zarur.


## SO'NGGI SO'Z VA XAYRLASHUV NUTQI

2006 yil iyulining oxiri. Issiqdan azob chekayotgan va hech bo'lmaganda zaif shabboda esishiga tashna bo'lib turgan Vashingtonda sokin kunlardan biri. Yil bo'yicha hayot qaynagan siyosiy yo'lkalar bo'shay boshladi. Kongress a'zolari ishlarini bitirib, yozgi ta'tilga ketishga oshiqmoqda. Ma'muriyat joriy ishlar bilan shug'ullanyapti. Yil bo'yicha ostonalardan ketmaydigan lobbichilarning ham izi ko'rinmaydi. Har kuni millionlab odamlarning kelajagini hal qilmoq taqdir charxpalagi misol aylanadigan Vashington siyosiy mexanizmi go'yo abadiy to'xtab qolgandek. Ammo bu sukunat uzoq davom etmasligiga, sentabrning ikkinchi haftasidayoq siyosiy yo'lkalar yana to'lib-toshishiga, Vashington mexanizmi yana siyosiy to'fonlar ichida o't olishiga kim ham ishonardi? Hozircha esa jimjitlik hukmron edi. Kelajak juda yorqin ko'rinardi.

Mana shunday jazirama kunlardan birida ishni bitirib, Potomak qirg'og'iga chiqdim. Quyosh botayotgandi, zaif shabboda esishi ko'ksimni to'ldirib nafas olishimga imkon berayotgandi. Biroz ma'yus edim. Bokuni sog'ingandim. Jonajon xazridan to'yib nafas olgim kelayotgandi. Daryo qirg'og'ida sayr qilardim, ammo xayollarim Boku xiyobonida kezardi. Do'stlar va tanishlar bilan uchrashishga, ularning qo'lini siqishga, bir armudu choy ustida gurunglashishga, kundalik tashvishlarim bilan bo'lishishga sabrim chidamayotgandi. Vashington maf-tunkorligini yo'qotdi. Hamma narsa oddiy ko'rinardi. Bokuni sog'ingandim.

Prezident Bokuga qaytishimga ruxsat berib bo'lgan edi. Vashingtondagi so'nggi haftalarim do'stlar bilan xayrlashuvda, jamoatchilik bilan uchrashuvlarda, qaytishga hozirlik ko'rishda o'tayotgandi. Elchi sifatida 2006–yil 28–iyunda jamoatchilik oldida so'zlagan oxirgi nutqim o'sha kunlardagi kayfiyatimni aks ettiradi.

Ilova.  
Maqolalar  
va chiqishlar



Prezident Haydar Aliyev bilan AQSH  
Kongressidagi tashrifi davomida  
(1997–yil)



Prezident Ilhom Aliyev Pentagon yig'ilishida





*To His Excellency Hafiz Paslayev • With best wishes,*

*Princinton*

AQSH Prezidenti Bill Klinton va ayoli Hillari xonim bilan  
(14 aprel 1993 yil)



AQSH Prezidenti Jorj Bush va ayoli Lara xonim bilan  
(2002–yil)





AQSH Mudofaa vaziri Donald Ramsfeldomning qabulida Davlat kotibi Kollin Pauell janoblarining nutqi (2004–yil)



AQSH Davlat kotibi Kondoliza Rays tomonidan uyushtirilgan Mustaqillik kuniga bag'ishlangan qabul marosimida Ra'no xonim bilan (4-iyul 2006–yil)





Muhtaram Lutfiy Zoda bilan.  
Chapdan o'ngga: muhtaram Fey Zoda, janob Lutfiy Zoda, qizi Jamila  
(San-Fransisko, 2001-yil)

## JON XOPKINS UNIVERSITETIDAGI MARKAZIY OSIYO VA KAVKAZ INSTITUTDAGI NUTQ

*2006-yil 28-iyun*

Doktor Starrga kirish soʻzi va ajoyib tashkil etilgan tadbir uchun minnatdorlik bildiraman.

Bugun sizlarning oldingizda chiqish imkoniyati tugʻilganidan juda xursandman. Albatta, tadbir meni juda hayajonga soladi, chunki u mening Ozarbayjon Respublikasining Amerika Qoʻshma Shtatlaridagi elchisi sifatida jamoatchilik oldida soʻzlaydigan oxirgi nutqim boʻladi. Aynan shu yerda – Jon Xopkins universitetidagi Markaziy Osiyo va Kavkaz institutida chiqish qilayotganim diqqatga sazovor. Eslatib oʻtmoqchimanki, 1996–yil 23–oktabrda, bu institut ochilganidan ikki kun oʻtib, men bu yerga taklif qilingan birinchi notiq boʻldim, hozir esa eʼtiboringizga oʻshanda oʻz chiqishimning boshida aytgan soʻzlarimni havola etmoqchiman: “Qoʻshma Shtatlardagi xususiy universitetlar, taʼlim markazlari bilan bogʻliq tashqi siyosat markazlari soni, shuningdek, bu yerda tayyorlanayotgan mutaxassislarning har tomonlama va chuqur bilimlari meni hayratga soladi. Xalqaro jamoatchilik eʼtibori va qoʻllab-quvvatlashi Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari mustaqilligi uchun juda muhim. Sizning institutga oʻxshash markazlar bu mamlakatlar haqidagi nuqtai nazarini shakllantiradi va ularning muammolariga eʼtibor qaratadi”.

Bugun, oradan oʻn yil oʻtgach, toʻla ishonch bilan ayta olamanki, bu institutning mintaqamiz mamlakatlari haqida axborot tarqatish va ularning mustaqilligini rivojlantirishdagi oʻrni beqiyosdir. Mintaqa bilan bogʻliq barcha masalalar va muammolar bu institutda sin-

chiklab, har tomonlama tadqiq etildi. Shu tufayli institut Ozarbayjonga qaratgan e'tiborni juda yuksak qadrlayman. Mamlakatimizning oliy martabali vakillari, shu jumladan, marhum Prezident Haydar Aliyev, Markaziy Osiyo va Kavkaz institutida chiqish qilarkan, Ozarbayjonning Armaniston bilan ixtilofni bartaraf etishdagi yondashuviga, energetik loyihalarni rivojlantirishga, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga e'tibor qaratardi. Ayni paytda sizning institutingiz global ahamiyatga molik loyiha realizatsiyasi – Boku – Tbilisi – Jayhon neft quvurining qurilishida muhim rol o'ynadi. Bugun biz erishilgan natijalardan iftixor hissini tuyishimiz mumkin: roppa-rosa bir oy oldin, 28–may kuni Kaspiy dengizining Ozarbayjon sektorida qazib olingan birinchi neft Jayhon portiga yetib bordi.

Mening bu yerda qilayotgan bugungi chiqishim ko'p voqealarni, Vashingtonda boshimdan o'tgan iliq lahzalar va ba'zan hatto qiziqarli hikoyalarni xotiramda uyg'otmoqda. Biz bu yerga 1993–yili kelganimizda, Ozarbayjon AQSH uchun umumiy qiziqishdagi bir davlat, sizning siyosiy radaringizdagi mutlaqo yangi unsur, Amerikaning oddiy fuqarolari uchun esa mutlaqo notanish o'lka edi. Menga konsulimiz aytib bergan voqealarni eslayman, masalan, Abijan va Abuja orasidagi hududlarga borish niyatida bo'lgan amerikaliklar bizga viza so'rab murojaat etganlari kuzatilgan. O'shanda ular kutilmagan savollar berardi. "Sizning Afrikadagi davlatingizda "MakDonalds" bormi?" kabi.

Ko'plaringiz Dunsberining 1993–yili "Vashington post" gazetasida chop etilgan Ozarbayjon haqidagi karikaturasini eslasangiz kerak. Mening uchun esa u biz bu yerda duch kelgan reallikni ko'rsatuvchi ramz edi. Rassom Oq Uyda ro'y bergan voqeani aks ettirgandi. Rahbar Ozarbayjon bo'yicha "yetakchi mutaxassis" deb ataladigan xodimni

chaqirib, undan Ozarbayjondagi muammo bo'yicha maslahat so'raydi. Shu payti "mutaxassis"ning xotini unga qo'ng'iroq qiladi va uyga tushlikka chaqiradi. G'aflatda qolgan "mutaxassis" vaziyatdan foydalanib, xotinidan so'raydi: "Azizam, Ozarbayjon qayerda joylashganini bilmaysanmi?"

Amerikaliklarning o'zlari ham hech qachon geografiyada kuchli bo'lmaganlarini tan oladi. 1975 yili Qo'shma Shtatlarga birinchi marta kelib, Kaliforniyada o'n oy yashaganimda meni bir politsiyachi to'xtatdi. U Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi gerbi tushirilgan haydovchilik guvohnomamni ko'zdan kechirib, "Bu qayerda joylashgan?" deb so'radi. Men Rossiya so'zini ishlatmay, politsiyachiga Ukraina, Ozarbayjon, Moskva, Kiyev, Leningrad, Boku singari nomlar yordamida buni tushuntirmoqchi bo'ldim. Nihoyat, "Rossiya" so'zini tilga olganimdan keyingina politsiyachi menga qarab, "Ha, Rossiya qayerda joylashganini bilaman, lekin siz rusga o'xshamaysiz" dedi.

Bu hajviy tasodifga o'xshashi mumkin, lekin oradan 25 yil o'tib, boshqa bir kaliforniyalik, AQSH Kongressi a'zosi janob Martinez men bilan suhbat chog'ida Armaniston Ozarbayjon bilan o'rab olinmaganini bilib, juda hayron qoldi. Uning aytishicha, bu haqda oldinroq bilganida, Ozarbayjonga qarshi sanksiyalarni yoqlab ovoz bermasdi. Darhaqiqat, chorak asr o'tganiga qaramay, amerikaliklarning aksariyati, shu jumladan AQSH Kongressi a'zolari ham mintaqamiz realiyalari haqida o'ta chegaralangan ma'lumotga ega.

Munosabatlarimiz rivojlanishi va Ozarbayjonning Amerika uchun muhim davlatga aylanib borishi asnosida elchixonamiz boshqa to'sqinliklarga to'qnash kela boshladi. Kongress a'zolari va xodimlari bilan ba'zi muhokamalar mana shunday o'ziga xosliklari tufayli ham unutilmaydi.

Bu uchrashuvlarning mohiyati asosan arman-ozarbayjon ixtilofi va erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatish bilan bog'liq. Ba'zan bir ofisga, bir kishining huzuriga bir necha marta kirganimiz, ammo barcha sa'y-harakatlarimiz bekor ketganini tushunganimiz bo'lgan. "Sizni qaytadan tinglashdan xursandman, janob elchi", "Sizni bezovta qilayotgan muammolarni hal etishga albatta urinib ko'ramiz, janob elchi", "Mamlakatingizdagi gumanitar vaziyatni yaxshilash uchun nima qila olishimizni o'ylab ko'rishga imkoniyat bering" kabi loflarni ko'p eshitardik, lekin hech qanday mazmunga ega bo'lmagan xushmuomalalikdan boshqa narsaga erisha olmasdik.

Ozarbayjon Milliy Majlisi a'zosi E'tibor Mamedovning Nyu-Yorklik mashhur kongressmen bilan uchrashuvini hech qachon unutmayman. Uchrashuv boshlanganidan bir necha daqiqa o'tib kongressmen uxlab qoldi. Uning ofisidan chiqayotganimizda janob Mamedov menga shunday dedi: "Kongress bilan ishlash biz uchun juda qiyin bo'lsa kerak. Ishingiz oson emasligini endi ko'ryapman".

Ha, mening ishim hech qachon oson bo'lmagan. O'z mamlakatingni Qo'shma Shtatlarda tamsil etish – har bir diplomat uchun murakkab va mas'uliyatli ish. Mustaqilligining ilk kunlaridanoq qator ichki va tashqi siyosiy xarakterdagi qiyinchiliklarga duch kelgan Ozarbayjon vakili uchun bu yanada murakkabroq ishdir. Ammo haqiqat shundaki, Amerika Qo'shma Shtatlarida elchi bo'lish faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otuvchi katta sharaf va mas'uliyatdir. Ozarbayjon tarixining eng muhim pallasida o'z mamlakatimga xizmat qilganim uchun aynan mana shunday faxr tuymoqdaman.

Qo'shma Shtatlarda elchi sifatida bosib o'tganim o'n uch yillik yo'lga nazar tashlarkanman, bu vaqt ichida Amerika – Ozarbayjon munosabatlarini yaxshilash uchun juda ko'p ish qilinganini aytib o'tishim mumkin. Shu yillarda mening



asosiy maqsadim keng ma'noda elchi bo'lish edi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, mening maqsadim nafaqat o'z davlatimni tamsil etish, balki amerikaliklarga xalqimning hayotidagi ko'p sohalar bilan bog'liq umid va orzu-intilishlarini, ishtiyoq va bezovtaliklarini yetkazish edi. Kongressmenlar va senatorlarga har kuni mamlakatimiz haqida qisqacha axborot berish, ularga Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatishni qaytadan ko'rib chiqish muhimligini tushuntirish bilan bir qatorda bu Ozarbayjon madaniyati, tarixi va tarixiy merosini namoyish etish ham edi. Bu masalada biz katta yutuqlarga erishdik. Biz Kongressning ko'pchilik a'zolarini 907-tuzatish nomuvofiq va yanglish tashqi siyosiy akt bo'lganiga ishon-tira oldik. Ammo, Prezident Bush 2002-yildan boshlab Ozarbayjonga bevosita yordam berish imkoniyatini taqdim etuvchi akti har yili imzolashiga qaramay, bu tuzatish hamon o'z kuchida qolmoqda. Shu munosabat bilan sizlarga bir maroqli voqeani hikoya qilib bermoqchiman. U 90-yillarda, AQShning o'sha paytdagi ma'muriyati a'zosi va AQShning Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi elchisi Olbrayt xonimning Bokuga tashrifi chog'ida ro'y bergan. Ozarbayjon Tashqi ishlar vaziri bilan uchrashuv chog'idagi muhokamalar yakunida Olbrayt xonim Vashingtondagi ishim haqida iliq so'zlar aytdi. Vazir menga qaradi, so'ng xonimga burilib, "Biz uning Vashingtondagi ishiga 907-tuzatish bekor qilinganidan so'ng baho beramiz" dedi. Olbrayt xonim darhol javob qaytardi: "Bechora janob elchi, aftidan, Vashingtonda butun umringizni o'tkazishingizga to'g'ri keladi". Ko'rib turibsizki, bu so'zlar haqiqatdan uncha uzoq emas edi.

Aytishim kerakki, 907-tuzatish muammosi ikki tomon-lama munosabatlarni mustahkamlashga xalaqit berayotgan asosiy muammo bo'lib qolayotganiga qaramay, uning ijobiy tomonlari ham bo'ldi. Masalan, biz, elchixonona ishchilari,

qisqa muhlatda AQSH siyosiy tizimini o'rganishimizga to'g'ri keldi. 907-tuzatish Ozarbayjon diplomatlari uchun AQSH siyosiy jarayonlari nuqtai nazaridan muhim dars bo'ldi. Bizning elchixonamiz Vashingtonda ro'y berayotgan intrigalar va ichki jarayonlarni o'rganish bo'yicha o'ziga xos markazga aylandi: o'zga elchixonalar va ayrim hamkasblarimiz Kongress bilan qanday muomala qilish borasida biz bilan maslahatlasha boshladi.

Erishilgan natijalar haqida o'ylarkanman, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning barcha sohalaridan misollar keltira olaman. AQSH, boshqa sobiq sovet respublikalari bilan bo'lgani singari, Ozarbayjon bilan munosabatlarida ham ustuvor vazifalarini aniq belgilab oldi. AQSH siyosatida to'rt asosiy maqsad bor edi: mustaqillikni qo'llab-quvvatlash; bozor iqtisodiyoti sharoitidagi demokratik jamiyatga o'tilishini qo'llab-quvvatlash; energetik loyihalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; va, nihoyat, Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar.

Ixtilofdan boshlashga ruxsat bergaysiz. Kavkaz davlatlari muqobil yo'l oldida turibdi, negaki tarix nuqtai nazaridan har qanday tanlovning amalga oshirilishi majburiy emas. Biz va bizning qo'shnimiz dushmanlikni, ixtilofni, nafratlanishni davom ettirishimiz mumkin – bu holda zo'ravonlik, o'lim va qashshoqlik davri davom etadi. Agar biz o'z muammolarimizni o'zimiz hal qilishga urinib ko'rmasak, boshqalar buni bizning o'rnimizga va bizning mustaqilligimiz hisobiga amalga oshirishga urinadi. Men ishonadigan bir tarixiy prinsip bor: o'tmishga boshi bilan sho'ng'ib ketganlar kelajakka bo'lgan umidni yo'qotadi. Boshqacha aytganda, hamisha ortiga qaragan kelajakni ko'ra olmaydi. O'tmish da'volari bilan yashashga, qo'shni hududlarni zabt etishga intilish Tog'li Qorabog' mojarosini

keltirib chiqardi, va biz bunday siyosat butun mintaqa uchun fojiaga aylanganiga guvoh bo'ldik. Qiyoslash uchun keling G'arb davlatlarining Yaponiya va Germaniya bilan Ikkinchi jahon urushidan keyingi ellik yillik hamkorligini ko'rib chiqamiz. Bugungi ittifoqchilar bir-biriga qarshi vayronkor urush olib borganiga ishonish qiyin.

Amerika Qo'shma Shtatlarining Minsk guruhidagi vositachilik rolini qadrlaymiz. Lekin Ozarbayjon va Armaniston rahbarlarining yaqinda o'tkazgan muzokaralari qiyin va muhim bosqich hali oldindaligini ko'rsatadi. Ozarbayjon hech qachon o'z milliy manfaatlari himoyasidan voz kechmaydi va o'z hududiy yaxlitligi borasida yon bermaydi. Biz harbiy harakatlar yangidan boshlanishini istamaymiz, ammo arman armiyasi Ozarbayjon hududidan ketishi lozim. Armaniston va Tog'li Qorabog'dagi ayirmachilar tushunishi lozim. Ozarbayjon o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligi masalasida murosaga bormaydi. Mojaroning tinch yo'l bilan hal etilishida Amerikaning faol vositachiligi muhimligiga ishonaman.

Qo'shma Shtatlar va Ozarbayjon bir xil maqsadlarni ko'zlagan holda mustahkam va ishonchli aloqalarni yaratganiga o'n yildan oshdi. Eng diqqatga sazovor natijalarga energetik loyihalar realizatsiyasida erishildi. Va bu hamkorligimizning boshqa barcha sohalariga ham o'z ta'sirin o'tkazdi. Energetik loyihalar butun mintaqa geosiyosiy manzarasini belgilashda muhim o'rin tutdi. Ozarbayjon neft va gaz sanoati rivojlanishi nafaqat energoresurslar ishlab chiqarilish va transportirovkasi masalasi emasligi boshidan ma'lum edi. Mustaqilligimizni mustahkamlash va xalqaro hamjamiyatga qo'shilish kabi asosiy maqsadlar ortidan borar ekan, Ozarbayjon o'z neft strategiyasini tayyorladi va uni izchil amalga oshirdi. Ozarbayjon neft strategiyasining hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi Qo'shma Shtatlarning siyosiy madadi va ko'p



Bu yerda mehnat qilgan yillarim davomida ularning aksariyati karyera qilib, oddiy xodimlardan elchilarga va boshqa oliy martabali mansabdorlarga aylandi. Ularga ishida va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Ozarbayjonning uch Prezidentiga tariximizning shunday ma'suliyatli bosqichida menga o'z davlatim nomidan jahonning yagona qudrat markazida ishlash imkoniyatini taqdim etganlari uchun minnatdorlik bildiraman. Mening uchun bu yerda ikki Prezident – respublikachi va demokrat ma'muriyatlari bilan ishlash ulkan sharaf bo'ldi. Rostini aytganda, hayotimning bunday katta qismini orqada qoldirish men uchun juda qayg'ulidir. Ammo olg'a harakat qilish va boshqalarga maydon bo'shatib berish payti keldi. Ular ham mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik gullab-yashnashi borasidagi sa'y-harakatlarimni davom ettirishiga ishonaman.

Vashingtonga ikki farzandning otasi sifatida keldim, endi uni to'rt nabiraning bobosi sifatida tark etyapman. Vatanimga qaytganimdan so'ng nima bilan shug'ullanishimni so'rovchilarga oddiy javob qaytaraman: dastlab bobo sifatidagi burch va majburiyatlarimni bajaraman. Keyin esa oldimda turgan boshqa vazifalarni ham ko'rib chiqaman.

## AMERIKA DEMOKRATIYASI VA OZARBAYJON

*“Ozarbayjon” gazetasi,  
1994-yil 19-iyul*

Dunyoda mavjud boshqa demokratiyalardan farqli ravishda, Amerika demokratiyasi markazdan boshqarilmaydi. Ushbu o'ziga xoslik Amerika hukumatining xatti-harakatlari, qarorlari mantig'i, hokimiyatning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'p davlatlarda parlament demokratiyasi sharoitida saylovda g'alaba qozongan siyosiy partiya rahbari hukumatni shakllantiradi va mamlakatni boshqaradi.

AQSHdagi siyosiy hayotni esa ko'proq moliyaviy jamg'armalar belgilaydi. Aslida Amerikada partiyalar erkin uyushmalar bo'lib, u yerda har bir a'zo o'zini mutlaqo mustaqil tutadi hamda o'z partiyasi va hatto Prezidentga nisbatan muxolifatda bo'lishi mumkin. Ular har bir saylov kompaniyasi uchun o'zlari moliyalashtirish manbaini topadi, shu sababdan o'zlari tegishli bo'lgan partiya bog'liq bo'lmaydi.

AQSH demokratik tizimining hayratga sabab bo'ladigan boshqa jihati manfaatlar o'ynaydigan ulkan roldir. Demokratiyaning mohiyati shundaki, ma'lum manfaatlar atrofida birlashgan odamlar u yoki bu siyosiy maqsadga erisha olsin. Bu xususiyat har bir demokratiyaga xosdir. Ammo, biz oldinroq aytganimizdek, markazdan boshqarilmaydigan siyosiy tizim sharoitida juda cheklangan miqdordagi shaxslar guruhi ulkan ta'sir kuchiga ega bo'loladi. Bu Amerika tashqi siyosatida yaqqol namoyon bo'ladi. Yahudiy, grek, arman va boshqa diasporalar buning isbotidir. Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi

joriy ixtilofga nisbatan Amerika siyosati mazkur tezisni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, 1992–yil kuzida AQSH Kongressi “Erkinlikni himoya qilish akti” nomli hujjatni qabul qilib, bu bilan Rossiyaga hamda Sobiq Sovet davlatlariga yordam ko'rsata boshladi. Uning birinchi faslida aytiladiki, Rossiya hamda boshqa yangi tashkil topgan mustaqil davlatlardagi oxirgi voqealar ularning demokratik millatlar safiga qo'shilishi hamda xalqaro miqyosda tan olingan qoidalarga moslashuvi uchun tarixiy imkoniyat taqdim etdi. Hujjat mualliflarining fikricha, bu mamlakatlardagi o'tish davrini yengillashtirish uchun AQSH ularga turli shakllarda yordam taqdim etishi lozim: texnik dasturlardan tortib aholini dori vositalari va oziq-ovqat bilan ta'minlashgacha.

Qayd etish kerakki, hujjat loyihasi muhokama qilina-yotganida (1992–yil o'rtasi) Ozarbayjon Vashingtonda hech qanday vakolatxonaga ega emas edi. Jimitday va uyushmagan Ozarbayjon diasporasi qonunchilar diqqatini tortishga qodir emas edi. Aksincha, Amerikaning arman diasporasi juda badavlat hamda Kongress a'zolariga katta ta'sir o'tkaza oladi, Kongressga saylovlar chog'ida nomzodlarning jamg'armalariga yirik summalar o'tkazib, o'z manfaatlarini ta'minlaydi. Bu AQShning eng katta shtati – Kaliforniyaga taaluqli. Arman lobbichilari Kongressda Turkiya manfaatlariga qarshi doimiy kurashlarda katta tajriba to'plagan, bugun esa uni bor kuchi bilan Ozarbayjonga qarshi ishlatmoqda.

Erkinlikni himoya qilish aktining muhokamasi va qabul qilinishi chog'ida Amerika matbuotida “rahm-shafqatga munosib”, “ko'p jaf o chekkan” arman xalqi obrazi keng targ'ib etildi. Bu payti Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi ixtilof Amerikadan qaraganda Ozarbayjon foydasiga hal bo'lib, tugaganday ko'rinardi. Energoresurslar va oziq-ovqat taqchilligiga duch kelgan armanilar bunga “tajo-

vuzkor” ozarbayjonlar tomonidan tashkil etilgan qamal aybdorligi haqida butun dunyoga qichqirar edi. Natijada Erkinlikni himoya qilish aktiga senator Jon Kerri tomonidan taklif qilingan, Ozarbayjonni AQSH hukumati ko’magidan mahrum qilgan 907-tuzatish qo’shildi.

Prezident Bush ma’muriyati birinchi kundan e’tiboran bu tuzatishga keskin e’tiroz bildirib keldi, chunki u Amerikaning Ozarbayjonga nisbatan siyosatini bir yo’nalishga solyapti, Qo’shma Shtatlar ixtilofni hal etishda betaraflikni saqlab qola olmaydi deb hisoblardi. Bu fikrga faqat to’rt senator (Lugar, Mak Konnel, Kessenbaum va Senford) qo’shildi, Senatdagi muhokamalar chog’ida ular o’z e’tirozlarini bayonnomaga alohida fikr sifatida kiritdi.

1993–yil boshidan, AQShdagi faoliyatining birinchi yilidan Ozarbayjon Respublikasi elchixonasi Kongressning Ozarbayjonga qarshi yangi qasdigaga to’qnash keldi: 17–fevral kuni Vakillar palatasi a’zosi Devid Bonior o’zi tayyorlagan rezolyutsiya loyihasini taqdim etdi. Arman lobbichilari qisqa muddatda Kongressning 100 a’zosi ovozigaga ega bo’ldi, lekin, shunga qaramay, biz Kongressda va matbuotda faol ish olib borib, hujjat qabul qilinishining oldini olishga erishdik. Bu voqea kongressmenlar bilan ochiq fikr almashish qay darajada muhimligini yana bir bor ko’rsatadi.

1993–yil 18–martda “Vashington post”ning birinchi sahifasida chiqqan “Armanistonga ishtiyoq” nomli maqolada Kongressning armanilarga xayrixoh kayfiyati jiddiy tanqid qilindi. Armaniston qamalini tilga olgan gazeta ayni paytda shunday yozgandi: “...blokada o’z-o’zidan paydo bo’lib qolgani yo’q. Bu Tog’li Qorabog’ mojarosi bilan bog’liq... Qorabog’ armanilarining azob-uqubati buyuk. O’z yerlaridan quvilgan ozarbayjonlar ham xuddi shunday uqubatlarga duchor bo’lmoqda. Farq shundaki, Armaniston AQShda katta diasporaga ega, Ozarbayjon

esa – yo‘q”. Davomida shunday deyilgan: “Qo‘shma Shtatlar biryoqlamaligi bilan shubha uyg‘otmoqda. Bu arman-Ozarbayjon munosabatlariga tinchlik olib kelmaydi va dunyoda mavjud boshqa etnik urushlarga yomon ibrat bo‘ladi”. Amerika matbuotida Ozarbayjon pozitsiyasini birinchi marta himoya qilib chiqqan ushbu maqola keng rezonans keltirib chiqardi va keyinroq bo‘lib o‘tgan ko‘plab bahslarning sababchisiga aylandi.

1993–yil boshida ishga kirishgan Prezident Klinton hukumati bir necha oy davomida masalaga jiddiy e‘tibor qaratmadi. Armaniston bilan bog‘liq muammolarga nisbatan esa alohida hushyorlik bilan diqqat qaratilardi, chunki 1992–yilgi saylovda arman lobbichilari faol rol o‘ynagan edi. Ayni paytda Oq Uy va Davlat departamentining Ozarbayjon bilan bog‘liq siyosatini har doim 907-tuzatishga qarshi bo‘lganini tan olish lozim.

Elchi S. Telbot 1993–yil bahorida Sobiq Sovet respublikalari bo‘yicha mas‘ul etib tayinlanganida u bilan keng ko‘lamli bahslar o‘tkazilgan edi. O‘tgan yil o‘zining Senat va Vakillar palatasi qo‘mitalaridagi chiqishida u Ozarbayjonga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish zarurligini bir necha marta aytdi.

Davlat departamentining hokimiyatga burkangan boshqa shaxslari, shu jumladan, janoblar Jeyms Kollinz va AQShning Ozarbayjondagi bugungi elchisi Richard Kozlarich Kongressda 907-tuzatish Amerika siyosatiga zid kelishiga bir necha marotaba izoh berib o‘tishdi. Prezident Haydar Aliyevga yo‘llangan maktubda Bill Klinton 907-tuzatish Amerika ma‘muriyatining Ozarbayjonda iqtisodiy islohotlar o‘tkazish va Arman-Ozarbayjon ixtilofini bartaraf etishda ishtirok etishi yo‘lidagi katta to‘siq ekanligini tan oladi.

Ammo Amerika demokratiyasining real holati shundan iboratki, Kongress a‘zolarini birinchi galda saylovchilarning

muammolari va niyatlari qiziqtiradi. Faqat ularga haqiqatni yetkazib va jamoatchilik e'tiborini bu masalaga qaratibgina salmoqli natijalarga erishish mumkin.



Bizga yordam ko'rsatishning taqiqlanishidan keyin o'tgan vaqt ichida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. 1992–yil oxirida Kongressning bu qadami Ozarbayjonga nisbatan adolatsizlikka o'xshagan bo'lsa, bugungi vaziyat tuzatishning mutlaqo o'rinsizligini va ma'nisiz ekanligini ko'rsatadi. Achchiq haqiqat shundaki, yerlarimizning 20 foizi okkupatsiya qilingach va mamlakatda milliondan ortiq qochqinlar paydo bo'lgach, vaziyat biroz o'zgara boshladi.

Hozirgi paytda 907-tuzatishning bekor qilinish imkoniyati quyidagi omillar tufayli oshdi:

**a)** o'tgan davrda arman tajovuzi o'zining asl yuzini ko'rsatdi, o'zlarining "ko'p uqubat chekkan" obrazini yo'qotgan armanilarning asl maqsadi jahon hamjamiyati oldida bor bo'yicha ko'rindi. Amerika matbuotida Armanistonning tajovuzkor siyosati yoritilishi, elchixonona tomonidan jamoatchilikning faktlardan keng boxabar etilishi natijasida AQSH ma'muriyati va Kongressi armanilarga bo'lgan munosabatini biroz o'zgartirishga majbur bo'ldi. Armaniston endilikda bu yerda ixtilofning yagona qurboni sifatida ko'rilmaydi;

**b)** AQSH hukumati yordam ko'rsatish taqiqini saqlab qolishni to'g'ri deb hisoblamaydi. Amerikaning Bokudagi elchixonasi hamda Amerika neft kompaniyalari vakillarining sa'y-harakatlari bilan Klinton ma'muriyati 907-tuzatishni bekor qilish yo'lida muhim qadam tashladi: o'tgan yil oxirida chet davlatlarga yordam ko'rsatish to'g'risidagi qonunchilik loyihasiga 907-tuzatishning bekor

qilinishini kiritdi va uni Kongress muhokamasiga taqdim etdi, shu tariqa kongressmenlarga o'z fikrini yetkazdi. Afsuski, qonun loyihasi joriy yilda muhokama etilishi imkoniyati kam;

s) Kongress a'zolari hamda Vashingtondagi boshqa siyosatchilar Ozarbayjon va Armaniston bilan ixtilof haqida borgan sari ko'proq miqdorda haqqoniy axborot olmoqda. Amerika jamoatchiligi vaziyat bilan tanishishi uchun vaqt talab etiladi. Mamlakatimiz Kongress a'zolarida katta qiziqish tug'dirmaydi: ularning xayolini ko'proq saylov okruglari va saylovchilarning muammolari band etadi. Elchixonona ishining katta qismi kongressmenlar va senatorlar e'tiborini Ozarbayjonning ehtiyojlariga va muammolariga qaratishdan iborat. Bu yo'lda turli vositalardan foydalaniladi: uchrashuvlar o'tkaziladi (shu paytgacha Kongressning 120 a'zosi bilan uchrashuvlar o'tkazdik), xatlar yuboriladi, oyiga ikki marta "Azerbaijan nyusletter" gazetasi chop etilib, tarqatiladi. "Ze Republik of Azerbaijan" nomli ixcham broshyura chop etilgan bo'lib, u amerikaliklarda bizning tariximiz, iqtisodiyotimiz va madaniyatimiz haqida tasavvur uyg'otadi. Amerikadagi Ozarbayjon jamoatchiligi faolroq pozitsiyani egallay boshladi. Kaliforniyada chop etiladigan hamda G'arb standartlariga mos keladigan "Azerbaijan Interneyshnl" jurnali amerikaliklarga, shu jumladan, kongressmenlarga mamlakatimiz haqidagi haqiqatlarni G'arb uslubida yetkazishda davom etmoqda.

Ishonch bilan aytish mumkinki, ixtilof borasida axborotning ko'payib borishi asnosida Ozarbayjon nuqtai nazariga bo'lgan hurmat ham oshib bormoqda. Isbot tariqasida Kongressda bo'lib o'tgan ayrim voqealarni esga olamiz:

– 1992–yil 22–noyabrdagi chiqishida senator de Konsi Kongressga 907-tuzatishni qayta ko'rib chiqishni tavsiya

etdi. O'tgan yil martida Ozarbayjon elchisi Xelsinki komissiyasi oldida chiqish qilganida, de Korsi tuzatishning ashaddiy tarafdori edi va o'z fikrini ochiq aytgandi. 1993–yil 5–noyabrda senator bilan uchrashuv o'tkazildi, uning e'tiboriga Ozarbayjonning ahvoli, ayniqsa gumanitar vaziyat haqida ma'lumotlar havola etildi, 907-tuzatishning salbiy oqibatlari ochiq-ravshan ko'rsatib berildi. Senator masalaga e'tibor qaratishga va'da berdi va, ko'rib turganimizdek, o'z so'ziga sodiq qoldi.

– 1994–yil fevralining boshida respublikachi senator Lugar elchixonaga tashabbusiga ko'ra Senatning tashqi ishlar bo'yicha qo'mitasida Davlat departamenti tomonidan taqdim etilgan chet davlatlarga yordam ko'rsatish qonunchiligi doirasida Ozarbayjonga gumanitar yordam ko'rsatish g'oyasini ilgari surdi.

– 1994–yil mayida Vakillar palatasida bayonot bilan chiqar ekan, kongressmen Penni 907-tuzatishga nisbatan salbiy munosabat bildirdi.

– 1994–yil mayida Kongressga alohida rezolyutsiya loyihasini taqdim etarkan, senatorlar Saymon va Reyd AQSH Prezidentini Qorabog' mojarosini hal etishda real harakatlarga o'tishga chaqirdi. Senator Saymonning oldingi pozitsiyasidan farq qiladigan ushbu loyiha Ozarbayjon manfaatlarini inobatga olishga chaqiradi.

– 1994–yil 16–iyunda senator Patrik Lexi Davlat departamenti taklifi va qo'llab-quvvatlashi bilan 1995–yili chet davlatlarga ko'rsatiladigan yordam byudjetini belgilovchi qo'mitada 907-tuzatishni gumanitar yordam qo'llamaslikni nazarda tutuvchi loyihani taqdim etdi. Tashabbusni senator de Korsi qo'llab-quvvatladi. Taklif qabul qilingan taqdirda AQSH gumanitar yordami bevosita Ozarbayjon hukumatiga ko'rsatilishi mumkin edi, ana shunda nohukumat tashkilotlar vositachiligiga ehtiyoj qolmasdi.



– Nihoyat, 1994–yil 20–iyunda kongressmen Pen-ni qonunchilik tashabbusi bilan chiqib, Kongress muho-kamasiga 907-tuzatishni bekor qilish to‘g‘risidagi qonun loyihasini kiritdi. U Kongressning boshqa a‘zolariga maxsus xat bilan murojaat etib, ularni ushbu qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.

Bu ezgu niyatlar samarasiz yakunlangani Amerika de-mokratiasining o‘ziga xosliklari bilan tushuntiriladi. Bu nuqtai nazardan respublikachi senator Fil Grammning senator Patrik Lexiga qarshi chiqishi diqqatga sazovor. Janob Gramm Amerikada neftning eng katta qismi oli-nadigan Texas shtati vakilidir, shunday ekan, u, tabiiyki, Ozarbayjonga nisbatan AQSH neft kompaniyalarining manfaatlarini himoya qilishi lozim. U hatto neft kompa-niyalari vakillari bilan uchrashuvlardan so‘ng ham o‘z fikrini o‘zgartirmadi, chunki ayni paytda shaxsiy man-faatlarni afzal biladi. Gap shundaki, janob Gramm 1996–yilgi prezident sayloviga hozirlik ko‘rmoqda. Ma‘lumki, birinchi va juda muhim saylov Kaliforniyada o‘tkaziladi. Bu shtatda muvaffaqiyatga erishgan nomzod odatda asosiy saylovda ham g‘alaba qozonadi. Arman lobbisidan cho‘chigan senator hatto Ozarbayjon hukumatiga gu-manitar yordam ko‘rsatishga ham qarshi chiqdi.

Umuman, Amerikaning bugungi siyosiy iqlimini dekabrda bo‘lib o‘tadigan saylov belgilab beradi. Butun Vakillar palatasi (435 kishi) va Senatning uchdan bir qismi (34 kishi) qaytadan saylanadi. Kongress a‘zolarining har bir qadami mana shu kelayotgan voqeani inobatga olingan holda tashlanadi. Aynan shu tufayli Kongressda Ozarbayjon foydasini ko‘zlab chiqayotganlar qaytadan saylanish niyatida emas.

Hech shubhasiz, armanilar tomonidan Ozarbayjon ha-qida tarqatilayotgan yolg‘on va ig‘vo ishimizni jiddiy chi-gallashtirmoqda. Ammo kongressmenlarning Ozarbay-

jon foydasiga gapirayotgani vaziyat imkonsiz emasligini ko'rsatmoqda.

Prezident Klinton 1993–yil 15–aprelida Ozarbayjon Respublikasi elchisiga yo'llangan maktubda yozgan edi:

“Kongressning Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritgan Ozarbayjonga davlat yordamini ko'rsatishni taqiqlovchi tuzatishi Ozarbayjon hukumatini bezovta qilayotganini bilaman. Ishontirib aytamanki, Qo'shma Shtatlar hukumati Ozarbayjon hukumati bilan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish niyatida, va biz vaziyatning o'zi yaqinda bu murakkablikni yengib o'tish imkonini beradi degan umiddamiz”.

“Vaziyat” deganda Prezident Klinton AQShda Ozarbayjon haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanishini nazarda tutganiga ishonamiz.

Bizning Amerikadagi bir yarim yillik tajribamiz bu yerdagi muvaffaqiyatimiz Ozarbayjon haqidagi bilim va tasavvur darajasiga bevosita bog'liqligini isbotlaydi. Ozarbayjon haqidagi haqiqat o'z-o'zidan kuchli, uni yetkazib berish kerak, xolos. Ozarbayjonda bo'lib, mamlakatimiz yoki xalqimiz haqida salbiy taassurot bilan qaytib kelgan birorta amerikalikni bilmayman.

Biz Amerika demokratiyasining ilk darslarini o'zlashtirdik. “Ta'lim” jarayoni oson emas, ammo bu maqsadimizga erishishning yagona yo'lidir. Amerika demokratiyasining ijobiy jihati shundaki, haqiqatni bilgan jamiyat uni himoya qiladi.

## OZARBAYJON – AMERIKA MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHDA

*“Ozarbayjon” gazetasi,  
1994-yil 27-oktabr*

1994–yil sentabrining so‘nggi haftasi Amerika – Ozarbayjon munosabatlaridagi birinchi bosqichning yakuni hamda yangi, muhimroq bosqichning boshlanishi sifatida ko‘rilishi lozim.

Birinchi bosqich yutuqlari borasida quyidagilarni qayd qilib o‘tmoqchiman:

– Ikki mamlakatda birinchi marta elchixonalar ochildi, elchilar tayinlandi, muntazam muloqot boshlandi;

– Ikki mamlakat delegatsiyalarining bir necha safarlari amalga oshirildi;

– AQSHning Ozarbayjonga yordam ko‘rsatishini taqiqlaydigan qonunning (907-tuzatish) bekor qilinishi bo‘yicha ilk qonunchilik tashabbusi ilgari surildi, bu esa AQSH Kongressida Ozarbayjonga nisbatan bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarning yorqin ifodasidir;

– Neft sohasida har ikki mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega “Asr shartnomasi” imzolandi;

– Ozarbayjon davlati rahbari birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida nutq so‘zladi;

– Mustaqil Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti ilk marotaba Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti bilan uchrashdi.

Prezident Aliyevning Prezident Klinton bilan uchrashuvi samimiy va do‘stona muhitda o‘tib, AQSH va Ozarbayjon o‘rtasidagi diplomatik va iqtisodiy munosabatlarning birinchi bosqichi xulosalarini chiqardi.

Aytish mumkinki, munosabatlarimizning boshlanishida amerikaliklarning ko‘pchiligi Ozarbayjon haqida hech

narsa eshitmagandi ham. Amerika hukumati va ommaviy axborot vositalari bizning mustaqil respublikamizga katta ahamiyat qaratmasdi. AQSH haqidagi umumiy ta-savvurlarimiz ancha keng edi, lekin biz ham Amerika davlatchiligi, uning iqtisodiyoti va bu xalqning o'ziga xosliklari haqida deyarli hech narsa bilmasdik.

Bugun ko'p narsa o'zgardi: amerikalik siyosatchilar Ozarbayjon bilan yaqindan shug'ullanmoqda, AQSH matbuoti mamlakatimizga ko'proq e'tibor qaratyapti, u mintaqada o'ynaydigan muhim strategik rolni tan olyapti. Amerika sanoati, ayniqsa energetikasi Ozarbayjon sa-lohiyatidan yaxshi xabardor. Bundan tashqari, Ozarbayjon va Amerika xalqlari o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va do'stlik kelajak uchun katta umid bo'lmoqda. Ozar-bayjonlar va amerikaliklar hamkorlik munosabatlarini o'r-natmoqda.

Amerika ma'muriyatining oliy martabali vakili tan olishicha, Amerika – Ozarbayjon munosabatlari kutilga-nidan tezroq sur'atda rivoj topmoqda.

Prezident Aliyevning AQShga tashrifining asosiy na-tijasida Amerika siyosatining Ozarbayjon uchun muhim to'rt masalada sezilarli o'zgarishini kutish mumkin:

- 1) Ozarbayjonning mustaqilligi;
- 2) urushning tugashi;
- 3) neft konlaridan birgalikda foydalanish va neft quvu-rining yotqizilishi;
- 4) Kongressning Ozarbayjonga munosabati.

Ayni paytda ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, Prezident Aliyevning AQShga tashrifi tilga olingan ma-salalarning muhokama etilish darajasini jiddiy tarzda oshirdi, ularni Amerika – Ozarbayjon hamda Amerika – Rossiya munosabatlari obyektiga aylantirib, shu yo'l bilan jahon hamjamiyatida Ozarbayjonga qiziqishni keltirib chiqardi.

Buning ahamiyatini yaxshiroq tushunish uchun ikki omil inobatga olinishi lozim:

a) birinchi kunidanoq Prezident Klinton o'z tashqi siyosatida an'anaviy – geosiyosiy muammolardan ko'ra iqtisodiyolarini ustun qo'yardi. Prezident tashqi siyosatni o'zi o'tkazayotgan iqtisodiy siyosatning davomi deb qabul qilardi. "Sovuq urush" dan keyingi davrda va jahon iqtisodiyoti rivojining bugungi bosqichida geosiyosiy harbiy strategiya o'z ahamiyatini yo'qotdi. Bugun haqiqiy raqobat kurashi harbiy sohada emas, iqtisodiy sohada ketmoqda, shu bois Klinton hozirda iqtisodiyot quroldan ko'ra qudratliroq vosita deb hisoblab, jahonda Amerika iqtisodiyotini mustahkamlash bilan shug'ullanmoqda. Boshqa mamlakatga savdo va investitsiyalar vositasida bostirib kirish ikki tomon ham yutuqda qolishini ta'minlaydi, harbiy ekspansiya esa tomonlardan biriga albatta zarar keltiradi.

Prezident Klinton Amerika iqtisodiy manfaatlarini chet elda AQShning boshqa Prezidentlariga nisbatan faolroq himoya qiladi. Buni tasdiqlovchi bir necha misollar keltirish o'rinli bo'ladi. "Boing" kompaniyasi Saudiya Arabistoni bilan imzolagan ko'p milliardlik shartnomaning amalga oshirilishi uchun shaxsan Prezident Klinton ko'p hissa qo'shdi. U Shimoliy Amerika davlatlari o'rtasidagi savdo shartnomasi (NAFTA) g'oyasini qo'llab-quvvatladi va loyihani qonunga aylantirib, AQSH Kongressidan o'tkazdi. Yaponiya bilan savdo masalalari muhokamasi chog'ida Klinton eng yuqori darajada Amerika manfaatlarini himoya qildi.

Prezident Klinton tashqi siyosatidagi iqtisodiy motivlarlarning ahamiyati muhimligini uning Prezident Aliyev bilan uchrashuvi faqat neft shartnomalari imzolanganidan so'ng bo'lib o'tganida ko'rish mumkin.

b) neft shartnomalari imzolanganiga qadar Amerika Ozarbayjonda milliy manfaatlarga ega emas edi.

AQShning demokratiya va bozor iqtisodiyoti ideallari boshqa mamlakatlarda ham qo'llana boshlashiga bo'lgan intilishi qanchalar buyuk bo'lmasin, u, albatta, Amerika hukumatining neft shartnomalariga bo'lgan qiziqishiga tenglasha olmaydi. Bugun Qo'shma Shtatlar tomonidan mamlakatimizda katta daromad ko'rilishi muhim omilga aylandi. Hozirgi paytda Ozarbayjon Respublikasi amerikalik siyosatchilar uchun kichik va uzoq davlat emas, balki iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega mustaqil davlatdir.

Ozarbayjon bilan bog'liq masalalar va ulardagi ikki omilga qaytamiz:

**1. Ozarbayjonning mustaqilligi.** Oldinroq aytilgani-dek, boshida Ozarbayjonning siyosiy mustaqilligi va suvereniteti AQShda jiddiy qiziqish uyg'otmasdi. Bugun vaziyat o'zgardi. Lekin bu o'zgarishlarning darajasi hozircha aniqlanmadi. Ozarbayjon Prezidentlar darajasida muhokama qilindi (Aliyev – Klinton va Klinton – Yelsin uchrashuvlari). Vashington mustaqilligimizga befarq emas, qo'shnilarimiz ham buni inobatga olishi kerak. Mustaqilligimizga zarar keltiruvchi hodisalar Amerika va xalqaro hamjamiyat e'tiboridan chetda qolmaydi. Amerika matbuoti yozganiday, ayni paytda Ozarbayjonning mustaqilligi sinovdan o'tmoqda, bu haqdagi masala boshqa Sobiq Sovet respublikalari uchun ham muhim.

**2. Urushning tugashi.** Ma'lumki, arman lobbisi faoliyati natijasida Armaniston AQSH diqqatini o'ziga qaratishda katta ustunlikka ega bo'ldi. Ma'lum muvozanatni faqat iqtisodiy manfaatlar yordamida tiklash mumkin, chunki Amerikadagi Ozarbayjon diasporasi kuchsiz. Buni neft kompaniyalari qilishi kerak.

Sentabrda Prezident Aliyev ixtilofni bartaraf etish yo'llarini eng oliy darajada muhokama qildi. Haydar Aliyevning Bill Klinton bilan uchrashuvining ertasiga AQSH Prezidenti va vitse-prezidenti Tog'li Qorabog' mojarosini hal etish

masalasida Yelsin va Koziryov bilan muzokaralar o'tkazdi. Bizdagi ma'lumotga ko'ra, bu uchrashuv dasturda nazarda tutilganidan biroz ko'proq vaqt olgan. AQSH va Rossiya Prezidentlari uchrashuvi umumiy vaqtining 30 daqiqasi Tog'li Qoraboqqa bag'ishlanganini aytish kifoya.

Prezident Aliyevning AQSH Davlat kotibi Kristofer bilan Istanbulda, elchi Olbrayt bilan Bokuda hamda vitse-prezident Gor bilan Qohira o'tkazgan uchrashuvlarida Qorabog' mojarosini hal etish ishida Amerika sa'y-harakatlari zarur ekanligi o'tkir sezildi. Buning ko'rsatkichi o'laroq elchi Olbraytning Nyu-Yorkda Ozarbayjon va Armaniston Prezidentlari uchrashuvini tashkil etishdagi alohida xizmatlarini e'tirof etish joiz. (Fikrimcha, Amerika tomoni bu uchrashuvga ko'proq ahamiyat berib, nafaqat Rossiya tashabbusiga ko'ra, balki Amerika vositachiligida ham u tashkil etilishi mumkinligini namoyish etmoqchi bo'ldi).

Matbuotda Klinton va Yelsin uchrashuvida AQSH pozitsiyasi bildirilgani ta'kidlangan edi. Amerika tomoni ixtilofni bartaraf etishning asosiy shartlari sifatida xalqaro vositachilar va xalqaro tinchlikparvar kuchlarining tuzilishini ko'radi, bunda buyuk hokimiyatlar o'rtasida "ta'sir doiralari" bo'lib olinishi borasidagi vajlarni qabul qilmaydi.

**3. Neft konlarining birgalikda ishlatilishi va neft qururi yo'nalishi.** Hozirda bu ham Ozarbayjon, ham AQSH uchun juda muhim masaladir. Amerika tomonining jiddiy munosabatini Prezident Klinton va vitse-prezident Gor Prezident Yelsin bilan imzolangan neft shartnomasi yuzasidan alohida suhbatlashgani ham ko'rsatadi. Ular Rossiya loyiha amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmasligi lozimligidan ogohlantirdi. (Bu haqda "Los-Anjeles tayms" gazetasi ham yozgandi).

Kaspiyning maqomi va neft shartnomalari bo'yicha kelajakda bahs bo'lgan taqdirda ham, bugun ular Amerika manfaatlariga tegib ketadi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Neft quvuri masalasi ma'lum ma'noda neft shartnomalari imzolanishidan murakkabroqdir va, aytish mumkinki, Ozarbayjon bilan qo'shnilarni ko'proq tashvishga soladi, hatto Turkiya va Rossiya o'rtasidagi taranglik yuzaga keltiradi. Ayni paytda muammoni Eron, Amerika, Armaniston, Gruzuya jiddiy kuzatmoqda, Markaziy Osiyo respublikalari, Bolgariya va Gretsiya ham qiziqish bildirmoqda.

Albatta, loyihaga AQSH qiziqayotgani va uning ishtiroki boshqa kuchlar tomonidan yaratilayotgan to'siqlarni bar-taraf etishga, mintaqada barqarorlik o'rnatishda yordam berishi mumkin.

**4. Kongressning Ozarbayjonga munosabati.** Shubhasiz, AQSH Kongressi tomonidan Ozarbayjonga nisbatan qo'llanilayotgan sanksiyalar davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarga soya soladi. Ammo, ta'kidlash joizki, Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatish Amerika xal-qining Ozarbayjonga qarshi adovati sifatida emas, Ame-rika parlamentar demokratiyasidagi kamchilik, nuqson sifatida talqin etilishi lozim. Uning zaifligi shundaki (buni amerikaliklarning o'zlari ham tan oladi), alohida manfaatlarni ko'zlayotgan kichik guruh sa'y-harakatlari nati-jasida mamlakat manfaatlariga zid keluvchi qonun qabul qilinishi mumkin.

Ozarbayjon haqidagi axborot taqchilligidan foydalan-gan guruh – arman diasporasi – 1992–yil oxirida 907-tu-zatishning qabul qilinishiga erishdi. O'sha yil yozida biz Ozarbayjonga qo'yilgan cheklovlarni yumshatish masalasi muhokama etilayotgan paytda armanilar tomonida turgan senator o'z yordamchisini Ozarbayjon elchisi huzuriga yo'llaganiga guvoh bo'ldik. U Ozarbayjon tomonining argumentlari haqqoniy ekanligini tan olgan holda, shunga qaramay, senator armanilarga qarshi chiqa olmasligini, uning saylov okrugida armani millatli saylovchilar ko'p-ligini aytdi. Ammo senator ixtilofni bartaraf etish ishida



har qanday yordam ko'rsatishga tayyor. Bu so'zlar kechirim so'rashdan ko'ra ko'proq vijdonli insonning uzriga o'xshardi. Bunday e'tiroflarni Kongressda tez-tez eshitishimizga to'g'ri keladi.

Yana bir bora eslatib o'tmoqchimanki, Haydar Aliyevning AQShga tashrifi yuqorida sanalgan masalalar muhokamasini boshqa sathga, Prezidentlar darajasiga olib chiqdi. Bu esa Amerika ma'muriyatining turli darajadagi siyosatchilari orasida Ozarbayjonga bo'lgan munosabatni avtomatik tarzda va sezilarli darajada o'tkazildi.

Amerika tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri Rossiya bilan do'stona munosabatlar va ishbilarmonlik aloqalari o'rnatish bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda AQSH o'z manfaatlari tahdid ostida qolganida Rossiyani tanqid qila boshlaydi. Dalil tariqasida oxirgi paytlarda nashr etilgan ko'plab maqolalarni keltirish mumkin. Umumiy xulosa va to'xtam quyidagicha: AQSH siyosatida Rossiya bilan bir qatorda boshqa respublikalarga ham ko'proq e'tibor qaratilishi zarur. Bu fikr qay darajada hayotga tatbiq etilishini vaqt ko'rsatadi. Ammo hozircha aytish mumkinki, Prezident Aliyevning AQShga tashrifi, yuqori darajadagi Amerika – Rossiya uchrashuvi kun tartibiga Ozarbayjon muammolarining kiritilishi, neft shartnomalarining imzolanishi G'arbda Ozarbayjon Respublikasiga bo'lgan qiziqishni keskin oshirib yubordi.

Ozarbayjon tomonidan xalqaro maydonda zabt etilgan marralar ayrim tashqi va ichki kuchlarning xohish-istaklariga o'ng kelmaydi, shu bois oktyabr voqealari tashkil etilgan edi. Jahon hamjamiyatining ularga qarshi birdam munosabat bildirishi Ozarbayjon xalqining mustaqillik va suverenitet uchun kurashi katta hurmatga ega bo'lganini yana bir bor ko'rsatdi.

## MUSTAQILLIK VA IXTILOF

1995-yil

Biz yashayotgan vaqt voqealar va ixtiloflarga boy Kavkaz tarixining eng muhim bosqichidir. Yaqin uch-besh yilda ro'y beradigan tub o'zgarishlar mintaqaning uzoq o'tmishini belgilab berishi mumkin, vektorli yo'naltirilganlik esa ularning ijobiy yoki salbiy o'zanidir. O'zgarishlarning yaxshi yoki yomon tarafga yo'nalgani bu yerda istiqomat qiluvchi xalqlarning donoligiga, yetakchilarining qobiliyatlariga bog'liq.

Hech shubhasiz, Kavkaz xalqlarining yorqin kelajagi ularning hamkorligida jo bo'lgan. Bu yo'lni tanlagach, ular o'z milliy o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda iqtisodiyotini mustahkamlamog'i, haqiqiy demokratik davlatlar qurmog'i darkor. Ikkinchi jahon urushidan keyingi G'arbiy Yevropa misolida bunday hamkorlik qanday ajoyib natijalar berishini kuzatishimiz mumkin. Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya tarixan mavjud bo'lgan ziddiyatlar, ixtilof va urushlarni unutgan holda hamkorlikni boshladilar, lisoniy, madaniy va etnik tafovutlar bunga to'siq bo'lmadi, va Amerika yordamida G'arbiy Yevropa xalqlariga tinchlik va farovonlik olib keldilar. Yevropa misoli – Kavkaz xalqlari uchun bir modeldir.

### **Ikki tomonlama muzokaralar zarurati**

Sovet imperiyasi parchalanish boshlanishi arafasida quriladigan bosqichga yetib borgach, o'zini qutqarish yo'lida milliy ozodlik harakatlari oqimini boshqa o'zanga burib yubordi va ularni milliy nizolar detonatoriga aylantirdi.

“Qayta qurish” g'oyalari Armanistonda ham, Ozarbayjonda ham milliy o'zlikni uyg'otib yubordi. Asrlar mobaynida tobelikda bo'lgan xalqlar reallikni boshqacha

qabul qila boshladi: ikki respublikaning Sovet Ittifoqi tarkibidan chiqish ehtimoli buyuk edi o'shanda. Bu ro'y berganida, SSSR hamda uning merosxo'ri – Rossiyaning Kavkazdagi manfaatlariga jiddiy zarar yetkazgan bo'lardi.

Kavkaz tarixi va geografiyasi "bo'lib tashla va hukmronlik qil" shaklidagi klassik prinsipga asoslangan siyosatni ro'yobga chiqarish uchun "manfaatli" sharoit yaratib berardi. Kavkaz – Rossiya xalqlarni bir-biriga qarshi muvaffaqiyat bilan gijgijlab kelgan, Moskva orbitasidan ayrilishni istagan davlatlarni parchalanish tahdidi bilan tutib kelgan mintaqa. Ixtiloflar shunday nuqtaga olib borilardiki, urush e'lon qilgan har bir davlat yoki milliy ozchilik Rossiyaning harbiy yordami yoki siyosiy ko'magiga muhtoj bo'lardi.

Sakkiz yilcha davom etgan urushdan so'ng Ozarbayjon ham, Armaniston ham Rossiya ta'sir doirasidan chiqa olmadi va o'z mustaqilligini to'la ta'minlay olmadi. Aksincha, ikki davlat ham vayronkor urush botqog'iga botib qoldi.

SSSR inqirozidan so'ng Kavkazda ta'sir vakuumi hosil bo'ldi. Buyuk hokimiyatlar bu bo'shliqni har qanday yo'l bilan to'ldirishga intilardi. Bor-yo'g'i bir necha yil muqaddam qudratli davlatning chekka viloyati bo'lgan Kavkaz buyuk davlatlar va hokimiyatlar manfaatlari kesishadigan uzviy nuqtaga aylandi. Mahalliy xususiyatga ega arman-ozarbayjon nizosi xalqaro darajaga chiqdi. Tabiiyki, uning bartaraf etilishi faqat ixtilofda bevosita ishtirok etayotgan tomonlarga emas, buyuk hokimiyatlar o'rtasidagi kelishuvga ham bog'liq bo'lib qoldi.

Ko'pgina siyosiy sharhlovchilar YXHT Minsk guruhi doirasida ko'zga ko'rinarli natijalar yo'qligiga tayanib, Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida ikki tomonlama mulqotning uchinchi tomon ishtirokisiz yo'lga qo'yilishi ixtilofning bartaraf etilishini osonlashtirgan bo'lardi, degan xulosaga keldi.

Bu mulohaza mantig'i shundaki, ixtilofning tezda bartaraf etilishi mintaqaning nufuzli davlatlari manfaatlariga

mutlaqo javob bermaydi. Hozirgi “na urush, na tinchlik” ahvoli Rossiya manfaatlariga mos keladi, negaki ayni paytda u samarador iqtisodiy aralashuvni rejalashtirmayapti. Bunday beqaror vaziyat g‘arblik investorlarni mintaqadan uzoqroq turishga majbur etadi. Rasmiy Moskva, aftidan, Kavkazdagi ixtiloflarni ma’lum muddat muzlatilgan holatda saqlab, bu davr ichida o‘zida iqtisodiy islohotlar o‘tkazish hamda, o‘z iqtisodiy va harbiy salohiyatini to‘la tiklagach, mintaqadagi ta’sirini yangi darajaga olib chiqish niyatida. Yana bir katta qo‘shni – Eron ham o‘z-o‘zidan tushunarli bo‘lgan sabablarga ko‘ra ixtilofning tez bartaraf etilishini xohlamaydi.

Ozarbayjon milliy xavfsizlik manfaatlari ixtilofni bartaraf etishda uchinchi tomon rolini kuchsizlantirish hamda Yerevan bilan muzokaralarning bevosita kanalini yaratishni talab qiladi. Bu fikrni bir necha yo‘nalishda rivojlantirish mumkin.

Ozarbayjon yerlarining 20 foizi okkupatsiya ostidaligi, milliondan ortiq odam qochqin ahvoliga tushib qolganidan boshlasak. Harbiy nuqtai nazardan Ozarbayjon urushning bu bosqichida yutqizdi.

Tarixan davlat milliy xavfsizlik manfaatlarini himoya qilish birinchi navbatda harbiy kuchga asoslangan. Zamonaaviy dunyo qay darajada madaniylashmagan bo‘lsin, u oldingisidan kuchli farqlanmaydi. Bu yerda kuch hukmron, kuchga esa, ma’lumki, faqat kuch qarshi tura oladi. Ozarbayjon armiyasi amalda arman harbiy mashinasi hamda uni harakatga keltiruvchi tashqi kuchlarga qarshilik ko‘rsatadigan ahvolda emas edi.

Afsuski, dushman qurollanib, armiya qurayotganida Ozarbayjonnin ichki ziddiyatlar yemirayotgan edi, ular armiya uyushqoqligiga va jangovar shayligiga putur yetkazdi. Boshqa tomondan, xalqning jangovar ruhi ham zaiflashdi. Mashhur Ozarbayjon maqoli – “Sendan harakat, mendan barakat” teskari talqinga ega bo‘ldi: bugun hamma

xalqaro tashkilotlar yoki boshqa davlatlar yordamini kutib o'tiribdi. Haqiqat esa shundan iboratki, millatning boshib olingan yerlarini boshqa millat qaytarib bera olmaydi. Shunday bo'lgan taqdirda, qutqariluvchi qutqaruvchining izmiga o'tadi, tarafdori va valine'matiga tobe bo'lib qoladi.

Qorabog'ning harbiy kuch bilan qaytarib olinishi faqat Rossiya ishtirokida amalga oshishi mumkin. Bu esa beixtiyor 1920–yillar ssenariysini esga soladi: tomonlar taqdimiga binoan Rossiya bir tomonlama tartibda ixtilofda qatnashadi, rus qo'shinlari Ozarbayjonga kiradi (gruzin-abxaz nizosida bo'lgani kabi vaziyat), Qorabog' mojarosi tugaydi, Armaniston bilan tinchlik kelishuvi imzolanadi, Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi tiklanadi. Aslida esa hech narsa o'zgarmaydi, faqat rasmiyatchilik uchungina statuskvo tiklanadi. Rasmiy Moskva armanilar Qorabog'dan ketishidan manfaatdor emas. Rossiyaning ixtilofni bartaraf etish ishida bir tomonlama tartibda ishtirok etishi natijasida qurolli qarama-qarshilik to'xtatiladi, ammo boshlanma sabab – ixtilof – strategik ma'noda kelajak uchun muzlatib qo'yilishi ehtimoli qoladi. Oxir-oqibat, Ozarbayjon iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi katta talafot ko'radi va Rossiya qaramog'iga qaytadi.

Avval ta'kidlanganidek, hozirda Ozarbayjon kuchga kuch bilan javob qaytarishi ehtimoli juda kam. Ammo zamonimiz sharoitlari aqlli va puxta o'ylangan diplomatiya hatto tish-tirnog'igacha qurollangan armiyani yengishga qodirligini ko'rsatmoqda.

Ikki tomonlama muzokaralar shu paytga qadar asosan Rossiyaning nuqtai nazari bois muvaffaqiyatga o'tmadi. Ijobiy qadam 1995–yil dekabrda Minsk guruhining Bonndagi uchrashuvida tashlandi. U yerda qabul qilinib, keyinchalik Yevropa mamlakatlari tashqi ishlar vazirlari kengashida ma'qullangan hujjatda Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi muloqot xalqaro tayanchga ega bo'ldi.

## **Kavkazdagi geosiyosiy vaziyat**

Kavkaz tarixi va geografiyasiga ko'z yugurtirishning o'zi Armaniston azaldan "mintaqaviy muhofiz" rolini o'ynaganini tushunish uchun kifoya: u Rossiyaning mintaqadagi forposti sifatida syuzerenining irodasini bajarar, qo'shnilarini tanglikda tutar va ekspansiya siyosatini yuritar edi. Armanistonning xalqaro maydondagi bunday xulqi bir qator omillar bilan tushuntiriladi:

*birinchidan*, rasmiy Yerevan fikriga ko'ra, geosiyosiy nuqtai nazardan Armaniston o'ziga dushman mintaqada joylashgan, qo'shni mamlakatlar manfaatlari esa uning xavfsizlik talablariga javob bermaydi. Bu millat o'zini quvg'inga uchragan kamsitish qurboni sifatida ko'radi, o'tmish yukidan hech ham xalos bo'la olmaydi. Natijada xalq o'z tarixining fojiali sahifalarini qayta-qayta yashaydi, bu bilan nafrat va adovatni o'stirib-undiradi va, shunga muvofiq, mantiq va sog'lom aqlga tayanib o'z kelajagini qura olmaydi;

*ikkinchidan*, milliy tabiiy boyliklar kamligi, iqtisodiy salohiyatning zaifligi Armaniston mustaqilligini kafolatlay olmaydi. Boshqa tomondan, Armaniston o'zini dushmanlar qurshovida deb bilsa, qudratli harbiy mashinaga ega bo'lish uning uchun hayotiy zaruratdir. Iqtisodiy salohiyat bo'lmagan yerda esa harbiy salohiyat ham bo'lmaydi. Bu holda Armaniston o'ziga ittifoqchilar qidirishga majbur, siyosiy, diniy va geosiyosiy manfaatlarning mos kelishi esa uni Rossiyaning sadoqatli sattelitiga aylantiradi. Buning natijasida Armaniston Rossiyaning nog'orasiga o'ynaydi.

Nihoyat, yana bir xususiyat shundan iboratki, armanilar mustaqil Armanistonni, arman xalqini astoydil parvarish qiladi, bu esa ushbu mamlakatni Ozarbayjondan (va Gruziyadan) keskin ajratib turadi, negaki Ozarbayjon aynan mustaqil davlatni mustahkamlash yo'lida hududiy yaxlitligini ta'minlashga urinmoqda.

Oxirgi oylardagi voqealar Armaniston va Ozarbayjon

o'rtasidagi aloqalar kengayishda davom etayotganini ko'rsatmoqda. Gap shundaki, Ozarbayjonning kuchli iqtisodiy salohiyati hamda to'la mustaqilligi, dunyoviy jamiyat qurilishi va ayniqsa mamlakatimizning mintaqadagi G'arb ta'sir suyanchig'iga aylantirilishi Eron milliy manfaatlariga zid keladi. Uni Ozarbayjonga nisbatan dushmanona kayfiyatdagi Armaniston bilan aynan mana shu birlashtiradi. Mana shu muhim sabab tufayli Moskva, tarix davomida Kavkazdagi ta'sir uchun mintaqa davlatlari, shu jumladan, Eron bilan ham keskin kurashib kelganiga qaramay, hozir Tehron bilan yaqinlashmoqda.

Xullas kalom, bo'ysunmas Ozarbayjonga qarshi umumiy manfaatlar Moskva – Yerevan – Tehron uchburchagini hosil qiladi. Uni Ozarbayjon va G'arb o'rtasidagi to'siq, devor desa bo'ladi. Devorni tugatish uchun yetishmay turgan oxirgi g'isht Gruziyadir.

Bugun Gruziya Ozarbayjon uchun G'arbiga borish uchun eng yaqin mintaqaviy chiqish yo'lidir. Ozarbayjon esa, o'z navbatida, Gruziyaning erkinlik uchun kurashidagi bosh umidi. Ayrim gruxin davlat arboblari hozirda Gruziya tashqi siyosati Ozarbayjon suveren davlat bo'lib qolaverishiga yo'naltirilishi lozimligini ochiq tan oladi.

Parchalanish tahdid oldida turgan Gruziya Respublikasi Moskva bilan aloqalarda ehtiyot bo'lishi lozim. Uning Rossiya bosimini kuchsizlantirishga, Ozarbayjon bilan do'stona qo'shnichilik munosabatlarini yaratishga, G'arbiga yaqinlashishga qaratilgan faoliyati faqat bir kishi – Eduard Shevarnadze sa'yi-harakatlari mevasidir. Agar u ertaga ketsa yoki hokimiyatni tark etishga majbur bo'lsa, Ozarbayjonning G'arbiga chiqish yo'li bo'shligicha qoladimi? Yoki Tbilisi Tehron – Yerevan – Moskva devoriga qo'shiladimi?

### **Nima qilish kerak?**

Tarixiy rivojlanishning hozirgi bosqichida Ozarbayjon oldida hayotiy ahamiyatga ega vazifa turibdi: ikki yo'ldan

qay birini tanlash – mustaqillik yoki hududiy yaxlitlik. Armaniston bilan urushning qaytadan boshlanishi halokatli oqibatlarga olib kelishi tushunarli. Bugun Ozarbayjon ham, Armaniston ham geosiyosiy o‘yin qurbonlaridir, shuning uchun Tog‘li Qorabog‘ urushi aslida sun‘iy, o‘ylab topilgan bo‘lib, mahalliy ko‘lamdan chiqib bo‘lgan hamda muayyan kuchlar tomonidan mintaqada ta‘sir o‘rnatish uchun kurashda mahorat bilan qo‘llanmoqda.

Shu bois Ozarbayjon milliy manfaatlari Armaniston bilan dushmanona emas, do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘yishni talab qiladi. Tog‘li Qorabog‘ni kuch bilan qaytarib, u yerda yashayotgan armanilarni oxirgi odamigacha Armanistonga ko‘chirish mumkin deb o‘ylayotganlarni juda sodda insonlar deb atashdan boshqa chora yo‘q. Boshqa tomondan, Qorabog‘ mustaqilligi va uning Armanistonga qo‘shilishi rejaları haqiqatdan juda yiroqligini hamma biladi.

Taniqli siyosatshunos Pol Gobbl arman-ozarbayjon ixtilofi haqidagi mulohazalarini hamda uning bartaraf etilishi variantlari haqidagi prognozlarini AQShning turli siyosiy va ijtimoiy forumlarida bir necha marotaba aytib o‘tgan edi. Uning fikricha, ixtilof qanday bitishining uch ssenariysi bor:

1) Urush uzoq davom etadi (15–20 yil), Ozarbayjonning demografik va iqtisodiy salohiyati Armanistonni mag‘lubiyatga uchratadi;

2) Rossiya ikki mamlakatdagi ta‘sirini tiklaydi va urushga barham beradi. Bu holatda Armaniston yana yutqizadi, chunki Rossiya ko‘proq Ozarbayjonning salohiyatiga qiziqmoqda;

3) Ozarbayjon va Armaniston kelishuvga erishib, bahsli muammolarni birgalikda bartaraf etadi va mustaqilliklarini mustahkamlaydi.

Uchinchi imkoniyatni qo‘ldan chiqarmaslik uchun Ozarbayjon va Armaniston katta siyosiy iroda namoyon etmog‘i va Rossiya tomonidan tiklangan ilojsizlik halqasini



yorib o'tmog'i lozim. Bunga erishish uchun esa birgalikda harakat qilish zarur.

Dushmanni ittifoqchiga aylantirish tashabbusi Ozarbayjondan chiqishi kerak. Buning uchun Armanistonning Rossiyaga bog'liqligini kuchsizlantirish, unga Rossiya olg'a suradiganidan ko'ra foydaliroq takliflar berish talab etiladi.

Birinchidan, Turkiya bilan sa'y-harakatlarni birlashtirib, rasmiy Yerevanni hozirgi zamonda Armaniston dushmanlar qurshovida emasligiga, Ozarbayjon, Armaniston va Turkiya o'rtasida do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar borligiga ishonirish lozim. (Shunga yaqin fikrni Armaniston Prezidentining o'zi joriy yil oktyabrida Vashingtonda aytib o'tgandi).

Ikkinchidan, mintaqada iqtisodiy hamkorlik tarmog'ini yaratib, ushbu loyihaga Armanistonni ham jalb etish kerak.

Albatta, savol tug'iladi: nega faqat biz tomonimizda yon berilishi kerak? Axir Ozarbayjon yeri okkupatsiya qilingan, ozarbayjonliklar yashab turgan yerlaridan quvilgan. Shubhasiz, Ozarbayjon ko'proq narsa talab qilishi lozim. Ammo haqiqatda vaziyat biroz boshqacharoq. Xalqaro hamjamiyatda hali kuchlar nisbati Ozarbayjon tarafda emas. BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan Armanistonning Ozarbayjon yerlarini bosib olishi qoralangan to'rtta rezolyutsiya qabul qilinishiga qaramay, vaziyat mutlaqo o'zgarmaganini esga olish kifoya.

Ko'pincha quyidagi savol o'rtaga tashlanadi: nega Qo'shma Shtatlar u bilan aloqalarga ochiq ustuvorlik berayotgan Ozarbayjonni yetarli darajada qo'llab-quvvatlaymaydi. Bunga ikkita sabab bor. Birinchisi Rossiya omili bilan bog'liq, ya'ni AQSH uchun Ozarbayjondan ko'ra Rossiya bilan munosabatlar muhimroq. Quvdratli yadroviy arsenalga ega, Yevrosiyo materigining qariyb yarmini qamrab olgan, iqtisodiy xaos sharoitida bo'lib turgan beqaror va nodemokratik Rossiya G'arb davlatlari manfaatlari uchun bevosita muxolifdir. Shuning uchun

boshqa davlatlar Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi nizoga mana shu manfaatlar kesishadigan nuqtagacha aralashadi, undan oshiq emas. Chuqurlashish Rossiyaning g'ashiga tegish, uni provokatsiya qilish demak. Kavkazdagi vaziyat murakkabligini tushuna turib reallik talablariga javob beradigan tashqi siyosatni yuritishi uchun mintaqada Amerikaning katta manfaatlari bo'lishi lozim. Hozirda Davlat departamentida "Rossiya birinchi o'rinda" siyosati olib borilmoqda, bu siyosat Strob Telbot ismi bilan bog'liq. U yerdagilar ushbu mintaqada faqat Rossiyaning manfaatlarini inobatga olgan holdagina xalqaro qonun-qoidalarga rioya etilishini ta'minlash mumkin deb ishonadi. Boshqacha aytganda, boshqa respublikalarga yarim mustaqil maqom berish mumkinligi istisno etilmaydi. Bu siyosat kun sayin kuchayib borayotgan tanqidga uchramoqda, lekin hozircha vaziyat o'zgarmayapti.

Ikkinchi sabab Amerika demokratiyasining o'ziga xosliklaridadir. Yaxshi uyushgan arman diasporasi AQSH Kongressi a'zolarining saylov kompaniyalariga moliyaviy yordam ko'rsatib, ularni o'z ittifoqchisiga aylantirib olgan va ularning harakatlarini o'zlariga kerakli o'zanga burib yubora oladi.

### **Ijobiy siljish**

Ta'kidlash zarurki, Ozarbayjon AQShning qonunchilik va ijro tuzilmalarida hali ham qiyinchiliklarga duchor bo'lmoqda, ammo, shunga qaramay, ijobiy siljish kuza-tilmoqda. Oxirgi ikki yildagi jiddiy o'zgarishlar Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyevning izchil siyosati tufayligina amalga oshdi. Amerikada Ozarbayjon haqida haqiqatning targ'ib etilishi vaziyatni birmuncha yaxshiladi. Amerikaning ilg'or siyosatchilari mamlakatning strategik ahamiyati, uning muammoli geosiyosiy joylashuviga e'tibor qaratmoqda. AQSH Prezidentlarining milliy xavfsizlik bo'yicha masalaxatchilari Zbigneu Bzejinskiy va Brent

Skoukroft bosma OAV vositachiligida Ozarbayjonni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Ularning fikricha, Ozarbayjonning mustaqilligi mustahkamlansa, Kavkaz va O'rta Osiyoning boshqa respublikalarining mustaqilligi ham ro'yobga chiqadi.

Amerikalik siyosatchilar arman-ozarbayjon nizoning tinch yo'l bilan hal etilishi bu ikki mamlakat Prezidentlari uchun ma'lum ma'noda xavfli bo'lishini tan oladi. Ular Prezident Aliyev tinchlik yo'lida qiyin va mas'uliyatli qadamlar tashlashga qodirligiga to'liq ishonishadi. Bu ishonch o'z-o'zidan juda muhim, u tufayli Amerika o'zining vositachilik missiyasini kengaytirishi mumkin. Amerika ma'muriyati vakillarining so'zlariga qaraganda, Ozarbayjon va AQSH Prezidentlari o'rtasidagi samimiy ishbilarmon va do'stona aloqalar Oq Uy va Davlat departamentining Qorabog' mojarosi bilan shug'ullanuvchi siyosatchilarining ishini birmuncha yengillashtirgan. Prezident Klintonning Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi ixtilofning hal etilishidagi shaxsiy ishtirokini Bosniya muammosidagi bilan taqqoslab bo'lmaydi, biroq vaziyat o'zgarishi mumkin. Amerika tashqi siyosatidagi yutuqlar (Yaqin Sharqda, Bosniyada tinchlik o'rnatilishi, Shimoliy Irlandiyadagi muzokaralar) sonining Qorabog' mojarosi hisobiga ko'payishi Prezident Klinton uchun ayniqsa saylovoldi bosqichida juda muhim.

Tog'li Qorabog' mojarosining diplomatik vositalar bilan hal etilishi uchun Ozarbayjonda mintaqaviy va xalqaro hokimiyatlar ta'siri o'rtasida muvozanat yaratilishi zarur. Ozarbayjon bitta davlatni o'ziga do'st, boshqasini esa dushman deb ayta olmaydi. Bir narsa shubhasiz: Rossiya ham, Eron ham, Turkiya ham, AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari ham Ozarbayjonda o'z manfaatlariga ega. Bu manfaatlarga befarq qarab bo'lmaydi, ammo mahoratli o'yinchiga aylanib, ulardan o'z maqsadimizda foydalanishimiz mumkin. Ozarbayjonning strategik

vazifasi mavjud muvozanatda asta-sekinlik bilan G'arbning salmog'ini oshirib borishdan iborat.

Yana bir muhim omil mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish, Kavkazda diplomatik munosabatlar o'rnatish bilan bog'liq. Kavkaz davlatlari mavjud muammolarni yakka-yakka hal etishni istasa, bu ularning inqiroziga olib keladi. Mintaqaning uch davlati o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi shart. Buni esa Rossiyaga ters ravishda emas, balki uning manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish lozim. Hamkorlik omili Vashington diqqatini mintaqaga qaratishi va uning har uch mamlakatga siyosiy va iqtisodiy yordam ko'rsatishini yengillashtirishi mumkin. Bzejinskiyning ta'kidlashicha, SSSR parchalanganidan so'ng yagona oliy hokimiyatga aylangan AQSHga alohida davlatlarni qo'llab-quvvatlash qiyin bo'lib qolgan. Amerika hozir mintaqaviy vazifalarga ko'proq e'tibor beradi. Tahlilchining fikriga ko'ra, xalqaro hamjamiyat Boltiqbo'yi davlatlariga boshqalarga nisbatan ko'proq ko'mak berishini ularning birdamligi ta'minladi. Kavkaz davlatlari uchun jamg'arma yaratish g'oyasi AQSH Kongressida muhokama qilindi, shu maqsadda 15 million dollar miqdorida maxsus mablag' ajratildi. AQSH Kongressi va Amerika ma'muriyatining jiddiy dastagini olish uchun Ozarbayjonda va Kavkazda Amerikaning juda yirik manfaatlari ta'minlab berilgan bo'lishi lozim. Faqat shu yo'sinda muvozanat o'rnatilib, barqarorlikka erishilishi mumkin. Uch omil – ozarbayjon nefti, AQShdagi arman diasporasi, NATO a'zosi Turkiya ishtirokidan foydalanib, samarali natijaga erishish mumkin. Biror nufuzli amerikalik siyosatchi (masalan, Richard Xolbruk) bu uch komponentni ustalik bilan birlashtirib, uni Kongressga taqdim etsa, Kavkaz mintaqasining barcha davlatlari bunday yutadi. Albatta, Rossiya bilan bog'liq qiyinchiliklarni chetda qoldirib bo'lmaydi, shuning uchun ham Amerika ishtiroki maqsadga muvofiq.

## Neft va siyosat

Armaniston bilan urushda tinchlikka erishilganiga bir yildan oshdi. U xalqaro kuzatuvchilar va tinchlikparvar kuchlar ishtirokisiz davom etayotganining o'ziyoq hayratlanarli. Oxirgi ikki yilda Rossiya va Eron o'rtasidagi munosabatlar yaxshilandi, mintaqada ma'lum muvozanat o'rnatildi. Ozarbayjon iqtisodiyoti chet el investitsiyalari uchun ochiq, G'arb davlatlari respublika iqtisodiy salohiyati rivojlanishiga jalb etilgan. Tashqi bosim va ko'p martalik to'ntarish harakatlariga qaramay, G'arb neft kompaniyalari bilan Kaspiyning Ozarbayjon sektoridagi neft konlari ekspluatatsiyasi bo'yicha ko'p milliardlik shartnomalar imzolandi. Kelishuvlar imzolanganidan bir yil o'tib ilk neft eksporti yo'nalishi haqida qaror qabul qilindi. Shu vaqt ichida Rossiya va Eron jazavaga tushib, Kaspiyning yuridik maqomi borasidagi yaqqol uydirma muammoni o'rtaga tashlaganini, bu bilan "Asr shartnomasi" ro'yobga chiqarilishiga to'sqinlik qilishga uringanini ko'zdan qochirib bo'lmaydi. Lekin shartnoma realizatsiyasini to'xtata olishmadi.

Siyosiy sharhlovchilar energetik salohiyatiga ko'ra Fors ko'rfazining raqibi hisoblanuvchi Kaspiy havzasi bilan bog'liq vaziyatni diqqat bilan kuzatib bormoqda. Energetik xavfsizlikning ta'minlanishi – G'arb uchun o'ta nozik muammo. Bu ma'noda, aytaylik, Saudiya Arabistoni qirolining xastaligi mintaqada barqarorlikning buzilishi tahdidiga sabab bo'lgani uchun matbuotda turli fikrlar va prognozlar keltirib chiqargani ibratli bo'ldi. Bu holat neftning muntazam yetkazilishiga xalaqit berib, G'arbda, birinchi navbatda Qo'shma Shtatlarda beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Saudiya Arabistonining o'zi yetkazib beradigan neft AQSH neft importining 16 foizini tashkil etishini qayd etib o'tish joiz.

Bunday ssenariy G'arbnig Kaspiy havzasiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirdi. Hozirda neft transportirovkasining

ehtimoliy yo'llari diqqat markazida turibdi. Ozarbayjon – Armaniston – Turkiya (Naxchivon orqali) yo'nalishi taklif etilayotgan variantlar orasida eng maqbuli ekanligiga hech kim shubhalanmayapti, lekin uning amalga oshirilishi tinchlik o'rnatilishiga bog'liq. "Tinchlik neft quvuri" g'oyasi keng muhokama etilib, sof iqtisodiy vazifani siyosiy lashtirdi. Bunda bir potensial tahdid yashiringan: davlat darajasida ushbu tashabbusning olg'a surilishi zinhor Ozarbayjon foydasiga emas, negaki bu holda Ozarbayjon hukumatining o'zi iqtisodiy loyihasi siyosiy vazifaga aylantirib qo'yadi. Bunday pozitsiya esa Rossiya siyosiy bosimini yanada kuchaytirishga, deylik, "siyosiy savdo" o'laroq mamlakatimizda Rossiya qo'shinlarini joylashtirishga rozilik so'rashiga yo'l ochib berishi mumkin.

Neft konsorsiumi Ozarbayjon manfaatlarini himoya qilishda yanada faol bo'lishi lozim. Neft kompaniyalari o'z davlatlariga Armaniston orqali o'tadigan yo'l iqtisodiy tarafdin eng optimal ekanligini isbotlab, ularni nizoni hal qilishga jalb etishi zarur.

Bunday ssenariy Vashingtonga rasmiy Moskvaga "tinchlik neft quvuri" g'oyasini siyosiy emas, iqtisodiy o'ramda taqdim etish imkoniyatini beradi. O'rtaqa Ozarbayjon mustaqilligi, uning milliy xavfsiligi tikilgan. Ammo, bildikki, yanada kuchliroq manfaatlar bizga qarshi turibdi. Mohir yetakchi va qat'iyatli, dadil, sabotli xalq birdamligi yordamidagina g'alaba qozonishimiz mumkin. Amerikaliklar bunday birdamlikni "bir bayroq ostida birlashish" deb ataydi.

**JON XOPKINS UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
POL NITSSHE NOMLI XALQARO  
TADQIQOTLAR OLIY MAKTABI MARKAZIY  
OSIYO INSTITUTIDAGI NUTQ**

*Washington,  
1996-yil 23-oktabr*

Birinchi navbatda Jon Xopkins universitetini va har biringizni Pol Nisshe nomidagi xalqaro tadqiqotlar maktabi qoshida yangi O'rta Osiyo institutining ochilgani munosabati bilan tabriklashga ijozat bergaysizlar. Qayd etib o'tmoqchimanki, Qo'shma Shtatlardagi xususiy universitetlar, ta'lim markazlari bilan bog'liq tashqi siyosat markazlari soni, shuningdek, bu yerda tayyorlanayotgan mutaxassislarning har tomonlama va chuqur bilimlari meni hayratga soladi. Xalqaro jamoatchilik e'tibori va qo'llab-quvvatlashi Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari mustaqilligi uchun juda muhim. Sizning institutga o'xshash markazlar bu mamlakatlar haqidagi nuqtai nazarni shakllantiradi va ularning muammolariga e'tibor qaratadi. Shu boisdan ikki kun muqaddam bo'lib o'tgan ochilish marosimidan so'ng birinchi ma'ruzachi bo'lish men uchun katta sharaftir.

Institutda chiqish qilayotgan birinchi notiq aynan Ozarbayjondan ekani bejizga emas. Zero Ozarbayjon O'rta Osiyo eshigidir, u XXI asr bo'sag'asida yangi iqtisodiy va siyosiy "Ipak yo'li"ni ochib bermoqda. O'rta Osiyo mamlakatlaridan tovarlarni Ozarbayjon va Gruziya orqali Qora dengizdan olib o'tish bo'yicha yaqinda imzolangan xalqaro kelishuv bu yo'l ochilgani darakchisidir.

Ozarbayjon bor-yo'g'i 7,5 million aholiga ega nisbatan kichkina davlatdir. Bizning shusiz ham uncha kuchli bo'lmagan iqtisodiyotimiz urush oqibatida zaiflashib qoldi.

Bizda okeanga to'g'ridan to'g'ri chiqish yo'li, katta armiya yo'q. Biz eng yangi tarixda faqat yetti yillik mustaqillik tajribasiga egamiz, shularning oxirgi besh yili Sovet Ittifoqi qulashidan keyingi davrga to'g'ri keladi. G'arb dunyosida katta ozarbayjon diasporasi yo'q.

Bularning bariga qaramasdan, o'z geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va geosiyosiy ahamiyati tufayli Ozarbayjon keyingi ikki o'n yillikda jahon siyosiy hamjamiyati va diplomatiyasi diqqat markazida bo'ladi. Fikrimcha, Ozarbayjonda bo'layotgan voqealar nafaqat mintaqaga, balki butun dunyoga, shu jumladan, AQShga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bunday jiddiy bayonotlarni nega beryapman? Ozarbayjonga bu o'ziga xoslikni nima bag'ishlaydi? Bu savolga javob topish uchun respublikada ro'y berayotgan voqealarni ko'zdan kechirish, rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda geosiyosiy vaziyatni tadqiq etish lozim.

### **Jahon xaritasidagi yangi mamlakatlar**

Insoniyat tarixining muhim qismi yangi yerlar kashf etilishi, u yerda hukmronlik qilishni istagan saltanatlar o'rtasidagi urushlar va ixtiloflar bilan bog'liq. Amerika taxminan to'rt yuz yil muqaddam kashf etildi; oradan yuz yil o'tib, bu yerga ilk doimiy istiqomatchilar yetib keldi. So'ng Britaniya, Fransiya va Ispaniya butun Amerika yoki hech bo'lmaganda uning bir qismini nazorat qilish uchun urushlar olib bordi. Yangi Dunyo aholisi sekin, izchil, ammo ishonch bilan imperial hokimiyatdan ozod bo'lish qaroriga keldi, va nisbatan qisqa tarixiy muhlatda – ikki yuz yilda Amerika jahondagi eng qudratli davlatga aylandi.

Albatta, hozir sayyoramizda tadqiq etilmagan burchaklar qolmadi. Ammo imperial hokimiyatdan qutulgan yangi mintaqalar va yangi respublikalar paydo bo'ldi. Ularning eng ahamiyatlilari – Sharqiy Yevropa mamlakatlari hamda



sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari. Menimcha, Sharqiy Yevropa xalqlarining G'arb bilan do'stlik va ishonchga asoslangan siyosiy va iqtisodiy ittifoqchilik munosabatlari allaqachon reallikka aylanib bo'ldi. Navbatdagi katta va, umid qilamanki, tinch o'tadigan geosiyosiy kurash Kavkaz va O'rta Osiyoda bo'lib o'tadi, va Ozarbayjon bu voqealarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### **Ozarbayjon tom ma'nodagi mustaqillik yo'lida**

Oldinroq qayd etilganidek, XX asrda Ozarbayjon mustaqilligi faqat yetti yil hukm surgan. Dastlabki ikki yil Birinchi jahon urushi davriga to'g'ri keladi. Uzoq davom etmagan erk tez orada sovet hokimiyatining 70 yiliga joy bo'shatib berdi. Lekin xalqning ozodlik va mustaqillik haqidagi milliy orzusi o'lmagan edi. Ozarbayjon xalqining eng yangi tarixdagi erk kurashining burilish nuqtasi – 1990–yil 20–yanvar sovet qo'shinlarining Bokuga hujumi va yuzlab odamlarning o'ldirilishi bilan bog'liq. G'arbda ko'plar bu voqealardan bexabar bo'lsa ham, ularning Ozarbayjonga ta'sirini 1956–yili Vengriyaga yoki 1968–yili Chexoslovakiyaga qo'shinlarning olib kirilishining ta'siriga qiyoslasa bo'ladi.

Mustaqilligimizning qolgan besh yili SSSR parchalanganidan keyingi yillar bo'lib, ular ham qiyinchiliklarsiz o'tmadi. Yangi Ozarbayjon Respublikasida o'z gegemoniyasini harbiy yo'l bilan bo'lmasa, iqtisodiy va mafkuraviy vositalar yordamida o'rnatishni istovchilar yetib ortardi. Lekin haqiqat shundaki, Boltiqbo'yi davlatlaridan tashqari bugun Ozarbayjon hududida chet davlatlari qo'shinlari yo'q yagona sobiq sovet respublikasidir. Biz o'z pul birligimizni muomalaga kiritdik, qurolli kuchlarni shakllantirdik. Biz tabiiy boyliklarimizni o'z galar tasarruf etishiga qat'iy qarshi chiqdik. Rossiya bilan munosabatlarimiz yaxshi, Qo'shma Shtatlar, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Eron,

Turkiya, Isroil bilan yaqin munosabatlardamiz. Aytish mumkinki, barcha nufuzli xalqaro tashkilotlarga qo'shildik.

### **Demokratik institutlar**

Qisqa muddatda – besh yil ichida biz ikki marta prezident saylovini va bir marta parlament saylovini o'tkazdik. Tanqidchilarimiz ba'zan Ozarbayjondagi demokratiya G'arbdagiga mos kelmaydi deyishadi. Eslatib qo'yishga ijozat bergaysizlar, hali 1913–yilgacha Amerika senatorlarning bevosita saylanishiga erisha olmagandi, 1920–yilgacha ayollar ovoz berish huquqiga ega emasdi. Amerika Konstitutsiyasi mustaqillikning o'nbir yilidanso'ng qabul qilingan edi, vaholanki Ozarbayjon Konstitutsiyasi mustaqillikning to'rtinchi yilida tasdiqlandi. Asosiy Qonunimiz har bir insonga uning diniy mansubiyatidan qat'iy nazar vijdon erkinligini kafolatlaydi. Biz individual va intellektual mulk huquqini mustahkamlash maqsadida qonunlar tizimini takomillashtirdik. Mamlakatda turli siyosiy partiyalar, matbuot erkinligi mavjud, bu sohadagi progress yaqqol ko'zga tashlanadi. Albatta, biz to'la takomilga yetishmadik; o'zgarishlar bir tunda amalga oshib qolmaydi, bunday bo'lishi ham kerak emas, ammo biz to'g'ri yo'nalishda harakatlanishda davom etmoqdamiz.

### **Iqtisodiy islohotlar**

Mustaqilligimizni mustahkamlash va demokratiyani rivojlantirishda hozirda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'ra muhimroq hech narsa yo'q. Biz yangi pul birligini chiqardik, oxirgi yilda giperinflatsiyani oyiga 0,4 foizgacha tushirdik, yerni xususiylashtirish haqida ilg'or qonun qabul qildik, u xususiy mulkni sotish imkoniyatini taqdim etadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining har yillik yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etib, Ozarbayjon to'g'ri yo'lda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Tarix demokratiyani oʻrnatish va rivojlantirishda oʻrta tabaqaning oʻrni buyukligini oʻrgatadi. Har bir fuqaroning shaxsiy erkinlikda va qurilgan tizimning iqtisodiy kafolatlarida shaxsiy manfaat boʻlishi lozim. Ozarbayjon tabiiy resurslar, ayniqsa energoresurslarga boy. Ayrim ekspertlarning hisob-kitoblariga qaraganda, Ozarbayjondagi neft va gaz zaxiralari Kuvayt neft va gaz zaxiralari tengdir. Biz “Amoko”, “Eksson”, “Penzoyl”, “Yunokal” va “British petroleum” singari Gʻarb neft kompaniyalari konsorsiumi bilan 8 milliard dollarlik shartnoma imzoladik. Gʻarbning boshqa neft kompaniyalari, shuningdek, Rossiya, Turkiya va Eron neft kompaniyalari bilan ham shartnomalar imzolandi.

Infrastrukturani, shu jumladan, aloqa, transport hamda zamonaviy demokratiya uchun zarur boshqa sohalarni yaxshilash uchun koʻpgina xalqaro firmalar bilan muzokaralar olib bormoqdamiz. Bu yoʻnalishdagi rivojlanish biz xohlagandan koʻra biroz sekin bormoqda, lekin biz bu ishlarni bajarish, toʻgʻri bajarishda qatʼiyatlimiz. Gʻarb mamlakatlarida markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga oʻtish davriga xos qiyinchiliklar haqida tasavvur yoʻq. Ish va pension taʼminotni kafolatlaydigan tizimdan bozor qonunlari va shaxsiy tashabbus qadrlanadigan tizimga oʻtish juda murakkab va har bir inson uchun mavhumlik hosil qiladi. Islohotlarimiz AQSH uchun odatiy boʻlgan sotsial taʼminot tarmogʻisiz kechmoqda. Shunga qaramay, biz erkin bozor tizimiga eltuvchi yoʻldan bormoqdamiz, va undan chetga chiqmoqchi emasmiz.

### **Qoʻshnilar bilan munosabatlar**

Ozarbayjon – kichkina davlat, uning ahamiyati asosan geografik joylashuvi bilan bogʻliq. U shimolda Rossiya, janubda Eron, sharqda Kaspiy dengizi orqali Oʻrta

Osiyo respublikalari, g'arbda Turkiya, Armaniston va Gruziya bilan chegaradosh. O'z tariximizning katta qismini qo'shnilarimizning imperial hokimiyati ostida o'tkazdik. Bu o'tmishda qoldi deb umid qilaman. Shu bilan bir qatorda, qo'shnilarimiz bugungi Ozarbayjondagi voqealarga chuqur qiziqish bildirmoqda.

Biz bilan qo'shni mamlakatlarning manfaatlari haqida gapirib o'tmoqchi edim.

Rossiya Federatsiyasi o'z janubiy chegaralari xavfsizligi, islom fundamentalizmining tarqalishi hamda Turkiyaning yangi musulmon davlatlari bilan ittifoq tuzishidan xavotirda. Ayni paytda Rossiyaning Kaspiy dengizi energoresurslari bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlar va da'volar bor. Rasmiy Moskva yangi energetik quvur RF hududidan o'tishini istashini aytib o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak.

Eron ham Ozarbayjonda bo'layotgan voqealardan kuchli tashvishda. Shimoliy Eronda o'ttiz millionga yaqin ozarbayjon istiqomat qiladi, ularning ko'pchiligi Ozarbayjonda qarindoshlarga ega. Eron mamlakatimiz bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini saqlab qolib, do'stlikda yashamoqchi. Lekin Eron Islom Respublikasidagi ayrim kuchlar, aftidan, Ozarbayjonga islom fundamentalizmini import qilishga qarshi emas. Eron, Rossiya va Turkiya kabi, neft va gaz keltiradigan iqtisodiy dividendlardan manfaatdor.

Turkiya Ozarbayjonga va O'rta Osiyoning yangi respublikalariga ma'lum ma'noda tabiiy ittifoqchi sifatida qaraydi. Do'stona Ozarbayjon Respublikasi uning sharqiy chegaralardagi xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlari darajasini tushiradi. Ayni paytda Turkiya o'z hududi orqali O'rta Yer dengiziga neft quvurini o'tkazishdan manfaatdor. Bu qiziqish ham iqtisodiy tarafga ega, ham Bosfor ko'rfazi orqali biroz bo'lsa-da, ko'proq tankerlar o'ta boshlagan taqdirda atrof muhit ifloslanishining oldini olish maqsadini ko'zlaydi.

Armaniston Ozarbayjonga nisbatan hududiy da'volarga ega, bu Tog'li Qorabog' va yondosh tumanlarning okkupatsiyasiga olib keldi. Oxirgi vaqtlarda Armanistonning ba'zi siyosatchilari iqtisodiy va energetik xavfsizlik mulohazalaridan kelib chiqqan holda o'z hududidan quvur o'tishiga qiziqish namoyon eta boshladi.

Gruziyaning manfaatlari asosan iqtisodiyotga aloqador. Shu bilan birga u neft quvurining egalaridan biriga aylanishga, Ozarbayjon bilan bog'liq savdo va investitsiyaviy salohiyatini oshirishga yo'q demaydi.

Shunday qilib, har biri Ozarbayjonda bo'layotgan jarayonlarni sinchiklab kuzatayotgan uchta katta ikkita kichik davlat borligini qayd etish mumkin. Tabiiyki, bu manfaatlarning ba'zilar bir-biriga zid keladi yoki kelajakda to'qnashishi mumkin. Lekin, mening fikrimcha, asosiysi ular Ozarbayjon mustaqilligiga hamda uning iqtisodiy taraqqiyotiga tahdid solmasligidir.

AQSH Prezidentining ishi qiyinligi haqida o'ylaganlar Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti turgan vaziyat qay darajada og'irligini tasavvur qilib ko'rish mumkin. Prezident Aliyev turlicha manfaatlarga ega qo'shnilar bilan do'stona munosabatlarni saqlab qolishi, urush va kommunistik tuzum inqirozi oqibatida iqtisodiyoti achinarli ahvolga kelib qolgan mamlakatni boshqarishi kerak. Bunga qo'shimcha ravishda, mamlakatimizning har yettinchi fuqarosi – qochqin. Bu – Armaniston bilan urush oqibati...

### **Amerika – Ozarbayjon munosabatlari**

Qo'shma Shtatlar bilan munosabatlarimiz haqida gap ketganda, tabiiy savol tug'iladi: nega Amerika o'zidan ming kilometr narida joylashgan, AQShda sezilarli diasporaga ega bo'lmagan va bor-yo'g'i besh yil oldin hali jahon siyosiy xaritasida mavjud bo'lmagan davlatga qiziqishi kerak?

Siz javobni bilasiz deb o'ylayman. Birinchi galda Amerika demokratiya sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida chuqur ildiz otishini istaydi. Bu borada Ozarbayjonda ro'y berayotgan jarayonlar O'rta Osiyoning hamma respublikalariga ham ta'sir o'tkaza olishi muhim. Jahonning eng qudratli hokimiyati bo'lmish AQSH agarda Kavkaz o'z vaqtida Bolqon mintaqasida bo'lgani kabi e'tibor doirasidan tashqarida qolsa, yuz foizlik ehtimol bilan taxmin qilish mumkinki, voqealar Bosniya fojiasiga o'xshash ssenariy bo'yicha rivojlanishini biladi. Jahondagi eng kuchli iqtisodiyotga sohib Amerika energiya tashuvchilar yetkazuvchilar qay darajada muhimligini teran anglaydi. Nihoyat, AQSH Turkiya, Eron va Rossiyadagi jarayonlarni kuzatadi.

Shu sabablarga ko'ra AQSH va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar oxirgi uch yil ichida yangi sifat darajasiga chiqdi. Prezident Aliyev Prezident Klinton bilan ikkita, vitse-prezident Gor bilan bitta uchrashuv o'tkazdi. Davlat departamenti va Milliy xavfsizlik kengashidagi uchrashuvlar muntazamlik kasb etdi. Umuman olganda, biz ma'muriyat bilan munosabatlarimiz kengayganidan juda mamnunmiz.

Yagona e'tiroz shundan iboratki, biz Tog'li Qorabog' mojarosining bartaraf etilishida ma'muriyatning yanada faol va yetakchi rolini ko'rishni istagan, olib borilayotgan siyosatda ko'proq izchillik tilagan bo'lardik.

Ozarbayjonning Kongress bilan munosabatlari hali ham risoladagidek emas, shunga qaramay, uning alohida a'zolari bilan uchrashuvlarim hamisha hamfikrlilik ruhida kechgan.

Biroq, shu bilan bir paytda Kongress a'zolarining ko'pchiligi AQShdagi arman lobbisi ilgari surayotgan talablarga qarshi chiqa olmaydi. Bir necha kongressmen shaxsiy suhbatlarda bu Amerika manfaatlariga zid kelgan taqdirda

ham lobbi harakatlariga ochiq qarshi chiqqan olmasligini tan olgan edi.

Yaqindagina Kongress tashqi aloqalar qo'mitasining nufuzli xodimlaridan iborat delegatsiya mintaqada bo'ldi. O'z hisobotida ular norasmiy suhbatda arman hukumati oliy martabali amaldorlaridan biri AQSH Kongressiga amerikalik armanilar lobbi tomonidan olib kiritilgan aksilturk va aksilozarbayjon nuqtai nazar Armanistonning Tog'li Qorabog' mojarosini hal etish yoxud Turkiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlariga zinhor yordam bermasligini tan olganini ta'kidlaydi. Aytilishicha, amaldor "Gumanitar koridor haqidagi akt" hamda Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatish befoydaligini qayd etgan.

Erkinlikni himoya qilish akti sobiq Sovet Ittifoqi o'rnida tashkil topgan davlatlarda demokratiyani qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi g'oya edi. Ammo Ozarbayjon uchun u "Erkinlikni xo'rlash akti"ga aylandi. Ozarbayjon hukumati hal qiluvchi pallada erkin bozor munosabatlari va demokratiyani rivojlantirish bo'yicha islohotlarni o'tkazish uchun AQSH hukumatidan bir sent ham olmadi. Amalda 907-tuzatish AQShning Ozarbayjonga parlament va prezident saylovlarini o'tkazishda yordam berishini taqiqladi. Vaziyatning ziddiyatligi shundaki, Amerika hukumati siyosiy muxolifatni qo'llab-quvvatlashi mumkin, lekin mamlakatimizning rasmiy rahbariyatiga ko'mak bera olmaydi. Bu qonun – Ozarbayjon va AQSH munosabatlarining rivojlanishi yo'lidagi eng katta to'siq. Bush va Klinton ma'muriyatlari 907-tuzatishga jiddiy qarshilik ko'rsatishdi. Kongress qo'mitasi hisobotida ta'kidlanganidek, hatto Armaniston hukumatida ham unga e'tiroz bildiruvchilar topiladi. Ammo arman etnik guruhi lobbi Armaniston hukumatiga nisbatan qattiqroq pozitsiyani egallab turibdi va hech qanday murosaga bormoqchi emas.

Joriy yilda biz 907-tuzatishning yanada kengaytirilishining oldini olishga erishdik. Lobbichilar Ozarbayjon suverenitetini shubha ostiga olish va mamlakatimizni nohukumat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan gumanitar yordamdan mahrum etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirdi. Aftidan, ular uyat, axloq hislari haqida hatto tasavvurga ega emas. Arman qurolli kuchlari Ozarbayjonning 20 foiz hududini okkupatsiya qildi, etnik tozalashlar o'tkazdi, natijada bir milliondan ko'proq odam qochqin va majburiy ko'chgan shaxslarga aylandi. Shunga qaramay, arman lobbichilari o'zlari xizmat qilayotgan mamlakat olib borayotgan siyosat tufayli chorasiz ahvolda qolgan odamlarni insonparvarlik yordamisiz qoldirmoqchi. "Vashington post" gazetasining 1996-yil 1-avgust soni old sahifasida shunday deyilgan: "Qo'shma Shtatlar mag'lubni jazolab, okkupantni, urushning yaqqol g'olibini ovuntirmoqda". Menimcha, arman lobbichilarining xatti-harakatlari aksilamerika xarakteriga ega, bu AQSH milliy manfaatlariga ochiq-oydin ters keladi, har bir ma'lumotli odam buni tushunadi.

Kongressning bu harakatlari AQSH hukumatining rasmiy nuqtai nazarini aks ettirmasligiga tamoman qo'shilaman, ammo oddiy ozarbayjon buni tushuna olmaydi. Ular, oddiy odamlar tarixdan biladiki, AQSH har doim jahonning olis nuqtalarida do'stlar orttirish uchun katta mablag' sarflagan. Shuning uchun Ozarbayjon AQSH bilan munosabatlarini yaxshilash yo'lida bunday mehnat qilayotganida nega Kongress bosqinchini mukofotlaydi, bu bilan ozarbayjonlarning milliy nafsoniyatiga tegadi degan savol tug'iladi. Ma'muriyat 907-tuzatishga qarshi chiqayotganiga qaramay, u hali ham AQSH qonuni o'laroq kuchda.



## **Tog'li Qorabog' mojarosi**

907-tuzatish – Tog'li Qorabog' mojarosi oqibati. Urush Armaniston tomonidan o'z hududini kengaytirish maqsadida uyushtirilgan edi, ammo bunda mintaqada turli vektorli manfaatlarni ko'zlagan kuchlar undan foydalangan edi.

Kavkaz mintaqasi uzoq vaqt "bo'lib tashla va hukmronlik qil" prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy mafkura izmida tutib kelindi. Mintaqada bu ixtilofdan o'zi iqtisodiy maqsadlariga erishish yoki Ozarbayjondagi strategik pozitsiyalarini himoya qilish uchun foydalanish istagida bo'lganlar ko'p. Bu qandaydir hukumatning siyosati deb o'ylamayman, lekin shubha yo'qki, mintaqada global kuchlar harakatga keltirilgan.

Ozarbayjon tashqi ishlar vazirligi yaqinda bayonot berganidek, Rossiya va Armanistonning qo'shma harbiy mashg'ulotlari hamda ularda kuzatuvchi sifatida Tog'li Qorabog' ayirmachi kuchlarining ishtirok etishi Rossiyaga ixtilofni bartaraf etishdagi vositachi sifatida bo'lgan ishonchni zinhor oshirmaydi.

Armaniston uchun bu ixtilof o'z hududini kengaytirish va afsonaviy "Buyuk Armaniston"ni yaratish bo'yicha rejani amalga oshirish yo'lidagi qadamdan boshqa narsa emas, mohiyatan, bu Bosniyada serblar erishmoqchi bo'lgan narsadan farq qilmaydi. Serblar kabi armanilar ham ixtilofni xristianlar va musulmonlar ziddiyati sifatida ko'rsatmoqchi, va bu yo'lda ig'vo va provokatsiyalar uchun Ozarbayjon ichidagi etnik guruhlardan foydalanmoqda. Ozarbayjon shaharlari va qishloqlarining vayron etilishi, Ozarbayjon mintaqalarida o'tkazilgan etnik tozalashlar uchun ularning vijdoni qiynalmaydi, ular ixtilofning asosiy qurbonlari armanilar deb turvoladi.

Jamoatchilik uch yil o'tganidan keyingina Bosniyada sodir etilgan, Ikkinchi jahon urushidan beri ko'rilmagan

genotsidga qarshi e'tiroz bildirdi. Qiziq, xalqaro hamjamiyat Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi ixtilof bo'yicha qat'iy choralar ko'rishi uchun qancha vaqt talab etilar ekan? Tog'li Qorabog' mojarosi – Sobiq Sovet Respublikalari o'rtasidagi birinchi ixtilof, va u jahon hamjamiyati ishtirokida birinchi bo'lib hal etilishi darkor.

Masalaning yuridik tomoni hech kimda shubha uyg'otmaydi. Hamma xalqaro tashkilotlar, xalqaro qonunlar Ozarbayjonning Tog'li Qorabog' ustidan yurisdiksiyasini tan oladi. Tog'li Qorabog' birorta davlat tomonidan mustaqil mintaqa yoki mustaqil davlat deb tan olinmagan. Faqat bitta narsa mavhumligicha qolmoqda: Qo'shma Shtatlar va jahon hamjamiyati o'z maslagi va siyosatiga muvofiq harakat qilishga tayyormi?

Ozarbayjon masalaning muzokaralar yo'li bilan hal etilishi tarafdori bo'lib qolmoqda. Biz bu yo'nalishda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan birga ishlamoqdamiz. Lekin aytishim kerakki, hozirgi ahvol – arman tomonining o'z yondashuvini o'zgartirishni istamaslik hamda Armanistondagi shubhali saylovlar natijasida hukumat pozitsiyasining yanada qattiqlashishi katta umid bag'ishlamayapti. Biz ixtilofni tinch yo'l bilan hal etish yo'lidagi ishimizni davom ettiramiz, ammo Ozarbayjon o'z hududiy yaxlitligi masalasida hech qachon yon bermasligi barchaga tushunarli bo'lishi lozim.

### **Xulosalar**

Ozarbayjonda ro'y berayotgan jarayonlarning jahon hamjamiyati va ayniqsa Qo'shma Shtatlar uchun muhimligi shubhasiz. Ularning ta'siri O'rta Osiyo respublikalari kelajak taqdirida aks etadi, bu dunyoviy musulmon davlatlari omon qola olish-olmasligini belgilab beradi. Bu jahon bozoridagi energoresurslar qiymatiga, shuningdek, ularga ega bo'lish imkoniyatlariga, Kavkazdagi barqa-

rorlikka ta'sir ko'rsatadi. Nihoyat, Ozarbayjonning rivojlanish vektori butun mintaqada demokratiya va erkin bozor kelajagini belgilab beradi.

"Uoll-Strit Jernel"ning 21-oktyabr soni birinchi sahifasida chop etilgan maqolada aytiladi: "G'arbni kutayotgan mukofot – Ozarbayjon o'zgaruvchan Fors ko'rfazidan tashqarida yangi neft konlarining ochilishi demak. G'arb neft kompaniyalari uchun bu 8 milliard AQSH dollari miqdoridagi kiritma, 30 yillik neft ishlab chiqarish va 100 milliard AQSH dollari miqdoridagi daromad degani. Ammo o'ziga daromadning 80 foizini qoldiradigan Ozarbayjon uchun mukofot mustaqillik bo'ladi, vaholanki, Rossiya va Eron o'rtasida siqilib qolgan birorta davlat bunga umid qilmasa ham bo'ladi".

Qo'shma Shtatlar alohida rol o'ynaydi va ta'sir o'tkazish imkoniyatlariga ega. Bu mamlakat jahondagi eng qudratli davlat bo'lgani va Ozarbayjonda manfaatlari borligi uchungina emas. Ozarbayjon Respublikasining geografik va geosiyosiy joylashuvi, uning taqdiri butun jahon hamjamiyati uchun muhimligi tufayli.

Kongress AQSH va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlarga katta ziyon keltirmoqda. Ammo biz AQShning Ozarbayjonga nisbatan rasmiy siyosatiga e'tiroz bildira olmaymiz, u ko'p hollarda katta mehnat va jiddiy sa'y-harakatlar evaziga amalga oshirib kelindi. Asosiy qiyinchiliklarimiz Tog'li Qorabog' mojarosiga o'xshagan muammolarni hal etishda siyosiy iroda va izchillikning yo'qligi bilan bog'liq. Bosniyada Amerika yetakchiligi o'sib borganiga va natijaga erishilganiga barchamiz guvoh bo'ldik. Amerika hukumati buni Ozarbayjonda ham namoyish etib berishini xohlardik. Amerikada saylov yakunlanganidan so'ng bu masalalarga tegishlicha e'tibor qaratiladi deb umid qilaman.

## PREZIDENT HAYDAR ALIYEVNING VASHINGTONGA RASMIY TASHRIFI

*“Panorama” gazetasi,  
1997-yil 26-iyul*

1-avgust kuni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Haydar Aliyev va AQSH Prezidenti Bill Klinton Oq Uyda uchrashuv o'tkazadi. U Ozarbayjon va Amerika o'rtasidagi shakllanganiga ko'p bo'lmagan munosabatlarining mohiyatini ochib beradi va, shubhasiz, ularning keyingi rivojini belgilaydi.

Ikki Prezidentning 1994-yil Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan ilk uchrashuvi Ozarbayjon – Amerika munosabatlarining birinchi bosqichi xulosalarini chiqardi. Ikki mamlakat yetakchilari orasida tug'ilgan hamkorlik munosabatlari izchil rivojlanib, do'stlikka aylanib ketdi. Ikki davlat rahbarlari turli xalqaro forumlarda bir necha marotaba ko'rishib, mamlakatlarimiz uchun muhim masalalarni muhokama qildi, ularni hal etish yo'llarini birgalikda qidirdi. Haydar Aliyev a Bill Klinton orasidagi yozishmalar va telefon suhbatlari ko'p bora jiddiy muammolarni hal etishda muhim rol o'ynadi.

Mamlakatimiz Prezidentining oxirgi to'rt yil davomidagi dono siyosati, uning respublika mustaqilligini himoya qilish ishidagi qat'iy pozitsiyasi ko'plab davlatlar yetakchilarining diqqatini o'ziga tortdi. Shuning uchun Haydar Aliyevning Kavkaz va O'rta Osiyo tarixining muhim pallasiga to'g'ri kelayotgan Vashington safari katta qiziqish va sabrsizlik bilan kutilmoqda.

Ikki Prezident uchrashuvi muhim ahamiyatga, amaliy va geostrategik mundarijaga ega.

O'n yillar mobaynida ozarbayjonlar Amerikani erk va demokratiya ramzi deb hisoblab keldi. Ozarbayjon va AQSH

Prezidentlarining Oq Uydagi uchrashuvi jahonda yetakchi bo'lib turgan oliy hokimiyat tomonidan mashaqqatli kurash va ko'plab qurbonlar evaziga erishilgan Ozarbayjon mustaqilligining tan olinishi va e'tirof etilishi demak.

Uchrashuv hech shubhasiz iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda ham muhim o'rin tutadi. Amerika kompaniyalarining Ozarbayjonda ko'p milliardli neft loyihalarini amalga oshirishdagi yetakchi roli hammaga ma'lum. Mamlakatimizga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunaning yetkazilishi uzoq istiqbolli hamkorlikni o'zaro manfaatli ishga aylantiradi. AQSH ishbilarmon davralarining Ozarbayjon iqtisodiyotining neftdan boshqa sohalariga bo'lgan qiziqishi tez o'sib bormoqda.

Yaqinlashayotgan uchrashuvning geostrategik mundarijasi haqida gapirarkanmiz, u ikki tomon uchun ham muhimligini qayd etib o'tmoq joiz. Ozarbayjon o'z mustaqilligini saqlab qolish ishida xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatlashiga tayanadi. Bir qator qo'shnilar bilan muammolari bo'lgan davlatimiz mintaqada turli manfaatlar o'rtasida muvozanat o'rnatilgan taqdirdagina o'z strategik maqsadlariga erisha oladi. Bir necha yil muqaddam kamdan-kam optimistlargina AQSH Ozarbayjonda manfaat ko'ra olishiga ishonardi. Hozir esa eng mashhur amerikalik siyosatchilar o'z mamlakatining Ozarbayjondagi strategik manfaatlari haqida gapirmoqda. Oxirgi yillarda o'tkazilayotgan ichki va tashqi siyosat munosabati bilan Ozarbayjon jahon siyosiy maydonida munosib o'rin egallay bildi.

AQShning geosiyosiy manfaatlari Kavkaz va O'rta Osiyoda demokratiya va bozor munosabatlarining rivojlanishi, bu mintaqalardagi dunyoviy musulmon davlatlar mustaqilligini mustahkamlash, Kaspiy energetik resurslar ekspluatatsiyasi bilan bog'liq. Istiqbolda bu mamlakatlar uchun Ozarbayjonning roli qay darajada

muhimligi amerikalik siyosatchilarga yaxshi ma'lum. Yaqinda Bokuga tashrifi chog'ida mashhur siyosatshunos Zbigneu Bzejniskiy Rossiya imperiyasini tiklash haqida orzu qilayotgan revanshist kuchlarning rejalari Ukraina va Ozarbayjon ustidan hokimiyat o'rnatilmagan taqdirda butunlay yo'qqa chiqishini ta'kidladi.

Prezident Aliyevning grafigi juda tig'iz. AQSH Prezidenti, hukumat a'zolari, Kongress rahbariyati, taniqli jamoat arboblari bilan muzokaralarning asosiy mavzusi tashqi siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, savdo sohalaridagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish masalalari bo'ladi. Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi ixtilofni bartaraf etish masalalari, AQShning YXHT Minsk guruhi hamraislaridan biri sifatidagi roli ko'rib chiqilishiga ham shubha yo'q. Ozarbayjon Prezidenti Kongress a'zolariga Ozarbayjon – Amerika munosabatlari rivojlanishida jiddiy to'siqqa aylangan 907-tuzatish bo'yicha o'z nuqtai nazarini yetkazishga, kongressmenlarning Ozarbayjonga munosabatida tub o'zgarishlarga erishishga harakat qiladi.

Ozarbayjon Prezidentining tashrifi arafasida Vashingtonda Kavkaz va O'rta Osiyo mamlakatlariga nisbatan siyosat qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan, Davlat kotibining o'rinbosari S. Telbot 21-iyul kuni Jon Xopkins institutida chiqish qilar ekan, Kaspiybo'yi davlatlari, shu jumladan, Ozarbayjonning AQSH tashqi siyosatidagi o'rnini alohida qayd qilib o'tdi. Bu chiqish to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya bilan jamoat telekanali orqali namoyish etildi. Tashqi siyosatning yangi istiqbollari haqidagi nutqida S. Telbot Kavkazdagi ixtiloflarni bartaraf etish Vashington uchun birlamchi maqsad bo'lib bo'lib qolishini aytib o'tdi. O'sha kuniyoq yaqindagina Bokudan qaytgan senator Sem Braunbek "Xeriteyj faundeyshn" ilmiy-siyosiy markazidagi chiqishini qadimiy Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarning Amerika

uchun ahamiyatiga bag'ishladi. Ikki chiqishda ham Prezident Aliyevning Vashingtonga kutilayotgan tashrifi bir necha bor esga olindi, bu mintaqa AQSH uchun muhimligining navbatdagi isboti bo'lishiga umid bildirildi.

Boshqa muhim voqea Senatda Yevropa va Osiyo mamlakatlari qo'mitalari tomonidan tashkil etilgan eshituvlar boshlangani bilan bog'liq. 22-iyul kuni o'tkazilgan eshituvlarda e'tibor Ipak yo'li davlatlariga qaratildi. Taniqli siyosiy arboblari: sobiq mudofaa vaziri Kasper Uaynberger, Davlat kotibining o'rinbosari Stayurt Ayzenstat, general Odom, Pol Gobbl va boshqalar AQSH siyosatida boshqa mamlakatlar, xususan, Ozarbayjonga nisbatan sezilarli o'zgarishlar ro'y berishi muhimligi haqida gapirdi. Chiqish qilgan hamda mubohasalarda qatnashgan senatorlar (Braunbek, Smit, Bayden) 907-tuzatishning AQSH tashqi siyosatidagi salbiy oqibatlarini va uni tezda bekor qilish zarurligini bir ovozdan ta'kidladilar.

Sharhlovchilarning fikriga ko'ra, ma'muriyat va Kongress tomonidan berilayotgan tashabbuslar AQShda Ozarbayjonga nisbatan jamoatchilik fikri tubdan o'zgarganini namoyish etadi. Bunga isbotlardan biri – kongressmen Li Gamiltonning "Krischen Sayens Monitor" gazetasida 23-iyul kuni chop etilgan maqolasidir. Maulifning aytishicha, 1992-yili u 907-tuzatishni qabul qilishni yoqlab chiqqandi, endi esa oradan besh yil o'tib, bu qo'shimcha AQSH tashqi siyosatiga ulkan zarar keltirganini tan olishga majbur.

Bu voqealar o'z ahamiyatiga ko'ra ikki tomonlama munosabatlarning kelajakda rivoj topishi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Strategik maqsadlarimizga erishish uchun o'zaro uzviy bog'liq siyosiy va iqtisodiy muammolar hal etilishiga erishish uchun matonat bilan harkat qilishimiz lozim. Bu ma'noda Prezident Aliyevning Vashingtonga tashrifi beqiyos tarixiy ahamiyatga ega.

## 907-TUZATISHGA YO'Q DEYMIZ

*Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi  
konferensiyasidagi nutq. Vashington,  
1998-yil 22-may*

Mustaqillikning yetti yilidan so'ng Qo'shma Shtatlar va Ozarbayjon munosabatlaridagi ulkan ijobiy o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanib turgani hech kimda hayrat uyg'otmaydi. Har kuni Klinton ma'muriyati, Kongress, Amerika ishbilarmon davralari, ommaviy axborot vositalari bilan har kun aloqada bo'larkanman, oddiy amerikaliklar bilan muloqot qilarkanman, bunga amin bo'laman.

Lekin AQSH va Ozarbayjon o'rtasida to'laqonli diplomatik munosabatlar o'rnatilishi yo'lida hali ham bitta to'siq qolmoqda – Erkinlikni himoya qilish aktiga kiritilgan 907-tuzatish. O'z mohiyatiga ko'ra diskriminatsion hamda nosog'lom idrok mevasi bo'lgan bu qonuniy o'zgartish Kongress tomonidan 1992–yili qabul qilinib, hanuzgacha bekor qilingani yo'q. Bu tuzatish – etnik siyosatning Amerika tashqi siyosatiga salbiy ta'siriga yaqqol misol.

Bu masalada bosh aybdor sifatida Kongress diqqat markazida turibdi der ekanman, hammaning e'tiborini 907-tuzatish bilan bog'liq masalada izchil pozitsiyada turgan, u Kongress tomonidan bekor qilinishi lozim deyishdan charchamayotgan Klinton ma'muriyatining bu boradagi faoliyatiga qaratmoqchiman. Davlat kotibi Madlen Olbraytdan tortib vazirlar Koen va Pengacha bo'lgan hukumat vakillari bu masalada gapirar ekan, 907-tuzatish adolatsiz ekanini tasdiqlashgan edi. Biz bu izohlarni juda qadrlaymiz va ma'muriyat namoyandalariga aytib o'tilgan mulohazalar uchun minnatdormiz.

Biroq endi Klinton hukumati so'zlardan ishga o'tishi, 907-tuzatishni bekor qilish bo'yicha choralar ko'rishi lozim.



Qonunning o'zi Prezident Kongressni Ozarbayjon Armaniston va Tog'li Qoraboqqa qarshi "blokada va reaksiya xatti-harakatlar"ni to'xtatish yo'lida "yaqqol qadamlar" tashlaganiga ishonтира olmaganiga qadar 907-tuzatish kuchda qolishini e'tirof etadi.

Sulhga erishganimizga to'rt yil bo'ldi, bu degani, Ozarbayjon tomoni hech qanday "reaksiya" harakatlarni amalga oshirmayapti, chunki Ozarbayjondan tashqari Eron va Gruziya bilan ham chegaradosh bo'lgan Armanistonni bloklashga qodir emasmiz. Shuningdek, tan olamizki, hech qanday blokada bo'lmagan va hozir ham yo'q. Bundan tashqari, Armaniston Rossiyaga savdo chiqish yo'llariga ega. Armaniston va Ozarbayjon o'rtasidagi savdo rostanam to'xtadi, ikki mamlakat bir-biri bilan urush holatida bo'lganida bu tabiiy holat.

Oldinroq aytilganidek, 907-tuzatish matni Prezident blokadaning mavjud emasligi haqida emas, Ozarbayjonning "blokadan olib tashlash" yo'lidagi "yaqqol va ishonchli qadamlari" haqida bayonot berishini talab qiladi. Aliyevning o'tgan yil avgust oyida Vashingtonga tashrifi chog'ida oliy martabali hukumat mulozimlari Prezident Aliyev tomonidan YXHTning ixtilofni tinch yo'l bilan bartaraf etish borasidagi takliflarining qabul qilinishi ana o'sha "yaqqol va ishonchli qadamlar"ning isboti ekanligi haqida gapirgandi. Ma'lumki, rasmiy Boku YXHTning shu va boshqa tinchlik tashabbuslariga rozi bo'ldi, lekin ma'muriyat 907-tuzatishni bekor qilish bo'yicha hech qanday chora ko'rmadi.

Bunday harakatsizlik Amerika hukumati tarafidan joriy haftada amalga oshirilgan faol qadamlar fonida yanada hayratlanarli ko'rinadi. Yevropalik investorlar Eron va Liviyaga qarshi sanksiyalar haqidagi aktlar, shuningdek, Xelms-Barton aktlaridan tashvishga tushgan, shu tufayli Qo'shma Shtatlar ularni bekor qildi, ammo bu AQShga dushman kayfiyatidagi uchta davlat foydasiga xizmat qildi.

Lekin Ozarbayjon AQShning eng yaqin ittifoqchilaridan biri bo'lishiga va 1991 yildan boshlangan zamonaviy mustaqil tarixi mobaynida doimiy ravishda AQSH tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlaganiga qaramay, bu mamlakatga nisbatan joriy etilgan sanksiyalarning bekor qilinishi hozircha kutilmaypti.

Yana bir misol keltirsam. Shu yil boshida – yanvarda ma'muriyat tashqi yordam ko'rsatish institutlari to'g'risidagi qonundagi Armanistonga taalluqli tuzatishni bekor qildi. Bunday qadam zarur edi, negaki bu o'zgartish boshqa mustaqil davlatning hududiy yaxlitligini buzgan mustaqil davlatga yordam ko'rsatishga cheklov qo'yardi. Bilasizki, Armaniston Ozarbayjonning 20 foiz hududini okkupatsiya qilgan. Bu o'zgartish kuchda qolganida, jon boshiga Amerika yordamining hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turuvchi Armaniston AQShdan yordam ololmay qolardi.

Xullas kalom, ma'muriyat Eron, Liviya va Kubaga – Qo'shma Shtatlarga dushman bo'lgan uch davlatga qarshi sanksiyalarni bekor qila olsa, Armaniston bo'yicha sanksiyalarni bekor qila olsa, nega Prezidentning 907-tuzatish borasidagi bayonotini qo'llab-quvvatlay olmaydi?

Biz bu masala bo'yicha Klinton ma'muriyati bilan turli vaqtlarda muzokaralar olib bordik va, davlat amaldorlarining aytishicha, ular blokada mavjudligini yuridik jihatdan tasdiqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ularga bo'lgan hurmatimga qaramay, muammoga bunday yondashishga qarshiman. Birinchi navbatda, yuqorida ta'kidlanganidek, Ozarbayjon Armanistonni yoki u tomonidan okkupatsiya qilingan Tog'li Qorabog'ni bloklash imkoniyatiga ega emas. Axir qamal mamlakat bilan barcha aloqalarning uzilishi demak, ammo Armaniston Eron, Gruziya va Rossiya orqali tashqi dunyoga chiqa oladi.

Aytganimdek, qonunning bekor qilinish sharti qamalning olib tashlanishi emas, Ozarbayjonning bu yoʻldagi “yaqqol qadamlar”idir.

YXHT uch hamraisining masalani hal etish boʻyicha uch bosqichdan iborat takliflarini qabul qilib, Ozarbayjon ikki mamlakat oʻrtasida savdo aloqalarining qayta tiklanishi uchun “yaqqol qadam”lar tashladi. Ammo buning uchun Armaniston Ozarbayjonning okkupatsiya ostidagi yetti tumanidan oʻz qurolli kuchlarini olib chiqishi zarur. Bu holatda, YXHT taklifining birinchi bosqichida nazarda tutilganidek, savdo aloqalari qayta tiklanadi.

Taklifni qabul qilgan Prezident Ter-Petrosyan hokimiyatini yoʻqotganidan soʻng Armaniston bunday qadam tashlash niyatida emasligi anglashiladi. Axir Armanistonning qatʼiyati, aniqrogʻi, oʻjarligi uchun Ozarbayjon javob berishi kerakmi? Axir Ozarbayjonga boʻlgan munosabat Eron, Liviya va Kubaga boʻlgan munosabatdan farq qilishi kerakmi? Bu savollarga men “yoʻq” deb javob beraman.

Maʼmuriyat huquqshunoslarni tuzatishni boshqa jihatdan koʻrib chiqishga chaqirishi, qisqa muddatda Ozarbayjon blokada va tajovuzkor xatti-harakatlarga chek qoʻyish yoʻlida “yaqqol qadamlar” tashlagani haqida Prezidentning Kongressga murojaatini tayyorlashi va shu yoʻl bilan 907-tuzatish bekor qilinishiga erishishi kerakligiga ishonaman.

Xulosa oʻrnida bir narsani taʼkidlab oʻtmoqchiman. Besh yil oldin men bu yerda 907-tuzatishga qarshi chiqayotgan yagona inson edim. Lekin hozir alohida mamnuniyat hissi bilan shu narsani eʼtirof etamanki, bu nuqtai nazarda yolgʻiz emasman, va Amerika – Ozarbayjon savdo palatasi tomonidan tashkil etilgan konferensiya buni yaqqol namoyish etib turibdi.

## AQSH BILAN HAMKORLIGIMIZNING MUHIM KOMPONENTI

*“Ozarbayjon” gazetasi,  
2003-yil 18-fevral*

2001–yil 11–sentabrda Amerika Qo‘shma Shtatlari tarixida alohida o‘rin egallaydi. Amerikani boshqa qit‘alardan ajratib turuvchi ikki ulkan okean Amerika xalqiga ishonch psixologiyasini singirdi, mamlakatning tinch rivojini ta‘minladi, uning tashqi va ichki siyosatini belgilab beradigan asosiy omillarga aylandi. Bir kunning voqealari vaziyatni o‘zgartirdi, shu paytga qadar tashqi tahdididan sug‘urtalangan Amerikani himoyasiz qilib qo‘ydi.

AQSH va G‘arb xavfsizlik ideologiyasi, shuningdek, samardor xavfsizlik tuzilmalari o‘nlar yillar mobaynida “sovuq urush” sharoitlariga mo‘ljallangan edi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin yagona oliy hokimiyatga aylangan Amerika Qo‘shma Shtatlarini globallashtirish sharoitlarini inobatga olgan holda jahondagi yetakchilik mavqei yanada mustahkamlash vazifasi ko‘proq tashvishga solardi. Ammo ma‘lum ma‘noda aynan globallashtirish hamda yuqori texnologiyalarning keng qo‘llanilishi yangi global tahdidlarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ldi. Oxirgi yillarda yerda, havoda va suvda sodir etilgan terrorchilik aktlari buni isbotlaydi. Hozirda ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi insoniyatni jiddiy tashvishga solayotgan muammolardan biridir.

XXI asrning boshida xalqaro siyosiy manzaraning keskin o‘zgarishi xavfsizlik konsepsiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qildi. Hatto boshqa biror davlat tenglasha olmaydigan qudratga ega AQSH ham kichik davlatlar muammolari va xavotirlari bilan yashashga majbur. Jahondagi birorta

davlat tahlikaga yolg'iz o'zi qarshilik ko'rsata olmasligi aniq. Shu sababdan Amerika jahon yuzma-yuz kelgan terrorga qarshi xalqaro koalitsiya shakllantirishga erishdi. Amerika rahnamoligida tuzilgan xalqaro tashkilotlar tarmog'i, shu jumladan, NATO hamda Yevroatlantik xavfsizlik tizimi hozircha kengayish va "qayta qurilish" bosqichida. Tarixda birinchi marta AQSH O'rta Osiyo va Kavkaz mintaqalarida harbiy hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda, u yerga amerikalik harbiy xizmatchilarni yo'llamoqda, hamkorlikning yangi sarhadlarini belgilamoqda.

Terrorga qarshi kurashda ilk g'alabalar qo'lga kiritilganiga qaramay, uzoq istiqbolli kurash konsepsiyasining yuzaga kelishi – kelajakda kutilayotgan ish. Koalitsiya ichida va a'zo davlatlarda olib borilayotgan muhokama va mubohasalar terrorchilik maydonga kelishining asl sabablari haqida hozircha aniq tasavvurlar yo'qligini ko'rsatadi. Goh-gohida "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyalarining kun tartibiga kelishi diniy omilning namoyon bo'lishini va ayni paytda qandaydir mavhumiyat borligini ko'rsatadi.

Jahon to'qnash kelgan vaziyat, muammolar o'ziga xosligi muhokamasida doktor Zbignev Bzejinskiy yagona oliy hokimiyat bo'lmish Qo'shma Shtatlar tashqi siyosatida "Amerika qudrati" va "amerikacha idealizm" tushunchalarining ishlatilishi juda nozik muvozanatni talab etishini aytib o'tdi. Uning fikricha, kuch va qudratni afzal deb bilayotgan Amerika dunyo mamlakatlari va xalqlari oldida uzoq yillar mobaynida sobi turgan maftunkorligini yo'qotib qo'yishi mumkin.

Prezident Bush terrorga qarshi kurashni o'z tashqi siyosati doktrinasi deb e'lon qildi. Amerika Prezidenti

tomonidan yaqinda tasdiqlangan "Milliy xavfsizlik strategiyasi" negizida xalqaro koalitsiyani mustahkamlash va uning har bir a'zosi bilan sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish yotadi.

AQSH Davlat kotibining birinchi o'rinbosari Richard Armitaj hujjat maqsadlariga izoh berarkan, shunday yozadi: "Ustuvor maqsadlarimizni qaytadan aniqlab, jahon hamjamiyati e'tiborini nafaqat terrorga qarshi urushdagi g'alabaga, balki boshqa umumiy tahdidlarga ham qaratish imkoniyatimiz bor". Darhaqiqat, terrorga qarshi kurash pallasida AQShning boshqa davlatlar bilan aloqalarini mustahkamlash qatorida Amerika ma'muriyati uning yangi shakllarini yaratish yo'nalishida ham ishlamoqda.

Bu jihatdan Ozarbayjon – Amerika munosabatlarining hozirgi bosqichi qiziqarli. Ularning boshlanishi hamda o'n yillik aloqalarimiz tajribasiga nigoh tashlar ekanmiz, Qo'shma Shtatlar va Ozarbayjon tarixiy nuqtai nazardan juda qisqa muddatda barcha – ilk tanishuvdan strategik sherikchilikka qadar bo'lgan bosqichlarni bosib o'tgan holda o'z munosabatlarini rivojlantirdi. Mamlakatimiz, qolgan sobiq sovet respublikalaridan farqli ravishda, arman diasporasi tomonidan yaratilgan salbiy omillarni inobatga olgan holda AQSH bilan diplomatik va boshqa munosabatlarni qiyinroq sharoitga qurgan bo'lishiga qaramay, hozirda Amerika – Ozarbayjon munosabatlari strategik xarakterga ega.

Buning asosiy sababini bizning Ozarbayjon mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan va hayotga izchil tatbiq etib borilayotgan siyosatimizda ko'rish zarur. Muammoli qo'shnilarga ega Ozarbayjonning jahon siyosiy sahnidagi munosib o'rnini ta'minlash uchun Prezident Haydar Aliyev strategik geografik joylashuv va kuchli iqtisodiy salohiyatdan ustalik bilan foydalandi. Qisqa muhlatda neft strategiyasining hayotda tatbiq etilishi bilan

AQSH va G'arbning nafaqat Ozarbayjonga, balki umuman mintaqaga e'tibor qaratishiga erishildi.

Amerikaning Kavkaz va O'rta Osiyoda 11-sentabrga qadar ilgari surilgan geostrategik manfaatlari va maqsadlari demokratiya va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, mintaqaning mustaqil dunyoviy davlatlarini mustahkamlash, Kaspiy dengizi energiya manbalaridan foydalanish bilan bog'liq edi. Amerikalik siyosatchilar muvaffaqiyat qozonish uchun Ozarbayjon juda muhimligini bilardi. Ipak yo'li mamlakatlarining kelajagi haqida gapirarkan, senator Sem Braunbek "mintaqaga demokratiya oqimi aynan Ozarbayjon orqali kiradi" degan edi. Shuning uchun AQSH ma'muriyati, Kongressning to'sqinligiga qaramay, Ozarbayjon bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratib kelgan. Demokratiya va iqtisodiyot sohasidagi islohotlar, shuningdek, o'n yil davomida hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy loyihalar Amerika bilan hamkorligimiz samaradorligini isbotladi.

Ozarbayjonning Boku – Tbilisi – Jayhon neft quvuri loyihasi bilan bog'liq siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi izchil va qat'iyatli pozitsiyasiga hamda mamlakatimiz bunda egallaydigan birlamchi ahamiyatga ishonch hosil qilgan Qo'shma Shtatlar o'z yordamini eng oliy darajada ta'minladi. Eslatib o'tish o'rinliki, hatto AQSH – Rossiya sammitlarida ham bu loyiha xususida bir necha bor so'z yuritildi. Hozirgi paytda Amerika pozitsiyasi Boku – Jayhon quvurining istiqbolda Qozog'iston sohillariga qadar uzaytirilishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

11-sentabr voqealaridan so'ng Amerika – Ozarbayjon munosabatlarida muhim sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Uzoq yillar mobaynida Ozarbayjon jamoatchiligining adolatli e'tirozlariga sabab bo'lib kelayotgan 907-tuzatish bekor qilinmagani bilan, biz uni kuchidan mahrum qildik. Amerika ma'muriyati Ozarbayjonning terrorga qarshi

kurashdagi o'рни va ahamiyatini yaxshi tushungan holda 907-tuzatishga qarshi har doim bildirib kelgan e'tirozidan faol aksiyaga o'ta oldi. Nihoyat, Amerika milliy manfaatlari arman lobbisi manfaatlaridan ustun keldi.

Bu bilan juda muhim sohalar – harbiy va xavfsizlik yo'nalishlarida hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mamlakatimizning Yevroatlantik xavfsizlik tizimiga kutilganidan tezroq integratsiya qilinishi NATO kengayishining kutilmagan miqyosida bo'lgani singari sabablar bilan tushuntiriladi. Amerika harbiy siyosatida mintaqaga bo'lgan qiziqishning o'sishini quyidagi fakt ko'rsatadi: AQSH birlashgan jangovar qo'mondonligi rejasi asosida 2002–yil 1-oktyabrdan bunga qadar noma'lum maqomda turgan Kaspiy dengizi havzasi Qo'shma Shtatlar Yevropa qo'mondonligi qamrovi doirasiga kiritildi. Amerika hukumati ilk bor Ozarbayjon va Armaniston bilan harbiy hamkorlik siyosatida muvozanat saqlashdan voz kechib, biz bilan harbiy-siyosiy sohadagi, shuningdek, xavfsizlik va huquq-tartibot yo'nalishlaridagi hamkorlikning shiddat bilan kengaytirdi. Ozarbayjon xalqaro aksilterror koalitsiyasining ishonchli a'zosi deb tan olindi.

O'tgan yil davomida mudofaa vaziri hamda AQShning boshqa oliy martabali harbiylari Bokuga kelishi, shuningdek, Ozarbayjon rasmiy shaxslari tomonidan Pentagonda o'tkazilgan uchrashuvlar ikki tomonlama munosabatlar rivojlanishining muhim bosqichi bo'ldi.

1997–yili ta'sis etilgan “Xavfsizlik bo'yicha Amerika – Ozarbayjon muloqoti” va 2002–yildan boshlab “Mudofaa sohasida Amerika–Ozarbayjon maslahatlashuvlari” guruhi Boku va Vashingtonda muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazadi, amalga oshirilgan ishlarni, shuningdek, mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni ko'zdan kechiradi. Ikki mamlakat harbiy idoralari tomonidan imzolangan qo'shma bayonotda ikki tomon



qurolli kuchlari o'rtasida koordinatsiyani, shu jumladan, tinchlikparvar kuchlar koordinatsiyasini rivojlantirish, harbiy-dengiz kuchlari imkoniyatlarini kengaytirish, Ozarbayjon aerodromlari va havo hududi nazorati tizimlarining NATO standartlariga moslanishi bo'yicha kelishuvga erishilgani ta'kidlanadi.

2002–yili AQSH Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligiga 4,4 million dollar miqdorida yordam ajratdi. Birinchi marta xalqaro ta'lim va trening dasturi asosida ozarbayjonlik zobitlar guruhi harbiy ta'lim olish uchun AQShga yo'llandi. Amerika tomonining taklifiga binoan bizning respublikamiz 2002–yil davomida xavfsizlik va mudofaa sohalarini qamrab oluvchi o'n bitta dasturga qo'shildi. Qayd etish zarurki, AQSH tomonidan Ozarbayjonga xavfsizlik va mudofaa dasturi doirasida ajratilayotgan mablag' 2002–yili 2001–yilga nisbatan taxminan to'rt barobarga oshdi.

Mamlakat mustaqilligi yaxshi himoyalangan chegaralarni ham nazarda tutadi. Ommaviy qirg'in qurollari, narkotik vositalar va odam savdosining yoyilishini bartaraf etish uchun jahon standartlariga javob beradigan chegara nazorati talab etiladi. Sharq – G'arb va Shimol – Janub savdo yo'llari kesishuvida joylashgan Ozarbayjon uchun jiddiy chegara qonun-qoidalarining qo'llanilishi iqtisodiy nuqtai nazardan ham muhim, chunki bu tranzit va eksport-import operatsiyalarini o'tkazish uchun ham zarur sharoitlarni yaratadi. Bu sohada Qo'shma Shtatlar bilan o'ziga xos hamkorlik dasturi realizatsiya qilinmoqda. 2002–yili davlatimiz chegaralari xavfsizligini ta'minlash uchun ko'rsatilgan yordam hajmi 6 million dollardan oshdi. Dengiz chegaralarini qo'riqlash uchun ajratilgan mablag' hisobiga oltita kema ta'mirlandi, ikki chegara kateri xarid qilindi (yana bitta yirikroq tonnajli kema kelishi kutilmoqda), ularning ishtirokida maxsus mashg'ulotlar

o'tkazildi. Kemalarga zamonaviy qurol, shu jumladan, kosmik kompaslar, radio va radar qurilmalari o'rnatilgan.

Ikki tomonlama munosabatlar qatorida Ozarbayjon va Amerikaning AQSH – Turkiya – Kavkaz ishchi guruhi hamda “Tinchlik yo'lidagi sherikchilik” dasturi doirasidagi hamkorligi xavfsizlikni ta'minlashga mintaqaviy yondashuvning yaxshi namunasi bo'la oladi. Bu jihatdan GUUAMning Qo'shma Shtatlar bilan hamkorligi kun sayin o'sayotganini hamda Sharq – G'arb transport koridori xavfsizligini ta'minlashda mamlakatlar birgalikda ishlayotganini qayd qilish o'tish joiz.

Kosovodagi operatsiyalarda Turkiya qurolli kuchlari tarkibida birinchi tinchlikparvarlik tajribasiga ega bo'lgan ozarbayjonlik tinchlikparvar kuchlar hozirda Afg'onistonda tinchlikparvarlik missiyasini bajarmoqda. Tinchlikparvar kuchlarimiz imkoniyatlarini kengaytirish uchun AQSH Davlat departamenti million dollar miqdorida qo'shimcha mablag' ajratdi.

AQSH – GUUAM munosabatlari doirasida turli konkret dasturlar realizatsiyasi boshlandi. Misol tariqasida Amerika tomonidan mintaqa davlatlari chegaralarini ishonchli himoyalashga qaratilgan dastur bo'yicha kuch tuzilmalari o'rtasida yaqindan samarador aloqalarni yo'lga qo'yish uchun ajratilgan 6 million dollarni aytib o'tish mumkin. Shu bilan bir qatorda AQSH Jahon bankiga GUUAM a'zolariga imtiyozli kreditlar ajratishni tavsiya qildi.

Xavfsizlik va mudofaa struktularini qayta tuzishning hozirgi bosqichida Ozarbayjonning “Tinchlik yo'lidagi sherikchilik” dasturidagi ishtiroki muhim o'rin tutadi. Ozarbayjon Prezidenti tomonidan 1996–yili NATO bosh kotibiga prezentatsion hujjat topshirilganidan so'ng mamlakatimiz Shimoliy Atlantika alyansi bilan hamkorligini har yillik individual dastur bo'yicha amalga oshirib kelmoqda.

Ozarbayjon zobitlarining NATO harbiy maktablari va kollejlarning turli-tuman ta'lim kurslaridagi ishtiroki yil sayin kengayib bormoqda. AQSH ko'magida Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligining o'nlab zobitlari Germaniyadagi Marshall markazi Strategik tadqiqotlar institutida ta'lim olishi uchun sharoit yaratildi. O'z xavfsizligini ta'minlashda NATO tuzilmalari bilan hamkorlikka juda jiddiy e'tibor qaratib kelayotgan Ozarbayjon hozirda "Tinchlik yo'lidagi sherikchilik" dasturini Shimoliy Atlantika alyansi a'zosi bo'lish niyatidagi davlatlar uchun muhim vosita sifatida ko'radi.

Ozarbayjon mudofaa salohiyatining oshirilishi – tashqi tahdidlarni qaytarish, shu jumladan, Armanistonning bosqinchilik harakatlari va rejalarini bartaraf etishdagi hal qiluvchi omil. Shubhasiz, bunday omilning mavjudligi Tog'li Qorabog' mojarosining tinch yo'l bilan hal etilishi ehtimolini ham oshiradi. Ozarbayjon Respublikasi rahbariyati tomonidan bu yo'nalishda izchil amalga oshirilayotgan tadbirlar bilan bir qatorda, turli xalqaro tashkilotlar va alohida mamlakatlar bilan hamkorlik ham bizni maqsadimizga yanada yaqinlashtiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari bilan xavfsizlik va mudofaa yo'nalishlaridagi hamkorligimizning ahamiyati shunda ham ko'rinadiki, u mamlakatlarimiz o'rtasidagi umumiy aloqalar rivojlanishi uchun ham mustahkam asos yaratadi va ularni tom ma'noda strategik sherikchilik darajasiga ko'taradi.

Hafiz Pashayev

**Bir elchining manifesti**  
AQShda Ozarbayjon diplomatik missiyasining  
boshlanishi haqida

**Litsenziya: AI №218, 03.08.2012 y.**

Terishga berildi: 28.02.2018 й.

Bosishga ruhsat etildi: 12.03.2018 й.

Bichmi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset bosma.

Shartli bosma tab. 15,5. Garnitura: Palatino Linotype.

Adadi 500 нусха. Buyurtma №\_\_\_\_\_.

«Istiqlol nuri» nashriyoti.

100129, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30.

«SHAROFOV DILSHOD BAHROM O'G'LI» YaTTning  
kompyuter markazida terilib, nusxalandi.

Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30.